

SAMANDAR XUDAYBERGANOV
AN'ANAVIY
XONANDALIK



85 У О`К:784.4(075)

.314(5 Ў)

X-87

Худайберганов Самандар

Ананавий хонандалик. “Хоразм”

нашриёти. .2020-й.

ISBN 978-9943-307-50-6

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

(Buyruq № 892, 4 oktyabr, 2019-yil.)

Ro'yxatga olish raqami № 892-092.

КБК. 85.314(5U)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

SAMANDAR XUDAYBERGANOV

AN’ANA VIY XONANDALIK

Darslik

Mas’ul muharrir:

B.M.Rahimov. Musiqa ta’limi kafedrasi mudiri

Taqrizchilar:

D.Q.Qodirov,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi.

Q.Raximov,

Urganch davlat universiteti “Musiqa ta’limi” kafedrasi professori

O‘zbekiston san’at arbobi

2020 йил

Annotatsiya

Oliy ta'limda musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarining xalq qo'shiqchiligiga xos o'quv malakalarini yuzaga chiqarish, ularga xalq qo'shiqlarini jamoa bo'lib va yakka holda kuylay olish va maqom guruhlarini tashkil qila olish bo'yicha mukammal bilim berish va jamoaga rahbarlik qila olish xususiyatlarini shakllantirish an'anaviy xonandalik fani orqali amalga oshiriladi.

Talabalarining an'anaviy xonandalikda guruh va yakka holda kuylashning tabiati, didaktik tamoyillari va boshqa qonuniyatlarni bilib olishiga, xalq qo'shiqchiligi va maqom repertuarlari bilan bevosita tanishish va ularni tanlash bo'yicha yuksak badiiy didga ega bo'lishiga, jamoada kuylash bilan ishlash jarayonida inson organizmida yuz beradigan ruhiy-fiziologik o'zgarishlarni his qilish va unga ko'nikma hosil qilishiga, maqom qo'shiqchisiga va maqomchilar dastasi rahbarligiga qo'yiladigan talabalarni bilishiga va unga o'rgata borishi fanning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

"An'anaviy xonandalik" darsligi - so'z boshi, uchta bob: **birinchi bob** --An'anaviy xonandalik kuylash maktabi shakllari, mumtoz ashula, katta ashula, Xorazm maqomlari, suvora yo'llari, dutor maqomlari, **ikkinchi bob** – Xorazm ashulachilik maktabi namoyondalari, **uchinchi bob** – nazariy va laboratoriya mashg'ulotlarining mavzulari hamda ashulachilar ansamblida kuylash mahoratini shakllantirish uchun uslubiy tavsiyalar, ashula matni va ijro mahorati ustida ishlash, ashulachilar ansambli ijrochiligida nafas olish uslublari hamda kuylash uchun ashulalar (sibelius dasturidan) notalar taqdim etilgan.

Аннотация (ruscha)

Цель курса -- научит студентов музыкальному образованию в области высшего образования, научит их навыкам народного пения, пет и пет народные песни и формировать группу людей.

Студенты изучают природу пения, дидактические принципы и другие законы пения и пения в традиционном пении, непосредственное знакомство с народным пением и репертуаром маэстро, а также артистический вкус по своему выбору, психологические и физиологические изменения в организме человека, чтобы знать и обучит студентов, привлеченных на должность певца маком и директора гида макома, - это приоритеты науки.

Главы традиционной певческой лексики глава третья: первая глава -- традиционные школьные формы пения, подсвечники, большие песни, Хорезмские статуи, акварели, статуи Дутара, глава 2 -- люди Хорезмской школы пения глава третья -- темы теоретических и лабораторных упражнений а также методические рекомендации по формированию певческих навыков в ансамбле певцов, работе над певческими и игровыми навыками, пению и пению песен в исполнении ансамбля певца (программа сибелиус). Прилагаются примечания.

Annotation (inglizcha)

The aim of the course is to teach the students of music education in the field of higher education, to teach them the skills of folk singing, to sing and sing singing folk songs and to form a group of people.

Students learn the nature of the singing, didactic principles and other laws of singing and singing in traditional singing, direct acquaintance with folk singing and maestro repertoire and the artistic taste of their choosing, psychological and physiological changes in the human body, to know and to train the students who are drawn to the position of the Maqam singer and the director of maqom guide - are the priorities of science n.

Chapters of the Traditional Singing Vocabulary Chapter Three: The First Chapter -- Traditional Singing School Forms, Candlestick Songs, Big Songs, Khorezm Statues, Watercolors, Dutar Statues, Chapter 2 -- People of Khorezm School of Singing Chapter Three -- Themes of Theoretical and Laboratory Exercises as well as methodical recommendations for the formation of singing skills in the ensemble of singers, work on singing and playing skills, singing and singing songs performed by the singer's ensemble (sibelius program n) The notes are provided.

So‘z boshi

Bugungi kunda milliy ijrochilik maktabi istiqboli haqida gap borar ekan, bu buyuk ma'naviy qadriyatimiz bo'lmish musiqa merosimizni ta'lim-tarbiya tizimida o'rganish va uni tiklash eng zarur vazifamizdir. Chunki, IX asr buyuk faylasufi Al-Kindiyning ta'biri bilan aytganda Ajdodlar merosini o'rganish – avlodlar aqliga jon baxsh etuvchi bir obihayotdir¹.



Абдулхамид Махмудий раҳбарлигида ташкил топган театр хаммаси
Хива, 1930 йил

Биринчи катор, чапдан ўнгга: Солиҳ Отамонов, Исми Номанжон,
Сайяжонов, Ойнабой Рузметова, Ёра Қодирӣ, Қалъи Қутайев, Саодат,
Иккинчи катор, ўнгдан чапга: Салом Қимомов, Найдӣ, Мадрохим
Ёкубов Шарофӣ тарда, Равақабберган Оминов танбулда, Қаримберган д

Xorazm yurti o'z tarixiy taraqqiyoti jihatidan juda qadimiy bo'lib, uning ham o'zigagina xos musiqiy va ashulachilik an'analari mavjuddir. Xiva va Urganch bu o'lkaning eng ko'zga ko'ringan qadimiy shaharlaridan, madaniyat o'choqlaridan bo'lib kelgan. Qadimdan

Xorazmda dunyoning turli mamlakatlaridan olimlar kelib ta'lim olganlar, o'z bilimlarini oshirganlar. Xorazmda ming yillar avval o'ziga yarasha bir mustaqil davlat bo'lgan va o'z hududida fan va madaniyat o'zining taraqqiyot cho'qqisiga chiqqanligiga Xiva shahrining tarixiy obidalari guvohlik berib turibdi. Madaniy aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilganligi sababli Shashmaqomning Xorazmda ham Shashmaqom ijrochilik maktabi yuzaga keldi.

Bu borada 1924-yil 26-martda Xorazmda o'sha davrning yirik san'atshunoslari bo'lmish Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzoda tomonidan arab alifbosida yozilgan risolasidagi "Xorazmda "Shashmaqom" nag'masining nashr etilishi" sarlavhasi ostida bosilgan bayonida shunday deyilgan:

"Muhammad Rahimxon I zamonida mashhur bo'lgan xivalik musiqashunos Niyozjon Xo'ja Buxoro shahriga borib, qadimgi "Shashmaqom" nag'malarini tanbur bilan o'rganib, Xivaga qaytgan edi. Bu sozandaning Xivaga qaytishi bilan uning iqtidori va dovrug'i Xorazm musiqashunoslari orasida katta e'tiborga molik bo'ldi va ularning diqqatini o'ziga jalb qildi. Niyozjon Xo'jadan boshqalar ham, jumladan, Mahsumjon Qozi,

¹ <http://naurok.mpedagog.ru/musia-madaniyati-darslarida-o'quvchilarga-maqomlar-haqida-tushunchalar-berib-borish-mavzusida-metodik-tavsiyalar-shar.html>

usta Muhammadjon sandiqchi kabilar “Shashmaqom” nag‘malarini to‘la o‘rgandilar. Ular o‘z o‘rnida o‘rgangan nag‘malarini havaskor shogirdlariga ham o‘rgatishni boshlab, anchagina tanburchi shogirdlarni yetishtirdilar.

Niyozjon Xo‘janing shogirdi bo‘lgan Muhammadjon sandiqchidan Abdusattor Mahram, Xo‘jash Mahram o‘g‘li ta‘lim oldi. Bu kishi xalq va hukumat orasida obro‘li bir zot bo‘lgani sababli, “Shashmaqom” nag‘masi borgan sayin rivojlana boshladi.

Bu zamonda ko‘zga ko‘ringan dongdor musiqashunoslar ana shu biz yuqorida zikr etgan zotlardir. Bu zamonda musiqa sohasida hech bir o‘zgarishlar, yangiliklar o‘rtaga tashlanmadi. Faqat bu zotlar “Shashmaqom” nag‘masiga nisbatan xalq orasida ishtiyoq va muhabbat uyg‘onishiga sabab bo‘ldilar”.²

D.N.Obidov “O‘zbek mumtoz musiqasining rivojlanish jarayonlari” mavzusidagi dissertatsiyasida Xorazm vohasiga “Shashmaqom” maktabining kirib borishi haqida quyidagilarni aytib o‘tadi: “XVIII asrning oxirlari - XIX asr boshlarida Xorazmda sezilarli ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma‘rifiy uyg‘onish yuz berganligi nazarga tashlanadi. Bu jarayon turli sohalarda davlatchilik, siyosiy-iqtisod, madaniyat, ma‘rifat, adabiyot, musiqa va boshqalarda barobariga rivojlanadi. 1806-1825-yillarda xonlikni boshqargan Muhammad Rahim- xon (Feruzning bobosi) davrida juda muhim bir tadbir amalga oshirilgan. Zamonasining ko‘zga ko‘ringan ustoz musiqashunosi va davlat arbobi Said Niyozjon (el orasida Niyozjon Xo‘ja) Buxoroga elchi sifatida yuborilgan. Elchi sifatida u marosim, majlis va bazmlarda qatnashish hamda saroy ahli bilan muloqotda bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lgan. U davrda nafosatli maqom san’atining asosiy manzil makoni saroy bo‘lgan, albatta. Ma’lumki, o‘z vaqtida Buxoro Temuriylar saltanatining madaniy-ma‘rifiy markazlari Samarqand va Hirotning katta vorisi bo‘lib maydonga chiqqan. Shu alfozda Hirot mumtoz musiqasi oltin davrining ko‘p udumlari Buxoroga qo‘ngan. Bu azim shaharda Najmiddin Kavkabiy, Darvishali Changiy kabi ulug‘lar merosi zaminida Buxoro Shashmaqomi degan voqelik dunyoga kelgan. Shashmaqom – saroy mulki. Uning ijodkorlari saroy ahliga xizmat qilgan yetuk ustozlar bo‘lgan. Bu borada kamolotga yetish uchun ular ta‘lim ko‘rgan ziyolilardan bo‘lishi taqozo etilgan. Niyozjon Xo‘ja ham shunchaki oddiy sozanda emas, mohir alloma va musiqashunos bo‘lgan. O‘z davrining

²H.Hamidov, A.Hakimjono‘v, MullaBekjon Rahmon o‘g‘li, Muxammad Yusuf Devonzoda o‘g‘lining”Xorazm musiqiy tarixchasi”risolasi haqida.

yetuk sozandasi bo'lgan Niyozjon Xo'ja Shashmaqom asoslarini izchil o'zlashtirishga bel bog'lagan va o'z maqsadini to'la - to'kis amalga oshirgan. Uning asl maqsadi Shashmaqom suratini (ya'ni, uning kuy va ashulalarining yuzaki shaklini) emas, balki siyratini (ya'ni, uning mag'zini, javharini, ilmiy qonun-qoidalarini) obdon o'zlashtirish bo'lgan. Shu ilmiy asosda (ya'ni shashmaqomning parda va usul doiralari, tasnifot va tarkibot qonuniyatlariga tayanib) yangi badiiy qiyofadagi Xorazm olti yarim maqomi majmuasini ijod etishni maqsad qilgan.

Xorazmga qaytgandan keyin, madrasa ko'rgan va iqtidorli shogirdlar tanlab, Olti yarim maqomning cholg'u va ashula shakllarini alohida tartibda ularning qalbiga joriy eta boshlagan-maktab yaratgan. Ana shu maktabdan yetishib chiqqan buyuk namoyandalardan biri Pahlavonniyoz Mirzaboshi (adabiy taxallusi Komil Xorazmiy) bo'ladi. Komil Xorazmiydek zabardast musiqiyshunos iste'dodi ravnaq topishida Muhammad Rahimxon Feruzning xizmati katta. Komil Xorazmiy musiqiyda Feruzning piri, ustoz. Ular orasida yaqin do'stona ijodiy aloqalar uzoq davom etgan. Komil Xorazmiy Feruz saroyida mirzaboshilik vazifasini bajargan. Ular bamaslahat nafosatli soz majlislari uyushtirganlar va madrasa ko'rgan iqtidorli sozanda hamda hofizlarni atrofiga to'plaganlar. Ana shunday ijodiy muhitda musiqa san'ati ravnaq topa boshlagan³."

Xorazm ashulachilik maktabi o'z mahalliy ijro uslubi bilan boshqa viloyatlardan keskin ajralib turadi. Ikkinchi tomondan, Xorazm ashulachilik uslubi intonatsion jihatdan turkman va ozarbayjon musiqasiga yaqinroq keladi va ular bilan ma'lum umumiylikka ega. Xorazm faqat shashmaqom an'analarini saqlab qolish bilan birga o'zining mustaqil Xorazm olti yarim maqomi ijrochilik uslublarini ham yaratdi. Xorazmning "Suvora"lari, «Feruz»lari mustahkam daromad asosiga qurilgan miyonxatlar, dunasrlar hamda avjlarga ega. Bu ashulalarni kuylash hofizdan katta kuch, mahorat va chin ovoz talab qiladi.

Xorazm ashulachiligida muhim o'rin tutadigan yana bir janr borki, bu xovalardir. Xovalar faqat Xorazmda kuylanadi. Shu asnda yana aytishuvlar va diyalishmalar ham paydo bo'lgan. Bu aytishuvlarning mohir ijrochilari Qalandar (bangi) Abdullayev, Polli duzchi, Hojixon Boltayev, Madrahim Yoqubov, (Sheroziy) Komiljon Otaniyozov,

³ Obidov D.N. "O'zbek mumtoz musiqasining rivojlanish jarayonlari" mavzusidagi dissertatsiyasi. Urganch 2018- yil.41-bet.

Quvondiq Iskandarov, Ro‘zmat Jumaniyozov, Abdusharif Vafojev, O‘rinboy Otajonov, Sharif Boltayev, Bekjon Otajonovlar hisoblangan.⁴

Adabiyotshunos olim Oxunjon Safarov Xorazm maqomlarining yuzaga kelishida “Shashmaqom”ning o‘rni haqidagi ustoz maqomdonlar fikrlarini aytib o‘tadi. “Ustoz-sozanda va muxlis-shinavandalarning nazarida zikr etilgan maqom turlari umumiy ildizlardan kelib chiqqanligi e‘tirof etiladi. Masalan, Xorazm sozandalarining fikricha, maqom turkumlarini tuzishda Buxoro (navbat-shashmaqom) an‘analaridan andoza olingan. Buxoro ustozlarining ta’kidlashicha, aksincha, maqomlarning asl makoni Xorazm bo‘lgan.

Buxorolik mashhur ustoz Marduhay Tanburiyning o‘g‘li Mixoel Barayev bilan bo‘lgan suhbatda “Maqomlar Xorazmda paydo bo‘lib, Buxoroda rivoj topgan” (“Maqomho dar Xorazm paydo shuda, Buxoroba rivoj giriftagi”) degan gapni otasidan eshitganligini bildirgan edi. Mazkur fikr Ota Jalol, Ota G‘iyos kabi Buxoro shashmaqomining eng ko‘zga ko‘ringan obro‘li ustozlari tomonidan ham qayd etilgan. Bundan tashqari, Farg‘onada hofiz va sozandalar orasida mazmunan yuqoridagiga o‘xshagan “Maqomlarning tanasi-Xorazmda, shoxlari Buxoroda, mevasi Farg‘onada” degan fikr keng tarqalgan⁵.”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr kuni imzolagan “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizda an‘anaviy san‘atimiz hisoblangan maqom ijrochiligiga bo‘lgan e‘tiborning yuksak namunasi, deb qarash mumkin.⁶ Mazkur qarorda “Ayni vaqtda milliy o‘zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san‘atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti. Bu boradagi yo‘nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san‘atini radio-televideniya, ommaviy axborot vositalari, internet tarmog‘i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ‘ib etish, maqom ustozlari, soha olimlari va mutaxassislari, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini

⁴ Shamsiev Shavkat.O‘zbek halq ashulachilik tarixiga bir nazar.

⁵ Oxunjon Safarov.Shashmaqom vatani ohanglari. 2008-yil. Badiiya sar-pedagogika-Safarov-Shashmaqom vatani.doc

⁶ Mirziyoev.Sh.M.“«O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.2017-yil.17-noyabr.

moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlari e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Jumladan, "Musika ixtisosligi bo'lgan barcha oliy ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislar, professor-o'qituvchilarni jalb etish, ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, tegishli darslik, o'quv qo'llanma va ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash bo'yicha tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirish haqida davlat dasturida ta'kidlab o'tilishi xalqimiz va mamlakatimiz tomonidan maqom san'atiga bo'lgan g'amxo'rlik va e'tiborning oliy namunasi deb qarashimiz joiz bo'ladi.

I Bob. Nazariy qism.

An'anaviy xonandalik kuylash maktabi shakllari

Xalqimizning boy musiqa madaniyatini yosh avlodga singdirish, ularni tarbiyalab voyaga yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak musiqa mutaxassislarining asosiy vazifalaridan biri xalqimizning asrlar osha kuylab kelingan ashulachilik uslublarini yoshlarga singdirishdan iborat, chunki kuylash an'analari va malakalarini yaxshi o'rganib olgan yoshlarga bu san'at an'alarini keng yoyishga ham imkoniyatli bo'ladi.

Mazkur muammo juda qadimdan nafaqat ashulachi hofizlarimizni, balki olimlarimizni ham qiziqtirib kelgan. O'rta osiyolik buyuk qomusiy olimlar al-Kindiy, al-Forobiy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, Jomiy va boshqalar o'zlarining musiqaga doir traktatlarida nafaqat tarixiy- nazariy bilimlar bilan shug'ullanganlar, balki cholg'u sozlarda chalish va unli an'anaviy uslublarda kuylashni ham uddalaganlar.⁷ O'zbek xalqi o'zining ko'p yillik ashulachilik tarixiga ega bo'lib, u turli hududlarda kuylashning turlicha ijrochilik uslublari mavjud bo'lgan. Har bir hududda mahalliy xalqning o'ziga xos turmush tarzi, she'valari, urf - odati, til xususiyati mavjud bo'lgani kabi ularning kuylash uslublari ham bir-biridan farq qilgan.

Qadimdan boshlab o'zbek xalq qo'shiqchiligi bilan bir vaqtda an'anaviy xonandalik ijrochilik maktabi shakllanib keldi. An'anaviy xonandalik maktabining xalq qo'shiqchiligi maktabidan farqi shunday, an'anaviy xonandalik maktabida og'zaki an'ana-dagi kasbiy

⁷ Shamsiev Shavkat. O'zbek halq ashulachilik tarixiga bir nazar.

musiqa namunalari mumtoz ashula, katta ashula va maqom ijrochilik maktabi namunalari o‘rin olganligi xalqimiz tomonidan e‘tirof etilgan.

Temuriylar davrida an‘anaviy professional musiqa ijrochiligida muayyan mahalliy xislatlar namoyon bo‘la boshladi. Shu alfozda 12 ta arab maqomi, 12 ta uyg‘ur maqomi, 7 ta Eron dastgohi, 7 ta Ozarbayjon mug‘omi, 6 ta o‘zbek maqomi paydo bo‘ldi. Bu turkumlar ham, o‘z navbatida, mahalliy musiqiy she‘va ta‘sirida yangi mukammal turkumlar yaratilishiga turtki bo‘ldi. Xususan, o‘zbek zaminida Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari yuzaga keldi.

1404-1406-yillarda Samarqandda bo‘lgan Ispaniya elchisi Gonzales de Klavixo o‘z kundaliklarida Sohibqiron Amir Temur turli mamlakatlardan yuz mingga yaqin olimlar, hunarmandlar, me‘morlar, san‘atkorlar Samarqandga oldirib kelinganligini batafsil hikoya qiladi.⁸

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga kelib, xonandalik amaliyoti ham hofizlik bilan bog‘liq atama musiqa san‘atining ustozona shakli ijrochilari orasida ommalasha boshladi. Xorazm, Buxoro va Farg‘ona vodiysida ashula ijrochilari faoliyati munosib o‘rnini topdi. Ustoz darajasidagi har bir mohir xonanda-ashulachilar xalq orasida muxlislari tomonidan “Hofiz” deb yuritish ommalashdi. Ungacha mumtoz xonandalar “Savtxon”, “Nasrxon” yoki “Nasrchi”, “Mug‘anniy”, “Go‘yanda” nomlarida atalib kelinganligi sir emas. Shu davrdan boshlab O‘zbekistonning har bir vohalarida o‘ziga xos lokal xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan ijrochilik an‘analari rasm bo‘ldi. Bu an‘analarning ijrochilari “Hofiz” deb yuritila boshlandi. Har bir vohada o‘zining lokal ahamiyat kasb etuvchi hofizlari shakllandi. Albatta, bu jarayon mahalliy va shaxsiy ijrochilik uslublari negizida yuzaga kelgan. Bu jarayonga tahliliy nazar bilan yondashadigan bo‘lsak, quyidagi manzaralar guvohi bo‘lamiz.

Xorazm vohasi kabi Samarqand, Buxoro va Farg‘ona vodiysi hofizlik an‘analarida ijrochilik maktablari mavjud. Ijro maktablari, avvalo, hududiy ahamiyat kasb etsa, xonandalik amaliyotining rivoji jarayonida shaxsiy ijro uslublarning yuzaga kelganligi ham ko‘p kuzatilgan. Har bir maktab o‘z namoyandalari va ularning ustozligiga dalolat beruvchi ijro uslubiga ega.

⁸ Рюи Гонзалес де Клавихо. Жизнь и деяния великого Темура: дневник путешествия по двору Темура в Самарканде. 1403-1406. стр. 136.

“Shashmaqom” an’anasi Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining yuzaga kelishida asos bo‘lganligi sir emas. Aynan ushbu yo‘nalishning samara topishi esa hofizlik an’analarida “Shashmaqom” ijrochiligi mavjud ekanligidan dalolatdir.

Xonandalikda ovozning tusi, jarangdorligi, kuchi, ko‘lami, shiradorligi, uni ishlatish imkonlari va boshqa sifatlari tabiatan xilma-xil bo‘lishi hisobga olinishi shart.⁹ Burungi davr ayrim savodxon musiqachilar tomonidan ovozlarni ta’riflash, bir-biridan farqlash, kasbiy jihatdan baholash uchun qator maxsus atama va iboralardan foydalanilgan. Demak, talaygina aniq tushunchalar og‘zaki bo‘lsa-da, muttasil ilmiy-amaliy muomalada bo‘lgan.

An’anaviy xonandalik maktabida ustoz xonandalar ovozlari quyidagi nomlarda yuritilgan:

“Nor ovoz”

“Tik ovoz” (yoki “jarangdor ovoz”)

“Jarangdor ko‘krak ovoz”

“Quyuq tik ovozi” (yoki «jarangdor ovoz»)

“Bo‘zak ovozi (yoki “moda ovoz”)

“Pang ovoz”

“Ishkami ovoz”

Bularning ayrimlariga qisqacha tavsif berib o‘tamiz.

Nor ovoz

“Nor ovoz” (ma’nosi «tuya ovoz») tovushlar ko‘laminining kengligi, salobatli kuchga egaligi bilan ta’riflanadi.

Bunday toifadagi ovozning past-u baland oralig‘i katta bo‘lishiga qaramay, ayni paytda, ovoz sifati yumshoq, mayin hamda egiluvchandir. Odatda bunday ovoz sohibining tepa pardalari o‘ta baland darajada bo‘lmaydi.

Tasavvur etishga qulay bo‘lishi uchun amaldagi nota yozuvi yordamida belgilanadigan bo‘lsa, bunda uning kenglik ko‘lami, ya’ni diapazoni birinchi oktava “do”

⁹ H.Isroilova – Qosimova. An’anaviy hofizlik san’ati (Yakkaxon qo‘shiqchilik) San’at, madaniyat kollejlari va akademik litseylar uchun o‘quv qo‘llanma.”Voriz-nashriyot” T- 2007-yil.

tovushidan qariyb uchinchi oktavadagi «do» tovushigacha yetadi. Undan yuqoriroq tovushlarni “nor ovoz”li xonanda olishi qiyin.

Yorqin “nor ovoz” sohiblaridan, misol tariqasida, avval tilga olingan Umrzoq Polvon Saidali qatorida mashhur o‘zbek hofizlaridan Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayev, Abdulla Taroq Fayzullayev, Jumavoy Polvon, Saidxon Turam, (Andijon) O‘zbekiston xalq xofizi Ro‘zmat Jumaniyozov, Bekjon Otajonov (Xorazm) kabilarni eslab o‘tishimiz mumkin. “Nor ovoz” og‘iz bo‘shlig‘ida, ya’ni tanglay tomondan “urib” chiqarilishi bilan ham yoqimlidir. Bu sifat ovozda xalq va bastakorlik ashulalari, yallalar, katta ashulalar, shuningdek, maqom ashula yo‘llari chiroyli va ta’sirchan ijro etiladi. Katta ashula aytilishida esa, odat bo‘yicha, ya’ni ikki yoki uch ishtirokchi hamnafasligida ijro etilgan taqdirda, aynan «nor ovoz»li xonanda ashulani boshlab beradi, so‘ngra qolganlar navbatma-navbat keyingi bayonlarda qo‘shilishib, so‘ngra birga tushirishadi.

Tik ovoz yoki jarangdor ovoz

“Tik ovoz”, yoki “Jarangdor ovoz” ko‘proq Farg‘ona vodiysi Toshkent mahalliy uslubiga xos bo‘lib, u har xil ashulalarni, ayniqsa, katta ashulalarni ijro etishda alohida o‘rin egallaydi. Chunki ilgarigi vaqtlarda tom ma’noda tik ovozi bo‘lmagan ashulachilar, umuman, ashulachi hisoblanmas edi. Ma’lumki, ayrim musiqachilar dutor yoki tanbur jo‘rligida ham ashulalar ijro etardilar. Ular ham sozanda, ham xonanda bo‘lib, tik ovozlari bilan avjda uchinchi oktava re-mi tovushlarini bemalol olardilar. Bunga misol bo‘la oladigan zabardast hofizlardan Berkinboy Fayziyev, Komiljon Qurbonov (Eski Haqqulobod), Turg‘un novcha, Mulla Kenja Holiqov, Mirza Olim (To‘rtko‘l qishlog‘i), Abduraim qori (Xonobod), Musajon aka (Shahrixon), Foziljon va Ikromiddin, Mamadbuva Sattorov (Marg‘ilon) qo‘qonlik Mamadali qori, Meliqo‘zi, Otamirza aka, Abdusharif Vafoev, (Xorazm) O‘tanboy Sarimsoqovlar kabilardir. O‘zbekiston xalq hofizlari Odiljon Yusupov, Eson Lutfullayevlar ham ana shular safidagi ashulachilardir. Bular ham maqom yo‘llari, ham katta ashulalarni me’yoriga yetkazib aytib kelgan xonandalardan.

Odatga ko‘ra tik ovoz sohiblari ashulani boshlamaydilar. Katta ashuladami, soz jo‘rligida aytiladigan misoldami - hamma vaqt ular ashulani maromiga yetkazib ijro etishgan. Ma’lumki, hozirda ham ana shunday ko‘rkam an’analar davom ettirilmoqda.

Jarangdor ko‘krak ovoz

Bunday ovozlar o‘zbek xonandalari orasida ko‘plab uchraydi. Ko‘krak ovoz past pardalarda ham, yuqori pardalarda ham o‘zining jarangdor sifatlarini yo‘qotmaydi. Uning tabiati shundan iboratki, jarangdorligi va tiniqligi tufayli hatto jo‘rovozlikda ham ajralib eshitilaveradi. Avj pardalari yuqori, jumladan uchinchi oktava do tovushiga qadar yetadi. Shuningdek quyi pardalarda ham bunday ovoz aniq va ravon eshitiladi.

Taraladigan tovushlarda ko‘proq o‘ynoqi bezaklarga boy pardalar ko‘pligini kuzatish mumkin. Misol qilib Ma’murjon Uzoqov, Akbar Haydarov, Rasulqori Mamadaliyev, Komiljon Hamroqulov, Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov, Zokirjon To‘rayev, Nazarali Dadajonov kabi ashulachilarni ko‘rsatish mumkin.

Quyuq tik ovoz

“Quyuq tik ovoz”lar ko‘proq katta ashulachilarga xos bo‘lib, ular ashulaning eng yuqori pardalarini zabt eta oladilar. Aslida, bunday ovoz jarangsizroq eshitiladi. U ashulaning eng pastki tuzilmalarida aniq eshitilmay tursa-da, o‘rta pardalardan boshlab yaqqol ajralgan holda yangraydi. To‘g‘risini aytganda, pastki pardalar kamroq bo‘ladi. Ashula rivoji hisobiga ularning avj pardalari juda baland bo‘lib, toki uchinchi oktavaning mi, fa, hatto fa diyez pardalarigacha yetib boradi. Bunday ovoz sohiblaridan atoqli hofiz va bastakor Jo‘raxon Sultonov, toshhovuzlik Matkarim hofiz, shuningdek, Abbosqori, Haydarali Hikmatov (Qo‘qon), Xudoyberdi Qori (Norin), Nabijon Saidnazarov (Chinobod), Muyiddinhoji Alixo‘jayev, Mannonqori (Andijon), Mamatxo‘ja Eshon, Nazir Polvon (Andijon, Baliqchi) va boshqa ashulachilar yorqin misol bo‘la oladi.

Hasta ishqami ovoz

Hasta ishqami ovoz egalari ham xonandalar orasida ko‘p uchrab turadi. Bunday ovoz yordamida uncha yuqori pardalarni zabt etib bo‘lmasa-da, u o‘zining ta’sirchanligi bilan tavsiflanadi. Uning eshitilishi go‘yo o‘zidan shikoyat qilayotgandek, hol-ahvolidan samimiy dil izhoridek tuyulib, kishiga o‘zgacha ta’sir qiladi va huzur bag‘ishlaydi. Ammo shuni ta’kidlash joizki, xasta ishqami ovozning pastki qismlarida ham yuqori pardalarda ham jarangdorligi nisbatan kamroq bo‘ladi.

Bu toifadagi ovozlar bilan ko‘proq dardli, alamli, mungli ashulalar ijro etilsa, nihoyatda ta’sirchan chiqadi. Ishqami ovoz egalari G‘ulomjon Hojiqulov, Yunusqori Yusupov, Umar Otayev, Tolib To‘rayev, Uraimjon Qori (Qo‘qon), Sobir Qori Normatov (Andijon), Qosimjon Oxunov kabi taniqli xonandalarni aniq ko‘rsatishimiz mumkin.

Bo‘zak yoki moda ovoz

Bunday ovoz turi ham uchrab turishi, tabiiy. Unga milliy shiradorlik, jozibadorlik, jumladan, o‘ynoqilik ham, yig‘loqilik ham xos emas. Hozirda mazkur ovozlar, asosan, ko‘p ovozli kompozitorlik asarlarini ijro etishga ko‘r-ko‘rona ergashgan yoki ustoz ko‘rmay, o‘ziga havaskorona yo‘l tutgan ba’zi xonandalarda bo‘lishi mumkin.

Ovozni o‘ynatish yoki yig‘latish uni rivojlantirish, ayniqsa, tovushni siqib, yuqori pardalarga chiqarish malakasini egallashlari xonandaning eng zarur kasbiy ishlaridan biri sanaladi.

Pang ovoz

Aytishimiz shartki, ovozlar orasida o‘zaro o‘xshashlik ham uchraydi. Ba’zida o‘xshatishga intilish katta ahamiyat kasb etadi. Har bir bo‘lajak xonandaning harakatlari o‘zi ma’qul ko‘rgan u yoki bu hofizga taqlid qilishdan boshlashini inobatga olish kerak.

Pang ovoz Xorazm vohasidagi xonandalar orasida ko‘proq uchraydi. U ham kuchli, ham baquvvat nafasli sifatlarga ega. Mashhur hofizlardan Hojixon Boltayev, unga ergashib kasbiy voyaga yetganlardan Abdusharif Vafoev, Sharif Boltayev, Ro‘zmat Jumaniyozov, Sharif Sultonov, O‘rinboy Otajonov, Quvondiq Iskandarovlarning noyob ovozlarni ana shu toifaga kiritish mumkin.

Boshqa ovozlari

O'zbekistonda uchraydigan ovoz toifalaridan yana biri buxorolik va samarqandlik xonandalarga xosdir. Bunday ovoz-u nafas orqali kuylash uslubi o'zbeklarda bo'lmagani sababli uning maxsus atamasi ham yo'q. Bizningcha u ko'proq ayrim forsiyzabon xalqlarga xos bo'lib, keyinchalik uni Buxoro ashulachilik maktabi xonandalari o'zlariga moslashtirib olgan bo'lsalar kerak.

Bunday aytish xususiyatlari ko'proq tojik millatiga mansub kishilarning ovozlari bilan yaqindir. Buxoro hofizlari forsiy tilni o'rganib olishi bilan birga ularning ijro ko'nikmalarini, ovoz ishlatish uslublarini ham o'zlashtirishganga o'xshaydi. Chunki ular orasida yashab turishi sababli muayyan muhitdan kelib chiqib, shunday moyillik paydo bo'lgan, mahalliy aholi urf-odatlariga bo'ysungan deyishimiz mumkin.

Mazkur darslikda biz xalq qo'shiqchiligi emas, an'anaviy xonandalik maktabining shakllari **Mumtoz ashula, Katta ashula, jumladan Xorazm maqomlari, dutor maqomlari** haqida to'xtalib o'tamiz.

1. Mumtoz ashula

An'anaviy xonandalik ijro maktabida mumtoz ashula janrining o'rni beqiyosdir. Mumtoz ashulachilik – lirik xarakteridagi rivojlangan kuy va shakliga ega bo'lgan yirik aytim-ashula yo'li. Ashula mumtoz musiqaning yetakchi janrlaridan bo'lib, o'zining kuy rivoji, vazmin lirik yoki og'ir xakteri, hayajonli va dardli mazmuni, diapazon kengligi, usul-ritmining sezilarli darajada murakkabligi va ijro uslubi mukammalligi bilan ajralib turadi. Sharq mumtoz (Lutfiy, Fuzuliy, Alisher Navoiy, Jomiy, Haziniy, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Munis, Ogahiy va boshqalar) va o'zbek (Chustiy, Sobir Abdulla, Po'lat Mo'min, Erkin Vohidov, Kamtar, Erkin Samandar, Omon Matjon, Oshiq Erkin, Normurod Narzullayev, Matnazar Abdulhakim va boshqalar) shoirlarning aruz vaznida yozilgan g'azal, ruboiy, muxammaslar ashula janrida keng qo'llanib kelgan. Falsafiy ma'noga ega bo'lgan, shuningdek, alam, ayriliq va hasratni ifodalovchi ishqiy-lirik hamda ayrim nasihatgo'y mazmun ko'proq ashula mavzusiga xosdir. Ashulada so'z va kuy uzviy bog'liq bo'lib, bu holat asarning butun mazmun mohiyatini tashkil etadi. Chunki undagi

umumiy mantiqiy bog‘liqlik, vazn, qofiya, ohang, musiqiylik tinglovchida zavq-shavq uyg‘otadi, hayajonli kayfiyat paydo qiladi.¹⁰

Ashula janr sifatida folklor va mumtoz musiqa ijodiyoti keng tarqalgan, ammo she‘r matnlari (folklor namunalarida xalq so‘zlari), kuy rivoji va ijro uslublari bilan ajralib turadi, masalan, “Dog‘man”, “Aylab keling”, “Do‘stlar”, “Tanovar” – folklor yo‘nalishida, “Qora soch”, “Sumbula”, “Endi sendek” mumtoz ashula namunalari “Adolat tanovari”, “Yovvoyi tanovar” va boshqalar (bular bir ohang asosida shakllangan).

UL KUN JANON

Ul kun ja-non, yuz - ni to-bon ay - la - ding,

Abr i - chin-da oy - ni (yo-ra) pin-hon ay - la -

ding, Qo-ma - ting-ni sar - vi bo's-ton

ay - la - ding (yo-re), Qum-ri - lar-ni zo - ru (vo-ey)

Mumtoz ashulalar musiqiy matnning rivojlanishi hamda kuy tuzilmalarining nisbatan davomliroqligi, kengroq diapazonligi, baland avji mavjudligi bilan xalq ashulalaridan sezilarli darajada farqlanadi. Ularning rivojlanish jarayoni daromaddan boshlanib tobora avjlangan holda rivojlanadi. Shu tufayli ashula shaklidagi asar mumtoz va bastakorlik ijodiyotlarida keng o‘rin olgan, uning lokal variantlari mavjud. Jumladan, Buxoroda xalq ashula va Muxammas, Xorazmda suvora va naqsh, Farg‘ona vodiysida ashula yo‘llari, katta ashula, yovvoyi ashula deb yuritiladi. Diniy va pand-nasihat mavzuidagi (Mashrab, Ahmad Yassaviy, Ogahiy, Feruz, Haziniy, Furqat, Huvaydo, Maxtumquli) mumtoz ashula yo‘llari – munojot, na‘t, qalandar, xonaqoyi, hamd, manzuma deb yuritiladi. Bunday

¹⁰ ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/.../332-mumtoz-ashula-yalla

ashulalar shaklan va mazmunan yanada murakkabroq va mukammalroq bo'lib, mumtoz musiqamizning salmoqli qismini tashkil etadi.

O'zbek bastakorlari ham mumtoz ashula janri asosida asarlar yaratganlar. Bu ashulalar yakkanavoz ijrosida, cholg'u ansambli jo'rligida aytilib kelingan. "Tanovar", "Munojot", "Girya", "Adashkanman", "Qora dali", "Suvorayi Komil", "Savti Suvora", "Yolg'iz", "Qomating", "Qurd", "Ol xabar" kabi mumtoz yo'lidagi ashulalar, "Kuygay" (Y.Rajabiy), "Sensan sevarim" (O.Hotamov), "Naylayin" (J.Sultonov), "Ey chehrasi tobonim" (F.Sodiqov), "Diyorimsan" (K.Jabborov), "Bir ishva bilan" (M.Murtazoyev), "Guluzorim" va "Qurbon o'lam" (A.Abdurasulov), "Qachon bo'lgay" (M.Mirzayev) va boshqa bastakorlarning ashulalari xonandalar repertuaridan mustahkam o'rin olgan.

O'zbek mumtoz ashulachiligi yo'llari o'zining an'anaviyligi, buyukligi, ta'sirchanligi, professionalligi, mukammaligi, ko'plab badiiy vositalarga boyligi bilan o'ziga xos musiqa-ijrochilik san'ati turiga aylangan. Katta badiiy-estetik imkoniyatlarga ega bo'lgan mumtoz ashula yo'llari milliy ruh, milliy qiyofani shakllantirish, milliy qadriyatlarni saqlash, boyitish va keyingi avlodga yetkazib berishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.¹¹

Xalq ashula yo'llariga qaraganda mumtoz ashula yo'llari yetuk xonandalar tomonidan cholg'u (tanbur, dutor, tor) jo'rnavozligida talqin etiladi. Mumtoz ashula yo'llari janrlar tarkibiga mumtoz ashula, mumtoz yalla, katta ashula (Farg'ona vodiysi), muxammas va xalq ashula (Buxoro), suvora va feruz turkumlari (Xorazm) va diniy mavzuyidagi munojot, na't, hamd, manzuma, yakkaxonlik, xonaqohiy qalandarlar kiradi.

2. Katta ashula



¹¹ <http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-2/328-mumtoz-ashula-cycles>

Patnusaki (patnis) ashula Farg‘ona vodiysiga xos bo‘lgan o‘zbek an‘naviy ashula yo‘li. Odatda, 2,4,5 hamnafas ashulachi (hofiz) tomonidan cholg‘u jo‘rligisiz (qo‘llariga patnis, likobcha ushlagan holda) aytiladi.¹² Ko‘pincha, yuqori pardalarda va keng nafasda ijro etilib, o‘ziga xos murakkab ijro uslubi bilan ajralib turadi.

Katta ashula qadimiy marosim va mehnat qo‘shiqlari, marsiya, navha, ayolg‘u qo‘shiqlari hamda aruz vaznidagi g‘azallarning qadimiy o‘qilish uslublari zaminida vujudga kelgan. Katta ashula, odatda, katta yig‘in, sayil va to‘y-tomoshalarda aytilgan. Uning o‘tmishdagi namunalarida lirik va nasihatimiz g‘azallar bilan bir qatorda diniy, tasavvuf yo‘nalishidagi she‘rlar ham kuylangan. Navoiy, Lutfiy, Mashrab, Xaziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqalarning g‘azallari Katta ashula janridan alohida o‘rin olgan. Xalq orasida "Do‘stlar" (Navoiy), "Ko‘p erdi", "Yolg‘iz", "Adashganman" (Muqimiy), "Oh kim, rahm aylamas" (Furqat), "Bir kelsun", "Ey dilbari jononim" (Miskin) kabi Katta ashulalar keng tarqalgan. Habibiy, Chustiy, Kamtar, Charxiy, Sobir Abdulla, Akmal Po‘lat, Vosit Sa‘dulla, Nasimiy, Erkin Vohidov, O‘tkir Rashid va boshqalarning she‘rlari ham Katta ashulada sevib ijro etiladi.

Katta ashula ijrochiligida badiha uslubidan keng foydalaniladi. Bu esa undagi nutqdosh va ohangdor tuzilmalar bir biriga mukammal va uzviy bog‘lanishini ta‘minlaydi, ashulani rang-barang musiqa bezaklari bilan boyitadi, turli avjlar qo‘llanishiga olib keladi. Katta ashula ijrochisi an‘naviy "ustoz-shogird" maktabini o‘tgan, she‘riyat qonunlari va ijrochilik an‘analariga tayangan, keng diapazonli, baland ovozga va mahoratga ega bo‘lishi lozim. Hofizlar, odatda, she‘r bandidagi boshlang‘ich misralarning har birini galma-gal, so‘nggi misralarni jo‘r bo‘lib ijro etadilar.

XX asrning 2-yarmida Katta ashulaning yangi ashula-cholg‘u yo‘llari, yakkaxon hofizga mo‘ljallangan turlari yuzaga keldi. Mazkur namunalarda cholg‘u ansambli hamnafas hofiz vazifasini bajargan, ijroda erkin uslub saqlanib qolgan. Katta ashulaning bu uslubi Jo‘raxon Sultonov tomonidan yaratilgan ("Ey dilbari jononim", "Ohkim", "Topmadim", "Guluzorim qani", "Mehnat ahli", "O‘zbekiston" va boshqalar). Ayrim maqom sho‘balari ("Bayot", "Chorgoh", "Ushshoq") ham Katta ashula ("Yovvoyi maqom") uslubida aytilgan (masalan, "Yovvoyi Ushshoq", "Patnusaki Chorgoh", "Likobi

¹² ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/elements.

Bayot" va boshqalar). Mohir sozandalar Katta ashulaning cholgʻu (nay, surnay, gʻijjak) yoʻllarini yaratdilar. Rivojlanish mobaynida Katta ashula ijrochilik (Qoʻqon, Margʻilon, Toshkent, Namangan, Andijon) maktablari shakllangan. Erkaqori Karimov, Sherqoʻzi Boyqoʻziyev, Haydarali Hikmatov, Meliqoʻzi Yusupov, Oʻtamboy Sarimsoqov, Turdiali Ergashev, Otamirza Abdurahmonov (Qoʻqon), Mamatbuva Sattorov, Joʻraxon Sultonov, Maʼmurjon Uzoqov, Boltaboy Rajabov, Ibrohim Isoqov, Musajon Orifjonov (Margʻilon), Orif Alimahsumov, Ortixxoʻja Imomxoʻjayev, Akbar Haydarov, Eshmat Haydarov, Ochilxon Otaxonov (Toshkent), Fattohxon Mamadaliyev, Odiljon Yusupov, Joʻraxon Yusupov (Andijon), Hamroqulqori Toʻraqulov (Beshariq), Rasulqori Mamadaliyev (Buvayda), Solijon Hoshimov (Quvasoy) va boshqalar Katta ashula ijrochiligida shuhrat qozongan. Halima Nosirova, Munojot Yoʻlchiyeva, Ismoil va Isroil Vahobovlar, Mahmud Tojiboyev, Mahmud Yoʻldoshevlar ham Katta ashulani mahorat bilan ijro etmoqdalar. 1984- yildan Oʻzbekistonda Katta ashulachilarning koʻrik-tanlovlari (Margʻilon-1984; Toshkent-1987; Qoʻqon - 1991; Shahrisabz- 1994) oʻtkazilgan.

Katta ashula ijrochilik yoʻllari anʼanaviy mahorat maktablari (Baliqchi, Buvayda) va musiqa oʻquv yurtlari (Fargʻona sanʼat bilim yurti, Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi)da oʻzlashtirib kelinmoqda. 2001- yil Andijonda 1- respublika professional katta ashula ijrochilari tanlovi va ilmiy-amaliy (Toshkent, Andijon) konferensiyalari oʻtkazildi.

3. Xorazm maqomlari

Xorazm maqomlari turkumi XVIII XIX asr boshlarida Shashmaqom va Xorazm musiqiy anʼanalari negizida shakllanib, keng rivojlangan (amaliyotda ushbu turkum "Olti yarim maqom" yoki "Xorazm Shashmaqomi" deb nomlangan).

Turkum tarkibi Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq va Panjgoh maqomlaridan iborat boʻlib, har bir maqom, oʻz navbatida Shashmaqomga oʻxshash ikki boʻlimdan tashkil topgan: cholgʻu boʻlimi - chertim yoʻli yoki Mansur; ashula boʻlimi – aytim yoʻli yoki Manzum deb ataladi. Xorazm maqomlari turkumi 200 yaqin cholgʻu va ashula yoʻllarini qamrab olgan. Xorazm maqomlari Shashmaqom kabi ustoz bastakorlar mahsulidir.

Xorazmlik mashhur bastakorlar Niyozjon Xo'ja, Feruz, Komil Xorazmiy, Muhammadrasul Mirzo, Matyoqub Harrat va boshqalar maqomlarga yangi cholg'u qismlar bastalab, ularni shaklan va mazmunan boyitdilar. Kuy tuzilishi, lad asoslari saqlangan holda, Xorazmga xos musiqiy uslublarda ijro etib kelingan. Xorazm maqomlarining Chertim yo'li tarkibiga "Tanimaqom", "Tarje", "Gardun", "Muxammas", "Saql" qismlaridan tashqari, "Peshrav" va "Ufar" qismlari kirgan. Aytim yo'li tarkibiga "Tanimaqom", "Talqin", "Nasr" va "Ufor" qismlari va faqatgina "Tanimaqomni" bog'lovchi "Taronalar" yetakchi xonanda tomonidan tanbur cholg'usi yoki cholg'u ansambli jo'rnavoziylikida ijro etilgan. Ularga turdosh bo'lgan Xorazmga xos "Suvora", "Naqsh", "Faryod", "Muqaddima" kabi ashula yo'llari ham aytib kelingan (aytim yo'llarida mumtoz sharq shoirlari – Hofiz, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Feruz, Avaz O'tar, Atoiy va boshqalarning ishqiy-lirik, falsafiy, nasihatombuz she'rlaridan foydalanilgan).

Xorazm maqomlari yuzasidan turlicha qarashlar, bahstlab fikrlar mavjud bo'lib, barchasiga ma'lum darajada yondashish, qaysi tomonning fikri haqiqatga yaqinroq ekanligini idrok etish zarur bo'ladi. Bu san'at muxlislarining fikriga bog'liq.¹³

Birinchidan, Xorazm maqomlarining yaralishi va ijro uslublari haqidagi bahslarga quloq tutmoq zarur bo'ladi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, xorazmlik sozanda va bastakor Niyozjon Xo'ja XIX asr boshlarida Buxoroga borib «Shashmaqom»ni o'rganib, Xorazmda uni targ'ib qilgani, Xorazm maqomlari «Shashmaqom»ning o'zginasi ekanligi aytib o'tiladi.

Ikkinchi bir manbada Xorazm maqomlarining ayrim qismlaridagi parchalar tuzilish jihatidan va xarakter jihatidan bir-biridan farq qilinishi aytiladi. Qanday bo'lmasin, Xorazm maqomlari Muhammad Rahimxon Soniy Feruz davrida mashhur shoir va musiqashunos Komil Xorazmiy va o'g'li Muhammad Rasul Mirzo hamda shogirdlari tomonidan Xorazm olti yarim maqomi «Tanbur chizig'i»ga notalashtirilganligi haqida aniq ma'lumotlar mavjud.

Xonning o'zi ham yetuk shoir, sozanda, bastakor, hofiz bo'lganligi, qadimiy maqom kuylari asosida «Navo», «Segoh», «Dugoh»larga bog'lab kuylar yaratgani, u yaratgan

¹³<http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/244>

Feruz I, II, III ijrolari xalq ichida mashhur bo'lib ketganligi aytib o'tiladi. Hatto Xorazm maqomlarini xalqning daxlsiz mulki deb e'lon qilib, maqomlarni kamsitgan yoki buzib ijro etganlarni qattiq jazolash haqida farmoni oliy chiqarganligi aniq manbalar asosida ko'rsatiladi.

So'nggi xonlar davrida (XIX asr) Xivada ijro etib kelingan maqomlar ham 1934-yilda O'zbekiston San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti ekspeditsiyasi yozib olgan maqomlar aslida Buxoro maqomlaridir. Bu maqomlarni bundan taxminan 130 yil burun Niyozxo'ja degan sozanda, mashshoq Buxorodan Xivaga olib kelgan».

Bu haqda qanday fikrlar aytilmasin, baribir, Xorazm maqomlari ijrosida alohida uslub va shakllarga ega bo'lgan, usul va ritmi jihatidan «Shashmaqom»dan farq qiladigan alohida ijro maktabini kuzatamiz. O'z davrida Xorazm ijrochilik maktabining buyuk namoyandalari yetishib chiqdilar. Muhammad Yoqub devon, Bobo bulomon, Komil Xorazmiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Qurji ota, Polli do'zchi, Muhammad Rasul Mirzo, Xudoybergan Muhrkan, Muhammad Yusuf Devon-Chokar, Matpano Xudoyberganov, Madrahim Sheroziy, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Ro'zmat Jumaniyozov singari ulug' san'atkorlar shular jumlasidandir.

Xorazm maqomlarini Matpano ota, Madrahim Sheroziy, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov va boshqa ustozlardan o'rganib notaga olgan, uni avval bir jild, keyin 1980-yilda uch jildlik etib chop qildirgan, yana bir ulkan bastakor Matniyoz Yusupovdir (1925-1992).

Xorazm maqomlari quyidagi tartibda keladi: Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq, Panjgoh.(yarim-cholg'u qismi)

Xorazm maqomlarining bevosita tuzilishi va ijroviy xususiyatlariga kelsak, avval Shashmaqom yo'llarining aytim bo'limidagi sho'balar saqlab qolingan. Lekin keyinchalik Xorazm ijrochilik maktabining tez rivojlanishi natijasida ashula yo'llarida juda ko'p o'zgaruvchanlikni kuzatamiz.

Ba'zi sho'balarning nomlanishida ham ijro xususiyatlarida ham o'zgaruvchanlik mavjud. Masalan, tarona qismlari «Rost» maqomida, «Suvora», «Naqsh», «Faryod»; «Buzruk»da esa «Sayri gulshan», «Navo»da - «Suvora», «Faryod», «Naqsh»; «Dugoh»da - «Suvora»; «Segoh»da - «Naqsh» va «Muqaddima» deb nomlanadi. Aytim bo'limlarining bosh sho'basi bo'lgan Sarahborlar Xorazmda maqomlar nomi bilan - Maqomi Rost,

Maqomi Buzruk, Maqomi Navo, Maqomi Segoh, Maqomi Dugoh deb nomlanadi. Shunday holat chertim bo'limlarida ham kuzatiladi.

Xorazm maqomlaridagi aytim va chertim bo'limlarining boshlanish qismidagi bir xillik bunga sababdir. Xorazm maqomlarida Sarahborlarning ba'zi taronalari terma holda, avj qo'shib, yirik shakldagi ashulaga aylantirilgan. «Sarahbori Rost»da uchta tarona mavjud bo'lib, «Tarona», «Suvora», «Naqsh» deb nomlanadi.

Sarahborlar taronalari bilan aytilganidan so'ng, talqin sho'balariga o'tiladi. Ular Talqini Rost, Talqini Buzruk, Talqini Navo, Talqini Segoh deb nomlanadi. Xorazm maqomlarida o'n beshta nasr yo'llari mavjud bo'lib, «Xorazm maqomlari» kitobida sakkizta nasr sho'balari beriladi. Ular «Rost» maqomida «Navro'zi sabo», «Buzruk»da Nasrullovi, Navoda - Faryod va Orazi Navo, Dugohda Chorgoh va Bayot, Segohda - Sabo, Navro'zi Xoro, Nasri Ajam deb nomlanadi.

4.Suvora yo'llari

Suvora (forscha "suvoriy" – otliq) – Xorazm mumtoz xonandalik maktabida keng tarqalgan yirik ashula yo'li, Xorazm maqomlari tarkibidagi turkum - ashula yo'llari. Suvora o'tmishda tasavvuf oqimining musiqa san'atidagi ko'rinishidir. Suvoralar, qadimda diniy so'zlar bilan aytilib, ijrochilarni "go'yanda" (aytimchi) deganlar.¹⁴

Suvora so'zi "suvoriy" so'zidan chiqqanligi bejis emas, chunki ustozlarning aytishicha suvoralarining ritm, doira usullari o'ning oyoq tovushi holatidan olingan deyishadi. Shuning uchun ham musiqa ijodiyotida ot bilan bog'liq asarlar juda ko'p uchraydi. Hozirgi kunda Suvora ashula yo'li, cholg'u yo'li va maqomlar tarkibidagi cholg'u va ashula yo'llari hamdir. Suvoralarning bizgacha beshta asosiy yo'li va yigirmaga yaqin Savti suvora va Ufori suvorolari yetib kelgan.

Suvoraning ashula yo'li oddiy 2/4 o'lchovidagi doira usulida mumtoz shoirlarning she'rlari asosida ijro etiladi. Eng qadimiy Ona suvora (Katta suvora yoki Toj suvora ham deyiladi), Ogahiy va Mashrab so'zlari bilan aytiladi. Ijro uslubi yakkanavoz cholg'u (tanbur, dutor yoki tor) jo'rnavozligida. Suvora ashula yo'llari orasida Chapandozi suvora, Yak parda suvora, Kajhang suvora, Qo'sh (Xush) parda suvora, Besh parda suvora kabi

¹⁴ <http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-2/330-suvora>

asarlar keng tarqalgan. Savti Suvoralar I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, IX, X, XI, XII, XIII, XIV, XV va hokazolar, keyin Ufori savti suvora va Gul ufor savti suvoralar ham ijrochilik amaliyoti bo'lgan.

Suvoralar Xorazm maqomlari turkumining mashhur bo'lgan ashula yo'llari. Maqomlarda asosiy sho'balardan keyin o'rin olgan. Usullari murakkab 13/4 o'lchovida. Shuningdek oddiyroq 6/8, 3/4, 3/8 o'lchovidagi suvora ashula yo'llari ham mavjud. Yirik suvora ashula turkumlari tarkibida asosiy suvoralaridan tashqari ikkitadan Savt va Uforlar ijro etiladi. Cholg'u yo'llari o'ziga xos kuylari va usullari bilan ajralib turadi, jumladan, Suvora I III.

Ijrochilik amaliyotida mashhur xonandalar tomonidan yaratilgan Suvoralar mavjud –



Suvorai Komil (Komiljon Otaniyozov ijodi), Qorchmoniy suvora (Hojixon Boltayev), Indamas suvora (Quvondiq Iskandarov), Go'jayi suvora (Ozod Ibrohimov). Suvora ijrochilari orasida Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov, Madraxim (Sheroziy) Yoqubov, Quvondiq Iskandarov, Matnazar Xudoynazarov va

boshqalar, jumladan, Hojixon Boltayev repertuarida 500 ortiq Suvora maqom ashula yo'llari, ashula turkumlari, ashula yo'llari o'rin olgan. Suvora ashula yo'llari asosida Xorazmda xonandalarning ijodiy musobaqalari- "Diyrallishma" o'tkaziladi (bir kuy asosida turli mavzuidagi she'rlar ijro etilishi lozim). Xorazm maqomlari asosida paydo bo'lgan suvora yo'llarida deyarli olti yarim maqomning har birining ladlari uchraydi.

“Xorazm maqomlari” turkumi Xorazm an'anaviy musiqasining eng yirik namunasi, XIX asrda shakllanib, keng rivojlangan. “Xorazm maqomlari” turkumi Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq va panjgoh maqomlaridan iborat bo'lib, har bir maqom o'z navbatida, “Shashmaqom”ga o'xshash ikki bo'limdan iborat:¹⁵

1. Cholg'u bo'limi , Chertim yo'li yoki mansur.
2. Ashula bo'limi –Aytim yo'li yoki manzum deb ataladi.

Xorazm maqomlari “Shashmaqom” kabi ustoz bastakorlar mahsulidir. Xorazmlik mashhur bastakorlar Niyozjon Xo'ja, Feruz, Komil, Muhammadrasul Mirzo, Matyoqub

¹⁵ <http://dilnoma.uz/?p=538>

Xarratov va boshqalar maqomlarga yangi cholgʻu qismlar bastalab, ularni shaklan va mazmunan boyitdilar. Kuy tuzulishi, lad asoslari saqlangan holda maqomlar Xorazmga xos musiqiy uslublarda Xorazm maqomlarida baʼzan ashula yoʻllarining doira usullari, kuy yoʻllari ixchamlashtirilib olingan va biroz usul surʼati tezlashtirilgan yoki soddalashtirilgan.

Xorazm maqomlaridagi kuy yoki ashula yoʻllarida namudlar eng katta oʻzgarishlarga uchragan, “ularning oʻrniga bastakorlar ijod etgan yangi avjlar ham kiritiladi”. Xorazm maqomlarining chertim yoʻli tarkibiga Tani maqom (tasnif vazifasini bajaruvchi), Tarje, gardun, Muxammas, Saqil qismlaridan tashqari Peshrav va Ufor qismlari kirgan. Xorazmga xos boʻlgan cholgʻu asarlar- Sayri gulshan, Zarbul futh Fohitiy zarb (Potixa zarb), Xafif ham ayrim maqomlar tarkibiga kirgan. Asar shakllari xona va bozgoh asosida tuzilgan. Doira usullari sodda va yengil, ijro jarayonida oʻzgarishlar kiritishi mumkin. Xorazm maqomlarining aytim-ashula yoʻllari tarkibida shoʻbalar qatori-tanimaqom (Saraxbor vazifasini bajaruvchi), Talqin, Nasr, Ufor, taronalar ham mavjud (faqatgina Tani maqomdan keyin ijro etiladi). Ammo ularga turdosh boʻlgan Xorazmga xos Suvora, Naqsh, Faryod, Muqaddima kabi ashula yoʻllari aytilib kelingan.¹⁶ Xorazm “Rost” maqomi tarkibi quyidagicha: Chertim yoʻli : Tanimaqom Rost, Tarjeʼ, Peshravi Gardun, Muxammas I-II, Ushshoq Muxammasi, Saqili vazmin, Ufor Aytim yoʻli: Tanimaqom Rost, Tarona, Suvora, Naqsh, Talqin, Faryod, Sabo, Ufor.

“Xorazm maqomlari” turkumi oʻziga xos mahalliy maqom uslubi sifatida gavdalanadi. U ham Buxoro maqomlari maqomlari singari mazmunan va usluban, shaklan va ijrochilik madaniyati jihatidan mustaqil ahamiyatga molikdir. Ushbu maqom turkumi voila ijrochilik anʼanalari boʻyicha yakkanavozlik tarzida erkin va badihagoʻylik ravishda aytilib, Xorazm hududida mashhur boʻlgan mumtoz shoirlar – Ogahiy, Munis, Komil Xorazmiy, Avaz Oʻtar, Otoiy va boshqalarning sheʼrlaridan keng foydalanib kelingan.

Xorazm maqomlarining ashula (aytim) boʻlimlari tarkibidagi shoʻbalar “shashmaqom” yoʻllarining koʻp jihatlarini, asosan saqlab qolgan. Lekin soʻnggi yillarda Xorazm ashula ijrochiligidagi oʻziga xos xususiyatlarga bogʻliq holda, baʼzi ashula yoʻllari tanib boʻlmaydigan darajada oʻzgarib ketgan. Xorazm maqomlarining aytim

¹⁶ Манба : <http://www.maqom.uz/maqom-yunalishlari/>

yo'llari Xorazm vohasida "Xorazm maqomlari" turkumidan tashqari, "Feruz" ashula-cholg'u maqom turkumi, dutor maqom turkumlari ham keng tarqalgan.

Xorazmda maqomchilik san'atini targ'ib etishda Muhammad Rahimxon Soniy, Komil Devoniy, Xudoybergan Muhrkan, Matyoqub Pozachi (Xarrat), Matpano Hudoyberganov, Madraxim Sheroziy, Hojixon va Nurmuhammad Boltayevlar, Komiljon Otaniyozov, Ro'zmat Jumaniyozov, Ikrom Ibrohimovlarning xizmatlari juda katta va ahamiyatlidir.

Xorazm maqomlarining birin-ketin joylashishi va tarkibiy qismida farqlar mavjud bo'lib, bunga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Muhammad Yusuf Bayoniyning «Tanbur chizig'i»da maqomlar quyidagi tartibda joylashgan: Dugoh, Rost, Navo, Iroq, Segoh, Buzruk va o'z-o'zidan ko'rinadiki, «Shashmaqom»da joylashgan, ya'ni Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq tartibida kelmaydi. Ilyos Akbarov tahriri ostida chop etilgan «Xorazm maqomlari»da esa Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq tartibida keladi. Matniyoz Yusupovning 1980 yillardagi chop etilgan 5 jildlik «Xorazm maqomlari»da ham Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq va Panjgoh qo'shilgan tartibda keladi.¹⁷

Rost maqomi

Xorazm «Tanbur chizig'i» qo'lyozmasi	Xorazm musiqa tarixiga doir «ocherklar» kitobida berilgan ma'lumot.	Matyoqub Xarrat ijrosida 1934-yilda yozilgan nuxxasi	Matniyoz Yusupov yozib olgan 1958-yildagi nashri	Matniyoz Yusupov yozib olgan 1980-yillar nashri
Chertim yo'li				
Maqomi Rost	Maqomi Rost	Maqomi Rost	Maqomi Rost	Tani maqom
Tarjeh	Tarjeh	Tarjeh	Tarjeh	Tarjeh
Peshravi Gardun	Peshravi Gardun	Peshravi Gardun	Peshravi Gardun	Peshravi Gardun
-	Murabbayi Komil	Murabbayi Komil	-	Murabbayi Komil
Muxammas	Muxammasi Jadid	Muxammas	Muxammas	Muxammas

¹⁷ S.Mannopov.O'zbek xalq musiqa madaniyati.(O'quv qo'llanma).T."Yangi asr avlodi"2004-yil.41-bet.

-	-	-	-	Peshrav I
Muxammasi Panjgoh	Muxammasi Jadid Feruz	Muxammasi JadidFeruz	Muxammas	Muxammasi Firuz
-	-	-	-	Peshrav II
-	-	-	-	Peshrav III
Muxammasi Ushshoq	Muxammas	-	Muxammasi Ushshoq	Muxammasi Ushshoq
Panjgoh	-	-	-	Peshrav IV
-	Murabbayi Rost	Murabbayi Rost Mirzo	-	Murabbayi Rost
-	Musabbayi Rost	-	-	Musabbayi Rost
Saqili Vazmin	Saqili Mirzo Rost	Saqili Rost	Saqili Vazmin	Saqili Mirzo
Saqil	Saqil Muhrkan	Saqil Muhrkan	-	Saqil Muhrkan
-	Ufor	Ufor Rost	Ufor	Ufor I
-	-	-	-	Ufor II
-	-	-	-	Gulufor
Birinchi aytim yo‘llari				
Maqomi Rost	Maqomi Rost	-	Maqomi Rost	Tani maqom
Tarona	Tarona	-	Tarona	Tarona I
-	-	-	-	Tarona II
-	-	-	-	Tarona III
-	-	-	-	Tarona IV
Suvora	Suvora	-	Suvora	Suvora
Naqsh	Naqsh	-	Naqsh	Naqsh
Talqin	Talqin	-	Talqin	Talqin
-	-	-	-	Muqadima
Nasri Ushshoq	Nasri Ushshoq	-	Faryod	Faryod Nasri Ushshoq
Nasri Sabo	Nasri Sabo	-	Sabo	Sabo
Ufor	Ufor	-	Ufor	Ufor

2. BUZRUK MAQOMI				
Chertim yo‘li				
Tasnif	Maqomi	Maqomi	Maqomi	Tani maqom

	Buzruk	Buzruk	Buzruk	
Tarjeh	Peshrav I	Peshrav I	Peshrav	Peshrav I
-	Peshrav II	Peshrav II	-	Peshrav II
-	Peshrav III	Peshrav III	-	Peshrav III
-	-	-	-	Peshrav IV
-	-	-	-	Peshrav V
Muxammas	Muxammas	Muxammas	Muxammas	Muxammas I
-	-	-	-	Muxammas II
-	Sausuli Buzruk	Sausuli Buzruk	-	Sausul
Muxammas	Muxammas Feruz	-	-	Muxammas III
-	-	-	-	-
Nasrulloi	-	-	-	Muxammas IV
Saqili Islomiy	Saqili Islomiy	Saqili Islomixoniy	Saqili Islomixoniy	Saqili Islom
Saqili Niyozjon-Xo'ja	Saqili Niyozjon-Xo'ja	Saqili Niyozjon-Xo'ja	Saqili Niyoz-Xo'ja	Saqili Niyoz-Xo'ja
Saqili Sulton	Saqili Sulton	Saqili Sulton	Saqili Sulton	Saqili Sulton
-	-	Ufori Buzruk	Ufor	Ufor
-	-	-	-	Gulufor
Birinchi aytim yo'llari				
Maqomi Buzruk	Maqomi Buzruk	-	Maqomi Buzruk	Tani maqom
Tarona I	Tarona I	-	Tarona I	Tarona I
Tarona II	Tarona II	-	Tarona II	Tarona II
Tarona III	Tarona III	-	Tarona III	Tarona III
Tarona IV	Tarona IV	-	-	Tarona IV
Talqin	Talqin	-	Talqin	Talqin
-	-	-	-	Tarona I
-	-	-	-	Tarona II
Nasrulloi	Nasrulloi	-	Nasrulloi	Nasrullo
-	-	-	-	Talqin
Nasri Ajam	-	-	-	Faryod
Suvora	Suvora	-	Suvora	Suvora
Naqsh	Naqsh	-	-	Naqsh
Muqaddimai	Muqaddimai	-	-	Muqaddima

Nasri Uzzol	Nasri Uzzol			
Nasr	-	-	-	Nasri talqincha
Nasri Uzzol	Nasri Uzzol	-	-	Nasri Orazibon
Ufor	Ufor	-	Ufor	Ufor
3. NAVO MAQOMI				
Chertim yo'li				
Maqomi navo	Maqomi navo	Maqomi navo	Maqomi navo	Tani maqom
Peshrav	Peshrav	Peshrav I	Peshrav I	Peshrav I
-	-	Peshrav II	Peshrav II	Peshrav II
-	-	-	Peshrav III	Peshrav III
-	-	-	Peshrav IV	Peshrav IV
-	Peshravi Zanjir	Peshravi Zanjir	Peshravi Zanjir	Peshravi Zanjir
-	-	-	-	Qari Navo
Muxammas	Muxammasi Navo	Muxammas	Katta Muxammas	Katta Muxammas
Muxammasi Bayot	Muxammasi Bayot	Muxammasi Bayot	Muxammasi Bayot	Muxammasi Bayot
Saqil	Saqil	Saqili Navo	Saqil	Saqil
-	Nim Saqil	Nim Saqil	Nim Saqil	Nim Saqil
-	Ufor	Ufori Navo	Ufor	Ufor I
-	-	-	-	Ufor II
Birinchi aytim yo'li				
Maqomi Navo	Maqomi Navo	-	Maqomi Navo	Tani Maqom
Tarona	Tarona	-	Tarona	Tarona I
-	-	-	-	Tarona II
-	-	-	-	Tarona III
-	-	-	-	Tarona IV
Suvora	Suvora	-	Suvora	Suvora
Talqin	Talqin	-	Talqin	Talqin
Xorazmcha Tarona	Xorazmcha Tarona	-	-	Tarona
-	-	-	Faryod	Faryod
Nasri Bayot	Nasri Bayot	-	-	Nasr
Nasri Oraz	Nasri Oraz	-	Oraz	Oraz
Muqaddimai Dugoh	Muqaddimai Dugoh	-	-	Muqaddima

Husayniy	Husayniy			
Nasri Dugoh Husayniy	Dugoh Husayniy	-	-	-
Talqin Mustahzod	Talqin Mustahzod	-	-	Talqin Mustahzod
Naqsh	Naqsh	-	Naqsh	Naqsh
Suvorayi Dugoh Husayniy	Suvorayi Dugoh Husayniy	-	-	Suvorayi Husayniy
Talqiniy Dugoh Husayniy	Talqiniy Dugoh Husayniy	-	-	Talqini Husayn
Ufor	Ufor I	-	Ufor	Ufor I
-	Ufor II	-	-	Ufor II
1. DUGOH MAQOMI Chertim yo'li				
Maqomi Dugoh	Maqomi Dugoh	Maqomi Dugoh	Maqomi Dugoh	Tani Maqomi
Peshrav I	Peshrav I	Peshrav I	Peshrav I	Peshrav I
Peshrav II	Peshrav II	Peshrav II	Peshrav II	Peshrav II
Peshrav III	Peshrav III	Peshrav III	Peshrav III	Peshrav III
Peshrav IV	Peshravi Dugoh Firuz	-	Peshrav IV	Peshrav IV
Peshravi Zarbul fath	-	Zarbul fath	Zarbul fath	Zarbul fath
Tarjeh	Tarjeh	Tarjeh	-	Tarjeh
Samoi	Samoi Dugoh	Samoi	Samoi	Samoi
Muxammas I	Muxammas I	Muxammas I	Muxammas	Muxammas I
Muxammas II	Muxammas II	Muxammas II	-	Muxammas II
Muxammas III	Muxammas III	Muxammasi Chorgoh I	-	Muxammas III
Muxammas IV	Muxammas IV	Muxammasi Chorgoh II	-	Muxammas IV
Saqili Ishqullo	Saqili Ishqullo	Saqili Ishqullo	Saqili Ishqullo	Saqili Ishqullo
Saqili Feruz	Saqili Feruz	-	-	Saqil
Paxta zarb	Paxta zarb	Paxta zarb	Paxta zarb	Paxta zarb
-	Zarbul Fath	-	-	Zarbul

Ufor	Ufor	Ufori Dugoh	Ufor	Ufori I
-	-	-	-	Ufor II
Birinchi aytim yo'llari				
Maqomi dugoh	Maqomi dugoh	-	Maqomi dugoh	Tani Maqomi
Tarona I	Tarona I	-	Tarona	Tarona I
Tarona II	Tarona II	-	-	Tarona II
Tarona III	Tarona III	-	-	Tarona III
-	-	-	-	Tarona IV
Muqaddimai Nasri	Muqaddimai Nasri hijoz	-	-	Muqaddima
Talqin	Talqin	-	-	Talqin
Chorgoh	Chorgoh	-	Chorgoh	Chorgoh I
Nasri Chorgoh	Nasri Chorgoh	-	-	Chorgoh II
Naqsh	Naqsh	-	-	Naqsh
Nasri oraz	-	-	-	Nasri oraz
-	Muqaddimai Nasri Oraz	-	-	Muqaddima
Nasr	Nasri Oraz	-	-	Nasri
Suvora	Suvorai Dugoh Husayniy	-	Suvora	Suvora
-	Talqini Dugoh Husayniy	-	-	Talqin
-	-	-	Bayot	Bayot
-	Suvora	-	-	Suvora
Ufor	Ufor I	-	Ufor	Ufor I
-	Ufor II	-	-	Ufor II
5. SEGOH MAQOMI				
Chertim Yo'li				
Maqomi Segoh	Maqomi Segoh	Maqomi Segoh	Maqomi Segoh	Tani Maqomi
-	-	-	-	Tarjeh
Hafif	Hafif	Hafif Segoh	Hafif	Hafif
Peshrav	Peshrav	Peshrav	-	Peshrav I
-	-	-	-	Peshrav II
-	-	-	-	Peshrav III
-	-	-	-	Peshrav IV
Muxammas I	Muxammas	Muxammasi Segoh	Muxammas I	Muxammas I
Muxammas II	-	Muxammasi	Muxammas II	Muxammas II

		Segoh II		
Saqili bastanyor	Saqil	Saqili bastanyor	Saqili bastanyor	Saqil I
-	Saqili Feruz	-	-	Saqil II
-	Sausuli Feruz	-	-	Sausul
-	Chor usuli Feruz	-	-	Chor usul
-	Ufor	Ufori Segoh	Ufor	Ufor I
-	-	-	-	Ufor II
Birinchi aytim yo'llari				
Maqomi Segoh	Maqomi Segoh	-	Maqomi Segoh	Tani Maqomi
Tarona I	Tarona I	-	Tarona	Tarona I
Tarona II	Tarona II	-	-	Tarona II
Tarona III	Tarona III	-	-	Tarona III
Muqadimai Talqin	Muqadimai Talqin	-	-	Talqin
Talqin	Talqin	-	Talqin	Muqaddima
-	-	-	Sabo	Sabo
Muqaddimayi Nasri Hijoz	Muqaddimayi Nasri Hijoz	-	-	Muqaddimayi Nasri Hijoz
Nasri Hijoz	Nasri Hijoz	-	-	Nasri Hijoz
Nasri Navro'zi Horo	Nasri Navro'zi Horo	-	Navro'zi horo	Navro'zi horo
Suvora	Suvora	-	Suvora	Suvora
Naqsh	Naqsh	-	Naqsh	Naqsh
Taronai nasri ajam	Taronai nasri ajam	-	Muqaddimayi nasri ajam	Muqaddimayi nasri ajam
Nasri ajam	Nasri ajam	-	Nasri ajam	Nasri ajam
-	-	-	-	Tarona I
-	-	-	-	Tarona II
Ufor	Ufor I	-	Ufor	Ufor I
-	Ufor II	-	Ufor II	Ufor II
6. IROQ MAQOMI				
Chertim yo'li				
Maqomi iroq	Maqomi iroq	Maqomi iroq	Maqomi iroq	Tani Maqomi
-	Tarjeh	Tarjeh	Tarjeh	Tarjeh I
Peshrav	Peshrav	Peshrav	-	Tarjeh II
-	-	-	Peshrav I	Peshrav I

-	-	-	Peshrav II	Peshrav II
-	-	-	-	Peshrav III
Muxammas	Muxammas	Muxammas	Muxammas	Muxammas I
Muxammasi Feruz	Muxammasi Feruz	Muxammasi Feruz shohi	-	Muxammasi II
Sausul	Sausul	Sausul Iroq	-	Sausul I
-	Sausul Feruz	Sausuli Feruz shohi	-	Sausul II
Saqil I	Saqil I	Saqil I	Saqil	Saqil I
Saqil II	Saqil II	Saqil II	-	Saqil II
Naqshi Iroq Nafurdam	Naqshi Iroq Nafurdam	Naqshi Iroq Nafurdam	-	Naqshi Na furdam
Ufor	Ufor	Ufor Iroq	Ufor	Ufor I
-	-	-	-	Ufor II
BIRINCHI AYTIM YO‘LLARI				
-	-	-	-	Tani maqom
-	-	-	-	Tarona I
-	-	-	-	Tarona II
-	-	-	-	Tarona III
-	-	-	-	Tarona IV
-	-	-	-	Talqin
-	-	-	-	Faryod
-	-	-	-	Suvora
-	-	-	-	Muqaddima
-	-	-	-	Talqin
-	-	-	-	Naqsh
-	-	-	-	Oraz
-	-	-	-	Ufor I
-	-	-	-	Ufor II
7. PANJGOH MAQOMI				
Chertim yo‘li				
-	-	Maqomi panjgoh	-	Tani maqom
-	-	-	-	Tarjeh
-	-	-	-	TarjehII
-	-	-	-	Peshrav I
-	-	-	-	Peshrav II
-	-	-	-	Peshrav III
-	-	-	-	Peshrav IV
-	-	Muxammasi	-	Muxammas I

		Panjgoh		
-	-	Muxammasi Ushshoq	-	Muxammas II
-	-	Saqili Vazmin	-	Saqil I
-	-	-	-	Saqil II
-	-	-	-	Ufor I
-	-	-	-	Ufor II
-	-	-	-	Gulufor
-	-	-	-	Muxammasi doston
-	-	-	-	Qoradali
-	-	-	-	Rahm ayla
-	-	-	-	Norim-norim uforisi
-	-	-	-	Norim-norim uforisi
-	-	-	-	Bartavil
Aytim yo'li				
-	-	-	-	Talqin
-	-	-	-	Mustazod
-	-	-	-	Talqin
-	-	-	-	Mustazod
-	-	-	-	Savti suvora
-	-	-	-	Gulufor I
-	-	-	-	Gulufor II

5. Dutor maqomlari

Ko'hna Xorazm davlati o'zining musiqiy qadriyat va an'analari bilan bir qatorda, milliy musiqasi, maqomlari hamda dator maqomlari bilan millatimiz iftixori sifatida qadr topdi.

Dutor maqomlari qadimiy tarixga ega bo'lib, xorazmshohlar davridan ijrochilik maktabi shakllanganligini kuzatamiz.

Mazkur zamonlarda ular boshqacha nom bilan nomlanib, "Dutor maqomlari" emas, "navba", "roh" (kuy yo'li), kug (kuy) va boshqa nomlar bilan yuritilgan. Eski iboralar

Dutor maqomlari tushunchasiga ko‘ra “navba” (lug‘aviy ma‘nosi “qator”, “izma-iz”) deb yuritilgan. Xorazm va Movarounnahrda “Navba” iborasi XVII asrgacha iste‘molda bo‘lgan. Shashmaqom ijrochilik maktabi paydo bo‘lganidan keyin “navba” iborasi iste‘moldan chiqib ketdi.

Hozirgi kunda ma‘rifatchi va ayni chog‘da Dutor maqomlarining zukko bilimdoni, mohir dutorchi va musiqiyshunos Komil Devoniy tomonidan xatga to‘plangan nusxalar eng nodir manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning “tanbur chizig‘i” nota tizimi vositasida bitilgan Dutor maqomlarining noyob nusxalari ilmiy va amaliy jihatlardan eng mukammal matnlar hisoblanib, bu asarlar, musiqashunoslar ta‘biri bilan aytganda, mukammal ko‘rinishga egaligini ko‘rish mumkin.

Bizgacha yetib kelgan Dutor maqomlarining Muhammad Komil Devoniy qo‘li bilan yozilgan ikki noyob nusxasi; 1. XX asrning 20-yillarning ikkinchi yarmida, “noma” shaklida e‘lon qilingan. Bu nota yozuvi noma tarzida bitilganligi sababli, zamondoshlar uni “dutor o‘ramasi” deb yuritadilar.

Dutor maqomlarining ikkinchi nusxasi, sal keyinroq, taxminan, 20-yillarning oxiri 30-yillarning boshlarida aynan shu muallif tomonidan bitilgan. Bu qo‘lyozma shaklidagi nusxasi 2002-yilda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga taqdim etilgan.

Olti yarim maqom Dutor maqomlarining yonma-yon keltirilishi, so‘z matnlari, tarkibiy qism nomi va doira usullari bilan mufassal yozib olinganligi bu asarlarning tanbur chizig‘i nusxalari qatorida turishidan dalolat beradi. Dutor maqomlari Olti yarim maqom va Shashmaqomdan oldinroq yuzaga kelgan degan taxminlar mavjud.

Dutor maqomlari Xorazm vohasining musiqiy ijrochilik maktablarining jonli namunasi sifatida suvoralar, doston yo‘llari, xalfa yo‘llari, cholg‘u yo‘llari bilan chambarchas bog‘lanib ketganligining guvohi bo‘lamiz. Ma‘lumki, Roviylar, Iroqlar va Navoiylar azaliy O‘n ikki maqom parda tizimi tarkibiga kirgan ijro namunalaridan bo‘lib, ikkitasi o‘zbekcha imloda “Roviy” va “Iroq” tarzida keladi. Uchinchisi “Navoiy” shaklini olgan. Ularni bir tizimga solib ko‘radigan bo‘lsak, Roviy - Rahoviy, Navoiy Navo, Iroq esa shu maqom nomi bilan nomlanganligini kuzatish mumkin.

Komil Devoniyning nota yozuvlari bo'yicha Dutor maqomining oltita mufassal tarkiboti nomlar va doira usullari bilan berilgan. Quyida mazkur tarkibot Dutor maqomlari nomlari quyidagicha berilgan.

1. Zixiy nazzora

Talqini Zixiy nazzora

Tarje'bandi Zixiy nazora

Qaddim hamligi

Talqini Urganji

Naqshi Talqini Urganji

Ufari Talqini Urganji

2. Miskin

Talqini Miskin

Naqshi Miskin

Ufari Miskin

3. Rovi

Talqini Rahoviy

Avvalgi Naqshi Rahoviy

Ikkilanji Naqshi Rahoviy

Saqiynomai Rahoviy

Ufari Rahoviy

4. Sadri Iroq

Talqini Sadri Iroq

Naqshi Sadri Iroq

Ufari Sadri Iroq

5. Oxyor

Avvalgi Talqini Oxyor

Ikkilanji Talqini Oxyor

Ufari Oxyor

6. Choki giribon

Tarona

Matyusuf Xarratov tomonidan yozib olingan “Sarahbori Zixiy nazzora,” “Majnun dali” Dutor maqomlarini takomillashtirishga bo‘lgan ijodiy izlanishlarning samarasi desa bo‘ladi.

Xorazm musiqasi jonkuyari Matniyoz Yusupov tomonidan notaga tushirilgan Dutor maqomlariga xos bo‘lgan kuylar silsilasini paydo bo‘layotganligidan dalolat beradi.

Dutor maqomlari Iroq, Chapandoz, Mo‘g‘ulcha-Zihiy Nazzora, Navoiy, Sadri Iroq, Raviy (Roxaviy), Orazi Bom, Tashniz, Majnun Dali, Oxyor, Miskin, Aliqambarlardan iborat.

IROQ

Dutor maqomlarida Iroq dutorning ochiq toridan boshlanadi. Boshqa so‘z bilan aytganda, tanbur maqomlaridan bir parda balandda dator pardasida ijro etiladi. Dutorning ijro diapozoni qichik bo‘lganligi sababli, unda kuy va ashulaning baland pardalarini bir oktava pastga olib davom ettirib ijro etish mumkin.

полная партитура

полная партитура

Iyfori iroq



Iroq maqomining nota matni Matyusuf Xarratovning qalamiga 8000 raqamli tanbur chizig‘i qo‘lyozmasining surnay yo‘li (maqom)lariga bag‘ishlangan ikkinchi qismida

joylashtirilgan. Bu asar nota yoʻlida kichik oktava “lya” tovushidan berilgan. Matyusuf Xarratov yozuvlarida u surnay yoʻllaridan “Ufori Iroq” deb nomlanadi.

Maqom ijrochiligida “Ufar” atamasi koʻp qismlik asarlarning yakunlovchi qismi maʼnosida keladi. Ufar arabcha farʼ (koʻpligi furuʼ) maʼnosini bildirib, farʼ va furuʼ atamaları musiqa ijrochiligida koʻp ishlatilgan. Musiqa ijrochiligida toʻrt qismlik “navbati murattab”ning yakunlovchi qismi “furuʼdosht” deb nomlanib, oldingi qismlardan olingan boʻlaklarning yigʻmasi, degan maʼnoni anglatadi.

“Ufari Iroq” atamasi boʻlaklar (yigirma toʻrt xona)dan iborat bir butun tuzilma maʼnosini bildiradi.

Ochiq havoda ijro etiladigan surnay yoʻllari qadimda “navba” deyilgan. xorazmshohlar davrida (1097 1231) harbiy zafarlar munosabati bilan katta qismli navbalar chalingan¹⁸. Buxoro Shashmaqomining udumlarida ham navba atamasi (lugʻaviy maʼnosi qator) saqlangan. Buxoroda yozilgan qadimiy musiqiy risolalarda Shashmaqomda ayrim saraxborlardan keyin 10 15 va undan ham koʻproq taronalar bir-biriga ulanib ketishligi haqida aytib oʻtilgan. Dutor maqomlarida Ufari Iroq “navba” larning ijro uslublari ularning qadimiy ijro yoʻllaridan ekanligidan dalolat beradi.

CHAPANDOZ

Abdulqodir Marogʻiy asarlarida keltirilgan maʼlumotlarni koʻrib chiqadigan boʻlsak, chapandoz atamasi borasida oʻxshashliklarni kuzatishimiz mumkin.

Uning asarlarida turk “kuy”lari umumiyashtirilib “usullar davrasi”, kuy va vazn tuzilmalari haqida soʻz boradi. Dutor maqomlarida “usullar davrasi” – kuy va usul tuzilmalari boʻyicha “uluq kug” (“bisun kug”)ga taalluqli ekanligi namoyon boʻladi.

¹⁸ Ziyo Bunyodov. Markaziy Osiyoga doir maʼlumotlar. Xorazmshohlar davri. Toshkent, 2012.

Choki giribon

M.M = 100

1-xona

Cho-ki gi -ri bo-nam yo - ray g`a - ri - bi el - lar - din ey

5
ke-lay el - lar din. Bir Al - loh - ga ay-tay ham-du sa-no - la - ri

Ijrochilikdagi to‘qqizta “bisun kug”da “Aslonchap” nomi ham tilga olingan. Fitrat qadimiy “Aslonchap” bilan bugungi “Chapandoz” o‘rtalaridagi aloqalarni Navoiy baytlaridan qidiradi.

Soqiyo, may tut, qo‘yg‘il so‘zni,
Xon qurultoyig‘a yetkur o‘zni,
Sof may-i jom aro gar dilkash erur,
To‘stug‘an ichra qimiz ham xush erur.
Ey sarv, sen ham ko‘rguz
Yootug‘an birla “uluq” yirini tuz.

Navoiy “yotug‘an” ismli bir cholg‘u bilan “uluq” ismli bir “yir” haqida aytib o‘tgan. Bu holatda “uluq yir”ning yuqoridagi “uluq kug” yo uning o‘xshashlik holatiga imo qiladi.

Hozirgi kundagi “chapandoz” doira usuli bilan “Aslonchap”ning munosabati haqida olimlarimizning turli fikrlari mavjud.

“Aslonchap – chapaslon – chapandoz” so‘zlari ma‘nosi bir bo‘lsa ham, shakli o‘zgarib ketgan, degan xulosa kelib chiqadi.

Dutor maqomida “Chapandoz” degan asarning nomi shundan dalolat beradiki, “Chapandoz” faqatgina usul emas, balki asarning nomida ham keladi. Ma‘lumki, Shashmaqom ijrochiligida Chapandoz usuli ikki xil o‘lchovdan ($\frac{3}{4}$ va $\frac{3}{8}$) iborat vaznga ega. Shuning uchun asar “chapandoz” o‘lchovidagi ritm asosiga qurilganligiga ishora qiladi. “Chapandoz” deyilishining sababi ham shunda.

Komil Devoniyni taqdim etgan mazkur kuy variantida “bosh kuyi” yetti hissalik toq o‘lchovga asoslangan “Choki gribonam” nomli Dutor maqomi mavjud bo‘lib, asar $\frac{7}{8}$

o'lhovida ijro etilib, nomi esa o'zgarib ketganligini ko'rish mumkin. Ijro amaliyotida bunday usullar "Qalandar" deb nomlanadi. Shoir Ravnaqning Muxammaslaridagi boshlang'ich yoki har bandning oxirida takrorlanib keladigan so'zlariga o'xshab "Chapandoz" va uning "talqin", "talqincha" ko'rinishdagi shakllari Dutor maqomlarida ko'p uchraydi. Hamdusano zikrlariga mansub "Qalandar" ning mazkur yo'li Dutor maqomlarida saqlangan.

Maqom ikkinchi qismi "taronas" deb nomlanib, Shashmaqom va Olti yarim maqomdagi "du bayt" va "ruboiy" shaklidagi g'azallar bilan aytiladigan kichik qismlarda ham ishlatiladi. Ma'lumki, Shashmaqom va Olti yarim maqomda taronalar ma'lum bir usul bilan ko'rsatilmaydi. "Choki giribon" "Taronas" Dutor maqomlarida 6/4 o'lhovli vazndagi "qo'sh naqsh" usulida aytiladigan g'azali bilan (A.Navoiy) berilgan. Dutor maqomlari tarkibida bizgacha yetib kelgan "Choki giribon"ning bosh qismidagi "qalandar" taronasidagi "qo'sh naqsh" usullari qadimiy ijrochilik uslublari "chapandoz" maqomining naqadar qadrliligi ekanligidan dalolat beradi.

MO'G'ULCHA – ZIHIY NAZZORA

"Mo'g'ulcha" usulining asosiy xususiyati besh choraklik (5/4) toq hissali o'lhovida bo'lib, Mo'g'ulcha usulining boshqa holatdagi boshi oxiriga olingan shakli "savg" nomi bilan yuritiladi. Shashmaqomda Mo'g'ulcha va Savtlar turkum sifatida alohida sho'bachalar ko'rinishida kelgan.

V.Uspenskiy tomonidan to'plangan Shashmaqom tarkibiga Mo'g'ulcha va Savt turkumlari kiritilmagan.¹⁹ Fitrat Mo'g'ulcha va Savtlar, Shashmaqomdan farqli ravishda mumtoz musiqaning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlab, Shashmaqomni ikki ko'rinishda bo'lganligi, birinchisi, "Asl Shashmaqom", ikkinchisini esa "Sho'bachalar" deb nomlanganligini aytib o'tadi.

¹⁹ Успенский В.А. Шашмаком. Москва. 1924.



Komil Devoniy to‘plamidan o‘rin olgan “Mo‘g‘ulcha” usulidagi Dutor maqomi “Zihiy nazzora” deb nomlangan. “Zihiy nazzora” maqomi ham “Choki giribon”ga o‘xshab usul va pardaning nomi emas, balki she’riy matndan qolgan so‘zlar jamlamasiga ishora qilingan. Sababi, “Mo‘g‘ulcha” usulidagi boshlang‘ich qismining bu cholg‘u yo‘li XX asrning 30- yillarida N.Mironov tomonidan “Saraxbori Zihiy nazzora” nomi ostida notaga yozib olingan.²⁰ “Sarahbor” so‘zining ma’nosi “bosh xabarchi” ekanligi maqomshunoslarimiz uchun yangilik emas.

“Saraxbori Zihiy nazzora” maqomi N.Mironov tomonidan Samarqand musiqa va raqs ilmiy tadqiqot institutining topshirig‘iga binoan notaga tushirilgan. Bunda musiqashunos Matyusuf Xarratovning xizmatlarini ham aytib o‘tishimiz zarur. “Sarahbor” iborasini ishlatilishining sababi, maqomning yaratilishida Buxoro Shashmaqom ijrochilik maktabi ta’siri katta bo‘lganligini kuzatish mumkin.

Dutor maqomlari ichida “Zihiy nazzora” tanbur yozuvi vositasida bizgacha saqlanib qolgan yirik hajmdagi asardir. U ijro yo‘nalishi bo‘yicha usullardagi chalkashliklar, bir nom osida turli usullarning kelish holatlari bo‘lgan yetti qism iborat asardir.

Zihiy nazzorada Dutor maqomlariga xos bo‘lgan besh xildagi usullar – mo‘g‘ulcha, chapandoz, soqiynoma, naqsh, uforlardan iborat kuy shakllari mavjudligini ko‘rish mumkin. Shuning uchun Zihiy nazzora Dutor maqomlari ichida eng ko‘p usullardan iborat turkum ekanligini kuzatamiz.

Ular

²⁰ Песни Бухары, Хивы и Ферганы.

1. Zihiy nazzora mo'g'ulcha 5/4
2. Talqini Zihiy nazzora chapandoz 3/4+3/8
3. Tarjibandi Zihiy nazzora soqiynoma 4/4
4. Qadim hamligi soqiynoma 4/4
5. Talqini Urganji soqiynoma 4/4
6. Naqshi Talqini Urganji juft naqsh 6/4 (3/4+3/4)
7. Ufari Talqini Urganji ufar 6/8

“Zixiy nazzora” maqomining kuy yo‘lining nomi va u tarkibiy qismlarda turli usullar - mo'g'ulcha, chapandoz va soqiynomalar uch marta, 1-, 2-, 3- qismlarda keladi. “Talqin” yo‘li esa to‘rt marta, 2-, 5-, 6-, 7-qismlarda va har safar chapandoz, soqiynoma, juft naqsh va ufar usullarga solinib ijro etiladi. Dutor maqomlarida “talqin” atamasi turlicha usullarda boshqacha yo‘l va uslublarda keladi.

Talqin tushuntirish, izohlash ma'nolarini anglatib, atoqli san'atkorlar Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Hojixon Boltayev, Jo'raxon Sultonovlar ijrochilik maktablarida bu uslubdan foydalanganlar. Mo'g'ulcha usulidagi talqin ko'rinishida, Talqini Zihiy nazzora “Chapandoz” usuliga solinganligi, Talqini Urganji – uslubidagi asar ekanligi, asarni “naqsh” usuliga tushirilganida va asar so'ngida “ufor” uslubidagi ko'rinishda bo'lishligi Zihiy nazzora kuyining turli o'zgarish va ko'rinishlarga uchraganligi orqali kuzatish mumkin.

So'nggi paytlarda maqom ijrochiligida “far” va “tushurum” iboralari iste'moldan chiqib ketib qanday ma'nolarga ega ekanligi ham unutila boshladi. “Far” so'zi - “bo'lak”, “qism”larga ajratish ma'nosini anglatib, Forobiy asrlarida “far” (“furu”) asosan, “iyqo” (ritm) tushunchalarini anglatgan. “Tushirim” iborasi talqin va far'ning ma'nosini anglatib, tushurum va furu' lug'aviy yaqinlikka ega so'zlardandir. Matyusuf Xarratov asar ijrosida xolatni almashinib turishiga “tushurim” deb nomlagan.

Komil Devoni Zihiy nazzoraning alohida usullar bilan ajratilgan tarkibiy qismlarida talqin atamasini qo'llaydi. Devoni tuzgan maqom matnlaridagi Olti yarim maqomdan oldin shakllangan Dutor maqomlarining eski udumlarini ko'p qirralari saqlanib qolganligi bilan e'tiborga loyikdir.

NAVO

Dutor maqomlari ro'yxatida to'rtinchi raqamdagi Navoiy maqomi "Qori Navoiy" deb ham nomlanadi. Fitrat:- "Xorazmlik o'zbek dutorchilari tarafidan ancha qadimdan bog'langan bir maqom bo'lib, o'zbeklarning o'z milliy maqomlari bo'lg'anlig'ini har og'izdan so'ylanib kelinmaktadir. Alisher Navoiy "o'zbeklarning o'z milliy maqomlari bo'lg'anlig'i haqidagi ta'rifi katta ahamiyaga ega", - degan e'tirofini aytib o'tadi.

Qori navo

A.Fitrat "O'zbek klassik musiqasi tarixi"



Fitrat Alisher Navoiyning musiqa olamiga qo'shgan katta hissasi haqida shunday degan edi. "Ulug'bek zamonida mashhur Xoja Ahror Valiyning himoyasi ostida Samarqandda "diniy teskarichilik" (aksu-l-harakat) paydo bo'la boshlaydir. Shuning ta'siri bilan Ulug'bekning o'lkasida buzg'unliqlar yuz ko'rsatir-da, Ulug'bekning o'lumi bilan natijalanadir".

Fitrat keltirib o'tgan ma'lumotlariga ko'ra, Samarqanddagi siyosiy bo'hron, g'alayonlar, notinchliklar, davlat to'ntarilishi, shoh va falakshunos olim Mirzo Ulug'bekning fojiali o'limi tufayli "go'zal san'atlar" hisoblangan madaniyat va san'at

sohasi rivojiga katta putur yetib, madaniy markaz Samarqanddan Hirotga ko‘chdi va Husayn Boyqaro saltanati ostida Alisher Navoiy “go‘zal san’atlar” maktabi rivoji uchun homiylikni qo‘lga oladi, deb aytib o‘tadi.

Fitrat “Qari navo” kuyining yaratilish tarixi haqida qiziqarli ma’lumotni keltirib, “bu kuyning Xorazmda bastalangani to‘g‘risidagi xabarni darrov qabul qilish qiyindir. Chunki bu kuyning eskidan beri Buxoroda ham chalinib turgani ma’lum, hattoki uning Navoiy asri bo‘lg‘ani ham so‘ylanmakdadir. Eshitganimizga ko‘ra, Farg‘onada ham “Qari Navoiy” ismli eski bir kuy bor. Toshkent musiqiychilari bu kuyni “Qari Navo” derlar. Biroq bu ism yanglishdir. Alar shul “Qari Navoiy” ismini buzub olg‘anlar.”²¹

Kavkabiylar risolasida arabcha “amal” ishlatilsa, Darvish Ali risolasida “kor” shaklidan foydalanilgan. XIX asarda Buxoroda yozilgan musiqiy risolalarda “tarona”lar shakliga nisbatan, odatda, “amalot” (amalning ko‘pligi) qo‘llanilgan. Og‘zaki istelohda esa ko‘proq “kor”ga murojaat qilingan. Buxoro ustozlari orasida “ser kor”, “kam kor” atamalari so‘nggi vaqtlargacha iste’molda bo‘lgan. Ushbu dalillarni e’tiborga olib, Dutor maqomini “Qori Navoiy” deyishlikni maqsadga muvofiq ko‘ramiz. Shunda bu ism asarning bosh qismiga demak, uning bir butuniga taalluqli ekanligi ham ayon bo‘ladi (O.Matyoqubov).

SADRI IROQ

“Sadr” so‘zi lug‘atda xilma-xil ma’nolarda ishlatiladi. Dutor maqomlarida “Sadri Iroq” parda nuqtayi nazaridan “o‘rtaliq” ma’nosiga to‘g‘ri keladi. Sadri Iroqning pardasi Iroqnikiga nisbatan markazda, o‘rtada joylashgan.

²¹ Shu asar. 41-6. Matndan tashqarida “Qari Navoiy” bo‘lsakerak”, deb izohlanadi.

M.M=100

Sadri Iroq

Bozgo'y 1-xona

Pod-sho - xo dav - la - tu um -

ring-ga nuk - son bo'l - ma-sun Qul - li - ging - ni qil - ma-g'on

dav-ron a - ro xon bo'l - ma-sun Ho - di - so - ti daahr-din ko'ng -

Sadri Iroq misolida Dutor maqomlarining ayrim xususiyatlari namoyon bo'ladi. Dutor maqomlari ichki tuzilishida parda va usul mezonlari muhim ahamiyatga ega. Ana shu nuqtayi nazardan Sadri Iroq turkumi Iroqnikiga qaraganda kvarta yuqorida, Iroq tovush jadvalining o'rtasida joylashganligida o'z aksini topadi. Shu tufayli ular orasida nafaqat tashqi va ichki tarafdin ham o'xshashliklar borligini ko'rsatadi. (O.Matyoqubov)

Olti yarim maqom va Dutor maqomlari bir xil tuzilishga ega. Barcha Dutor maqomlari ufar bilan yakunlanadi, chapandoz va naqshlari o'rtada keladi, boshlanishida murakkab, ya'ni 5/4 vaznidagi usullar ko'proq ishlatiladi. Bu usul doirasi takt ichida - "mo'g'ulcha", takt tashqarisida "savg" deyiladi. "Zihiy nazzora" "Mo'g'ulcha" usulida ijro etilgan bo'lsa, "Sadri Iroq"da "Savg" usuli keladi.

ROVIY (RAHOVIY)

Qadimiy "o'n ikki maqom" tizimidagi parda doirasining nomidan olingan "Rahoviy" maqomida Xorazm shevasiga xos "Roviy" shakli saqlanib qolgan. Rohaviy maqomi Dutor maqomlari Tanbur maqomlariga nisbatan qadimiy maqomlardan ekanligini ko'rsatib turibdi.

M.M=90

Roviy (Rahoviy)

Bozgo'y 1-xona

Qa - chon kim

ay - la - sa ul Iy - so za - mo - na

ha - dis, O' luk ba - dan ga be-rur-ga

mi - Jo-vi-do - na ha - dis

Roviy maqomining tarkibi murakkab 6/4 o'lvohidagi ikkita doyra usullaridan iborat. Ustozlar ularning birisiga "faryod" 6/4 (2/4+4/4) deb nomlagan bo'lsa, ikkinchisiga "nafirdam" ("nufurdam) 6/4 (4/4+2/4) deb nomlangan. Komil Devoni qo'lyozmalarida ular "naqsh" deb atalgan. E'tiborli tomoni shundaqi, bu usullarning ikkovi dutor maqomlari va Tanbur maqomlari (Olti yarim maqom)da ham uchraydi.

ORAZI BOM

Dutor maqomlari ro'yxatining yettinchi, sakkizinchi va to'qqizinchi raqamlarida keltirilgan Orazi bom, Tashniz, Majnun dalilar alohida ajralib turadi. Gap shundaki, bu asarlar, garchan mazmunan serqatlam (ko'p tushirimli) bo'lsa-da, shaklan avlodlar xotirasida yaxlit tuzilma (tasnifot) tarzida o'rnatib qolgan.

Oraz (lug'atda "yuz", "jamol") mumtoz maqom yo'llaridan hisoblanib, Shashmaqom va Olti yarim maqom tizimlarida Navo va Dugoh turkumlarining tarkibidagi parda tuzilmasining nomidan olingan. Orazi bom so'zi "tong jamoli" ma'nosini bildiradi. Mazkur asar bomdod namozidan keyin, xonaqo va qalandarxonalarda zikr yo'llarida hamda to'y- bazmlarida va shodlik kechalarida qayroq chalib ijro etilgan.

Orazi Bom



Orazi bomning cholgʻu, ashula va ashula-raqs yoʻllari keng tarqalgan boʻlib, barchasining negizini kuy yoʻli tashkil etadi. Bizning misolda XX asr oʻrtalarida Matkarim Hofiz Bobojonov oʻzi dutor chalib aytgan, Respublika radiosi fondida saqlanayotgan nusxa asos qilib olingan. U 6/8 vaznidagi “ufor” usulida ijro etilgan.

TASHNIZ

Aynan Tashniz maqomining maʼnosi haqida aniq maʼlumot keltirilmagan. Hijriy 1380-yilda Tehronda nashr etilgan “Arabcha-forscha lugʻat”da “tashnif” soʻzi “kuy, musiqa yoki yoqiml ovoz (yaʼni aytim) bilan koʻngilni shod etmoq, arabcha “tasnif”ning forslashgan shakli” degan maʼnoni bildiradi.

Tashniz



“Tasnif” iborasi oʻrta asr musiqiy risolalarida musiqiy shakl (tuzilma-tasnifot) maʼnosida ishlatilgan boʻlib, Najmiddin Kavkabiy risolasining musiqiy shakl masalalariga bagʻishlangan “Tasnifot tarkibiy qismlarini hisob va muvofiqlik nuqtayi nazaridan taqsimlanishi” deb nomlanuvchi 11-bobi, Shashmaqom mushkiloti boshlangʻich qismining nomi. Xorazm Olti yarim maqomida esa “tasnif” iborasi ishlatilmaydi. Cholgʻu va ashula yoʻllarining boshlangʻich qismi “tani maqom” hisoblanib, olti yarim maqomga nisbatan qadimiyroq boʻlgan Dutor maqomlarida buzilgan shaklda saqlanib qolgan. “Tashniz” Dutor maqomlarining cholgʻu yoʻlidagi asar hisoblanib, ashula yoʻli nomaʼlum. N.Mironov kitobida Matyusuf Xarratov tomonidan yozib olingan nusxasining nota matni keltirilgan.

MAJNUN DALI (Qoradali)

Majnun dali Dutor maqomlarining cholgʻu yoʻlidagi asar boʻlib, kuyning nota matni N.Mironov va M.Yusupov toʻplamlarida keltirilgan. Hojixon Boltayev shoir Orzu (Yangiboy mullo) gʻazali bilan ijro etilgan boʻlib, asarning ikkinchi nomi “Qora dali” nomlangan. “Qora dali” nomi “Majnun dali”ga nisbatan qadimiyroq boʻlib, bu asar haqida qadimiy afsonalar ancha oldin paydo boʻlib, uning tarixi qadimda afsonalar yaratilgan.

“Qora dali” fors tilidagi “Shabdiz” (tun qora) kuyining tarixi afsonalarda keltirilgan.

Qoradali

M.M=60



Dutor maqomlari orasida “Majnun dali” nomli kuy mavjud. Xuddi shu asrning o‘zi Xorazm sozandalari orasida “Qora dali” nomi bilan ham yuritiladi. Ming yil oldin adabiyot olamida ta’riflangan “Rohi Shabdiz” (“Shabdiz yo‘li”) N.Mironov tomonidan Matyusuf Xarratovdan notaga yozib olgan “Majnun dali” va bugungi kunda cholg‘u kuyi va ashula yo‘li sifatida yashab kelayotgan “Qora dali” musiqiy asaridir.(rivoyatlarga ko‘ra, “Shabdiz” “Qora dali” ham xuddi shu rangdagi otning nomini anglatadi).

OH YOR

Navbatdagi Dutor maqomlaridan hisoblangan “Oh yor” ashula naqoratlarida takrorlanib keladigan so‘z iborasi nomi bilan mashhur bo‘lib, asar boshlang‘ich qismida 5/4 o‘lchovidagi savt usulida “Mo‘g‘ulcha” va “Savt” usullari Shashmaqomining “Sho‘bacha” naziralaridagi boshlang‘ich qism usulining nomiga o‘xshaganligini eslatib, bu nomning Olti yarim maqomdan oldinroq paydo bo‘lganligidan dalolat beradi.

Maqomning keyingi ikkita qismlarida “talqin” usuli “chapandoz” usuliga asoslanib kelganligini ko‘rish mumkin. “Talqin” iborasi asosiya ergashib keluvchi qismlarning umumiy nomlaridan biri bo‘lib, “Talqini Urganjiy” – “Soqiynoma” ko‘rinishida, “Oh yor”da – “Talqini Oh yor” va “Ikkinchi Talqini Oh yor”- “chapandoz” ko‘rinishida, “Talqini Sadri Iroq” haqiqiy “talqin” usuli ko‘rinishida kelishini ko‘rish mumkin.

Usul sifati asosida “Oh yor” maqomi el maqomlarining ilk ko‘rinishlaridan ekanligini namoyon qiladi.

Ikkilanji Talqini Ahyor

M.M=55

1-xona

To dar - di ish qing aq - lim - ni ol - di

di Tur - lik ba - lo - lar

bo - shim - ga sol - di bo - shim - ga sol - di

18 Bozgo'y

di


MISKIN

“Miskin” maqomi ham el maqomlarining qadimiy kuy yo‘llaridan biri hisoblanadi. Qadimiy Xorazm hududidagi avliyo “Miskin Ota” nomi bilan bog‘liq bo‘lgan joyning nomi bo‘lib, Islom olamining ilk davrlarida dutor chalib Allohga oshiqlik izhor qilgan mo‘tabar shaxslardan biri nomiga qo‘yilgan.

6/4 o‘lchovi usulidagi Miskinning o‘lchovi Dutor maqomlarida ikki ko‘rinishda keladi. Ular 2/4+4/4 hamda 3/4+3/4 shakllaridagi o‘lchovlardir. Avvalgi suhbatlardagi “Roviy” maqomi tahlilida birinchisi “nufurdam” (uzoq davom etuvchi nafas) deb ta’riflagan edi. Ikkinchisi esa $\frac{3}{4}$ vaznli “naqsh” usulining ikkilangan ko‘rinishidir. Musiqashunoslar tomonidan uni “qo‘sh naqsh” deb atalgan.

Miskin

M.M=90



“Qo‘sh naqsh” usuli “Sadri Iroq” maqomining “Naqshi Sadri Iroq” va “Roviy” maqomining “Avvalgi Naqshi Rahoviy” maqomlarida ham kelishi uning e‘tiborli tomonini ko‘rsatadi. Dutor maqomlarining Shashmaqom va Olti yarim maqom majmualaridan farqi, bunda ijro usullari doirasida erkinlik sezilib turadi. Bunday usul erkinligi Olti yarim maqom va Shashmaqom majmualarida uchramaydi.

Ularni “El maqomlari” deyilishining asosiy sabablaridan biri bir usulning turlicha nomlanishi, bir nom ostida xilma-hil usullarni kelishi Dutor maqomlarining oddiyligi hamda xalqchilligidan dalolat beradi. Farg‘ona-Toshkent maqomlarida ham “Miskin” turkumlari mavjud bo‘lib, Xorazm va Farg‘ona Miskinlarining umumiy o‘xshashligi ularning boshlang‘ich qismlarining kuy asoslarida yaqqol eshitilib turadi. Farg‘ona maqom maktabiga asos solgan Xudoyberdi Ustoz XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida 18 yil Urganchda yashab musiqiy ta‘lim olganligi keltirib o‘tiladi.

Shu bois Xorazm va Farg‘ona Miskinlari ikki maqom maktablarining maxsuli ekanligi, ularning tarkibiy qismlarining nomlaridan ham sezilib turibdi.

Xorazm yo‘li

Miskin

Talqini Miskin

(chapandoz usulida)

Naqshi Miskin

(soqiynoma usulida)

Ufari Miskin

Farg‘ona yo‘li

Miskin

Miskin I

Miskin II

Miskin III (Adoiy)

Miskin IV (Asiriy)

Miskin V (Og‘ir ufar)

ALIQAMBAR

“Aliqambar” qadimiy dutor cholg‘usi tarixi bilan bog‘lik bo‘lgan kuy yo‘li bo‘lib, asar Hazrat Alining ot boqari “Qambar Ota” nomiga bog‘langan. Qambar Ota ham Miskin Ota kabi mo‘tabar avliyolardan bo‘lgan. Shuning uchun ular ijrochilik amaliyotida Miskin va Aliqambarlar bir birini to‘ldiruvchi asarlar sifatida xanuzgacha e’tirof etib kelinadi.

ALIQAMBAR

O‘zbek xalq kuyi

Salmoqli, shoshilmasdan





Rivoyatlarga ko‘ra, Qambar Otaning dutori doim egniga osilgan bo‘lgan ekan. U dutor chalib, boshqalarga orom bergan, o‘zining dard-hasratlarini dutorning nozik sadolari ostida ifoda eta olar ekan. Miskin Ota esa soz vositasida elga ta’lim berar va oshiqlar qalbini poklar ekan. Qambar ota va Miskin otalar birga soz ijro qilganlarida elning qalbiga musiqaning ilohiy nurlari kirib borar ekan. Shu boisdan Aliqambar va Miskinlar ulug‘ bir mo‘tabar kuy sifatida qabul qilingan ekan.

Bu kuyning muqaddas ekanligining nishonasi - Xorazmda nafosatli soz majlislari va to‘y- bazmlarida hozirgi kungacha “Aliqambar” kuyi bilan ochilib kelmoqda. Asarning so‘z matni XVI asr oxirlari – XVII asr boshlarida o‘tgan Xorazmlik shoir G‘oyibiy qalamiga mansubdir.

. Qoraqalpoq va Xorazm dostonchilik maktablari

Qoraqalpoq xalqida dutor chertib qo‘shiq aytadigan hunar egalari “baxsi” deb aytiladi. Ular O‘rta Osiyo, Kavkaz orti ellarida keng tarqalgan. Qoraqalpoqlarda: “baxsi”, qozoqlarda “jirchi”, ozarbayjonlarda “ashug,” gruzinlarda “misagan”, armanlarda “gusan”, o‘zbek va turkmanlarda “baxshi” deb aytiladi. Baxshichilik bu kasblarning bunday yaqinliklari ularning ko‘p asrlik moddiy-ma’naviy, madaniy bog‘lanmalarining (o‘zaro yaqin) teran tomir yoyganligidan darak beradi.

Qoraqalpoqlarda baxshilar 2 ta maktabga bo‘linadi (f.f.d. N.Daugarayev, Q.Aytimbetovlar)ning fikrlari. 1) Musa baxsi. 2) Suyov baxshi maktablari. Bulardan oldin ham baxshilar bo‘lgan lekin ko‘pchiligining nomlari ma’lum emas.

Muso va Suyavlardan oldinroq Xorazmda Chig'atoyli (o'zbeklardan) baxshi Eshvoy baxshi yashab ijod etgan. Dong taratgan afsonaviy baxshi deb aytadilar o'zbek, turkman, qoraqalpoqlar ham bizning baxshimiz deyishgan. Uning nomi bilan o'zi yaratgan "Eshvoy" ashulasi hozirda ham uchala xalq ellari ichida mashhur, sevib aytiladi va tinglanadi. Eshvoy bilan zamondosh bo'lgan Nurjon, Otash degan baxshilar Eshvoy baxshi o'lganlaridan keyin uning yo'lini G'aripniyoz ismli baxshi davom ettirgan. Masalan, Chimboy atrofida Shernazar baxshi Beruniy, To'rtko'l atrofida Shuman baxshi, Muso maktabining davom ettirishgan bo'lsa-da, aytish usullari, qochirim, nolalar yangiliklar repertuarlarini boyitishga hissa qo'shganlar.

Muso maktabining so'nggi avlodlari Eshjon va Shoniyozi baxshilarning aytimlarida bir-biridan farqlari bo'lgan. Japaq baxshi yo'linda aytgan baxshilar O'rinboy va Shapabay baxshilar. Japaq baxshi Siyov baxshi yo'linda aytgan. O'rinboy baxshi Qo'ng'iro't baxshilaridan biri. Sayotxon va Hamro, Hurliqo Hamro, Oshiq Nashan, Yusuf va Ahmad lirik dostonlar bilan birga Navoiy, Maxtumlul, Mullo Nafas, Hajiniyaz, Berdaq kabi klassik shoirlarning g'azallarini ham aytganlar. Atoqli turkman baxshisi Siyov baxshining qo'shiqlarini o'rganib qoraqalpoqlar ichida davom ettirgan Japaq baxshi Akimboy baxshining sozini davom etuvchisi Muso baxshi, Esjon baxshilar bo'ladi. Edepbay baxshining ham shogirdlari davomchilari bo'lgan o'zbek, turkman, qoraqalpoq baxshilari bir-birlari bilan yaqin aloqada bo'lib, bir-biriga yordam berib to'y-tomoshalarni birga o'tkazib kelganlar, dostonlarni almashib bir-birlaridan so'rab o'rganib kelganlar.

O'zbek baxshilarining ko'pchiligiga Suyov baxshi ustozlik qilgan deb yozadi (Q.Ayimbetov) Shogirdlaridan Odilboy, Qutim, Olloyor, Ayozi, Gurbek, Shapabay, O'rinboy baxshi Bola baxshi, Norbek, Qalandar, Yetmishboy baxshilar Suyov baxshi maktabining davomchilaridir.

Xorazm qadimdan el tanigan Eshvoy baxshi, Nurjon baxshi, Otash baxshi, Siyov baxshi kabi baxshilar yurti. Eshvoy esa asli shovotlik xalq sevgan baxshi bo'lgan. Xalq ichida yurgan rivoyatlarga qaraganda, Eshvoy baxshi Xiva xoni saroyida go'yandachilik qilar edi. Har kuni oti bilan Shovotdan Xivaga qatnar ekan. Bir kuni Qo'shko'pirning "Ta'qirdovuq" degan joyida bir beva ayol farzandiga to'y qilayotgan bo'ladi. To'yda bir sozanda bo'lsa yomon bo'lmasdi. Erim rahmatlik tirik bo'lganida Eshvoy baxshini oldirib

soz qildirar edi, deb afsus chekadi, Shunda odamlar hozir shu yo‘ldan Eshvoy baxshi Xivaga o‘tadi. Bir og‘iz aytsangiz, yo‘q demas, deyishadi. Ayol Eshvoy baxshining yo‘lini poylab, u yetib kelgach, iltimos qiladi. Eshvoy baxshi beva ayolni iltimosini qabul qilib, to‘yda ikki soatlar soz qilib beradi.

Bazmga kech qolib borgan Eshvoy baxshini xon minoradan tashlab o‘ldirishga hukm qiladi. Ertaga xon hukmi ijro qilinishini bilgan xalq minoraning atrofiga ko‘rpa-to‘shak, yostiq, qo‘yingki qo‘liga nima ilsa olib kelib tashlashadi. Minoraning chor atrofi xalq keltirgan yumshoq narsalardan ikki metr balandlikka ko‘tariladi. Xon amri vojib. Eshvoyni minoradan tashlashadi, ammo xalq mehri uni o‘lmay tirik qolishiga sabab bo‘ladi.

Eshvoy baxshi dorichini bolasi,
Eshvoydan aylansin Xiva qal’asi,
Tagiga to‘shanglar g‘oli polasi,
Kuyla Eshvoy, kuylaringga bandaman.²²

Rivoyatlarga ko‘ra, Xorazmda el sevgan mashhur go‘yanda – baxshilar, navozandalar sozlarini chertib, xalqning dardu - quvonchlariga sherik bo‘lib, ko‘plab tarixiy-qahramonlik dostonlarini ijod qilganlar, ijro qilganlar.

Xorazm dostonchilik maktabi o‘z an‘analariga ega bo‘lib, u boshqa mahalliy dostonchilik maktablaridan (masalan, Surxondaryo – Qashqadaryo-Samarqand an‘analaridan) farqli jihatlariga ega. Bu farqlar, asosan, quyidagilardan iborat:

a) Xorazm dostonlari (ichki) «bo‘g‘iq ovoz»da emas, balki «ochiq ovoz» uslubida kuychan xususiyat bilan aytiladi;

b) ko‘pgina mahalliy dostonchilik maktablarda do‘mbira sozi jo‘rnavoz sifatida qo‘llansa, Xorazm dostonchiligida dutordan foydalaniladi. Shuningdek, doston aytimida ijrochilar ansambli qatnashadi. Bunda ustoz baxshi dutor, tor yoki rubobda, qolganlari esa g‘ijjak, bulamon va ba‘zan doyra sozlarida jo‘r bo‘lib turishadi;

v) Xorazm dostonlari repertuarini, asosan, «Oshiq G‘arib va Shohsanam», «Go‘ro‘g‘li», «Kuntug‘mish», «Bozirgon», «Oshiq Oydin» kabi dostonlar tashkil etadi. Xorazm dostonchiligi repertuar tarkibi jihatidan ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Epik asarlarni talqin etishda jamoaviy ijrochilik yetakchilik qiladi. "Shirvoniy" (Xiva) va

²² Boltaboy Matqurbonov. Baxshining baxti.2017y.18 avgust.Xorazm va xorazmliklar.
<https://www.facebook.com/groups/khorezmian/permalink/1452049811539593/>

"Eroniy" (Mang'it) nomli ikkita yo'nalishga bo'linadigan ushbu maktab qadimgi ildizlarga ega, o'ziga xos repertuari, ansambllar tarkibi (Shirvoniy – tor, qo'shnay, doira; Eroniy – dutor va uch torli g'ijjak), uslub va lahja, yorqin va jonlantiruvchi qo'shiq, ashula va ohang (15 tadan to 36 gacha)larga ega. Shirvoniy baxshichilik maktabining yetakchi namoyandasi Bola baxshi (Qurbonnazar) Abdullayev va uning bolalari (Norbek, Muhammad, Yetmishboy); Eroniy baxshichilik maktabi namoyandasi Xudoybergan Utegenov.²³ Xorazm dostonchiligining yirik vakillari qatorida Ahmad baxshi.

Bola baxshi Abdullayev Bola baxshi²⁴ taxallusi; asl ismi Abdullayev



Qurbonnazar. 1899-yilda Xiva tumani Gullanbog' qishlog'ida tug'ilgan, 1994- yilda vafot etgan.

1938-yilda O'zbekiston xalq baxshisi unvonini olgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, Xorazm dostonchilik maktabining yirik vakili. Xorazmlik Jumanazar baxshining shogirdi. O'n yoshlaridayoq katta yoshdagi baxshilar davrasida doston, qo'shiq aytganligi uchun «Bola baxshi» nomini olgan. Uning repertuarida «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Oshiq Mahmud», «Bozirgon», «Xirmondali», «Avazxon», «Kampir», «Qirqming», «Safar ko'sa» kabi yigirmaga yaqin doston bo'lib, ulardan «Bozirgon» (1965-yil), «Avazxon» (1967-yil) dostonlari yozib olinib, nashr etilgan. U yoshlarga doston aytishni o'rgatish maktabi tashkil qilgan(1970-yil) ko'pgina shogirdlar yetishtirgan. O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasi (Moskva. 1937-yil), O'zbekiston xalq ijodchilari olimpiadasi (Toshkent, 1938- yil), Xalqaro Oltoyshunoslar (Toshkent, 1987- yil) hamda boshqa folklor anjumanlari (1978-va1985-yillar)da qatnashgan.) Shogirdlari- Norbek baxshi Abdullayev, Ro'zimbek Murodov, Otajon Matyoqubov, Qalandar baxshi Normatovlar .

Xorazm musiqa uslub doirasida dostonlarni garmonda (sozda) ijro etish an'anasi ham bo'lib, bunda dostonlar bir butun yaxlit shaklda emas, balki undan olingan parchalar va termalar aytiladi. Xorazmda bu turdagi ijrochilarni sozchi, ya'ni Qurbon sozchi, Qodir sozchi, Xo'ja sozchi deb ataladi.

²³ <http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-2/327-bakhshi-art>

²⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси.2-kitob.124-bet.

Xorazm dostonchiligida xalfachilik san'ati ham shakllangan bo'lib, u, asosan, ayollar orasida keng yoyilgan. Unda ko'proq dostonlardan olingan parcha va termalar, shuningdek turli vaziyatlarda kuylash uchun ijod etilgan (to'y- marosimi qo'shiqlari, lapar va b.) qo'shiq-aytimlar kuylanadi. Xorazm xalfalari, Buxoro sozandalari singari, asosan, xotinqizlar ishtiroki bilan bog'liq turli yig'in, marosim va va majlislarda qatnashgan. Bunda xalfalar ijodi ikki shaklda – yakka va jamoaviy (ansambl) tarzda namoyon bo'lgan. Shu bilan birga, yakkaxon xalfalar motam marosimlarida ham ishtirok etib, unda "Ibrohim Adham", "Bobo Ravshan" kabi xalq kitoblarini ma'lum ohanglar asosida "o'qiganlar".




O'zbekiston xalq baxshisi

Qalandar Normatov

II-bob. Xorazm ashulachilik maktabi namoyandalari

QURJI OTA AVAZMATOV (1868-1958)



Qurji ota 1868-yilda Xiva shahrida tug'ildi. 12 yoshidan otasi uni zargarga shogird qilib beradi. Bo'sh vaqtida u to'yu tomoshalarda, yig'inlarda, sayllarda taniqli mashshoqlarning ashulalarini eshitadi va musiqaga havasi uyg'onadi. Ulardan eshitgan ashula va kuylarni dutorda mashq qilib yuradi. O'sha davrning mashhur sozandalari Polli Duzchi, Matyoqub Pozachi, Avaz Sallohlardan ashula aytish, musiqa chalish sirlarini o'rganadi. O'zi ham

mustaqil xalq orasida ashula aytib, kuylar chalib, e'tibor qozona boshlaydi.²⁵

Keyinchalik u katta-katta davralarga taklif etilib, mahur sozandalar bilan birga ijro qilib, diyralishmalarda qatnashadi. Kurji otaning repertuari ko'proq maqomlarning ikkinchi aytim yo'llaridan va xalq kuylaridan iborat bo'lgan. U ko'proq "O'zbek suvorasi", "Kajang suvora", "Yakparda suvora", "Aliqambar", "Go'svand" kabi ashulalarni Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Ogahiy, Komil Xorazmiylarning g'azal va Muxammaslari bilan aytib yurgan.

Urush boshlanguniga qadar Xiva musiqali teatrida ishlab, o'zida bor musiqa bilimlarini yoshlarga o'rgatadi.

Qurji ota Avazmatov Ulug' Vatan urushi yillarida Madrahim Yoqubov (Sheroziy) bilan Toshkent shahrida, keyin Yangiyo'l teatrida ishladi.

Qurji ota Avazmatov 1958 yilda Xiva shahrida vafot etadi.

DEVONBOBO (OTAJON ABDULLAYEV)²⁶ **(1878-1960)**



Devonbobo nomi bilan mashhur bo'lgan Otajon Abdullayev 1878-yilda hozirgi Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumani Chibiqli qishlog'ida dehqon oilasida tug'iladi. Yetti yoshidan maktabga qatnab, bilim ola boshlagan Otajonda musiqaga havas paydo bo'ladi. Yoshligidan To'rtko'l atrofidagi sozanda va ashulachilardan to'y-tomosha, sayil va bayramlarda musiqalar eshitadi va o'rganadi. Devonbobo 1900-yilda Xivaga keladi. Saroy maqomchilaridan mashhur sozanda Qalandar Do'nmas va boshqalardan maqom yo'llarini o'rganadi.

Xivada teatr, konsert brigadalarini tuzishda, 1940-1941-yillarda Urganch shahrida Xorazm viloyat davlat estradasini tashkil etishda ishtirok etadi. Ko'p yillar milliy estrada konsert brigadalarida sozanda bo'lib ishlaydi va X.Boltayev, N.Boltayev, Otashayx, Bola

²⁵ М.Юсупов.Хоразм мақомлари.2 -том.1-қисм.Наво.Т._Ф.Фулум номидagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1982-yil.

²⁶ O'sha kitob.11-bet.

baxshidek taniqli san'atkorlarga musiqa ilmidan, maqomlardan, xalq kuylaridan, doston kuylaridan o'rgatadi.

Devonboboning avlodlari, o'g'li Saloy Devonov, nabiralari San'at Devonov, Shuhrat Devonovlar ham san'atkor bo'lib yetishdilar. Otajon Abdullayev 1960- yili Urganch shahrida vafot etdi.

MATPANO XUDOYBERGANOV²⁷

(1888-1960)



Matpano Xudoyberganov (taxallusi Suxanvar) 1888-yilda Xivada tug'ilgan. Xonanda (lirik tenor), sozanda (tanbur, dutor), maqomchi, shoir.

Sozandalik, xalq musiqasi va Xorazm maqomlarini otasi Xudoybergan Muhrkan va Matyoqub Xarratovlardan o'rgangan. 1925 1932- yillarda sozchilar uyushmasi ansamblida ijrochi, 1932 1934-yillarda Urganch teatrida xonanda va sozanda, 1934 1940-yillarda Milliy estradada sozanda va xonanda, 1942 1947-yillarda maqomchilar ansambli rahbari sifatida faoliyat ko'rsatgan. Xorazm maqomlari va suvora yo'llarining mohir ijrochisi sifatida tanilgan. Uning keng ovoz diapazoniga asoslangan nafis xonandalik uslubi shogirdlari X.Boltayev, K.Otaniyozov, A.Otajonov, M.Yusupovlar ijrochiligida o'z aksini topgan.

Matpano Xudoyberganovning rahbarligi va nazorati ostida 1949 1952- yillarda San'atshunoslik institutida Xorazm maqomlarining ashula yo'llari (H.Boltayevdan Buzruk, K.Otaniyozov, K.Ismoilovlardan Rost, Navo, Dugoh, Segoh) magnit lentasiga yozib olingan. Shogirdi M.Yusupov Matpano Xudoyberganovdan o'rgangan Xorazm maqomlarini to'la notaga olgan va nashr ettirgan («Uzbek xalq musiqasi», 6-j., 1958; «Xorazm maqomlari», 1-3- j., 1980 1987). Matpano Xudoyberganovning yozgan g'azallari Nasrullovi, Nasri Rost kabi maqom va an'anaviy suvora turkumidagi kuylarda aytiladi.

Matpano Xudoyberganov 1960- yilda Urganchda vafot etgan.

²⁷ O'zbekiston milliy entsiklopediyasi.2004-yil.9-to'm.513-bet.

JUMANIYOZ XAYITBOYEV

(1890-1968)



Xorazm musiqa madaniyatining keksa san'atkorlaridan biri, Xorazm maqomlarining taronalari, uforlari, ikkinchi aytim yo'llaridagi suvoralar, savtlar, savti uforilar va mustahzodlarning mohir ijrochisi, dutorchi, garmonchi, doyrachi Jumaniyoz Haitboyev 1890 yilda Urganch shahrida zargar oilasida dunyoga keldi. U maktabga qatnab zargarlikdan ko'ra musiqaga qiziqadi. U otasidan yashirin bir eski dutorni sotib olib, chalib yuradi. Tez orada uning qo'li dutorga o'rganib, "Navo" maqomining saqili, uforisi "Aliqambar" kuylarini dutorda juda chiroyli chaladigan bo'ladi. Keyin-keyin u dutor bilan ashulalar ham ayta boshladi va yoniga doirachi, ko'zi ojiz Madrayim qorini o'ziga sherik qilib oladi. Otasi qarshilik ko'rsatganda do'stlari oraga tushib otasidan sozandalik qilishga ruhsat olib beradilar. Garmonni Xorazmda soz deb ataydilar. Shuning uchun Jumaniyoz sozchi deb ham atay boshlaydilar. U o'zidan oldingi ustoz san'atkorlardan xonqalik Otajon sozchi, xivalik Qurbon sozchi, Avazyoz Sallohlardan maqomlar va xalq kuylaridan o'rganib o'z repertuarlarini tobora boyitib boradi. 1941-yilda u Xorazm viloyati davlat milliy konsert estradasini tashkil qilishda qatnashadi va uzoq yillar uning ashulachisi va musiqachisi bo'lib ishlaydi. J. Hayitboyev ijro etgan Xorazm maqomlari va xalq kuylaridan 1956 1957-yillarda San'atshunoslik instituti va O'zbekiston radiosi yozib olgan. U ko'plab san'atkorlarga ustozlik qildi. Madrayim qori, K. Otaniyozov, R. Jumaniyozova, N. Yusupova, O. Hasanov, H. Bobajonov, M. Rahimov, M. Yusupovlar Jumaniyoz Hayitboyevni o'z ustozlari deb biladilar.

MADRAHIM YOQUBOV (Sheroziy)

(1890-1973)



Madrahim Yoqubov (Sheroziy) soz (garmon), dutor, rubob, tor kabi musiqa asboblarning ajoyib ijrochisi, sozanda va ashulachisi bo'lgan.

U 1890-yilda Xiva shahrida tug'iladi. Madrahim yosh paytidan san'atga, ashulachilikka mehr qo'yadi.

Ustozlaridan Polli duzchi, Qurbonniyoz Talqinchi, Qurji ota Avazmatovlar uning talantini ko'rib, unga har tomonlama yordam beradilar.¹⁵ 20 yoshlarida u boshiga qo'y terisining sheroziy nushasidan dagalak-cho'gurma kiyib yurgani uchun uni Sheroziy deb ataydilar. Sheroziy Xorazm maqomlarining ikkinchi aytim yo'llaridan suvoralarni, chapandozlarni, savti suvoralarni avjlariga yengil chiqib, tushib, avjlarda uzoq tura oladigan talqinchilardan bo'lgan. Uning repertuaridagi ashulalar "Katta suvoralar", "Savti suvoralar", "Guluforlar", "Sanama" va "Feruz"lar, maqomlarning taronalaridan iborat edi. Sheroziy o'zi kuylaydigan kuylarga klassik shoirlarning g'azal va muxammaslarini qo'llar edi. Xorazmda ashulachilar o'rtasida bo'lgan diyalishmalarda Sheroziy faol qatnashgan. 1920- yillarning ashulachilaridan Polli duzchi, Qalandar bola, Qurji ota, Komiljon Otaniyozovlar bilan diyalishmalarda qatnashib, muvaffaqiyat qozongan. 1934-yilda Xorazmga borgan musiqa ekspeditsiyasi a'zolari Y.Y. Romanovskaya va I. Akbarovlar Matyoqub Xarrat va Safo Mug'anniyalar qatori Madrahim Yoqubovdan maqomlarning ikkinchi aytim yo'llari va xalq kuylarini yozib oladilar. Ulug'Vatan urushi yillarida Madrahim Yoqubov Yangiyo'l teatrida ishlaydi.

Unga 1949- yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi", 1970- yilda sakson yoshga to'lishi munosabati bilan "O'zbekiston xalq artisti" unvonlari berilgan. Sheroziy umrining oxirigacha san'atdan uzoqlashmadi.

Madrahim Yoqubov 1973- yilda Urganch shahrida 83 yoshida vafot etdi.

MATYOQUB OTAJONOV²⁸ **(1891-1968)**

Matyoqub Otajonov Xorazm muzika madaniyatining ko'zga ko'ringan ustozlaridan biri hisoblanadi. Matyoqub Otajonov 1891-yilda Xorazmning Xiva shahrida kambag'al oilasida tug'ildi. Matyoqub yoshlik davrida maktab yoki biron mulla qo'lida tahsil olmagan bo'lsa ham, zehni va xotirasi o'tkirligi sababli musiqa sirlarini tez orada o'zlashtirib olishga intildi.

²⁸ P. B. Xuxamqulov T. X. Mamedyarov Xorazm maqom san'atiga bir nazar. Angren 2008-yil.

Keyinchalik, u otasining ruxsati bilan Matqurbon hofizga shogird tushdi. Ustozi Matqurbon aka shogirdining zehni tezligidan va bir-ikki eshitgan kuyni yoki she'rlarni tez yodlab olishidan, ovozdor ekanligidan xursand bo'lar hamisha o'zi bilan birga olib yurar edi. Ana shu yillar mobaynida Matyoqub doira jo'rligida ham ashulalar ayta boshladi. Ko'plar qatori 20- yillarda Matyoqub Otajonov sidqidillik bilan konsert birigadalarida ishladi. Madrahim Sheroziy, Matyusuf Xarratov, Matpano ota Xudoyberganov, Safo Mug'anniy kabi mashhur san'atkorlar bilan uchrashib, ko'p yillar ular bilan birga ishlashdi va mahoratini oshirib bordi. 1937- yilda Matyoqub Otajonov Madrahim Sheroziy, Rayim Olloberganov (masxaraboz, qiziqchi, qayroqchi) va boshqa ko'pgina san'atkorlar bilan Moskvada o'tkazilgan o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasida qatnashdi.

Matyoqub Otajonov 1936 1940-yillarda Xiva shahrida teatr sohasida, Xorazm viloyati davlat milliy estradasini tashkil qilishda faol qatnashdi va ko'p yillargacha shu estrada qoshida talantli ashulachi Hojixon Boltayev bilan birga ishladi. Ulug' Vatan urushi yillarida konsert brigadalariga g'oyaviy rahbarlik qildi. Chunonchi armiyaga, frontga ketuvchilarga Hojixon Boltayev, Matpano Xudoyberganov, Xo'ja Otajonov, Rayim Ollohberganov va ko'pgina boshqa san'atkorlar bilan konsertlar berdilar. Matyoqub Otajonov Xorazmda taniqli, mashhur san'atkorlardan hisoblanadi va ko'plab san'atkorlar uni o'z ustoz deb hisoblaydi.

Matyoqub Otajonov 1950-yil yanvar oyida mehnat nafaqaga chiqsa ham san'atidan aslo uzoqlashmadi, katta davlatlarda to'ylarda, paxta hosil bayramlarida viloyati va rayon saylovlarida ko'pchilik san'atkorlar qatori o'zining san'ati bilan ishtirok etdi. Taniqli ustoz san'atkor Matyoqub ota Otajonov 1968-yil 10-noyabrda Urganch shahrida 78 yoshida vafot qildi.

HOJIXON BOLTAYEV **(1902-1987)**



Hojixon Boltayev 1902 yil Xonqa tumanidagi Abduvaj qishlog'ida etikdo'z oilasida tug'ilgan. Ular oilada to'rtta og'ini bo'lishib, eng kattasi Ro'zmat, undan keyingisi Egambergan, uchinchisi Hojixon va eng kichigi Nurmamat edilar. Aka - uka yoshlik paytlaridan ashula aytishga qiziqqanlar, xonandalik

sirlarini bir-biridan o`rganishgan. Katta akasi Ro`zimat dutor chalgan. Hojixon aka undan dutor chalishni o`rgandi. Ungacha ashulani hech bir cholg`u asbobisiz, qo`liga bir tayoq olib ham aytavergan. Hojixonning xonandalik san`atiga kirib kelishida otashkurak (olov oladigan asbob) ham sabab bo`lgan. Xorazmda olov oladigan narsani, odatda, otashkir deyishadi (ya`ni o`t, olov ushlaydigan otashkurak). Hojixon davralarda, gap-gashtaklarda, ziyofatlarda shu asbobda usul berib, uni qo`liga urib, ashula aytib yurgan. O`g`lining iste`dodi, zehni va musiqaga bo`lgan xavasini sezgan otasi Bolta buva Hojixonni o`z davrining mashxur ashulachisi, dutorchisi, sozchisi va garmonchisi Otajon akaga shogirdlikka beradi. Tez orada Hojixon o`z ustozidan dutor chalish va ashula aytish sirlarini o`rganadi.

Hojixon aka qo`shiqchilikda 1925-yillar dovrug` qozonib, elga tanilib ketadi. Uning elga tanilishida 20-yillarda o`tgan san`atkorlar Polli duzchi Kurji ota, tanburchi Sovur Ma`ram kabi mashxur sozandalardan olgan ta`limi muxim axamiyat kasb etadi. Chunki ular bilan doimiy xamkorlik qilish, joylarda uyushtiriladigan turli tadbirlarda qatnashish undagi iste`dod qirralarini ochdi.

Hojixon Boltaev o`zining birinchi ustози Otajon garmonchiga zo`r ixlos qo`ygan edi. Bu san`atkorni ba`zida “Otajon bola” deb xam aytardilar.

Hojixon Boltaev Ro`zmat akasidan ilk suvoralarni eshitib yuradi va o`ziga yarasha bir yangi uslub topib, oldingi san`atkorlarga nisbatan qo`shiq sur`atini tezlatib, yangi naqshlar bilan to`ldirib, ayta boshlaydi. Chunki xar bir ijodkor san`ati, o`z davri an`analariga tayanib, ularni rivojlantiradi. Ana shu davrda Polli duzchiga o`xshagan san`atkorlar suvoralarni juda murakkab uslubda aytganlar. Lekin shunga qaramasdan xalq ularni juda xam yaxshi tinglagan. Xatto ular besh - o`n soatlab ashula aytganda ham xalq ularni zerikmasdan tinglagan.

Xorazm xonandalik san`atida **aytishuv** degan ibora bor. Buni xalq “**diyalishma**” deydi. Xiva shaxridagi “Nurillavoy” madrasasiga o`xshash mashxur maskanlarda, olomon yig`iladigan joylarda va Hazrati Sultonbuvaga bag`ishlangan, Norimjon buvaga atalgan sayllarda shuningdek, boshqa shunday ziyoratgoxlarda, bayramlar va darvishona, xayitlar, Navro`z tantanalarida aytishuvlar- diyalishmalar bo`lgan. Bu aytishuvlarning ko`pida Hojixon aka qatnashgan. U Polli duzchi bilan ham aytishgan. Polli duzchi Navoiy va

Fuzuliyning gʻazallarini yaxshi bilgan sanʼatkor boʻlib, Mashrab va Soʻfi Olloyor gʻazallarini xam juda koʻp bilar, maromiga etkazib baland avj pardalarda kuylar edi.

Oʻsha vaqtdagi sanʼatkorlar odatiga koʻra, diyalishma oʻtkazilgan bir kechada qancha ashula aytilgan boʻlsa, hech qachon bir gʻazal ikki marta qaytarib aytilgan emas. Hojixon Boltaevning ilk ijrochilik repertuari rang - barang gʻazallarga boy boʻlmagan. Shunga qaramay u yoqimli ovozga ega boʻlib, suvoralarini juda yaxshi kuylay olgan. U mumtoz shoirlar gʻazallarini yaxshi bilmaganligi tufayli, koʻp vaqtlar aytishuvlarda (Polli)Polvonnazir duzchidan engilgan. Chunki bunday aytishuvlarda agar bir ashula ikki marta qaytarilsa, unda ijrochi engilgan boʻlib, dutorni erga qoʻyishi kerak boʻlgan. Qoʻshiq aytish besh soat, oʻn soatlab aytilganda, ham bir gʻazal, muxammas ikki marta takrorlanishi mumkin boʻlmagan albatta. U paytda auditoriya - tomoshabinlar, tinglovchilarning aksariyati gʻazal, muxammas, umuman, mumtoz shoirlarning asarlarini tushunadigan muxlislar boʻlgan. Hojixon Boltaev ana shunday davrlarda yetishib chiqqan mashxur sanʼatkorlardan biri edi. Uning qoʻshiqchilikdagi eng yuksak parvozga erishgan vaqtlarida aytgan ashulalari “Feruz 1-2”, “Qaddim xamligi”, “Aliqambar” va “Suvora” turkumlaridan iborat edi. Baʼzida u “Savti suvora”larga ikkita, uchta gʻazallarni qoʻshib aytgan. Hojixon bir davrada bitta gʻazalni ijro etgan boʻlsa, ikkinchi davrada boshqa gʻazal bilan oʻsha suvorani aytgan. Buning sababi shuki, oʻsha davr xofizlari juda koʻp gʻazal bilganlar.

1940-1945 yillardan soʻng Xorazm maqomlariga mexr qoʻya boshlagan Hojixon oʻsha davrning mashxur maqomchisi Matpano otadan maqom aytish yoʻllarini oʻrgana boshladi. Dastlab, “Rost” maqomidan “Faryod”, “Tun oqshom” deb boshlanuvchi ashulalarni, keyin “Nasrulloi”, “Chorgox”, “Navo”, “Segox”, “Dugox” maqomlarini Matpano otadan oʻrganib olgan Hojixon Boltaev keyinchalik, Xorazm maqomlari ijrochiligining 1942 - 1950 yillardagi rivojlanishga katta xissa qoʻshdi.

Maqom janri sanʼatining juda koʻp qirralarini oʻz ichiga oladi. Xorazm maqomlari aslida “Olti yarim maqom” nomi bilan ataladi. Hojixon cholgʻu qismlaridan “Saqili Navo”ni, “Dugox” maqomidan “Peshravi Dugox”ni mukammal oʻrgangan. U “Muxammasi Ushshoq” ni yaxshi bilgan va “Dutor maqomlari”dan “Roviy”ni ijro etgan. Har maqomda 20 - 30 tadan cholgʻu kuyi boʻlganda “Olti yarim maqom”da 220

ga yaqin chertim ashula yo'llari mavjud bo'ladi. Hojixon ana shu yo'llarning eng yaxshilarini ijro eta bilgan. Odatda, ayrim san'atkorlarni talqinchi, boshqasini suvorachi deyдилar. Maqomning talqin yo'llarini ko'proq aytgan sanatkorga talqinchi deyishadi. Suvora yo'lini ko'proq aytganlarga esa suvorachi deyдилar. Ana shunday qilib maqomni birov u qismini aytgan, yana birov bu qismini aytgan, xullas, xar kim o'ziga loyiq va kuchi etadigan qismini tanlab olib, kuylaganlar. Hojixon Boltaevning ovozi kuchli tembrli, musiqiy va ta'sirchan, baland bo'lgani uchun maqomlarning og'ir, eng baland qismlarini bemalol aytgan. Hojixon aka sozanda, xonanda, hamda benazir g'azalxon edi.

Sozanda deganda soz chala oladigan, qo'shiq aytganda xonish qiluvchi ovozi bo'lgan san'atkorlar tushuniladi. Hojixon aka ana shu xislatlarning barchasini o'zida mujassam etgan juda zo'r sozanda xisoblanadi. Keyinchalik, 40-50 yillarga kelib Hojixon akaning ketidan ko'p san'atkorlar ergashgan. Qutlimurod Xojiev, Quronboy bola Rasulov, Sotim Avezov, Quvondiq Iskandarov, O'rinboy Otajonov, Abdusharif Vafoev, Nurmuxammad Boltaev, Ro'zmat Jumaniyozov va Matnazar Xudoynazarov kabi ko'plab san'atkorlar bevosita Hojixon Boltaevning ketidan ergashib jumxuriyatda elga tanilgan san'atkorlar xisoblanardi. Xorazm san'atkorlari ichida eng ko'zga tashlangan, ko'plab shogirdlar tarbiyalab, Xorazm musiqa madaniyatining keyingi rivojiga katta hissa qo'shgan xalq sozandasi va go'yandasi, ijrochiligida feruzlar, suvoralar, savti suvoralarini va maqom talqinlarini, faryodlarini, taronalarini qiyomiga yetkazgan san'atkorlardan biri Hojixon Boltayevdir.

Hojixon Boltayev repertuarida Xorazm maqomlari va xalq kuylaridan tashqari, Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro ashulalari, jumladan, Ushshoq I. II. III. IV. Daromadi Ushshoq, Iroq va boshqa shu yo'ldagi ashulalar bo'lgan. U darhaqiqat dutor, tanbur, tor (rubob) kabi musiqa asboblarini yaxshi biluvchi talqinchi – ashulachi, maqomchidir.

U 1947- yilda Hojixon Boltayev Chorjo'y-Qo'ng'iro't temir yo'l qurilishida o'z konsert brigadasi bilan qatnashdi. Bu konsert brigadasida mashhur maqomchi-tanburchi Matpano ota Xudoyberganov, Jumaniyoz ota Hayitboyev, Matyoqub Otajonov, D. Bobojonov, Nazira Yusupova va boshqalar bo'lgan.

1949-yilda Xorazm viloyati teatri qoshida maqomchi, ashulachi, laparchi, dostonchi, o'yinchi yigit va qizlardan tashkil topgan qirq kishidan iborat Xorazm ashula va raqs ansambli tuzildi. Bu ansamblida Hojixon Boltayev ham o'z repertuari bilan ishtirok etdi. Hojixon Boltaboyevga yaxshi ijrochilik mahorati uchun 1949-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoni berildi.

Hojixon Boltayev 1949-yildan to 1966-yilgacha Xorazm viloyati davlat teatrida ashulachi bo'lib xizmat qildi va konsert brigadasini boshqardi. Hojixon Boltayev 1966-yilda mehnat pensiyasiga chiqdi. Ammo pensiyaga chiqsa ham san'atdan uzoqlashmadi. 1966-yilda Hojixon Boltayev ko'p yillik san'at sohasidagi samarali xizmatlari va viloyatning madaniy hamda jamoat ishlarida aktiv qatnashgani uchun O'zbekiston xalq artisti degan sharafl mukofot bilan taqdirlandi. Hojixon Boltayevning ko'pgina ashulalari O'zbekiston radiosida, Toshkent gramzapis studiyasi orqali plastinkalarga va O'zbekiston san'atshunoslik ilmiy tekshirish instituti tomonidan magnit tasmasiga yozib olingan.

NURMAMAT BOLTAYEV

(1911-1974)



Taniqli maqomchi, dutor va tor yo'llarining mohir ijrochisi Nurmamat Boltayev 1911-yilda Xorazm viloyatii Xonqa rayoni Abdivaj qishlog'ida hunarmand etikdo'z oilasida tug'ildi. Akalari-sozanda va go'yanda Egambergan Boltayev, Hojixon Boltayevlar, yosh Nurmamat Boltayevga muzika sirlarini o'rgatadilar. Akasi Hojixon Boltayev bilan ashulachilik qilib, to'y-tomoshalarda, katta davralarda sayillarda qatnashdi. Keyinchalik Nurmamat Boltayev mashhur xushdast, noyob va xushovoz dutorchilardan biriga aylandi.

1929 1930-yillarda esa Xonqa rayoni maorifi bo'limi qoshida tashkil etilgan ansamblida muzikachi va ashulachi sifatida tanildi. 1943-yildan boshlab Urganchda Xorazm viloyati milliy estradasida, keyinchalik Xorazm viloyati Ogahiy nomli muzikali drama va komediya teatrida ishladi. U yoshlik yillari mashhur ustoz maqomchi Matpano ota Xudoyberganovdan Xorazm maqom yo'llaridan aytim va chertim qismlarini o'rgandi.

1970-yillarga kelib Urganch shahar madaniyat saroyi qoshida tashkil etilgan havaskor maqomchilar to'garagidagi akasi Hojixon Boltayev bilan birga yoshlarga maqom yo'llarini o'rgatishda jonbozlik qildi, shuningdek, Bog'ot rayon Narimonov kolxozida tashkil etilgan xalq ansamblida ham yoshlarga maqom va xalq kuylaridan saboq berdi. Xorazmlik ashulachilardan Nazira Yusupova, Quvondiq Iskandarov, O'rinboy Otajonov, Bibi Iskandarova, Ro'zimat Jumaniyozov, Shermat Fayzullayev va ko'plab yoshlar N.Boltayevni o'zlarining ustozlari deb hisoblaydilar. 1974-yilda N.Boltayev nafaqaga chiqdi. 1978-yil 3-sentyabrda Urganch shahrida 67 yoshida vafot etdi.

KOMILJON OTANIYOZOV (1917-1975)



O'zbek san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shganlardan biri iste'dodli xonanda, sozanda, bastakor, O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston xalq artisti,"buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi Komiljon Otaniyozovdir.

Komiljon Otaniyozov 1917-yilda Xorazmning Shovot tumanidagi Bo'yirchi qishlog'ida tug'ildi. Uning otasi o'z davrining o'qimishli, yetuk kishilaridan bo'lib, Niyoziy taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. Komiljon dastlab akasi Foziljon ta'sirida muzika san'atiga havas qo'ydi. O'rta maktabni tugatgach, Urganchda o'qituvchilar tayyorlaydigan ikki yillik kursni muvaffaqiyatli tamomlab, yana o'z tumanida o'qituvchilik qiladi. Komiljon Otaniyozov maktabda muzika to'garagi tuzadi va o'zi ham akasi yordamida dutor, tor, garmon, doira chalishni o'rganadi. 1936-yilda Shovotda teatr tashkil etiladi.

K. Otaniyozov bu yerda tajribali san'atkorlardan ko'p narsalarni bilib oladi. Jumladan, Jumaloq baxshidan xalq kuylarini, bir qancha xalq dostonlarini o'rganadi.

1932-yilda Komiljon Otaniyozov Xiva shahridagi teatrga taklif qilinadi. Bu yerda u xonanda sifatida ishlar ekan, sho'x va o'ynoqi qo'shiqlari bilan tomoshabinlarni o'ziga tez jalb etadi va el yurt orasida katta e'tibor qozonadi. U teatrdagi ishlagan paytlarida mashhur xalq dostonchisi, «Go'ro'g'li», «Shohsanam», «Oshiq Mahmud», «Avazxon» dostonlari turkumining bilimdoni va mashhur ijrochisi (Bola baxshi) Qurbonnazar Abdullayevdan

kuy va qo'shiqlar o'rganadi, o'zi ham bu ashulalarni hamda Maxtumduli she'rlarini xalq kuylari va o'zi yaratgan ohanglarga solib ijro etadi.

Xalq dostonlari va Maxtumduli she'riyatining odamlar qalbiga juda yaqinligi va Komiljon akaning o'ziga xos kuylash uslubi hamda uning ba'zi bir g'azal va she'rlarini rechitativ uslubga yaqinroq qilib, tinglovchiga yetib boradigan darajada kuylashi tez orada Xorazmdan tashqariga ma'lum bo'lib, muxlislari ko'payishiga sabab bo'ldi. Komiljon Otaniyozov 1945-yillargacha «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Bozirgon», «Sayotxon va Hamro», «Xirmondali» va «Go'ro'g'li» dostonlarining ayrim parcha bo'laklarini ijro etishdan avval tinglovchilarga mazkur dostonning mazmunini tushuntirib, qo'shiqlarini qiziqarli, jonli voqeaga bog'lab ijro etadi.

1945-yiddan boshlab Komiljon Otaniyozov repertuari tubdan o'zgara boshlaydi. Bu paytda u Xorazmning Madrahim Yoqubov (Sheroziy) va Hojixon Boltayev kabi mashhur san'atkorlari bilan yaqinlashadi, ulardan feruzlar, suvoralar, chapandozlardan o'rganadi. O'z repertuarini Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy, Munis, Mashrab va boshqa klassik shoirlarning g'azal va muxammaslari bilan aytiladigan qo'shiqlar hisobiga boyitadi.

1947-yildan Komiljon Otaniyozov xorazmlik mashhur maqomchi - ashulachi va tanburchi Matpano ota Xudoyberganovdan Xorazm maqomlarining aytim yo'llarini o'rganadi va o'z repertuarini maqomlar bilan boyitishga ahamiyat beradi.

Bu paytlari u xorazmliklar sevib tinglaydigan Toshkent ushshoqlari, bayotlari, chorgoh va dugohlarini mohirona ijro eta boshlaydi.

Shu yili K.Otaniyozov Chorjo'y - Qo'ng'iro't temiryo'l qurilishidagi madaniy xizmatlari va yaxshi ijrochilik mahorati uchun «Respublikada xizmat ko'rsatgan artist» degan fahrli unvon bilan taqdirlandi. 1949-yilda esa K. Otaniyozovga «O'zbekiston xalq artisti» unvoni berildi. Komiljon Otaniyozov yildan yilga o'z repertuarini yanada kengaytirib, ustozlari Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Hojixon Boltayevlar repertuaridagi suvora, katta suvora, feruzlar, yakpada suvora va chapandozlar, savti suvoralarini o'rganadi va templarini oldingi ijrochiliklariga qaraganda tezroq, sho'xroq, o'ziga xos uslubda ijro etdi.

Bunday ijrochilik uslubi tinglovchilarga yanada manzur bo'ldi. Komiljon Otaniyozov suvoralarini, savti suvorolari, gul uforlarini avjlaridagi hanglari (qichqiriqlari) Sheroziy xanglariga(avj ohanglarda) o'xshagan bo'lsa ham o'ziga xos ovoz uslubi sezilib turardi.

Komiljon Otaniyozov o'z repertuarini yangi - yangi o'zi yaratgan kuylar bilan ham to'lg'azib bordi. Masalan, «Salom senga Xorazmdan» Egam Rahim she'ri, «Olqish» - Ahmad Boboxon she'ri, «Aziz Vatanim» - Egam Rahim she'ri, «Bo'lguncha» Mashrab muxammasi, «Yaxshidur» Mahtumquli she'ri shular jumlasidandir.

Komiljon Otaniyozovni sozanda, bastakor va mashhur xonanda O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, Turkmaniston va O'rta Osiyoning boshqa joylardagina emas, balki chet ellarda ham bilar edilar. Atoqli hofiz O'zbekiston san'at ustalari sifatida Xitoy (1951-yil), Hindiston, Birma, Afg'oniston (1955-yil), Kampuchiya, Taylandda (1957-yil) bo'lib o'zbek muzika san'ati yutuqlari xorijiy mamlakatlar tomoshabinlar huzurida ham namoyish etdi.

Ustoz san'atkor 1957 1969- yillarda O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshida Xorazm ashula va raqs ansambili tashkil etib, unga badiiy rahbarlik qildi. Bu ansambl respublikamiz va O'rta Osiyoning turli shahar va qishloqlarida gastrollarda bo'lib, qiziqarli va sermazmun konsertlar ko'rsatdi K. Otaniyozov turkman she'riyatini targ'ib qilganligi va turkman qo'shiqlarini mohirona ijro etish uchun 1965-yilda «Turkmaniston xalq artisti» degan sharaflı unvonga muyassar bo'ldi. Bunga javoban ustoz 1967-yilda Toshhovuz viloyatiida turkman ashula va raqs ansambili tashkil qilishda ham o'z hissasini qo'shdi.

1968- yilda hofizga Xorazm san'ati va adabiyoti kunlari munosabati bilan «Qoraqalpog'iston xalq artisti» degan yuksak unvon berildi.

Komiljon Otaniyozov tug'ilgan kunning 50 yilligi Toshkentda tantanali nishonlandi. Shundan so'ng u betoblighi tufayli pensiyaga chiqqan bo'lsa-da, to umrining oxirigacha qo'shiq aytishni sira tark etmadi. Mohir san'atkor ishtirok etgan konsertlarda xalq uni cheksiz hurmat bilan qarshi olardi. O'zbek musiqa san'atida o'zlarining ijrochilik mahoratlari bilan hissa qo'shgan va qo'shayotgan Qurbonboy Bobojonov, Abusharif Otajonov, Karim Ismoilov, Sultonposhsha Rahimova, Jumanazar Bekjonov, Bekjon Otajonov, Matmurot Solayev, Olmaxon Hayitova, Matnazar Niyozmetov, Sharif Sultonov, Otajon Xudoyshukurov, Bobomurod Hamdamov, Ortiq Otajonov va boshqa ko'pgina san'atkorlar K. Otaniyozovni o'zlarining ustozlari deb biladilar. Davlatimiz tomonidan iste'dodli hofizning san'atimiz rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlarini yuksak baholab, uch

marta «Hurmat Belgisi» ordeni va qator medallar bilan taqdirladi. Mustaqillik yillarida «Buyuk xizmatlari uchun» nomli davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

K. Otaniyozov 1975-yil 5-noyabrda Toshkent shahrida 58 yoshida vafot etib, o'zi tug'ilib o'sgan Bo'yrachi qishlog'idagi Imorat Bobo qabristoniga dafn qilindi. Garchi, sevimli hofiz hayotdan bevaqt ko'z yumgan bo'lsa-da, uning nomi qo'shiqqa ixlosi baland, o'z san'atkor farzandlarini hamisha sevib-ardoqlaydigan halqimiz qalbida mangu barhayot. Uning shirali ovozi tez-tez «zangori ekran» va radio orqali jaranglab turadi, hofizning o'lmas qo'shiqlari yozilgan plastinkalar qo'ldan qo'lga o'tadi.

Urganch shahridagi 1-son bolalar musiqa va san'at maktabi, o'zlari yashagan mahalladagi ko'chaning nomi, uy muzeyi, Shovot tumanidagi ko'chalardan biri va istirohat bog'i Komiljon Otaniyozov nomi bilan yuritilmoqda.

QURBONBOY BOBOJONOV

(1918-1994)



Taniqli san'atkor, surnaychi, qo'shnaychi, bulamonchi Qurbonboy Bobojonov 1918-yilda Qo'shko'pir tumanidagi Payrovot qishlog'ida tug'ildi. Q.Bobojonov bolalik paytidanoq mol boqadi, podachilik qiladi va bo'sh vaqtlarida loydan ishlangan ishvalakni, (xushtak) tol daraxtidan yo'nilgan duduklarini o'z bilganicha qayta ishlab boshladi. Qishloqda bo'lib turadigan to'y-tomoshalarda sozanda, ashulachi va surnaychilarning ijrolarini eshitib, muzikachilikka havas qo'ygan Qurbonboy, surnaychi Said akaga shogird tushdi. Said surnaychi yosh Qurbonboyga surnay chalish yo'llarini, nafas olmasdan puflash sirlarini va bulamon chalishni o'rgatdi, o'zi bilan birga shu yaqin oradagi qishloqlarda bo'ladigan to'y-tomoshalarga va sayllarga olib boradi. Bu davrda Q. Bobojonov har xil davrlarda ko'plab sozanda, go'yandalar bilan uchrashib san'atga butunlay berildi. O'sha davrning atoqli sozandalari Matpano ota Xudoyberganov, Ahmad Mahmudov, Hojixon Boltayev, Xo'ja ota Otajonovlar yordamida maqom va xalq kuylarini o'rganishga muyassar bo'ldi. Yuqorida nomlari ko'rsatilgan ustozlarning taklifi bilan u

1934-yildan boshlab Xorazm viloyati yosh tomoshabinlar teatriga ishga taklif qilindi va surnaychi, bulamonchi sifatida tanildi.

1938-yildan boshlab Xorazm viloyati musiqali drama teatrida yetakchi musiqachilardan biri bo'lib ishlay boshladi.

1943-yil Xorazmga Toshkentdan kelgan bir guruh san'atkorlar ichida O'zbekiston xalq artisti, iqtidorli qo'shnaychi, surnaychi Ahmadjon ota Umrzoqov bor edi. Ustoz san'atkor A. Umrzoqov Qurbonboyga qo'shnay chalish va puflash yo'llarini o'rgatadi va unga bir juft qo'shnay sovg'a qildi.

Shunday keyin Qurbonboy Bobojonov Xorazm viloyati teatrida birinchi bo'lib qo'shnay chala boshladi. Tez orada qo'shnayni yaxshi chala biladigan bo'lgandan so'ng xalq orasida Qurbonboy qo'shnaychi deb nom chiqardi.

Qurbonboy Bobojonov ko'p yillar mobaynida to nafaqaga chiqqunicha Xorazm viloyati teatrida musiqachi bo'lib ishlaydi. U mashhur san'atkorlar Matpano ota Xudoyberganov, K. Otaniyozov, Hojixon Boltayevlar bilan birgalikda hamkorlik qildi. Uning repertuarida Xorazm maqomlarining chertim yo'llaridan tani maqomlar, muxammaslar, saqillar, uforilar mavjud. Qurbonboy Bobojonov O'zbekistonda mohir ijrochilardan biri hisoblanadi. U ijro etgan ko'pgina kuylar O'zbekiston radiosida va gramplastinkalarga yozib olingan.

NAZIRA YUSUPOVA

(1924-1992)



Xotin-qiz ashulachilar ichida maqom yo'llarining mohir ijrochisi, iqtidorli xushovoz xonanda Nazira Yusupova 1924-yilda Xorazm viloyati, Urganch shahrida ishchi oilasida dunyoga keldi.

O'rta maktabga kirib o'qiy boshlagan davrlaridayoq unda ashula aytishlikka havas uyg'ongan edi.

Oltinchi sinfda o'qib yurgan paytlarida, Urganch shahridagi kashshoflar uyi qoshidagi Sobirjon Yoqubov rahbarligidagi muzika dramaturgiga qatnashib ashula sirlarini o'rgandi. Birinchi ustoz Sobirjon Yoqubovdan o'rgangan «Muhabbat», «Gul o'g'lon», «Ey mehribonim» ashula va qo'shiqlari bilan o'quvchilar saroyi, maktab va xotin-qizlar klublari, madaniyat

saroylaridagi tomoshalarda ishtirok etib, xushovoz ijrochiligi bilan tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

1941- yildan boshlab Xorazm viloyati milliy estradasida ustoz san'atkorlar va maqomchilar Matpano ota Xudoyberganov, Sheroziy Yoqubov, Hojixon Boltayev, Xo'ja Otajonov, Matyoqub Otajonov, Juma ota Hayitboyevlarga o'xshagan mashhur sozandalar hamda muzika bo'lim boshlig'i Sharif Solayevlar bilan ishlashib, o'z repertuarini boyitib bordi. Ayniqsa, xorazmlik mashhur maqomchi Matpano Xudoyberganov ko'pgina maqom yo'llarini Nazira Yusupova ovoziga moslashtirib berdi va o'rgatdi. Nazira Yusupovaning san'at maydoniga qadam qo'yib, viloyati milliy estradasida ko'rsatgan faoliyati Ulug' Vatan urushi yillariga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham Nazira Yusupova repertuarida «Oting ko'ksiga yovning», «Jangga ketgan dildorim», «O'lim bosqinchilari» va boshqa shularga o'xshagan Gitler bosqinchilariga qarata aytilgan davr qo'shiqlari ko'plab uchraydi.

Nazira Yusupova 1945-yilda Xorazm viloyati muzikali drama va komediya teatrida yakkaxon ashulachi sifatida ishlab, tobora tomoshabinlar hurmatini qozona bordi. 1947-yilda Nazira Yusupova Toshsoqa kanali qurilishlarida, Xorazmdagi temir yo'l qurilishlarida Komiljon Otaniyozov rahbarligidagi ashula va raqs ansambli bilan ishtirok etdi. Xorazm viloyati teatrida ishlab yurgan vaqtlarida spektakllarda ham faol qatnashdi va turli rollarni ijro etdi. Sahna sirlarini o'rganishda xalq artisti Vohobjon Fayozov, Qalandar Bobojonovlarni o'z ustozlari deb hisoblaydi.

Nazira Yusupova ijro etgan «Feruz 1-», «Talqini rost», «Talqini segoh», «xalfa yo'llari»ga o'xshagan maqom yo'llari va xalq qo'shiqlarini radio to'lqinlari orqali to'xtatib xalqimiz sidqidildan eshitmoqda va ko'pgina yosh xonandalar Nazira Yusupova repertuaridagi qo'shiqlarni sevib ijro etmoqdalar.

Hukumatimiz Nazira Yusupovaning san'at saxnasidagi xizmatlarini hisobga olib unga, «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist» unvoni bergan va bir qancha medal, faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

KOMMUNA ISMOILOVA ²⁹ (1927-2013)



Kommuna Ismoilova Xorazm viloyatining ko'hna va navqiron Xiva shahrida 1927-yil 15- dekabrda xizmatchi oilasida dunyoga keladi. Kommuna juda yoshligidan san'atga qiziqdi. 1934 1935-yillarda o'z zamonasining taniqli san'atkorlari Tamaraxonim, Oxunjon qiziq, Po'latjon Rahimovlar Xorazm viloyati teatrida faoliyat ko'rsatar edilar. Yosh Kommuna tez-tez ushbu teatrga borar va san'atkorlarga qo'shilib ommaviy sahnalarda chiqar edi.

Kommunaning ovozi tabiatan yoqimli edi. Shu bois u yoshligidan juda chiroyli kuylar edi. Kunlarning birida ustozlar Kommunaning ovoziga beixtiyor e'tibor berib, mahliyo bo'lib qoldilar. Ustozlar Kommunadagi iste'dodni baholab, uning kelajagi porloq degan to'xtamga keldilar. Qiz Toshkentga borishi, zarur musiqa savodini olishi kerakligi haqida kelishib olinadi. Kommunani ota-onasidan ruxsat olib, Toshkentga olib kelishadi. Bu yerda betakror sozanda, ustoz, bastakor, san'at arbobi Faxriddin Sodiqov Kommuna Ismoilovadagi iste'dodni ko'rib bu qizning chinakam san'atkor bo'lib yetishishiga ko'zi yetdi va bu yo'lda o'zining beminnat mehnatini ayamadi. Bastakor yaratgan qo'shiqlar, ular ijrosida maromiga yetardi. Bu qo'shiqlar Kommuna Ismoilovani O'zbekistonga xush ovozli xonanda sifatida tanitdi.

1957- yili uni O'zbekiston radiosiga yakkaxon xonanda sifatida ishga olishadi. Bu esa unga qo'shiq-ashulalarini doimiy tarzda tinglovchilarga yetkazish, magnit tasmlariga yozish, ijodkorlar bilan doimiy tarzda hamkorlikda bo'lish uchun katta imkoniyat edi. S.Jalil, H.Rahimov, B.Giyenko, F.Nazarov, V.Zudov, X.Izomov, D.Zokirov kabi kompozitorlar, T.Jalilov, F.Sodiqov, K.Jabborov, S.Hayitboyev, N.Hasanov, G'.Toshmatovdek bastakorlar bilan hamkorlik qiladi. Ijro repertuarini esa professional musiqa namunalari bilan boyitadi. «Tabriklayman» (N.Hasanov, R.Qosimxo'jayeva), «Gulnora» (K.Otaniyozov, A.Bobojonov), «Oyshaxon» (D.Zokirov, A.Po'lat), «Xayolim

²⁹ Komila Bo'rieva. An'anaviy xonandalik (ayollar ovozlari uchun) Akademik litsey va kollej o'quvchilari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent .2008-yil.

senda» (H.Rahimov. T.To‘la), «Oq oltin karvon-karvon» (F.Sodiqov, Z.Obidov), «Yoshlik chog‘imda» (S.Jalil, H.Olimjon), «O‘ylanma» (K.Otaniyozov, A.Bobojonov) kabi musiqiy namunalar shular jumlasidan.U 1959-yildan O‘zbekiston teleradiosidagi maqomchilar ansambliga ishga o‘tadi. Y.Rajabiy, F.Sodiqov, O.Imomxo‘jayev, B.Davidova, M.Dadaboyeva, K.Mo‘minov, U.Otayev, I.To‘rayev, O.Alimaxsumov, S.Aminov, O.Otaxonov, Sh.Ergashevlar bilan ko‘p yillar birga ishlashadi. Shu yillar mobaynida Kommuna Ismoilova juda ko‘plab maqomlar, xalq bastakorlari yaratgan qo‘shiqlarni magnit tasmasiga yozishga muvaffaq bo‘ldi. «Qiz qo‘shig‘i» (A.Po‘lat she‘ri, F.Sodiqov musiqasi), «Ey chehrasi tobonim» (Muqimiy so‘zi, F.Sodiqov musiqasi), «Chaman ichra» (xalq so‘zi va musiqasi), «Diyorimsan» (A.Po‘lat she‘ri, G‘.Toshmatov musiqasi), «Tokay» (Uvaysiy g‘azali, K.Jabborov musiqasi), «Chapandozi Savti Navo» (Nodira g‘azali, Y.Rajabiy musiqasi) shular jumlasidandir.

O‘zbek xalq musiqa ijrochiligida o‘ziga xos ijro uslubiga ega bo‘lgan, O‘zbekiston xalq artisti, betakror xonanda, ajoyib ustoz Kommuna Ismoilova zamonamizning atoqli va hurmatli san‘atkorlaridan biridir. O‘z umrini san‘atimiz ravnaqiga bag‘ishlagan ustoz, xalqimiz ma‘naviyati va ruhiyatiga xos eng asl qo‘shiq yaratishga bag‘ishlagan inson sifatida shinavandalar hotirasida qoldi.

Kommuna Ismoilova 2013-yilda Toshkentda vafot etdi.

SULTONPOSHSHA RAHIMOVA³⁰ **(1929-1996)**



Rahimova Sultonposhsha 1929-yil Xivada tug‘ildi. U mashhur aktrisa, xonanda. O‘zbekiston xalq artisti (1955).

1943 1974-yillar Xorazm teatrida ishlagan. Layli (“Layli va Majnun”), Nurxon (“Nurxon”), Zuhra (“Tohir va Zuhra”), Nodira (“Nodira”), Oyxon (“Maysaraning ishi”), Sanam (“Aziz va Sanam”), Shohsanam, Oylarbegim (“Oshiq G‘arib va Shohsanam”) kabi rollarini musiqali dramalarda jozibali ovozi, kuchli dramatik kechinmalari

³⁰ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т 2004

bilan mohirona ijro etgan. Sultonposhsha Rahimova Shohsanam rolida (“Oshiq G‘arib va Shohsanam”). Shuningdek, dramalarda Guli (“Alisher Navoiy”), Luiza (“Makr va muhabbat”), Larisa (“Sepsiz qiz”), Jamila (“Boy ila xizmatchi”), Xolisxon (“Xolisxon”) kabi obrazlar yaratgan.

1996-yil Urganchda vafot etgan.

QUVONDIQ ISKANDAROV³¹ **(1930-2010)**



Quvondiq Iskandarov 1930-yili 10-sentabrda Hazorasp tumanida ishchi oilasida tug‘ilgan. Yosh xonanda oilasining to‘ng‘ich farzandi bo‘lganligi uchun erta mehnat qilishga, oilasiga yordam berishga harakat qildi, o‘zingizga ma‘lumki, o‘sha davrlarda hayot, yashash sharoiti juda og‘ir kechgan. Ular oilasida 11 farzand bo‘lgan.

Quvondiq yosh bo‘lishiga qaramay ashula aytishga, soz chalishga juda ishtiyoqi baland bo‘lganligi sababli o‘zining aytishicha: «Men taxminan 10 12 yoshlarimda otamga yig‘lab, uydagi sigirni sotdirib patifon oldirganman. Undagi plastinkada birinchi eshitganim Boborahim Mirzayevning «Tanovor» (Endi sendek jono) va «Ey pari» (O‘zingga) ashulalari bo‘lib, ularni tezda yodlab Farg‘ona–Toshkent yo‘llariga mehrim ana o‘shanda tushgan» degan edilar.

Keyinchalik esa Quvondiqni Hazorasp tumanidagi eng ko‘zga ko‘ringan ustoz Ozod Jabborovga shogird sifatida topshirishgan. Ustoz yosh xonandani ashulalarni berilib aytishini ko‘rib, shogird sifatida juda yaxshi ko‘rib qoladi va o‘zining yonida olib yuradi.

Ozod Jabborovning qo‘lida u ko‘p ashulalar o‘rgandi. Shu davrlarda O‘zbekistonning eng yorqin hofizlari Hojixon va Nurmuhammad Boltayevlar bilan uchrashdi, ulardan ko‘p saboqlar oldi.

Quvondiq Iskandarov 1949 1952-yillari harbiy xizmatni o‘tagach, doirachisi va hamnafasi Rajabqori bilan birga yurib, ustozlari ko‘magida xalq orasiga chiqib nafaqat

³¹ Sh.Matyokubov.Umr daftari.

Hazorasp tumani balki butun Xorazm, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘ylab xalq xizmatida bo‘lgan va konsertlar berishgan.

“Men Rajabqoridan juda minnatdorman, chunki u men bilan hamnafaslikda aytgan ashulalari men uchun hamnafaslik maktabini o‘tadi va Quvondiq Iskandarov bo‘lishimda menga juda ko‘p yordami tekkan. U menga nafaqat hamnafas balki bilmagan asarlarimni o‘rgatib, kamchiliklarimni to‘ldirgan, chunki uning eslab qolish qobiliyati juda yaxshi rivojlangan edi.” degan edi u. Albatta, hamnafaslik bu juda katta mehnat va mashaqqat talab etadi, chunki ikkita yoki undan ortiq ashulachilarning bir–birini eshitib aytish va aytganda ham bir odam ijro etayottgandek bo‘lib eshittirilsagina ana shunda hamnafaslik to‘laqonli bajarilgan bo‘ladi.

1960-yilda ustozni Farg‘ona–Toshkent ijro uslubiga qiziqishi uni Toshkent sari yetakladi. Bu yerda Quvondiq aka Toshkent Davlat filarmoniyasiga ishga joylashadi. U ko‘plab ashulalar ijro etdi, radio va televideniya-dagi chiqishlari xalqning og‘ziga tushdi. Bu vaqtda barcha yetuk xonanda-yu sozandalar, artistlar, raqqosalar, xullas, san‘at ahlining eng ko‘zga ko‘ringan namoyandalari markazga yig‘ila boshlagan davr bo‘lib, ularning ko‘pchiligini o‘ziga ustoz deb bildi va ba‘zilar bilan birgalikda ijod qildi.

O‘sha davrda Quvondiq Iskandarovning Feruz I–II asarlarini ijro etishi xonandaning yulduzlik cho‘qqisiga ko‘tarilishiga katta qadam bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmas. Chunki, undan oldin ham, undan keyin ham Feruzlarni erkak kishilar orasida Quvondiq Iskandarovdek, ayollardan esa Nazira Yusupovadek maromiga yetkazib ijro etganlar bo‘lmadi.

1975-yillarda O‘zbekiston xalq xofizi Ro‘zmat Jumaniyozov bilan aytishgan diralishmalari esa, eski davrdagi Hojixon Boltayev bilan Polli Duzchi yoki Qalandar Bangilar, bilan bo‘lgan diralishmalardan hech kam joyi yo‘q edi. Bu diralishmalarda gohida Quvondiq akaning mag‘lubiyati ko‘rinsa gohida Ro‘zmat Jumaniyozov mag‘lub bo‘lar edi. Biz mag‘lub bo‘lgan yoki g‘olib bo‘lgan tomonlarni aniqlamoqchi emasmiz balki, shu diralishma jarayonining o‘zi biz uchun juda qiziqarlidir.

Bizga ma’lumki Suvoriyda har muxammasning bir baytidan keyin avjga qarab kvarta yoki tersiya ko‘tarilib boraveradi va avjiga yetgan sari bir shoirning muxammaslari yetmay qoladi. Hofiz boshqa shoirning muxammasiga yoki shu shoirning boshqa muxammasiga murojaat etishi kerak, buning uchun esa u ko‘plab muxammaslarni yod

bilishi va ovoz imkoniyati juda keng bo'lishi kerak. Quvondiq Iskandarov ko'pincha Navoiy muxammaslariga, Ro'zmat Jumaniyozov esa Mashrab muxammaslariga diralishmalarini aytar edilar.

«Men nafaqat Ro'zmat Jumaniyozov bilan balki Abdusharif Vafojev, Kenja Matnazar, Kutlumurod Xajiyev, Matkarim Hofiz, Matniyoz Yusupov nihoyat o'zimni shogirdim Matnazar Xudonazarovlar bilan ham diyralishma aytganmiz», –deb aytgan edi.

Ustozning shogirdlari ham juda ko'p. Ulardan konservatoriya professori Matnazar Xudonazarov, O'zbekiston, Turkmaniston, Tatariston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Otajon Xudoyshukurov, O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, Turkmaniston xalq artisti Ortiq Otajonov, O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston xalq artisti Bobomurod Hamdamov, O'zbekiston, Qoraqalpog'iston xalq artisti Olmaxon Haitova, O'zbekiston xalq hofizi Farxod Davletov, O'zbekiston xalq artisti Matlyuba Dadaboyeva, O'zbekistonda va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist Raxmatjon Qurbonov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Axmadjon Dadayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Zarif Azizov va bir qator boshqa shogirdlarni yetishtirib chiqarganlar.

Ustozning yaratgan asarlaridan «Suhbatlashaylik», «Uzoqdasan», «Ikkiniz», «Qaydasan» ashulalari uning bastakorlik mahoratini yetuk namunalaridan biridir. Hozirda ham ustozning bastalagan asarlarini xonandalar sevib ijro etishadi va muxlislar tomonidan sevib tinglanadi. Ustozning umr daftari kelajak avlod vakillariga uning xayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar yig'indisi emas, balki o'zlari uchun hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan sharoitlarda qanday yo'l tutish kerakligi haqida ham yo'l ko'rsatgich sifatida xizmat qilsa ajab emas.

Ustozimiz tiriklik vaqtida o'zlari bilan bo'lgan suhbat orqali yozib olingan.

O‘RINBOY OTAJONOV³²

(1931-2000)



1931-yilda Xonqa tumanida, ishchilar oilasida tug‘ilgan. Otasi Raximov Otajon, onasi Raximova Durjon. Yoshligidan etikdo‘zga shogird bo‘lib ishlagan. Keyinchalik Xazorasplik Xo‘ja hofizga shogird bo‘lgan. Undan keyin Hojixon Boltayevga shogird bo‘lib tushgan.

Harbiy xizmatdan qaytgach, madaniyat uylarida ishlagan. Moskvada bo‘lib o‘tgan Butunjahon festivalda qatnashgan.

1970-yildan boshlab O‘zbekiston davlat filarmoniyasida “Lazgi” ansamblida ijodiy faoliyatini davom ettirgan. 1973-yildan Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansamblida ishlagan. 1985-yildan esa Xonqa tumanidagi Oxunboboyev jamoa xo‘jaligida “Sarpoyon gullari” ansamblida ishlagan. 1995-2000-yillarda Xonqa paxta tozalash zavodi qoshidagi havaskorlik to‘garagida boshchilik qilgan.

JUMANAZAR BEKJONOV

(1932-1999)



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Jumanazar Bekjonov 1932-yili Xorazm viloyati Shovot tumanida tug‘ilgan. Otasi Bekjon poyaki. Birinchi ustoz Matkarim hofiz Bobojonov edi.

1949-yili Toshkentga kelib, Shayxontoxurda o‘zi ansambl tuzadi.

1964-yilda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist unvoniga sazovor bo‘lgan. 1960-yillarda O‘zbekiston filarmoniyasiga ishga qabul qilinadi.

1968-yili Toshkentdagi “Lazgi” ashula va raqs ansamblida ishlagan. Jumanazar Bekjonov Tojikiston, Turkmaniston Respublikalarida tanilgan hofiz edi. U Hojixon

³² Матназар Худойназаров. Ҳожихон Болтаев. Тошкент 2014

Boltayevning aytgan ashulalarini yonida yurib ko'pgina Suvora, Savti Suvoralarni eshitib o'rgangan va ustoz deb Hojixonni bilardi. 1999-yili Xorazmda vafot etgan.

RO'ZMAT JUMANIYOZOV **(1933-2002)**



Xorazm maqom an'analarining eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri, Hojixon Boltayev maktabining munosib davomchisi. Ro'zmat Jumaniyozov juda kuchli hamda keng ovoz ko'lamli jarangdor tenor ovoz sohibi edi. Ro'zmat aka yoshligida ustoz Hojixon yonida yurib hofizlik, sozandalik va maqom hamda suvora asoslarini o'zlashtirishda yaxshi tarbiya topdi. To'g'ri nafas olish, ovoz imkoniyatlaridan unumli va tejamkorlik bilan foydalanish siru asrorlarini o'rgangach, ashula aytib charchamaydigan hofiz bo'lib yetishdi.

Yakka ovoz ijrosida maqom va suvora yo'llarini uddalab, ko'rkam san'at darajasida namoyish etishga qodir bo'lgan zabardast hofizlardan biriga aylandi. E'tiborli ustoz hofizga yosh ashulachilar ergashadigan bo'ldi. U tabiiy ovoz bilan, mikrofansiz yakka ijro yo'lida maqom va suvoralaridan aytishni qoyil qiladigan nufuzli hofizlardan biri bo'lib qoldi. Bugungi kunda ustoz hofiz Ro'zmat Jumaniyozov yosh ashulachilar uchun mumtoz musiqa bobida o'rnak hamda kamolot ramzi bo'lib qoldi. 1991-yil "O'zbekiston xalq hofizi" unvoni berildi.

OZOD IBROHIMOV **(1937-2007)**



Xorazmda eski klassik kuy va ashulalarning puxta bilimdoni, mohir sozanda va hofiz. U juda yoshligidan professional musiqa san'atiga qadam qo'ydi.

50-yillarning boshlarida Xorazmda faoliyat ko'rsatayotgan an'anaviy uslubdagi sozanda va xonandalarning san'atidan bahramand bo'ldi. Chinakam ustozlar Bola baxshi, Sheroziy,

Hojixon, Nurmamat Boltayevlar, Komiljon Otaniyozov, Karimjon Ismoilov, Ollanazar Hasanov, Qurbonboy Bobojonov, Hayitboy Bobojonov kabi yetuk hofiz va sozandalar Xorazm musiqa an'analarining jonli timsollari edi. Ularning kuy va ashulalarini tinglab, eski an'anaviy ijro uslublarining sara xususiyatlarini ko'ngliga joylab, yaxshigina ijod maktabini o'tab oldi.

50-yillarning o'rtalarida zamona zayli bilan I.Ibrohimov o'zbek musiqa madaniyatining yangi yo'nalishiga bog'liq bo'lgan o'quv muassasalarida ta'lim oldi. U avvalo Toshkent musiqa bilim yurti, keyinchalik esa konseratoriyada qashqar rubobi sinfida tahsil ko'rdi. Mazkur cholg'uda O'zbekiston va jahon kompozitorlari asarlarini ijro etib, o'z bilim va tajriba doirasini kengaytirdi. Ammo vaqt o'tishi bilan milliy cholg'ularda jahon kompozitorlarining asarlarini ijro etish g'oyalari o'z o'zaniga tushib, asl an'analarning qadri yanada tiklana boshladi. Boshqa tajribali sozandalar kabi I.Ibrohimov ham maqomlar bag'riga qaytdi. Eski ko'nikma va tajribalarini xotirada tiklab, butun vujudi bilan maqom va suvoriy asoslarini qayta o'zlashtirishga kirishdi. Yaqin maslakhdoshi Ozod Bobonazarov bilan Xorazm tanbur chizig'ida bitilgan matnlarni qayta tiklashda hamkorlik qila boshladi.

O.Ibrohimov chuqur iste'dodli sozanda va ashulachi edi. Boshqa "avom sozandalar"dan farqli ravishda musiqa tarixi hamda ilmiy asoslari xususida bilimlarga ega bo'lgan. Maqom va suvora yo'llarining ichki mantiqi, kuy tuzilish tartiblari, parda va usullarning nozik sifatlarigacha mutolaa qilish darajasidagi zukko san'atkor edi.

BEKJON OTAJONOV

(1937-1996)



Komiljon Otaniyozovning sevimli shogirdi ustoz san'atkor Bekjon Otajonov 1937-yil 15-yanvar kuni Xorazm viloyati Yangiariq tumanida tavallud topgan. U 1959-yili Moskva shahrida bo'lib o'tgan "O'zbekiston Madaniyati Kunlari" konsert dasturida qatnashgan.

1960-yildan 1996-yilgacha Ogahiy nomli drama va komediya teatrida aktyor, yakkaxon xonanda bo'lib faoliyat yuritgan. Teatrda ko'plab obrazlarni yaratgan Bekjon Otajonov "Layli va Majnun"

spektaklida bosh qahramon Majnun rolini, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” spektaklida Oshiq G‘arib rolini va yana boshqa juda ko‘plab qahramonlarni rolini ijro etgan.

Tabiatan yoqimli tembrli, keng ovoz ko‘lamli ovoz sohibi Bekjon Otajonov ustoz san’atkor Hojixon Boltayev nazariga tushib “Maqom ansambli”ga taklif qilinadi. Shu yerda bir qancha maqom ashulalari radio,televideniya, magnit tasmasiga yozilgan. Bugungi kunda bu tasmalar O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida va Xorazm televideniya va radiosi oltin fondida saqlanmoqda.

Bekjon Otajonov 1992-yili O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist davlatimiz unvoni bilan taqdirlanadi. Ustozning farzandi Azamat Otajonov ham ota izidan borib, san’at yo‘lini tanladi. Bugungi kunda Azamat Otajonov maqom va Xorazm suvoralarini mukammal darajada ijro qiladigan el suygan san’atkorlardan biri.

Bekjon Otajonov 1996-yil 13-yanvar kuni vafot etdi.

OLMAXON HAYITOVA

(1940-2013)



Olmaxon Hayitova 1940 yilning 6-martida, Xorazm viloyatining Xonqa tumanida tavallud topdi. Yosh Olmaxon maktabda o‘qib yurgan kezlarda musiqiy to‘garaklardan ortmagan ekan. Olmaxon Hayitovaning tengdosh do‘stlarini xotirlashicha bu qizcha san’atga shu darajada berilgan ekan, hatto radio yoki televizordan konsert bo‘ladigan vaqtda hech kimni gapirtirmay ortiqcha shovqinsiz jim turib eshitar ekan. Ayniqsa o‘sha kezlari ayol xonandalardan Tamaraxonim, Halima Nosirova, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Erkinoy Bekjonova, Sultonposhsha Rahimova, Nazira Yusupova va boshqalarni ijro etgan asarlarini yodlab olib, kuylab yurgan ekan. Yillar o‘tib Olmaxon Hayitova tobora ulg‘ayib, borgan sari san’atga oshno bo‘la boradi.

Ma’lumki, O‘zbekiston xalq artisti Hojixon Boltayev va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Nazira Yusupova Xonqaning Qarichmon qishlog‘ida yashab ijod etishgan. Bu qishloq Olmaxon Hayitova yashaydigan uydan uzoq emas edi. Shuning uchun u ustozlari Nazira Yusupova va Hojixon Boltayevlarning uyiga borib, ashula

o'rganar edi. Ammo ashula aytishni dastlab to'garakdagi ustozi O'lmas Saidov va keyinchalik Komiljon Otaniyozovdan o'rgangan.

Olmaxon Hayitovaning ovoz imkoniyati kuchli va yuksak darajada rivojlangan, pastki pardadan eng yuqori avj pardasigacha ikki oktavadan ortiq tovush ko'lamini o'z ichiga oladi, barcha pardada birdek tovush jarangdorligiga erishgan, go'zal tembrli, lirik sopranodir. Albatta bu davrlarda ayollar xonandalik qilishi qiyinroq edi. Ammo bu hayot qiyinchiliklardan qo'rqmay Olmaxon Hayitova dastlab qashqar rubob chalib, keyinchalik tor chertib ijro etishni o'ziga ijro uslubi sifatida o'zlashtirdi.

Albatta xonanda ovoz imkoniyatlari a'lo darajada bo'lsa bu yaxshi, agar shu xonanda musiqiy soz chalib, kuylasa undan ham yaxshi. Ba'zida xonanda o'z ashulalariga ijodiy yondashib, ashula orasida musiqiy mashqlar, improvizatsiya, ya'ni badihago'ylik qilib ijroni yanada boyitishi mumkin. Shunday paytlarda xonanda o'zi musiqiy soz ijro etgani ma'qul. Ayniqsa, erkak xonandalar tor, tanbur, dutor, g'ijjak kabi sozlarini o'zlari chalib xonish qilishni odat etganlar. Ammo ayol xonandalar dutor yoki doira sozlarini chertib kuylashgan. Ayollar orasida Olmaxon Hayitova Erkinoy Bekjonovadan keyin tor chalib kuylashni rasm qilgan.

1958-yilda Yangiyo'l shahriga ko'chib kelib, shu yerning teatrida yakkaxon ashulachi sifatida ishlaydi. 1959-yili Moskvada bo'lib o'tgan VI jahon yoshlar festivaliga qatnashib, g'olib bo'ldi. Olmaxon Hayitovaning ijrolari asta sekin xalq og'ziga tushib, borgan sari tanila bordi. 1968-yili O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan artist unvoni bilan taqdirlandi. O'tgan asrning 1960-2000-yillari Olmaxon Hayitova ijodining eng gullagan davri bo'lib, bu vaqtda uning ijro dasturidan xalq mumtoz ashulalari «Feruz- I», «Guluzorim», «Samarqand ushshog'i», «Toshkent Irog'i», va xalq doston nomalari, ya'ni Oshiq g'arib va Shohsanam dostonidan «Ozod qil», «Boro-bilmadim», «Xatingni», «Bog' saylina galadi» hamda ko'plab kompozitor va bastakorlar asarlaridan, «Amu to'lqini» G'ofur G'ulom she'ri Sulton Hayitboyev musiqasi bilan «O'zbekiston gullari» Sulton Hayitboyev musiqasi «Naylayin» Komiljon Otaniyozov musiqalari bilan ashulalar ijro etgan. Shuningdek ijro dasturidan turkman, ozarbayjon qo'shiqlari ham o'rin olgan. Olmaxon Hayitova sozanda, ya'ni o'ziga torda jo'r bo'lib Respublika radiosi fondiga 250 dan ortiq asarlarni yozdirgan.

Bu xizmatlari xukumatimiz tomonidan inobatga olinib 1993yilda Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artist. 1992 yilda O‘zbekiston xalq artisti unvonlari bilan taqdirlandi.

Olmaxon Hayitova Markaziy Osiyo davlatlarining barchasida, AQSh, Kuba, Germaniya, Isroil, Marokash, Angliya, Tunis, Mojariston, Fransiya mamlakatlarida ijodiy safarda bo‘lgan.

Olmaxon Hayitova ijro etgan asarlaridagi ehtiros, shijoat va jo‘shqinlik ijrochining asar mazmunini chuqur bilishi, bunday qo‘shiqlarni unutilmas va tinglovchilar qalbidan chuqur joy olishiga muhim omil bo‘lgan. 1995 yilda O‘zbeknavo konsert gastrol Xorazm viloyat birlashmasi rahbari bo‘lgan. 2013-yili vafot etgan.

OTAJON XUDOYSHUKUROV **(1944-1994)**



Otajon Xudoyshukurov 1944-yil, 4 oktyabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumanida tavallud topgan.

Yoshligidan san‘atga ishtiyoqi baland, radio, televideniyadan, to‘y-hashamlarda biron-bir qo‘shiqni eshitsa shu zahoti yodlab olish qobiliyatiga ega edi. Yosh Otajonning zehni o‘tkir, iqtidorli va nafislikka limmo–lim qalb egasi ekanligi sezilib turar edi.

Uning ovoz imkoniyati bolaligidanoq yuksak darajada rivojlangan, pastki pardadan eng yuqori avj pardasigacha ikki oktavadan ortiq tovush ko‘lamini o‘z ichiga olgan, qaysi pardada xonish qilmasin barchasida birdek tovush jarangdorligiga erishgan, go‘zal tembrli, dramatik tenor ovozga ega edi. Ammo ato etilgan bu inoyatni asrab-avaylash, tomoqning pay mushaklarini tarbiyalash, ravon va quvvatli nafas ila rivojlantirish, uni to‘g‘ri qo‘llay bilish, yurak dardini, qalb tug‘yonini bunday buyuk ne‘mat vositasi bilan mashaqqatli mehnat orqali, yuksak san‘at darajasida yuzaga chiqarish va barchani undan bahramand qilish har kimni ham qo‘lidan kelavermaydi. Otajon Xudoyshukurovning chappani

odatlari, bir soʻzliligi, doʻstga sodiqligi va boshqa insoniy fazilatlarini toʻgʻrisida koʻp aytilgan va yozilgan.

Biz asosan uning ijodini, ijro qilgan mumtoz ashulalari va yaratgan asarlari haqida gapirib oʻtmoqchimiz. Dastlab Otajon Xudoyshekurov kuylagan doston nomlari asosida yaratilgan asarlari: Xorazm va umuman Amudaryo quyi oqimidan yetishib chiqqan xonandalar oʻz ijodini dastlabki bosqichida doston qoʻshiqlariga murojaat etishadi. Bu bejiz emas. Chunki Xorazm dostonchiligi oʻziga xos bir maktab boʻlib, Markaziy Osiyo hududida bunday dostonchilik maktabining qiyosi yoʻq. Ushbu maktab baxshilari doston matnini hikoya tarzida, sheʼrlarini esa ochiq ovozda, qoʻshiq shaklida (dutor yoki tor, bulomon yoki gʻijjak, doira) kichik ansambl joʻrligida ijro etishadi. Mumtoz ashula va maqomlar saroy muhiti va uni tinglashga tayyorgarligi bor xos muhlisga moʻljallangan boʻlsa, doston qoʻshiqlari birinchi navbatda sheʼri barmoq vaznidagi, barchaga tushunarli, kuy jummalari ham uncha murakkab boʻlmagan motivlardan tuzilgan, doira usullari oddiy lekin rivojlanib, maydalanib, joʻshqinlashib boruvchi, qoʻshiq diapazoni keng ovoz koʻlamini talab qilmaydigan asarlardir. Ular shakli jihatidan ixcham, oʻynoqi, avjlari uncha baland boʻlmagan va oʻrtacha murakkablikdagi qoʻshiqlar boʻlib, boshlovchi xonandalar uchun dastlabki pogʻona vazifasini oʻtagan. Otajon aka ham bundan mustasno emas albatta. Uning yetmishinchi yillari plastinkalarga darj etilgan «Goʻroʻgʻli» dostonidan Ogʻa Yunus Pari tilidan aytilgan:

Jonima oʻt soldi ayroliq gʻami,

Yorni mannan mani yordan ayirdi

qoʻshigʻi oʻsha davrning kattayu kichik shinavandalarini yodida muhrlanib, qayerda yursa ham xirgoyi qilinadigan ohanglardan biri boʻlib qoldi. Yoki shundan sal keyinroq Oshiq Gʻarib va Shohsanam dostonidan “Galar sallona–sallona” nomasi avj pardalaridan boshlanib naqarotlari daromadda qaytiriladi.

Xususan Otajonga ergashadigan, yaʼni yaxshi maʼnoda unga taqlid qiluvchi yoshlar «sallona» soʻzidagi «S» harfini Otajon akaga oʻxshatish uchun «Sh» simon qilib aytishardi, chunki Otajon Xudoyshekurovda xuddi shunday talaffuz mavjud edi.

Doston kuy va qoʻshiqlari ularning usullari va uslublarini yaxshi bilgan Otajon Xudoyshekurov shu asosda yaratilgan Hoji Abdullaziz Abdurasulov ijodiga mansub Bozurgoniy, Qoʻshchinor, Guluzorim shuningdek, Kurd Eshvoyi, Samarqand ushshogʻi,

Toshkent Irog‘i kabi asarlarni me‘yoriga yetkazib ijro etgan. Buning natijasida uning xonandalik ijodi tabiiy ravishda tobora sayqallanib, rivojlanib bordi.

Otajon Xudoyshukurov ashulalarining parda tizimi o‘ziga xos bo‘lib har doim betakrorlikka intilib kelgan va Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov maktabining boshqa namoyandalarning yaratgan asarlaridan ajralib turadi.

Buning sababi Otajon aka ko‘proq mang‘itlik Nazir qori va Jumanazar Bekchonov kabi ustozlarga nisbatan katta mehr qo‘ygan va hurmati baland edi.

Ularning ijodiy yo‘li doston kuylari asosidagi yaratuvchilik bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, dostonlardagi vazn, parda, usul xususiyatlarini o‘z ijodlarida qo‘llash, zavqi kelgan paytda torni yuqori pardalarga sozlab ashula aytish, ular bilan tez-tez muloqotda bo‘lish, xabar olish Otajon akaga xos xususiyat edi. Shuning uchun ham u o‘z ijodida nomlari keltirilgan ustozlarga ergashgan holda ashula va qo‘shiqlar yaratishga intilgan. Otajon akening bunday ashulalari juda ko‘p bo‘lib, har biri haqida katta-katta maqolalar yozish mumkin. Haqiqatan ham o‘zagi xalq ohanglarining chuqur ildizlaridan bahra olib yaratilgan asar tinglovchi va shinavandalarni yuragiga yetib boradi, qalb to‘ridan joy oladi va umri boqiylik kasb etadi.

El e‘zozlagan san’atkor o‘z xalqining xotirasidan umrbod o‘chmaydi. Uning jo‘shqinligi misoli Jayhundek betakror ijrochilik san’ati, qoldirgan merosi, zamon va makon sarhadlaridan umr karvoni mulkida tinglovchilarining ruhiyatiga ozuqa va quvvat bag‘ishlab, yosh ijodkorlarni ilhomlantirib, avloddan–avlodga o‘tib borajak.

Otajon Xudoyshukurov qisqa ellik yillik umri davomida konsertlarda, gastrollarda va el xizmatida kamarbasta bo‘lib, umrining har lahzasidan unumli foydalandi. Ya’ni, 300 ga yaqin qo‘shiqqa kuy bastaladi va o‘zi ijro etdi. Bundan tashqari mumtoz ashulalarni maromiga yetkazib kuyladi. O‘zbek san’atini yaqin va uzoq xorijsda targ‘ibot qildi. Otajon Xudoyshukurov 1994- yil 22-dekabrida vafot etdi.

III-bob. Nazariy va laboratoriya mashg‘ulotlarining mavzulari.

O‘zbek mumtoz musiqasi va uning xususiyatlari

Mumtoz musiqa deganda o‘zbek xalqiga mansub, uning yetuk sozanda-bastakorlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan musiqa san’ati namunalari (aytim-ashula va cholg‘u

musiqalari) ko'zda tutiladi. Ushbu musiqa boshqa musiqa ijodiyoti namunalaridan bir necha o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi:

1. Og'zaki tarzlilik – mumtoz musiqa xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan ijod mahsuli. Ma'lumki, qadim zamonlarda ilk bor yuzaga kelgan folklor va mumtoz asarlar omma (xalq) tomonidan ijod qilingan va ijro etilgan. O'rta asrlarda esa iste'dodli (yetuk) sozanda, xonanda va bastakorlar tomonidan yaratilgan. Og'zaki an'anadagi mualliflik ijodi, ommaviy ijod singari, xalq hayoti va uning turli tomonlarini to'g'ri, aniq, badiiy jihatdan mukammal ifoda etishi, xalq didi va talabiga mos tusha olishi tufayli uzoq yashaydi. Demak, mumtoz musiqaning yaratilishi va tarqalishi jonli og'zaki an'ana bilan bog'liqdir.

2. An'anaviylik – mumtoz musiqa namunalari an'ana sifatida saqlanib, rivojlanib kelmoqda. An'ana deganda uzoq vaqt davomida xalq tajribasidan o'tib, odat tusiga kirgan tadbir yoki xususiyat tushuniladi. An'anaviylik asarlarni og'zaki tarzda yaratilishi, ijro etilishi va tarqalishida asarlarning matnida (kuy va she'r), ijro uslublarida namoyon bo'ladi. Mumtoz asarlarning musiqiy-poetik matni janrlarga ko'ra uzoq muddat davomida doimiy ravishda takrorlanib turadigan qismlarga ega (tasvir vositalari, parchalar, obrazlar tasvirida namoyon bo'ladi). Ijro etishda (ma'lum uslublarning saqlanishida) ham an'anaviylik mavjuddir.

3. Professionallik – mumtoz musiqa asarlari yaratilishi va ijro etilishi professional sifatlar (keng diapazonli ovoz sohibi, mohir sozanda, musiqa va she'riyat qonuniyatlarini bilish va ularga rioya qilish, ma'lum voqea va ijrochilik maktabi an'analari bo'yisunish)ga va mahoratga ega bo'lishdir. Ushbu musiqa namunalari o'ziga xos ijod va ijro jihatlari tufayli professionallikni talab etadi.

4. Mualliflik – mumtoz musiqa ijodiyoti yetuk sozanda va bastakor mahsulotidir, u individual-mualliflik (ma'lum shaxs tomonidan yaratilgan) ijodga kiradi. To'g'ri, aksariyat asarlarning mualliflari noma'lum, ammo ayrim asarlarning nomlari ijodkor va ijrochining ismlari bilan yuritilgan, masalan, Abdurahmonbegi, Karimqulbegi, Ashkullo saqili, Sodirxon hofiz Ushshog'i, Eshvoy, Hoji Abdulaziz Ushshog'i va h.k. Ushbu asarlar o'zining kuy rivoji, shakl murakkabligi va ijro usullari mukammalligi bilan ajralib turadi.

Ular «ustoz-shogird» ta'limotini o'tgan yetuk sozanda, xonanda, baxshi, shoir, katta ashulachi va maqomchilar tomonidan ijro etiladi

5. Lokallik – mumtoz musiqa namunalari mahalliy ijro uslubiga egadir, shu tufayli Buxoro “Shashmaqomi”, “Xorazm maqomlari” turkumi, Farg‘ona-Toshkent maqomlari yoki katta ashula janri faqatgina Farg‘ona vodiysida shakllangan, rivojlangan va tarqalgan yoki dostonchilik san’atida Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm ijro uslublari va an’analariga bo‘linadi. Ularning har biri o‘z mavqeyi, mazmuni, kuy tuzilishi va rivoji, ijrochilik uslublari bilan bir-biridan farq qiladi. O‘zbek musiqasida hozirga qadar ko‘lami jihatidan birmuncha kengligi, tarixan qadimiyligi, ijro xususiyatlari bo‘yicha benazir, betakrorligi bilan, asosan, to‘rtta mahalliy uslub tavsiflari alohida ajratilgan bo‘lib, ularning har biri muayyan voha nomi bilan, ya’ni Farg‘ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Qashqadaryo-Surxondaryo va Xorazm lokal (mahalliy) uslublari deb yuritiladi. Har biri jug‘rofiy va madaniy muhiti, tarixan aholining turmush tarzi, musiqiy shevasi, musiqa janrlari va cholg‘ularining tarqalishi hamda ijro uslublari bilan ajralib turadi

An’anaviy san’atimizning ulkan bilimdoni ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonov shundan ta’riflaydi: “Milliy musiqa san’atimiz bamisoli bir daraxt bo‘lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shoxlari Farg‘onadir”. An’anaviy ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o‘lkamizda mumtoz musiqa san’atining butun bir ijrochi avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo‘lamiz. Ota Jalol, Ota G‘iyos, Levi Boboxonov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla halim Ibodov, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Sodirxon hofiz Bobosharipov, Matyoqub Xarratov, Hamroqul qori To‘raqulov, Mamadbuva Sattorov, Madali hofiz, Ergash shoir Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Sherna baxshi, Islom Nazar o‘g‘li, Bola baxshi Abdullayev va keyinchalik ularning shogirdlari mumtoz musiqa san’atimiz xazinasini o‘zlarining maqomlari, dostonlari, katta ashula va suvorolari bilan boyitdilar. An’anaviy ijrochiligimizda har birlari bir-biriga o‘xshamagan ajoyib ijro uslublari va yangidan yangi asarlarni ham yaratdilar. Sodirxon hofiz ijro etgan “Ushshoq” “Sodirxon Ushshog‘i” nomi, “Bozirgon”, “Oshiq Mahmud” dostonlari Bola baxshi nomi, “Yovoiy Chorgoh” katta ashulasi Mamadbuva va Boltaboy hofizlarning nomlari bilan mashhur bo‘lib ketgan. Hoji Abdulaziz Abdurasulov bastalagan “Guluzorim”, “Beboqcha” ashulalari, Jo‘raxon

Sultonov bastalagan va o‘zi ijro etgan “Guluzorim qani”, “Naylayin” ashulalari mumtoz san’at namunalari qatori musiqiy xazinamizdan o‘rin olgan.

Mumtoz musiqa rivojlanish tarixini shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin. Birinchisi – XX asrgacha bosib o‘tilgan yo‘l, og‘zaki an’anada saqlanib rivojlanishi, har biri o‘z nomiga va uslubiga ega bo‘lishi; IX asrdan boshlab «musiqiy risolalarda» Sharq mumtoz musiqasining nazariy masalalari Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi ulkan olimlar tomonidan atroflicha o‘rganib kelingan.

Ikkinchisi – XX asrdan boshlab mumtoz musiqa namunalari nota yozuvlariga bitilgan, sadolari ohanrabo tasmlariga tushirilgan, yangi ta’lim tizimida o‘zlashtirilgan, havaskor va professional ansambllar va ijrochilar tomonidan ijro etilib, jonli an’ana tarzida yashab kelmoqda. Ashula va yallalar, dostonlar va katta ashulalar, cholg‘u kuylari va turkumlar, maqomlar zamonaviy nota yozuvlarida muhrlanib, abadiy yashashga hozirlandi.

XX asrda o‘zbek mumtoz musiqasini to‘plash, yozib olish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib etishda kompozitor va bastakorlar, musiqashunos olimlarning xizmatilari katta bo‘lgan. Ular:

Viktor Aleksandrovich Uspenskiy (1879 1949).

Yelena Yevgenevna Romanovskaya (1890 1947).

Yunus Rajabiy (1897 1976).

Matniyoz Yusupov (1925 1992).

Isoq Rajabov (1927 1982).

Fayzulla Muzaffarovich Karomatli (1925).

O‘zbek an’anaviy musiqa namunalarini to‘plash, magnit tasmlarga yozib olish, hujjatlashtirish, nota yozuvida muhrlash va ilmiy o‘rganish hamda ularning nota to‘plamlari, kitoblar va gramplastinkalar orqali nashr etishda San’atshunoslik ilmiy tadqiqot institutining faoliyati ahamiyatlidir. 1928-yili Samarqandda o‘zbeklarning xalq va klassik musiqasini o‘rganish ilmiy tekshirish instituti sifatida ish boshlagan muassasa, keyinchalik o‘zbek musiqasini o‘rganish markaziga aylandi. V.Uspenskiy, I.Akbarov, F.Karomatli kabi atoqli olimlar rahbarligida respublikaning va Markaziy Osiyo

davlatlarining turli joylarida ekspeditsiya ishlari olib borildi. Natijada O‘zbekistonda juda boy musiqa arxivi vujudga keldi va u kundan kunga boyib bordi. Hozirgi kunda institut fonotekasi 1 million metrdan ortiq magnit tasmalarida va audio diskalarda xalqimizning noyob durdonalari – turli xalq qo‘shiqlaridan tortib, to yetuk san’atkorlar tomonidan ijro etilgan yirik maqom turkumlari saqlanmoqda. Ayrimlari gramplastikalar, audio disklar va nota yozuvi to‘plamlari sifatida xalqimizga taqdim etilgan.

Mumtoz musiqa jonli ravishda amaliyotda va ta’lim tizimida o‘zlashtirilib, XX asrning yetuk sozanda va hofizlari, baxshi va maqom ansambllari repertuaridan mustahkam o‘rin oldi va xalqimizga yangicha an’anaviy uslubda taqdim etilmoqda.

1-Laboratoriya mashg‘uloti mavzusi.

Mavzu: D.Zokirov musiqasi. A.Navoiy g‘azali.” Ko‘rmadim”.

Maqsad:Asarning badiiy va ijrochilik tomonlarini puxta o‘zlashtirish.

Tayanch tushunchalar Nola va bezaklar. Miyonxat va dunasr.

Mashg‘ulotdan kutilayotgan natijalar;

Mashg‘ulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. An’anaviy uslubda kuylash malakalarini egallash.
2. Ashulaning badiiy ijro etish uslublariga ta’riflab berish.
3. Asarning 1-2 baytlari ijrosi bo‘yicha kuylash malakalarini shakllantirish.

R E J A

1. Asar haqida qisqacha ma’lumot berish.
2. Asarni kuylab berish.
3. Asarni guruh va yakka bo‘lib talabalarga kuylatish va baholash.

“Ko‘rmadim” asarining matn muallifi A.Navoiy qalamiga mansub bo‘lib, o‘z zamonasidagi adolatsizliklar, taxt uchun, boylik uchun ayovsiz qonli kurashlardan norozi bo‘lgan shoirning g‘azali mazmunidan anglash mumkin.

Alisher Navoiy 13 14 yoshlarida otasi hayotdan ko‘z yumadi.³³ Uni Abulqosim Bobur o‘z tarbiyasiga oladi, katta badiiy iste’dodi uchun g‘oyat e‘zozlaydi. 1456-yil oktyabrda mamlakat poytaxti Hirotidan Mashhadga ko‘chiriladi, Abulqosim yosh Alisherni ham, o‘z xizmatida bo‘lgan Husayn Boyqaroni ham Mashhadga olib ketadi. 1457-yilning bahorida to‘satdan Abulqosim Bobur ham vafot etdi. Alisher Navoiy uchun bu otasi vafotidan keyingi ikkinchi og‘ir judolik bo‘ldi. U Mashhad madrasalaridan birida o‘qishini davom ettiradi. Do‘sti Husayn Boyqaro esa Marv va Chorjo‘y tomonlarga omad qidirib ketadi. Xurosonni temuriylarning yana bir vakili, Movarounnahr hukmdori Sulton Abu Said egalladi va poytaxtini Samarqanddan Hirotga ko‘chiradi. Husayn Boyqaroning taxtni egallash yo‘lidagi birinchi raqibi Abu Sayd edi. Alisher Navoiy oilasining xohish-rag‘bati Husayn tomonda bo‘lib, bu avvalo ularning oilaviy yaqinliklari bilan izohlanardi. Bundan yangi hukmdor ham yaxshi xabardor edi. O‘rtadagi bu vaziyat Alisher Navoiy hayotini murakkablashtirgan. Alisher Navoiy Mashhadga oddiy bir mullavachcha sifatida yashadi. Shoirning bu davrdagi ijodida o‘z yurtini sog‘inib yozgan g‘azallari talaygina. Orada, xususan, yoz fasllarida Hirotga borib-kelib ham turgan. 1463-yilda esa u uzil-kesil Hirotga qaytdi. Biroq bu yerda ahvol o‘zgargan, shahar xarobaga aylangan edi. Xuroson poytaxtida Sulton Abu Said o‘z tartibini o‘rnatgan, muhim vazifalarga u bilan Movarounnahrdan kelgan kishilar tayinlangan, Alisher Navoiy ga yaqin kishilar quvg‘in qilingan, Husayn Boyqaro bilan birga ketgan tog‘alari Mirsaid va Muhammad Ali urushda halok bo‘lgan, yashash uchun biron joy topish muammo edi. Alisher Navoiyning o‘sha kunlardagi ahvoli uning keyinchalik ustози Sayyid Hasan Ardasheriga Samarqanddan yozgan maktubidagi she‘riy satrlarda nihoyatda ta’sirli va haqqoniy ifodalab berilgan. Bu vaqtda mamlakatda taniqli shoir bo‘lib qolgan Alisher Navoiyni Abu Sayd ta’qib qilib, Hirotidan chiqarib yuboradi. Shoir Samarqandga ketishga majbur bo‘ladi.

Uning “Ko‘rmadim”, ”Topmadim” kabi radifli g‘azallari ham shu davrda, aniqrog‘i, Mashhaddan Hirotga qaytib, shaxsiy turmushini izga solish taraddudida yurganda, lekin uning moddiy jihatdan nochor ahvoldaligi tufayli oila qurishi qiyinlashgan, Sulton Abu Sayd esa uni ta’qib qilgan paytda yozilgan bo‘lib, uning har bayti yurakni tirnaydi.

³³ Abduqodir Hayitmetov. Alisher Navoiy (1441-1501). <http://e-adabiyot.uz/uzbek/mumoz/1119-maqola.html>

Kimga qildim bir vafo, kim yuz jafosin ko‘rmadim,³⁴

Ko‘rgazib yuz mehrining dardu balosin ko‘rmadim

Baytida shoir zamonasidagi amaldorlar, ulamolar tomonidan bo‘layotgan nohaqlik, oddiy xalqqa nisbatan o‘tkazilayotgan zulm, bosim xalqning noroziligiga sabab bo‘layotganligi, hech qachon yaxshilikka yaxshilik qaytarilmasligini ochiq bayon qiladi:

Kimga boshimni fido qildimki boshim qasdiga,

Har tarafdin yuz tuman, tig‘i jafosin ko‘rmadim.

Baytida esa men chin dildan bundaylarga boshni fido qilgan holda mehr ko‘rsatdim, lekin mehr o‘rniga har tarafdin jabr-zulm, jaholatni ko‘rdim, deydi.

Kimga ko‘nglim ayladi, mehru muhabbat foshkim,

Har vafoga yuz jafo, aning jafosin ko‘rmadim.

Baytida mening ko‘nglim hammaga mehr-vafo ko‘rsatgisi keldi, yordam berdi, ammo har bir vafodan menga yuz jafo qaytganini ko‘rdim, deydi.

Ey Navoiy tavba andin, qilmadim shayx olida,

Kim bu ishda dayr pirining rizosin ko‘rmadim.

Baytida: “Ey sen Navoiy bu jaholat va zulmdan norizo bo‘lib shayx oldiga shikoyat qilib borsang, nafaqat shayh hatto dayr pirlari ham mazlum xalqqa nisbatan bo‘layotgan adolatsizlikni ko‘rib, tavba qilishdan boshqa chora yo‘qligini ko‘rdim”, deb nadomat chekadi. A.Navoiyning “Ko‘rmadim” g‘azali 13 15 bo‘g‘inli, aruz vaznidagi she‘riy asar asosida yaratilgan.

Alisher Navoiy o‘rta asrdagi Uyg‘onish davrining boshqa ulug‘ zotlari singari butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi. U o‘z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o‘z vazifalarini suiiste‘mol qilishlarini va ta‘magirliklarini fosh etdi, ojiz, muhtoj kishilarni o‘z himoyasiga oldi. Sulton Husayn Boyqaro podshohlik qilgan. Alisher Navoiy hukumatda bosh vazir vazifasini egallaganlarida hech bir mamlakatga qarshi bosqinchilik urushi olib borilmadi. Bosh vazir Alisher Navoiy madaniyat va san‘atning chinakam homiysi sifatida taniladi. Uning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to‘g‘ri hal etishga intilish, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarga, barcha qavmlarga bir xil munosabatda bo‘lish, hech qaysi

³⁴ Maraim Jalilov. Qo‘shiqlar xrestomatsiyasi. 2-kitob. Toshkent 2003. 103-bet.

birini kamsitmaslik, hammaning manfaatiga barobar xizmat qiladigan jamoat binolarini qurishga alohida e'tibor berish oldingi o'ringa chiqa boshladi. Xondamirning qayd qilishicha, 80-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'priq, 20 ga yaqin hovuz qurgan yoki ta'mirlattirgan. Ular orasida Hirotdagi «Ixlosiya», «Nizomiya» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifoiya» tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan «Dor ul-huffoz» binosi, Marvdagi «Xusraviya» madrasasi, Mashhaddagi «Dor ul-huffoz» xayriya binosi va boshqa noyob me'morlik yodgorliklari bor.

Mazkur asarga XX asrning 60-yillarida taniqli bastakor D.Zokirov musiqa bastalagan.

Doni Zokirov³⁵

(1914 1985)

O'zbekiston xalq artisti, sozanda, dirijyor, murabbiy, jamoat arbobi, bastakor Doni Zokirov ajoyib qo'shiq, romans, musiqali drama, simfonik, xalq cholg'ulari orkestri uchun bastalangan musiqiy asarlari bilan o'zbek musiqa madaniyatini boyitdi.

D.Zokirov 1914- yil 28- dekabrda Samarqand shahrida tug'ilgan. 1926-yil o'rta ta'lim maktabiga o'qishga boradi va maktabdagi musiqa to'garagiga qatnashadi. Nay, dutor, g'ijjak chalishga qiziqadi. Mashhur san'atkor Muhiddin Mavlonovdan o'zbek va tojik xalq musiqa merosi va ijrochilik sirlarini o'rgandi.

1929- yil Samarqanddagi N.N.Mironov rahbarligidagi musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot institutiga o'qishga kirdi.

1929 1935- yillari Respublika musiqali drama teatrida sozanda bo'lib ishladi. Mazkur teatrni tashkil qilgan ulug' san'atkor M.Qoriyoqubov, Tamaraxonim, Usta Olim Komilovlardan saboq oldi va birga ishladi.

³⁵ G.M.Sharipova.Musiqa va unio'qitish metodikasi.Toshkent."Turon-iqbol".2011.167-bet.

1936-yilda Toshkentda O‘zbekiston Davlat filarmoniyasi ochildi va shu ansamblida konsertmeyster lavozimida ishga taklif qilindi, keyinchalik musiqa rahbari bo‘lib tayinlandi.

1940-1942- yillari Toshkent davlat konservatoriyasining tayyorlov kursida o‘qidi, lekin urush tufayli o‘qishni 1953 yili bitirdi.

1957-yili O‘zbekiston Radioeshittirish qo‘mitasi qoshida o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestriga bosh dirijor va badiiy rahbar lavozimiga tayinlandi.

1934-yilda birinchi yirik ijodi Z.Fatxullinning “G‘unchalar” p’esasi uchun bastalangan musiqasidir. U ilk ijodiy yutuqlardan so‘ng qo‘shiq va ashulalar yaratdi. Jumladan, “Ona orzusi”, “Zafar topib”, “Ol qasos”, “Jangda bardam bo‘l” kabi vatanparvarlik mavzusidagi qo‘shiqlar yozdi. A.Navoiyning “Orazi” va “O‘rtanur” g‘azallariga fortepiano jo‘rligida qo‘shiqlar, sahna uchun “So‘nmas chiroqlar”, “Dalada bayram”, “Vatan qirg‘oqlari”, “Yoshlikda bergan ko‘ngil”, “Hayot mash’ali”, “Mening jannatim”, “Shahzoda va yetim qiz” musiqali dramalarini yaratdi.

“Amirlikning yemirilishi”, “Qutlug‘ qon”, “Yor-yor” kinofilmlariga musiqalar, o‘zbek mumtoz musiqa namunalarini qayta ishlab, O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri, yakka cholg‘ular va orkestrga moslashtirilgan “Yovvoyi chorgoh”, “Fig‘on”, “Qaytarma”, “Cho‘li iroq”, “Farg‘onacha”, “Savti Navo”, “Mirzadavlat”, “Nasrullovi”, “Tasnifi dugoh”, “Ufori navo”, “Rajabiy” kabi asarlar yaratildi.

D.Zokirov mumtoz shoirlar g‘azallariga ko‘plab qo‘shiqlar yozib, o‘zbek qo‘shiqchiligi rivojiga katta hissa qo‘shdi. U A.Navoiy g‘azallari bilan aytiladigan “Ey sabo”, “Bo‘lmasa”, “Ayb etmangiz” va “Ko‘rmadim” radifli g‘azallariga yozilgan qo‘shiq va romanslari hozirgi kunda xalqimizning o‘lmas durdona asarlariga aylanib ulgurdi. “Ko‘rmadim” g‘azaliga bastalangan asarning ilk ijrochisi O‘zbekiston xalq artisti, an’anaviy va akademik vokal xonandalik uslubi ijrochisi Nazira Ahmedova bo‘lgan.

Ko‘rmadim asarining kuylash malakalarini shakllantirish. Ovoz sozlash uchun mashqlar

An’anaviy xonandalik uslubida kuylashda ovoz ustida ishlash o‘ta muhimdir. Buning uchun nafas olish va uni chiqarish mashqlari.

1- mashq.

Vals sur'atida F.Sodiqov. Vals

Oo' - - - o' o' ---

Oo' - - - oo' - - -

Mazkur mashqda ligalar yordamida nafas tejab sarf qilinishiga e'tiborni qaratish kerak. Triollar esa nola yordamida kuylanadi.

2- mashq. Talaffuz artikulyatsiya (i, a, o, m, t, pi, zi, to, tu) diksiya (so'zlarni donadona, burroligi) uchun mashqda ashula, qo'shiq so'zlari ustida ishlanadi.

Ot ma me ni tosh lar bi - lan , hay, yor - yor, ay la nay


u - chib ke tay qush - lar bi lan , hay, yor - yor, ay la nay.

Maqom qo'shiqlarini kuylash jarayonida talabalar doim "I" harfiga urg'u berib kuylashga intiladilar. Bu esa tinglovchini g'ashini keltiradi.

Masalan **"Kimga qildim bir vafo kiim yuz jafosin ko'rmadim"** tarzida eshitiladi.

3- mashq. Ovozni o'stirish, ovoz diapozonini kengaytirish uchun mashq yordamida ovoz paychalarini qizdirib va qo'shiq aytish uchun tayyorgarlikka erishiladi. Bu vaqtda nafas olish va uni tutib turishga e'tibor berish kerak. Yuqori pardalarda ovozni tutib turish diapozonni kengaytirish imkonini beradi.

Ufori talqini Urganji



Talabalarni qo'shiq aytishga tayyorlash (ovoz mashqlari) ustida o'qituvchi tomonidan kompleks tarzda amaliy mashg'ulotlar o'tkazilib borishi talab etiladi. Ma'lumki har bir mashg'ulot xonandaning ovozlari qo'shiq aytishga tayyorlash va ohang eshitish qobiliyatlarini ko'zda tutuvchi mashqlarni bajarishdan boshlanadi. Mashqlar 10 15 daqiqa va undan ko'proq davom etishi mumkin. Bu ovozni to'g'ri hosil qilish, to'g'ri nafas olish, yaxshi ansambl va jarangdorlikka erishishga yordam beradi.

Xonandalarni qo'shiq aytishga tayyorlashning to'g'ri uslublari mavjud: Bularga:

- mashqlarni butun guruh yoki alohida ovoz turlari bo'yicha kichik guruhlar bilan ishlash,

- ma'lum unli tovushlar, bo'g'inlar va so'zlar yordamida ish olib borish,

- turli tovush yo'nalishlarida (legato, stakkato, markato, nonlegato) uslubida ish olib borish,

- turli dinamik (tovush kuchi) sur'at uslubida ish olib borish,

- ayrim xalq qo'shiqlari bo'laklaridan foydalanib ijro qilish,

- diapozonning ma'lum qismida (registrda) kengaytirib ish olib borish,

- ovozni kuylashga tayyorlash mashqlari oddiydan murakkabga bo'lgan tartibda olib borishdan iborat.

Ashula ijrochiligida maqomlarimizning deyarli barchasi mumtoz shoirlarimiz g'azallariga bastalangan ijro namunalaridan iborat. Shuni ta'kidlash kerakki, barcha ashulalar ham yuqoridagi - **Muzoreyi musammani ahrabi makfufi maqsur, Mutakoribi musammani mahfuz, Ramali musammani mahzuf, Hazaji musammani**

solim, Muzorai musammani makfufi mahzuf kabi ko‘plab vaznlarga mos kelmasligi mumkin. Masalan, ramal bahri vaznida yozilgan Alisher Navoiyning “Ko‘rmadim” radifli g‘azaliga D.Zokirov tomonidan bastalangan ashula ohangi g‘azal matnidagi adabiy vazniga xos qilib bastalangan emas. Tabiiyki, adabiy hijo bilan ashula ijrosi talaffuzidagi hijo boshqa-boshqa ko‘rinish kasb etadi.³⁶

Mazkur vaznini olib, biz doira ohangiga qo‘yib ijro qilsak, raqsbop, o‘ynoqi - **6/8 Kulobcha** (Tojikistonda joylashgan tuman) **usuli** ijrosini eshitamiz.

Foilotun foilotun foilotun foilun

- V - - - V - - - V - - - V -

6/8 o‘lchov

Mazkur asar tonalligi Si-minor, tayanch pardalari Si-mi sol. Diapazoni birinchi aktava Si-dan 2-aktava mi-gacha boradi. Ashula ohangi esa boshqa hijo ko‘rinishida ekanligini ko‘rish mumkin. Bastakor esa bu matnni vazmin, qayg‘uli, bezaklarga boy 3/ 4 ohangiga solib yaratgan. Ya’ni,

Foilo - - tun foilo- - tun foilo

G‘azalning adabiy varianti –

Foilotun foilotun foilotun foilun

dan g‘azalning ashula varianti -

Foilo – tunfoilo- tunfoilo- tunfoilun

ko‘rinishiga ega ekanligini ko‘ramiz, natijada yuqoridagi vazn ko‘rinishi boshqacha ko‘rinish hosil qiladi.

Ritm o‘lchovi 3/4. Asarni kuylash uslubi, asosan, an’anaviy xonandalik uslubiga xos, ayol ovozi uchun mo‘ljallab yozilgan. Biroq asar juda musiqiy koloritga ega bo‘lganligi,

³⁶ Pedagogik ta’lim.D.Qodirov.Talabalarning kuylash malakalarini shakllantirishda hijo va bezaklar ustida ishlash. 6-son.2017-yil.

kuylash uchun murakkab ovoz talab qilinmaganligi bois ham xonandalik ansamblida erkak va ayollar tomonidan ijro etib kelinmoqda.

Xonanda asar ijrosi davomida nafasni erkin oladi va ijro davomida ovoz quyidan yuqoriga qarab yo'naltiriladi. Asosiy ohang g'oyasi berilgandan so'ng tovush asosiy tonikaga qaytadi. G'azalda yuqori avj mavjud emas. O'rta avjda ham tovushlar uyg'unligi, erkin tovushlardan iborat bo'lib, g'azal mazmunini ochib berishda ohanglar ketma-ketligini muvofiqlashtirib beradi. Asarning musiqiy xususiyatining asosiy jihatidan shundan iboratki, birinchidan, kuylash uchun juda qulay, ovoz diapazoni ikki oktava oralig'ida, ikkinchidan ovoz rang-barangligi va unli tovushlarga urg'u berish qoidalaridan to'liq foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Ko'rmadim

D.Zokirov musiqasi
Alisher Navoiy g'azali

Allegro moderato

Kim-ga qil - dim bir vafo kim, yuz jafodu balo

7



sin ko'r ma dim . Kim ga bo shim ni fi do - qil dim ki bo -

15

shim qas di g'a , Har ta raf din yuz tu man ti g'i ja fo

23

sin ko't ma dim.

31



Kim ga ko'ng lim ay la di meh ru muxa

39 G

bat fosh kim, Xar va fo g'a yuz jafo o ninga fo

47

sin ko'r ma dim, Ey Na vo iy tav ba an din qil ma dim

55

shayhol di da, Kim bu ish da day ru pi

61

ri ning rizo sin ko'r ma dim.

1. 2.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbek mumtoz musiqasi yo'nalishlari haqida gapirib bering.
2. O'zbek mumtoz musiqasining yetuk janrlari nimalardan iborat?
3. Musiqa ijodiyoti namunalaridan o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirib bering.
4. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'lkamizda mumtoz musiqa san'atining ijrochilar avlodi haqida ma'lumot bering.
5. Mashhur hofiz Hoji Abdulaziz Abdurasulov yaratgan ashulalar haqida aytib bering.
6. Mumtoz musiqa rivojlanish bosqichlari haqida gapirib bering.
7. XX asrda o'zbek mumtoz musiqasi namunalarini to'plash va yozib olish (zamonaviy Ovro'pa nota yozuvida) ishlari rivoji haqida ma'lumot bering.
8. XX asrning 30-yillarida Xorazm maqomlari kimlar tomonidan notalashtirilgan?
9. "Ko'rmadim" ashulasining musiqa muallifi haqida gapirib bering.
10. "Ko'rmadim" ashulasining matn muallifi haqida gapirib bering.

Kuylash malakalarini shakllantirish

Kuylash texnikasi

Kuylash – san'at shakllaridan biri bo'lib, musiqiy asarlar mazmunining badiiy, ya'ni tovush vositalari orqali ifodalanishi uchun xizmat qiladi.

Vokal - tovush - musiqachi sozi singari, kuylashning texnik bazasini tashkil etadi. Musiqa san'atining boshqa shakllaridan farqli o'laroq, kuylashda tovush va ovozdan tashqari jonli inson so'zi ham yangraydi. So'zni nutq shakllantiradi.

Asarning badiiy matni so'zlarini tinglovchilarga aniq yetkazib berish vositasiga **talaffuz** deyiladi. Talaffuz asarning g'oyaviy mohiyatini ochib berishda muhim o'rin tutadi. Agar so'zlar she'riy fikrni aniqlashtirsa, musiqa ularni atroflicha emotsional bo'yoqlar bilan to'ldiradi, chuqurlashtiradi. Xonandalik san'atida so'z va musiqa bir birini to'ldirib, yaxlit badiiy obrazni yaratadi. So'zni yaxshi talaffuz qilish texnikasiga ega bo'lish xonandalik san'ati negizlaridan biri hisoblanadi. Asarning mazmunini to'g'ri va

aniq talaffuz qilish uchun soʻzlardagi mantiqiy urgʻularga, soʻzning jonli tildagi talaffuz qoidalariga ahamiyat berish lozim.

Talaffuz ustida ish olib borganda, avvalambor, vokal asar matnining mazmuniga, undagi badiiy obrazlarning xarakteri va mazmun-mohiyatiga eʼtibor qaratiladi. Toʻgʻri soʻz talaffuzi – matn ustida koʻp vaqt sarflamasdan, balki uni qoʻshiq aytish bilan birga koʻrsatib berish imkoniga ega. Soʻz va kuy bir vaqtda oʻzlashtiriladi.

Aniq soʻz talaffuziga erishish esa artikulatsiya apparati til, tanglay, lablar, tishlar, jarlarning faoliyatiga bogʻlik. Xususan, unli tovushlarni hosil qilishda ogʻiz boʻshligʻi va lablar muhim rol oʻynaydi. Soʻzning aniq va toʻgʻri talaffuzi xonanda ovoziga ijobiy taʼsir qiladi. Ansamblida soʻz talaffuzining yaxshi boʻlishi unda olib boriladigan mashqlarga va nutq apparatining ishlashiga bogʻliq boʻladi.

Maʼlum mashqlar yordamida artikulatsiya apparati rivojlantiriladi. Masalan, ularning faolligini oshirish uchun u, - unli harflarni, b, m, p, v, f - undosh harflarni, bu, du, mu, yu, ku kabi boʻgʻinlar tuzib, mashq qilib yoki o tovushlaridan foydalanib, «lya», «da», «na» kabi boʻgʻinlarni talaffuz qilib, pastki jagʻni faollashtirish mumkin.

Shuningdek, d, z, k, l, n, r, s, t, sh undosh va a, o, u, i, e unlilardan «lya», «le», «lyu» va boshqa boʻgʻinlardan tuzilgan mashqlar yordamida t, i, l faolligini oshirish mumkin. Masalan, qator soʻzlar tuzib, kecha-tun, shahar, daraxt, dorboz undoshlarini qattiq, unlilarni esa yumshoq talaffuz qilish yoʻli bilan undoshlar talaffuzlarini yaxshilash mumkin. undoshlarning yaxshi talaffuzi esa unlilarni yaqqol oydinlashtiradi.

Kuylashda nafas olish texnikasi

Ovoz tarbiyasining asosiy mezonlaridan biri xonandalarning toʻgʻri nafas olishiga, uni ushlash va tejimli sarflashga oʻrganish hisoblanadi. Nafas asarning surʼatiga, jumalarning katta-kichikligiga qarab bir maromda tez, yengil, ravon va chuqur olinadi. Nafas olishda gavda, boʻyinining toʻgʻri erkin holda boʻlishi, kiftlarning va nafasning diafragma olinishiga eʼtibor berish lozim. Nafas olishning ikki turi mavjud. Bular:

- aralash pastki qovurgʻa - diafragma usulida nafas olish
- zanjir yoki ulama nafas olish.

Pastki kovurgʻa - diafragma usulida nafas olishda kiftlar va koʻkrak qafasi koʻtarilmasdan nafas pastga - diafragma olinadi. Bunda qorinning pastki qismi

harakatda bo‘ladi. Og‘iz va burundan bir vaqtda nafas olinadi. Nafas olishni kuzatish uchun qo‘llarni qovurg‘alar bo‘ylab pastga, yon tomonga yuritib qorin bo‘shlig‘ining oldinroqqa chiqishini, kovurg‘alarning yon tomonga kengayishini kuzatish mumkin. Nafasni bir tekis, shoshilmasdan chiqarishni ham o‘rganish kerak. Nafasni tejamkorlik bilan sarflash lozim. Asarni ijro etganda haddan tashqari ko‘p nafas olish mumkin emas.

Zanjir yoki ulama nafas olish usuli asosan xor asarlarida yoki cho‘zib turiladigan tonika va dominanta organ punktlarida uzoq muddatgacha nafas olish mumkin bo‘lmagan paytlarda qo‘llaniladi.

Ma’lumki, asarning boshidan oxirigacha bir nafas bilan qo‘shiq aytib bo‘lmaydi. Ko‘p ovozli katta asarlarni ijro etishda kuy cho‘zilib qolmasligi uchun xonandalar birdaniga bir vaqtda emas, balki navbatma-navbat nafas oladilar. Ya’ni, bir xonanda nafas olganda yonidagi ikkinchi xonanda ijroni cho‘zishni davom ettiradi. Bu xonanda nafasni rostlagach, u boshqalardan ajralmagan holda ijro partiyasiga qo‘shiladi, natijada kuy uzluksiz yangrayveradi. Bu usulga zanjir yoki ulama nafas olish deyiladi.

Mashqlar

O‘qish tizimi jarayonida har bir talaba o‘qituvchi tomonidan muntazam ovoz diapazonini sozlash, nafasdan to‘g‘ri foydalangan holda musiqa pardalarida ovozning jarangdorligini topish uchun har bir dars oldidan ma’lum vaqt, albatta, mashq qiladi. Bu ijodiy jarayon ma’lum mashqlar asosida olib boriladi.

Mashqlar (vokal sozlanish) ashulachi ovozi shakllantirish va rivoj- lantirish hamda to‘g‘ri nafas olish uchun olib boriladigan boshlang‘ich bosqich hisoblanadi. U ovozni professional holatga keltirish, mavjud kamchiliklarni chetlashtirish uchun juda keraklidir. Shu bilan bir qatorda, mashqlar ustida ishlash nafas olish qonuniyatlarini o‘zlashtirish, yangrashda ravonlikka erishish, ovoz harakatchanligini aniqlashga imkon yaratadi. o‘qish jarayonida talaba rivojlanishi darajasiga muvofik mashqlarni tanlash lozim.

Ilk qadamlardan «legato» ko‘rinishida to‘g‘ri kuylash tonini o‘zida shakllantirish jarayonida talabaning erkin, tabiiy va zo‘riqishsiz kuylashga e’tibor qaratish lozim. Kuylashning boshida katta bo‘lmagan, ma’lum diapazon doirasida tovushni silliq yo‘naltirish lozim. Talaba imkoniyatlarining o‘sishi bilan mashqlar uzaytirilib

murakkablashtiriladi, ovozning texnik imkoniyatlari mukammallashtiriladi. Keyinchalik mashqlarni ijro etish jarayonida texnikani rivojlantirish unsurlariga, tezlikka e'tiborni qaratish muhimdir.

Vokal texnik vazifalar katorida mashklarni ifodaviy ijro etishga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Vokal mashqlarni o'qituvchi har bir ovoz uchun ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, alohida tanlashi lozim. Mashqlar ashulachilarning ijro faoliyatidagi doimiy hamrohi bo'lishi kerak.

Ovozni sozlash singari, talabalarni musiqiy-ijrochilik ko'nikmalarni egallashga o'qitishda ham aniq vazifalar majmuyi mavjuddir.

Har bir talabaning shaxsiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ularga eng yaxshi asarlardan tashkil topgan, emotsional ijodiy ko'tarinkilik, drammatizm yoki lirik asarlarda kuylangan sevgi-muhabbat, qahramonlik va ona -Vatanga bo'lgan sadoqat ruhi bilan boyitilgan yorqin obrazlar, xarakterlarga ega to'g'ri ijro dasturini tanlash talabalarning serqirra imkoniyatlarini ochib beruvchi elementlarga hamda vokal-texnik va badiiy ijrochilik mahoratga erishishlariga xizmat qiladi.

Musiqiy asarlarni o'rganish

O'qituvchi talabalarning ovoz imkoniyatlarini inobatga olgan holda, uning ovozigam qo'shiq tanlaydi. Musiqiy asar matni tavsiya etilgach, mualliflar ijodi o'rganiladi. Ayni chog'da, mazkur musiqiy namunaning ma'nosi, g'oyasi talaba ongiga singdiriladi. Kuy bilan so'zning mutanosibliigi haqida so'z yuritiladi, eshittiriladi. Ijro chog'ida holatga kirish, so'z ma'nosi bilan yashash, ohang bilan she'riy matnni uyg'unlikda ijro etish talab qilinadi. Bularning barchasi, tabiiyki, matnli asarlar ustida ishlash jarayonida talaba oldiga yangi-yangi vazifalarni qo'yadi.

Mashg'ulotlarning boshidan ijro etishning vokal-texnik qirralarini asar mazmunining badiiy-ifodaviy tomonlariga aylangan holda bo'ysundirishga harakat qilish lozim. Faqatgina vokalizatsiyaning o'zi, qanchalik u yaxshi bo'lmasin, zamonaviy tinglovchini qoniqtirmaydi. Mukammal texnika asosiy maqsadga aylanmasligi lozim, uni ijodiy vazifalarga bo'ysundirish kerak.

Asar mazmunini ochib berish yaxshi rivojlanish qobiliyati, ritm va jummalarni his etishsiz amalga oshirilmaydi. Shuning uchun bu elementlarni shakllantirishga va

tarbiyalashga katta ahamiyat beriladi. Matnli asar ustida ish olib borishdan oldin kuylanadigan mashqlar va vokalizlar bunday sifatlarni tarbiyalash uchun muhim manba hisoblanadi.

Bo'lajak ijrochini nafaqat asarning musiqiy shaklini tushunib yetishga, balki uning mazmunini anglashga ham o'rgatish lozim. Bu jarayonda katta e'tiborni matn ustida ish olib borishga, aniq va ravon kuylash nutqi, so'zlarning badiiy va chiroyli talaffuziga qaratish lozim. Chunki bunday mukammal ijro tinglovchilar e'tiboriga asarning aniq mazmuni va g'oyasini yetkazib berilishini ta'minlaydi. Talaba usluban rang-barang asarlarni ijro etishni o'rganishi lozim.

Talaba oldida qo'yilgan vazifalar mashg'ulotlarning boshida uning ijro imkoniyati darajasiga mos bo'lishi kerak. Ovoz shakllanishi ko'nikmalarining o'zlashtirilishi jarayonida bu vazifalar asta-sekin murakkablashib boradi. Butun o'qish jarayonida vazifalar o'z mukammalligiga erishib oliy o'quv yurti talabasi imkoniyatlariga mos kelishi lozim.

Vokal janrlari

Musiqiy misollar janr nuqtai nazaridan to'rt turga bo'linadi. Bular: qo'shiqlar, romanslar, ariya va duetlar. Talaba-xonandalar mazkur janrlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan yaqindan tanishishlari maqsadida ularga qisqacha tafsilot berib o'tsak.

Qo'shiq – keng ma'noda she'riy musiqiy janrni anglatadi. Qo'shiq vokal musiqaning eng ommalashgan, ko'proq band shakliga asoslangan turi bo'lib, shuningdek, kuylashga mo'ljallab yozilgan she'riy asarlarning umumiy ifodasini o'zida namoyon etadi. Qo'shiqning kuyi diapazoni ixchamligi, musiqa rivoji band (yoki band-naqorot) shakliga asoslanganligi, ohanglar tizimida so'z va kuy intonatsiyalari mushtarakligi, she'riy matndagi g'oyaviy emotsional mazmun rivojining umumiy tarzda (badiiy yakuni sifatida) ifodalashi bilan ajralib turadi. qo'shiqning yana o'ziga xos tomoni - she'riy matn va kuy shakllarining o'zaro mutanosibligi, bir xil hajmdagi tuzilmalar (she'rda - band, kuyda - davriya)ga asoslanganligidan iborat. Qo'shiqning she'riy matnlari aniq kompozitsiyasi, har bir bandida muayyan tugal fikr ifodalanganligi bilan ajralib turadi.

Ashula – yakka xonanda yoki xonandalar guruhiga mo'ljallangan, mumtoz o'zbek musiqa merosida markaziy o'rin egallagan ashula yo'li. Ashula, asosan, lirik ruhdagi

gʻazal va sheʼrlar zaminida yuzaga keladi. Ashulalar soz (doira, dutor, tanbur), ansambl joʻrligida yoki joʻrsiz ijro etiladi. Ashula qoʻshiq janridan kuy diapazonining kengligi, shaklan rivojlanganligi, mavzu va mazmuni teranligi bilan farqlanadi. Ashulaning badiiy mazmunida barmoq vaznidagi gʻazal va sheʼriy shakllar asosiy oʻrin tutadi. Ashulaning ichki tuzilishi ham turlichadir. Barmoq vazniga asoslangan ashulalar koʻprok «band-naqorot» shakli koʻrinishida boʻlsa, gʻazallarga bitilgan ashulalar tuzilishi nisbatan murakkab va rivojlangandir. Odatda, bunday ashulalarning kuylari quyi pardalardan boshlanib oʻrta va yuqori pardalarida rivojlanadi, soʻngra dastlabki turgʻun tovushda nihoyasiga yetadi.

Romans (ispancha romanice - romancha, roman tiliga oid) kamer musiqa janri boʻlib, cholgʻu joʻrligida yakkaxon xonanda ijrosiga moʻljallangan musiqiy-sheʼriy asardir. Romans asosan, kichik hajmdagi, band tizimiga asoslangan, qisqa satrlardan iborat lirik sheʼrlarga kuylanadi. Romans tuzilishi jihatdan qoʻshiq va ashulaga nisbatan murakkabrok boʻlib, sheʼrning mazmunini ochib beradi yoki tasvirlaydi.

Ariya (ital. *aria*) – opera, oratoriya, kantata, musiqali drama yoki komediyadagi tugallangan lavhani oʻzida namoyon etadi. Opera, musiqali drama va komediya dramaturgiyasida dramadagi monologga teng keladi. Qoʻshiq va romansga nisbatan birmuncha murakkab, koʻp qismdan tarkib topgan. Ariyaning badiiy vazifasi – asar qahramonining xarakteri, ruhiy kechinmalari va intilishini ochib berish. Shu bois ariya oʻzining keng ohangdorligi bilan ajralib turadi.

Duet (lotincha *duo* – ikki) – birinchidan, ikki ijrochidan iborat ansambl uchun moʻljallangan sozlar joʻrligidagi yoki joʻrsiz musiqiy asarni oʻzida namoyon etadi. Ikkinchidan, musiqali drama va komediya, shuningdek, opera, oratoriya, kantata, operettadagi vokal ansambl turi hisoblanadi. Duet asarning musiqiy dramaturgiyasini va qahramonlarning ichki histuygʻularini ochib berishda muhim oʻrin tutadi.

Vokal ansambli

Vokal ansambli deganda barcha ijrochi xonandalar orasida yangrovchi tovushlarning yaxlitligi tushuniladi. Musiqali drama va komediyalar, operalarda esa vokal ansamblni duetlar, trio, kvartetlar tashkil etadi. Bu tasniflashdan maʼlum boʻladiki, vokal ansamblining partiyalari orasida son va sifat munosabatlari mavjuddir. Vokal ansambli bir

turdagi va aralash turlarga bo‘linadi. Uning tembr (vokal), ohang, talaffuz, dinamik unsurlari mavjud.

Ijro etiladigan asarning yangrashiga nafaqat ansambl ijrochilari, vokal partiyalar, balki ansambl va orkestr dirijori, ansambl va tinglovchilar orasidagi munosabat ham ta’sir ko‘rsatadi.

2- Laboratoriya mashg‘uloti mavzusi

Mavzu: D.Zokirov musiqasi, A.Navoiy g‘azali. “Ko‘rmadim”

Maqsad: asarning miyonxat va avj qismlari ijrosi va ularning badiiy va ijrochilik tomonlarini puxta o‘zlashtirish.

Tayanch tushunchalar: nola va bezaklar. Miyonxat va dunasr.

Mashg‘ulotdan kutilayotgan natijalar

Mashg‘ulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. Qo‘shiq o‘rgatish jarayonini izohlaydi
2. Ashulani badiiy ijro etish uslublariga ta’rif beradi
3. Qo‘shiq aytishda mashqlarning ahamiyati haqida aytib beradi

R E J A;

1. Asar haqida qisqacha ma’lumot berish.
2. Asarni kuylab berish.
3. Asarni guruh va yakka bo‘lib talabalarga kuylatish va baholash.

”Ko‘rmadim” ashulasining 3 va 4 baytlarini kuylash malaklarini shakllantirish ustida ish olib boriladi.

Talabalarga kuylash chog‘ida “O” harfini talaffuz qilishda “Ooov” deb kuylash zarurligi tushuntiriladi. Ya’ni,

⁴Ki[♫] mga ko[♫] ng ! lim a[♫] ylad[♫],
me[♫] hru-muha[♫] b ! bat fo[♫] shki[♫] m,

⁸Ha[♫] r vafo ! ga yuz jafo, !
aning jafo[♫] ! sin ko[♫] r ! madi[♫] m.

Baytning ma’nosi mening ko‘nglim hammaga mehr-vafo ko‘rsatgisi keldi, yordam berdi, ammo har bir vafodan menga yuz jafo qaytganini ko‘rdim, deydi.

⁸E y Navo iy ta vba an ! din,
qi ! ! madi m shayx o ldida,

³Ku m bu i shda day ! pi ! ri
ni rizo ! sin ko r ! madi m.

Izoh (bu yerda [] belgilari bo'g'inlarning nola qilinishi uchun ishlatiladi.

Matn boshiga qo'yilayotgan raqamlar o'sha qatorning intervallarning qaysi raqamidan boshlanishiga ishora qilinadi.

Masalan 3 raqami – tersiyadan kuylash, 8 raqami – oktavadan kuylanishini ko'rsatadi. Bu yerda ashulaning tayanch tovushi SI yoki RE notasi bo'lsa, ashula 1 raqami (prima)dan boshlanadi. Undov (!) belgilari so'zlarning bo'linib ijro etish kerakligini anglatadi.)

baytda: “Ey sen Navoiy bu jaholat va zulmdan norizo bo'lib shayx oldiga shikoyat qilib borsang, nafaqat shayx hatto dayr pirlarining ham mazlum xalqqa nisbatan qilayotgan adolatsizliklarini ko'rib, tavba qilishdan boshqa chora yo'qligini ko'rdim”, deb nadomat chekadi.

Kuylash vaqtida matnda so'z va bo'g'inlar orasiga qo'yilgan (!-undov) belgisi ashulaning o'sha joyida bo'g'inlar uzib-uzib kuylanishini bildiradi.

Ijroda “A” harflarini talabalar doim ochiq holda, eshituvchilarga malol keladigan tarzda kuylaydilar. Shuning uchun ijro yo'lini o'rgatuvchi inson “A” xarfini “O” harflarini aralashtirgan holda, tanglay va dimoq orqali talaffuzini kuylab ko'rsatib berishi kerak. Ya'ni (AO) shaklida kuylash lozim.

⁴Ki mga ko ng ! lim a ylad i ,
me hru-muha b ! bat fo shki m,

⁸Ha r vafo ! ga yuz jafo , !
aning jafo ! sin ko r ! madi m.

baytda mening ko'nglim hammaga mehr-vafo ko'rsatgisi keldi, yordam berdi, ammo har bir vafodan menga yuz jafo qaytganini ko'rdim, deydi.

⁸E y Navo iy ta vba an ! din,
qi ! ! madi m shayx o lida,

³ **Кн m bu i shda day ! pi ! ri
ni rizo ! sin ko r ! madi m.**

baytda: “Ey sen Navoiy bu jaholat va zulmdan norizo bo‘lib shayx oldiga shikoyat qilib borsang, nafaqat shayx hatto dayr pirlari ham mazlum xalqqa nisbatan bo‘layotgan adolatsizlikni ko‘rib, tavba qilishdan boshqa chora yo‘qligini ko‘rdim”, deb nadomat chekadi. A.Navoiyning “Ko‘rmadim” g‘azali 13 15 bo‘g‘inli, aruz vaznidagi she‘riy asar asosida yaratilgan.

Ikkinchi mavzuni mustahkamlashga oid savollar.

1. Kuylash malakalarini shakllantirish va kuylash texnikasi bo‘yicha nazariy bilimlarni mustahkamlash.
2. Kuylash, Vokal malakalarini ta’riflab bering.
3. Kuylash chog‘ida talaffuzning qanday ahamiyati bor?
4. Kuylash uchun nafas olishning qanday turlari mavjud?
5. Aralash pastki qovurg‘a usuli orqali nafas olish texnikasi qanday bo‘ladi?
6. Zanjir yoki ulama nafas olish texnikasi qanday uslub?
7. Kuylashda ovoz sozlash mashqlarining ahamiyati haqida aytib bering
8. Musiqiy asarlarni o‘rganish jarayoni haqida nimalarni bilasiz?
9. Qo‘shiq va ashula janrlarining farqi haqida aytib bering.
10. Romans, ariya, duet so‘zlari mahnosini aytib bering.
11. Vokal ansambli haqida ta’rif bering.
12. Ko‘rmadim asarining 3-4 baytlari matni ma’nosini tushuntirib bering.
13. Ko‘rmadim asarining 1-4 baytlari ijro malakalarini mustahkamlash va yoddan kuylashga erishish.

“Binnigi” uslubi

Xonanda ovozlarining jismoniy va akustik jihatlari. “Etmasmidim” asarining daromad va miyonxat qismi ijrosi ustida ishlash

Maqsad:

- 1 Xonanda ovozlarining jismoniy va akustik jihatlari haqidagi nazariy ma'lumotlarni shakllantirish.
2. “Etmasmidim” asarining daromad va miyonxat qismi ijrosi ustida ishlash.
Dinamik uslublar, nola va bezaklari, avjlari ustida ishlash.

Tayanch tushunchalar. Avleola. .Morgan qorinchalari . Rezonatorlar. Falset ijrosi. Dinamik uslub. Nola va bezaklar.

REJA:

1. O'tilgan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash.
2. “Etmasmidim” asarining daromad va miyonxat qismi ijrosi ustida ishlash. Matn ustida ishlash va yoddan aytish texnologiyasi ustida ishlash.

Mashg'ulotdan kutilayotgan natijalar

Mashg'ulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. Xonanda ovozlarining jismoniy va akustik jihatlari haqidagi nazariy bilimlar shakllantiriladi.
2. “Etmasmidim” asarining daromad va miyonxat qismi ijrosi ustida ishlash. Nola va bezaklari ijrosi bo'yicha amaliy bilimlar mustahkamlanadi.

Xonandalarning jismoniy va ovoz akustik jihatlariга birozgina oydinlik kiritamiz. Ma'lumki, asab tizimidagi shartli (ko'nikma) reflekslarga ko'ra, ovoz chiqarish uchun ishlab turadigan ichki a'zolarining barchasi bosh asab tizimiga bo'ysunadi. Shu sababli kuylash murakkab psixofiziologik jarayon hisoblanadi. Har bir xonanda nutq apparatining ishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Doimiy ravishda o'z hissiyotini tekshirib turishi, ya'ni nimani, qanday qilayotganini tushunishi kerak. Insonning ovoz apparati uchta asosiy qismdan iborat: bular o'z vazifasiga ko'ra bir-biri bilan bog'liq bo'lgan o'pka, hiqildoq va tebrantiruvchi bo'shliqlardir.

O'pka to'qimasi odamning ko'krak qafasi bo'shlig'ini egallab turgan konus shaklida bo'ladi. O'pka yuz millionga yaqin alveolalardan tashkil topgan. Alveolalar juda kichkina pufakchalar shaklida bo'lib, organizmga kerakli kislorod, ular orqali to'qimalarga, karbonat angidrid gazi esa to'qimalardan alveolalarga o'tadi. Shu tariqa, gaz almashinuvi jarayoni ro'y beradi. Alveolalar bo'shlig'i sari kengayib boruvchi mayda kanallar - bronxeola, bronxlar bilan bog'langan bo'ladi. Bu kanallar esa bronxlar tizimini tashkil etadi. O'pka tarkibida bronxlar tizimidan tashqari uning arteriya va venalari mavjud. Bu qon tomirlari o'pka to'qimasining oziqlanishi va gaz almashinuvida xizmat qiladi. O'ng va chap o'pkaning bronxlari traxeyaga birikadi. Traxeyalar o'zaro o'ziga xos boylamlar bilan birikkan 18 20 ta tog'aysimon halqalardan tashkil topgan. Traxeya esa, o'z navbatida hiqildoqqa ulanadi.

Tabiiyki, fiziologik gaz almashinuvi jarayoni tinch va ritmik nafas olishdir. U yurak qisqarishiga o'xshaydi, ya'ni bizning ixtiyorimizga bog'liq bo'lmagan holda avtomatik tarzda ishlaydi.

Nafas jarayoni uzluksiz qaytariluvchi uchta holatdan iboratdir: *nafas olish*, *nafas chiqarish* va *pauza*. Nafas olish orqali alveolalar havo bilan to'ldi. Bu yerdan to'qima qon tomirlariga kislorod, to'qimalardan alveolalarga karbonat angidrid gazi o'tadi. Nafas chiqarish vaqtida esa alveolalar siqilib kerak bo'lmagan gazlar o'pkadan chiqarib tashlanadi. Pauza esa nafas olishdan oldingi tayyorgarlikdir.

Hiqildoq traxeya va halqum o'rtasida joylashgan. Bu a'zo ovoz hosil bo'lishida asosiy vazifani o'taydi. U bir bo'shliq bo'lib, ichki tomondan shilliq qavat bilan qoplangan. Hiqildoqning ichida 4 ta tog'ay mavjud, ular: qalqonsimon tog'ay, halqasimon tog'ay va ikkita cho'michsimon tog'aylardir. Ular o'zaro boylamlar va mushaklar bilan birikkan.

Yosh o'tgan sari, bu tog'aylarda suyaklanish jarayoni ro'y bera boshlaydi, shu bilan birga, hiqildoq mushaklari bo'shashadi, noziklashadi va kuchsizlanib boradi. Buning natijasida ovoz boylamlari kuylash vaqtida bir-biri bilan mos tushmaydi va yosh xonandalarniki kabi mustahkam turmaydi. Xonandalar ovozi qarilikda zaiflashadi. Hiqildoqning ichki nafas yo'lining davomi bo'lib tobora torayib boradi va tor teshikcha bilan tugaydi. Bu esa ovoz teshikchasi deyiladi. Ovoz teshikchasi chekka qismlarida ovoz

(svyazka) boylamlari³⁷ va buklamlari mavjud. Ovoz boylamlari hiqildoq bo‘rtmasida joylashgan bo‘lib, qadoq bilan himoyalangan bo‘ladi. Qadoq erkaklarda ayollarga nisbatan bo‘rtib turadi. Ovoz boylamlari oq yaltiroq rangda bo‘lib, hiqildoqning yon devoriga birikkan. Hiqildoqning maxsus tuzilishi sababli ovoz boylamlari o‘z vazifasini keng xarakterda o‘zgartira oladi.

Ovoz boylamlari ishida ikki guruh mushaklar ishtirok etadi: ichki ovoz va tashqi tortuvchi. Bularning har biri muayyan vazifani bajaradi. Ovoz mushaklari ovoz boylamlarining tanasida joylashgan bo‘lib, ko‘krak registrida ularning uzunligi, qalinligi va kengligini o‘zgartiradi.

Mushaklar qisqarib ovoz teshikchasi ochiladi va yopiladi. Boylamlarni tortuvchi mushaklar bosh registr vaqtida hiqildoq mushaklari qisqarib boylamlarni tortadi va boylamlar tarangligi sustlashadi. Aralash registrlarda ikkala guruh mushaklar ishlaydi. Ovoz boylamlari uzunligining o‘zgarishi sezilarsiz darajada bo‘ladi, lekin bu holat kuylayotgan xonanda ovozining ikki oktava oralig‘ida o‘zgartira oladi.

Tinch holatda boylamlar orasida keng uchburchaksimon teshik hosil bo‘ladi. U yerdan havo erkin o‘tadi. Tovush chiqayotgan paytda esa ovoz boylamlari yopiladi. Tovush hosil bo‘lishi nafas chiqarish fazasida ro‘y beradi. Chin ovoz boylamlaridan yuqorida shilliq qavatning xaltasimon chuqurlashgan qismi mavjud bo‘lib, ular *Morgan qorinchalari* deyiladi. Morgan qorinchalarining yuqori qirralari soxta (falset) ovoz boylamlarini hosil qiladi. Kuylash vaqtida pastki tovushlarda ular kengayadi. Yuqorigi tovushlarda esa pasayadi. Ular o‘rtasida ovoz teshikchasiga o‘xshash teshikcha mavjud. Chin va soxta ovoz boylamlarining birikkan umumiy qismi nafas olish va ovoz hosil bo‘lish vaqtida soxta boylamlarning chin boylamlarga o‘xshab harakat qilishida ishtirok etadi. Lekin ular o‘rtasidagi masofa taxminan 6-7 mm ni tashkil etadi. Shuning uchun ham og‘iz bo‘shlig‘ida chin ovoz boylamlarini ko‘rish qiyin kechmaydi. Uchburchak shakldagi tog‘aysimon plastinka taom mahsulotlarining nafas olish vaqtida hiqildoqqa tushishidan himoya qiladi.

Tebrantiruvchilar (rezonatorlar) ovozni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Akustikada tebrantiruvchi deb mustahkam devorda tugagan havo hajmi tushuniladi.

³⁷ „Boylam“ — iborasini rus tilidan „svyazka“ so‘zidan tajjima sifatida olindi. Ayrim o‘zbek tilidagi manbalarda uning ma’nosidan kelib chiqib „tovushlog‘ich“ deb keltirilgan.

Odamda ular suyakli tog'aysimon yoki mushakli yumshoq bo'lishi mumkin. Tebrantiruvchilarning hajmi va shakli ovoz kuchiga va tembriga ta'sir etadi. Tebrantiruvchining tabiiy hajmi har bir xonanda uchun o'ziga xos bo'ladi. Tebrantiruvchining o'lchovi qanchalik kichik bo'lsa ovozning ingichkaligi shuncha ortadi, va aksincha qanchalik katta bo'lsa, ovozning yo'g'onligi shuncha ortadi.

Insonlarning ovoz chiqaruvchi a'zolari tuzilishi ba'zi holatlarda istalgan musiqiy asbobdan mukammalroqdir. Odam ovozida ikkita tebrantiruvchi: *yuqori* va *pastki* tebrantiruvchilar mavjud bo'lib, musiqiy sozlarda esa faqat bittagina, u ham bo'lsa, o'sha cholg'u sozining korpusidir. Yuqori tebrantiruvchilarni yana bosh tebrantiruvchilar ham deyishadi, ya'ni ular boshning yuz qismida, tanglaydan yuqorida joylashgan. Pastki tebrantiruvchilar esa ko'krak tebrantiruvchilari deyiladi. Bu ikkala tebrantiruvchilarni hiqildoq birlashtiradi. U esa, o'z navbatida, ham tebrantiruvchi, ham o'ziga xos boshqaruvchi vazifasini bajaradi.

Yuqori tebrantiruvchilar tarkibiga quyidagilar kiradi: *halqum*, *og'iz* va *burun* bo'shliqlari. *Burun halqum* bo'shlig'i hamda burunning yon bo'shliqlari, ya'ni *peshona* va *goymobo'shliqlaridir*. Pastki tebrantiruvchilarga *traxeya* va *yirik bronxlar* kiradi. Qolgan barcha tebrantiruvchilar tovushni kuchaytirishda deyarli hech qanday ahamiyatga ega emas. Ular tashqaridagi havo bilan bog'liq emas va eshituvchilarning qulog'iga yetib bormaydi. Shunday ekan ovoz yangrashida qolgan tebrantiruvchilarning vazifasi qanday? Ularda bosh va ko'krak tebranishi namoyon bo'ladi, ya'ni xonandalarning muhim sezgilari bo'lgan o'z ovozi haqida fikr yurita olish imkonini beradi. Bosh tebrantiruvchilar *burun*, *halqum* bo'shlig'idan boshqa bo'shliqlar hajmini va tebrantiruvchilik faoliyatini o'zgartira olish xususiyatiga ega emas. Ular havoni ma'lum bir hajmda saqlaydi. Shuning uchun faqatgina ovozning yuqori tovush obertonlarini tebrata oladi. Bundan shuni tushunish mumkinki, kuylayotgan vaqtda ovoz tembri yuqori chastotali obertonlarga boy bo'lgandagina yuz qismidagi tebrantiruvchilar faoliyati yaqqol ko'rinadi. Og'iz *halqum* yo'llari orqali tovush o'tayotgan vaqtda uning energiyasining katta qismi yuz skeletining qattiq to'qimalari orqali ovoz tebrantiruvchilariga uzatiladi. Shu bilan birga, u yerdagi havoni tebratadi va tebranish holatini keltirib chiqaradi. Bosh tebrantiruvchilarida to'plangan energiya havo yo'llari orqali tashqariga chiqish imkoni bo'lmagani uchun tebrantiruvchilar devorning titrashini keltirib chiqaradi. Mana shu tebranishlarni xonanda

tebrantiruvchiga tushgan tovush sifatida qabul qiladi. Bosh tebrantiruvchidagi tebranma holati ovoz vazifasining eng muhim kuchaytiruvchisidir. Demak, tovush bosh tebrantiruvchiga tushishi xonanda uchun kuylash vaqtida qulay sharoit yaratib beradi.

“Falset” - italyancha *falsetto* - soʻzidan olingan boʻlib, yolgʻon maʼnosini anglatadi. Bu yolgʻon ovoz yoki yuqori registrlarda gʻingʻillash deganidir. Baʼzida uni «bosh» registr yoki «fistula» deb ham atashadi.

Maʼlumki, inson qulogʻining eshitish chastotasi 16 gersdan 20000 gersgacha boʻlgan tebranishlarni qabul qiladi. Soʻzlashish va kuylash vaqtidagi tovush balandligi eshitish diapazonining bir qismini egallaydi.

Inson ovozi 74 gersdan 1056 1057 gersgacha boʻladi. Odam ovozining balandligi ovoz boylamlarining tebranish chastotasiga bogʻliqdir. Ovoz boylamlari qanchalik kalta va ingichka boʻlsa, kuchlanishi, tebranishlar chastotasi, hamda hiqildoq teshigidan oʻtuvchi havoning tezligi katta boʻladi. Bu holda ovoz balandligi oshadi yoki aksincha.

Inson ovozining kuchi va boylamlari tebranishlar oraligʻi orqali hosil boʻladi. Tebranishlar oraligʻi qanchalik keng boʻlsa, ovoz yangrashi shunchalik kuchli boʻladi. Tebranishlar oraligʻi ovoz mushaklarining qisqarish kuchiga va nafas olishga bogʻliq holda hosil boʻladi. Bundan tashqari, ovoz kuchiga tebrantiruvchi boʻshliqlarning holati ham taʼsir etadi.

3-Laboratoriya mashgʻuloti.

Mavzu: “Etmasmidim” asarining daromad va miyonxat qismlari ijrosi ustida ishlash

Maqsad: “Etmasmidim” asarining avj va furovard qismi ijrosi ustida ishlash. Dinamik uslublar, nola va bezaklari, avjlari ustida ishlash.

Tayanch tushunchalar. Dinamik uslub. Nola va bezaklar.

R E J A:

1. Oʻtilgan mavzular boʻyicha nazari va amaliy bilimlarni mustahkamlash.
2. “Etmasmidim” asarining avj va furovard qismi ijrosi ustida ishlash
3. Asarning toʻliq mukammal ijrosi ustida ishlash. Matn ustida ishlash va yoddan aytish texnologiyasi ustida ishlash.

Mashgʻulotdan kutilayotgan natijalar

Mashgʻulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:


1. Qo‘shiq ijrochiligi malakalari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar mustahkamlanadi.

2. “Etmasmidim” asarining avj va furovard qismi ijrosi ustida ishlash.

“Etmasmidim” (K.Jabborov musiqasi, Fuzuliy g‘azali)

Muhammad Sulaymon Fuzuliy³⁸

(1498 – 1556)



Fuzuliy- Ozarbayjon shoiri va mutafakkiri. Ozarbayjon, fors va arab tillarida ijod qilgan. Otasi Bayot qabilasidan bo‘lib, 15 asr oxirlarida Ozarbayjondan Bag‘dodga ko‘chib borgan. Bag‘dod madrasalarida tahsil olib, o‘zi ham mudarrislik qilgan.³⁹ Uzoq vaqt Bag‘dodda yashagan. Ozarbayjon hukmdori shoh Ismoil I Safaviy va Turkiya sultoni Sulaymon I Qonuniy shoirni moddiy jihatdan biroz ta‘minlab turganlar. Lekin uning turmushi ko‘p vaqt qiyinchilikda va kambag‘alchilikda o‘tgan. Iroqning Bag‘dod, Hilla, Najaf kabi shaharlarida bir qancha muddat yashagan Fuzuliy ona shahri Karbaloga qaytib, shu yerda vabo kasalidan vafot etgan.

Fuzuliy boy adabiy an‘anaga ega bo‘lgan forsiy va turkiy adabiyotning Xoqoniy Shirvoniy, Mujrim Baylagani, Nizomiy Ganjaviy, Sa‘diy Sheroziy, Salmon Sovajiy, Hofiz Sheroziy, Atoiy, Lutfiy, Alisher Navoiy ijodini mehr bilan o‘qib-o‘rganib, ularning mahorat sirlaridan bahramand bo‘lgan. Shoir ijodiga, ayniqsa, Lutfiy bilan Navoiy kuchli ta‘sir ko‘rsatgan.

Fuzuliy devon tuzib, uni «Muhabbatnoma», «Farzandi dilband» deb ta‘riflagan. Shoir ishqiy lirikasida insonning ma‘naviy olami, jo‘shqin his-tuyg‘ular tug‘yoni, olijanoblik bilan jaholat, ochko‘zlik o‘rtasidagi kurash, insonga samimiy, yuksak muhabbat bilan bog‘liq botiniy kechinmalar aks ettirilgan. Fuzuliy poetik merosining asosiy qismini g‘azal va qasidalar tashkil etadi. Lutfiyning (16-asr) yozishicha, g‘azaliyotda Fuzuliyning «Navoiyga o‘xshash g‘aroyib bir yoqimli yo‘li va ajoyib bir uslubi bor» bo‘lgan. She‘rlarida lirik qahramon oshiqning ruhiy kechinmalarini, qalb sirlarini butun ichki qaramaqarshiliklari bilan, mumkin qadar, teran tasvirlashga erishgan. Bunda oshiq o‘z

³⁸ Muhammad Fuzuliy (1498-1556)

³⁹ <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/ozarbayjon-sheriyati/fuzuliy/>

mahbubi yo'lida har qanday azob-uqubatlarni yenguvchi, komil inson sifatida namoyon bo'ladi.

Fuzuliy ijodining cho'qqisi «Layli va Majnun» dostoni (1536 1537)dir. Asar lirik-epik xarakterda bo'lib, Sharqda mashhur bo'lgan an'anaviy sujet va obrazlar asosida yaratilgan va turkiyzabon xalqlar o'rtasida keng tarqalgan. Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Hofizning «Devon», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Chor devon» kitoblari qatorida, Fuzuliy asarlari ham madrasalarning o'quv dasturiga kiritilgan. Fuzuliyning «Matla' ul-e'tiqod» falsafiy risolasi, «Hadiqat us-suado», («Baxtiyorlar bog'i»), «Suhbat ul-asmor» («Mevalar munozarasi»), «Shikoyatnoma», «Bangu boda» («Bang va boda»), «Anis ul-qalb», («Qalb do'sti») «Yetti jom» yoki «Soqiynoma», «Rindu Zohid», «Sihhat va Maraz» («Sog'lik va bemorlik») kabi nazmiy-nasriy, falsafiy-didaktik asarlari ozarbayjon adabiyotining eng nodir durdonalari hisoblanadi. Badiiy yuksak asarlari bilan ozarbayjon adabiyotini yangi bosqichga ko'targan Fuzuliy she'rlarining asosiy mavzusi ham, harakatlantiruvchi kuchi ham, bu she'rlarni ichdan nurlantirib turgan quvvat manbayi ham- ishq. Mutasavvif shoir sifatida ilohiy muhabbatni ulug'lagan, dunyoga berilishni qoralagan. Insonni kamolotga olib boradigan fazilatlarini tarannum etib, uni tubanlashtiradigan illatlarni tanqid qilgan.

Fuzuliy o'zidan keyingi barcha turkiyzabon shoirlar, jumladan, o'zbek shoirlariga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Fuzuliy ta'sirida, unga ergashib she'rlar bitish, shoir g'azallariga nazira-tatabbu'lar yozish, muxammaslar bog'lash deyarli barcha shoirlar ijodida uchraydi. Fuzuliyning ozarbayjoncha devoni o'zbek xalqi orasida 18-19-asrlardayoq keng tarqalgan va bir necha bor o'zbek tilida nashr qilingan. G'azal, murabba' va muxammaslari kuyga solinib, asrlar davomida xonandalar tomonidan kuylanib kelmoqda («Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r...» va b.). Atoqli ozarbayjon bastakori Uzayr Hojibekov 1908- yil «Layli va Majnun» dostoni asosida birinchi ozarbayjon operasini yaratgan. 1958 1961-yillarda Hamid Arasli tahririda Fuzuliy asarlarining to'la ilmiy-tanqidiy nashri yaratildi. Devonining 1581-yil ko'chirilgan nusxalaridan biri O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

O'zbek an'anaviy xonandalik ijro maktabida Fuzuliyning shoh g'azallariga kuy bastalanib, sevib ijro etib kelinmoqda. Shashmaqom, Chormaqom, Xorazm maqomlari

ashula yo‘llarida Fuzuliy g‘azallaridan keng foylalanilganligini kuzatish mumkin. Jumladan, “Qurbon o‘lam”, “O‘landan so‘r” (Bayot-1), Savti suvoralar turkumlari va boshqa ashulalar.

“Etmasmidim” radifli g‘azalga taniqli bastakor va sozanda Komiljon Jabborov kuy bastalagan. Ashulaning birinchi ijrochisi Xalq artisti Saodat Qobulova bo‘lgan.

Komiljon JABBOROV

(1914 - 1975)

Sozanda (g‘ijjak, dutor, tanbur) va bastakor edi. O‘zbekiston xalq artisti (1973). Sozandalikni Ro‘zmat Isaboyev, S.Siddiqovdan, bastakorlikni To‘htasin Jalilovdan o‘rgangan. 1924 1930- yillarda Andijon milliy musiqa to‘garagida qatnashgan. 1930 1931-yilda Hamza nomidagi Toshkent tetrida, 1931 1942- yillarda Andijon va 1942 1947-yillarda Yangiyo‘l teatrlarida faoliyat ko‘rsatgan. 1947 1975- yillarda O‘zbekistan radiosi o‘zbek xalq cholg‘u asboblari orkestrida sozanda bo‘lib ishlash chog‘ida «Dugohi Husayniy», «Iroq», «Navo» va boshqa kuylarni g‘ijjakda ijro etgan. Bir vaqtning o‘zida «Nolish», «Nimcho‘poniy», «Kurd» va boshqa asarlarni dutorda ijro qilgan. «Samarqand Ushshog‘i», «Gulyor» va «Shahnoz»dek ashula yo‘llarini tanburda katta mahorat bilan ijro etgan.

K.Jabborov K.Yashinning «Gulsara» (1936), «Layli va Majnun» (Xurshid, N.Salaxov bilan birgalikda, 1938) spektakllarini musiqalashtirishda qatnashgan hamda «G‘ulja ustida nur» (S.Tilla, A.Ismatulla, 1950-yil P.Rahimov bilan hamkorlikda), «Nodira» (H. Razzoqov, 1962-yil S.Hayitboyev bilan), «Mening Jannatim» (S.Abdulla, 1971-yil D.Zokirov bilan) musikal dramalarini yaratgan.

100 dan ortiq - “Etmasmidim”, “Diyorimsan”, “Nazzora qil”, “Mubtalo bo‘ldim senga”, “Toshkent piyolasi”, “Shifokorlar”, “Obod o‘lkam” kabi ashula, qo‘shiq va qator cholg‘u kuylar muallifi. Bularning so‘nggi uchtasi ko‘p yillar davomida O‘zteleradiosing turkum dasturlarining boshlangich sadolari edi.

Umrining oxirida «Cho‘lponoyning allasi», «Chorgoh», «Mash‘al», «Zebuniso» singari telepostanovkalarning musiqasini yaratgan.

Komiljon Jabborovning ijodiy uslubi tez yodda qoluvchi jozibali ohanglarga boyligi, an'anaviy peshrav, ashula va qo'shiq shakllarining erkin uyg'unlashishiga asoslangan.

“Etmasmidim” ashulasining kuylash malakalarini shakllantirish.

Asarni o'rganish jarayonida nola va bezaklar, talaffuzga, dinamik ijrolarga etiborni qaratish kerak. Ijro vaqtida 1- 4- baytlar ijrosi ustida ishlanadi.

Ikkinchi bayt birinchi baytdan kvinta yuqoridan ijro etiladi.

5. Lahza-la^h ! za sy^{ratin} ko'r ! say ! dimy^l shirin labing.

5. Sen kabu^{ey} Be ! sutyⁿ , ! meⁿ ham qaro^r etma^s ! midim.

Ashulaning uchinchi baytida dunasr qismi keladi, ya'ni kichik avj ijroga joziba bag'ishlaydi.

6/8. Ul gulu^{xando} ni ky^{rma} k ! mumkin y^l ! sa^{ydi} menga[,]

10. Sendagu^{bulbul} gulu^s ! tonga guzo^r ! etma^{smidi} m.

Har bir bo'g'in yakunidagi () belgilar nola qilish kerakligini bildiradi.

Mavzuni mustahkamlashga oid savollar.

1. Insonning ovoz apparati necha qismdan iborat?
2. Inson o'pkasida qancha avleolalar bo'ladi?
3. Nafas olish jarayoni nechta xolatdan iborat?
4. Hiqildoqning ichida necha xildagi tog'aylar mavjud bo'ladi?
5. Ovoz boylamlari ichida necha guruh boylamlar mavjud bo'ladi?
6. Morgan qorinchalari nima degani?
7. Tebrantiruvchilar (rezonatorlar) haqida gapirib bering
8. Inson ovozida nechta tebrantiruvchilar mavjud bo'ladi?
9. Yuqori tebrantiruvchilar tarkibiga nimalar kiradi?
10. Falset so'zining ma'nosi nimani anglatadi?
11. Inson qulog'ining eshitish chastotasi necha gersdan tebranishlarni qabul qiladi?
12. Inson ovozi necha gersdan gersgacha bo'ladi?
13. Obertonlar deb nimaga aytiladi?
14. Ko'rmadim ashulasining matnini yoddan aytib bering.
15. Asarni cholg'u asbobi yordamida kuylab bering.

ETMASMIDIM

Fuzuliy g'azali
K. Jabborov musiqasi

Andante

Ix - ti - yor o'l - say - di to - -
Ix - ti - yor o'l - say - di ro - -
- ki hat ish - qi yor et - mas - mi - dim
hat ix - ti - yor et - mas - mi - dim
Lah - za, lah - - - za su - ra - tin
ko'r - say - di - mu shi - rin la - bin
Sen ka - bi ey be - su - tun
men ham qa - ro - - r(o) et - mas - mi - dim
Ul gu - li xan - don - ni ko'r - mak
mum - kin o'l - - - say - di men - ga

Sen - da - gi bul - bul gu - lis - -

-ton - ga gu-zor et - mas - mi-dim

Dar - dim-mi o - lam - da pin - -

hon tut - mo-g'im no- chor - dur

Bo'l - sa cho - ra bir ta- bib - - -

-ga o - shi-qo - - r(o) et - mas - mi-dim

Ey, Fu - zu - - liy do - g'i hij - -

-ro - ni - da yon - gan ko'ng - li - mi

Lo - la - lar och - say - di say - - -

ri lo - la - zor - - - r(o) et - mas - mi - dim

Lo - la - zor och - say - di say - - - - -

- ri lo - la - zo - - - r(o) et - mas - mi - dim.

4-5-mashg'ulot

Uslublar. “Binnigi”, “Gulligi”, “Ishkambi” uslublari. “Etmasmidim” – K.Jabborov musiqasi, Fuzuliy g‘azali.

Maqsad:

1. Qadimiy kuylash uslublari “Binnigi”, “Gulligi”, “Ishkambi” haqida nazariy ma’lumotlarni shakllantirish.
2. “Etmasmidim” (K.Jabborov musiqasi, Fuzuliy g‘azali) asarining avj va furovard qismlari ijrosi ustida ishlash.

Tayanch tushunchalar. Binnigi, Gulligi, Ishkambi, Xonaqoyi kuylash uslublari. Dinamik uslub. Nola va bezaklar.

R E J A :

1. O‘tilgan mavzular bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash.
2. “Etmasmidim” (K.Jabborov musiqasi, Fuzuliy g‘azali) asarining avj va furovard qismlari ijro mahoratini shakllantirish. Nola va bezaklari ustida ishlash.

Mashg‘ulotdan kutilayotgan natijalar

Mashg‘ulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. “Binnigi”, “Gulligi”, “Ishkambi” kuylash uslublari haqidagi nazariy ma’lumotlarni shakllantiriladi.
2. “Etmasmidim” (K.Jabborov musiqasi, Fuzuliy g‘azali) asarining avj va furovard qismlari ijrosi bo‘yicha amaliy bilimlar mustahkamlanadi.
3. Asarning mukammal ijrosi ustida ishlanadi.

Ovoz turlaridan tashqari, ovoz chiqarish uslublari ham mavjud. Yevropa klassikasiga nazar soladigan bo‘lsak, xonanda ovozlari uchun opera san’atida ko‘plab ariyalar, duetlar va shunga o‘xshash ovoz orqali ijro etiladigan asarlar bastalangan. Bu janrlar, asosan, italyancha *bell canto* ovoz chiqarish uslubida ijro etiladi. *Bell canto* italyancha so‘z bo‘lib, to‘g‘ri ovoz, ya’ni eng to‘g‘ri uslub ma’nosini anglatadi. Bu uslubda kuylanganda ovoz kuchi baquvvatlashib, yumshoqligi ortadi. Odamlar bilan bo‘lgan to‘liq katta sahnalarda ham bunday uslubda kuylanganda tomoshabinlarning barchasiga ijrochilar ovozi yaxshi eshitiladi. Bunday ovoz chiqarishda xonandaning ikkala rezonatori, ya’ni ovoz tebrantiruvchilaridan baralla yangragan tovush tanglay, tomoq va burun bo‘shliqlaridan tebranib o‘tib, kuchli jarangdorlikni hamda ovoz kuchini orttiradi. Lekin *bell-canto* ovoz tarannum uslubi o‘zbek mumtoz xonandalik san’atiga xos emas, ya’ni ijro an’analariga nisbatan noqulayliklar keltirib chiqaradi. Chunki bunday uslubda kuylanganda ovoz ko‘lami, ya’ni diapazoni qisqaradi. Ovoz kuch bilan itarilib chiqishi natijasida ovozning yuqori qismi qattiqligi jihatidan pasayib qoladi. Bizning an’anaviy ashulachilik sohasida ovoz ko‘lami qanchalik keng bo‘lsa shunchalik imkoniyatga ega bo‘ladi. Ma’lumki, o‘zbek an’anaviy ashulachilik san’atidagi asarlarning diapazoni keng bo‘lib, o‘z navbatida, milliy ovoz ham bu talabga javob bera olishi kerak. *Bell-canto* uslubining biz uchun to‘g‘ri kelmaydigan yana bir tomoni shundaki, ijro davomida talaffuz aniq va lo‘nda eshitilmaydi. Chunki bunday qattiq va kuchli tembr bilan so‘z talaffuz etish qiyin

kechadi. To'g'ri talaffuz qilingan taqdirda ham eshituvchi uning so'zlarini ilg'ab ololmaydi. Bizning sharqona an'analarimizga ko'ra shinavandalarga ijro etilayotgan asarning musiqiy yo'li qanchalik qiziqarli bo'lsa, uning so'zlari, ya'ni she'riy matni shunchalik aniq talaffuz etilishi muhimdir. An'anaviy ashulachilik san'atida xonanda ovozidan uning shirin nafasidan rohatlanish barobarida, shoirlarning she'riyatidan ham ta'sirlanish va aynan she'ri uchun ham tinglanadigan ashula janrlari mavjud. Bunday janrlarga misol, nasihatimiz ashulalar, ota-onalarni madh etuvchi ashulalar, ayrim qalami o'tkir shoirlar she'rlariga bastalangan ashulalar va suvora janrini aytib o'tishimiz lozim. Ayniqsa, Xorazmda suvoralarning so'zlariga juda e'tibor qilib eshitishadi. Bu to'g'rida ustoz san'atkorlardan qolgan bir naql bor: «Maqom soz etmoq, suvora so'z aytmoq». Bundan ko'rinib turibdiki, milliy san'atimizda so'z ham soz ham muhim omillardandir.

D.Mullaqandov o'zining tadqiqotlarida o'zbek xalq musiqasi ijrochiligida ovoz ishlatish uslubini tasnifotini keltiradi. Markaziy Osiyo va Kavkaz orti mamlakatlarida xonandalik san'atida erkak xonandalar uchun o'ziga xos ovoz chiqarish uslublari qadimdan mavjud. Qadimda bunday uslublarni shunday nomlashgan ekan: *binnigi*, *gulligi*, *ishkami* va *gumbazi xonaqoyi*. Bu ovoz chiqarish uslublari to'xtalib o'tsak.

Binnigi ovoz chiqarish uslubiga xos bo'lgan tomoqda tovush hosil bo'lishi bilan bosh tebrantiruvchilar va tanglayga urilib, burun va og'iz bo'shlig'i orqali tashqariga yo'llanishi natijasida amalga oshiriladi. Bunday uslub vakillarining ovozlari aslidan ko'ra yuqoriroqdek tuyuladi.

Masalan, *bas* bo'lsa *bariton*, *bariton* bo'lsa *tenor* kabi yo'sinda. Bu holatni shunday tushuntirish mumkin, bosh tebrantiruvchilari va tanglayda tovush tebranib chiqqanda yuqori chastotali obertonlar ko'proq hosil bo'lib, eshutilishiga ko'ra balandroq, ya'ni o'tkirroq ovoz hosil bo'lishida ko'maklashadi.

Shuning uchun ham bu uslubda ovoz chiqaruvchi xonandalarning ovoz turini aniqlash nisbatan qiyin kechadi. Bunday ovoz chiqarish uslubini aynan *binnigi* deyilishiga sabab, taralayotgan ovoz burundan chiqayotganga o'xshaydi. *Binnigi* ovoz chiqarish uslubi ko'proq xonandaning jismoniy shakllanishi, ya'ni yuzning tuzilishi, burunning katta-kichikligiga bog'liq. Ushbu uslub sohiblari uchun bosh tebrantiruvchilar orqali ovoz hosil qilish qulayroqdir. Bunday ovoz chiqarish uslublari ko'proq Ozarbayjonda va qadim

Xorazmda keng tarqalgan. Marhum xonanda, ustoz hofiz Madrahim Yoqubov (Sheroziy), F.Mamadaliyevlar aynan shunday uslub namoyandalaridan bo'lganlar.

Gulligi ovoz chiqarish uslubi *binnigi* uslubining teskarisi desak bo'ladi. Chunki tovush hosil qilishning bu usulida ko'proq tovush o'pka tebrantiruvchilaridan chiqishi va tomoq bilan og'iz bo'shlig'i orqali tashqariga yo'llanishi natijasida yuzaga keladi. Ovozning yuqori pardalarida ham bosh tebrantiruvchilar va tanglay deyarli ishlamaydi. Bunday uslubda yuqori ovoz pardalarini olish uchun tomoqqa zo'r berib, tomoq qon tomirlari bo'rtib chiqadi hamda shishadi. Ustozlarning aytishicha, bunday ovoz chiqarish uslubidagilar tovushlarining yuqori registrlarida tomog'i shishib, tomirlari bo'rtib chiqqanida, chetdan kuzatilganda xonandaning bo'yin qismi gullaganga o'xshab ko'rinar ekan, shuning uchun ham bu uslubni *gulligi* deyishar ekan.

Gulligi ovoz chiqarish uslubi ijrochilari asosan Farg'ona vodiysi hofizlari hisoblanadilar. Yetuk hofiz, el sevgan san'atkor Mamatbuva Sattorov, O'zbekiston xalq hofizlari Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, O'zbekiston xalq artistlari Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Hadya Yusupova, Malohat Dadaboyeva, Eson Lutfullayev va Fattohxon Mamadaliyevlardir.

O'zbekiston ashulachilik san'atida hozirgi davrda ham keng tarqalgan ovoz chiqarish uslubi *ishkami* deyiladi. Bunday ovoz hosil qilish usuli quyidagicha: ovoz paychalaridan taralgan tovush, dastlab, tomoq, tanglay va bosh tebrantiruvchilardan tebranib o'tib, halqum bo'shlig'idan tashqariga yo'llanadi. Pastki registrlarda, asosan o'pka tebrantiruvchilari va yuqori pardalarda bosh tebrantiruvchilari ishtirok etadi. Bu uslub tovush hosil qilishning ko'p jihatlari bilan *bell canto* ovoz chiqarish uslubini eslatadi. Ammo *Veil saptodagx* kabi kuch bilan itarilib chiqmaydi va samimiy, soxtalikdan xalos bo'lgan holda havoga taraladi. Buni halq tili bilan aytganda ochiq ovoz deyiladi.

“Ishkambi” uslubi

Ishkambi ovoz chiqarish uslubidagi xonandalar o‘z ovozlari ustidan yaxshi nazorat o‘rnata olishlari mumkin. Ovoz dinamikasi, ya’ni ovozining baland-pastligi, musiqa tili bilan aytganda, *fortepiano* jihatlari pastki va yuqorigi registrlarda osonlik bilan boshqariladi. Bundan tashqari ovoz harakatchanligini oshirishi va salobatli tomonlarini ko‘rsatishi ham qiyin bo‘lmaydi.

Ovoz talqini ishkami ovoz chiqarish uslubiga xos bo‘lgan yetuk ijrochilardan ustoz hofizlardan Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, O‘zbekiston xalq artisti Hojixon Boltayev, O‘zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Komiljon Otaniyozov, O‘zbekiston, Tatarston, Turkmanston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Otajon Xudoyshukurov, O‘zbekiston xalq hofizlari Rasulqori Mamadaliyev, Orifxon Hotamov, Ro‘zmat Jumaniyozov, Fattohxon Mamadaliyev, Halima Nosirova, Saodat Qobulova hamda mazkur xonandalarning davomchilari bu uslub vakillaridir.

Ovoz chiqarishning yana bir eng noyob uslubi mavjud. U ham bo‘lsa ***gumbazi xonaqoyidir***. Bu ovoz chiqarish usulini uslub deyish ham, bizning nazarimizda, xato bo‘lar, bu usulni ko‘proq ovoz turi desak to‘g‘ri bo‘lar edi. Buning uchun jismonan o‘ziga xos bo‘lish lozim. Gap shundaki, bunday ovoz hosil qilish uchun hiqildoq boylamlari yo‘g‘on, tanglay nisbatan chuqurroq, bosh, ya’ni burun tebrantiruvchilari keng va burun teshikchalari biroz katta bo‘lishi kerak. Bunday ovoz tonning eshitilishi gumbaz yoki xonaqolardan yangrayotgan tovush singari gurillab chiqadi. Bu ovoz to‘liq, quyuq va ozgina xastalangandek bo‘lib eshitiladi. Bunday ovoz sohiblarini biz faqat magnit yozuvlarda eshitishimiz mumkin. Bulardan O‘zbekiston xalq artisti Muhiddin Qori Yoqubov, Gabriyel Mullaqandov, ayol ustozlar Nazira Yusupova. Fotima Boruhova. Halima Nosirova. Berta Dovidovalarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

O.Matyobovning «Maqomot» kitobida xonandalar uchun ajoyib, foydali maslahatlar berilgan. Bu maslahatlar nafaqat yosh, endigina o‘sib kelayotgan, san’at yo‘liga birinchi qadamlarini tashlayotgan xonandalar uchungina emas, balki hozirgi davrda xalq orasida yurgan, mashhur xonandalar uchun ham foydalidir.

«Professional san'at yo'liga kirgan ovozni asrash, parvarish va nazorat qilishning samarali yo'l-yo'riqlaridan unumli foydalanganlar. Bu borada hofizlar, eng avvalo issiq, sovuqdan va boshqa keskin ta'sirlardan saqlanmoqni odat qilganlar.

Mikrofon va boshqa tovushni kuchaytiruvchi texnik vositalar bo'lmagan davrlarda hofizlar o'z ovozlarning eng nozik sifatlarini keng eshituvchilar doirasiga yetkazib bera olganlar. Ovoz baquvvat va to'laqonli sadolanishi barobarida, ijro nafis va juda nozik bezaklar bilan boyitilgan. Yoshligida maktab ko'rib, chinakam tarbiya topgan hofizlar jismonan keksayib, kuchi qaytganda ham ularning ovozi o'z jilosi va mayinligini yo'qotgan emas. Shuning uchun har bir ashulachining elda tan olinishi uning maktabining o'ziga xosligi, aytish va cholg'u chalishdagi malaka-mahorat darajasiga bog'liq ekan».

Xonandalik san'ati o'ziga xos noziklik va ehtiyotkorlikni talab etadi. Darhaqiqat, qadimda ustozlarimiz hofizlikni har tomonlama to'laqonli ado etishgan. Biz faqat qo'shimcha qilib shuni aytishimiz mumkinki, sport bilan shug'ullanish, sof havodan nafas olish, o'zga yurtlarga, tabiat qo'yniga, tog'lar bag'rida, dengiz bo'ylariga sayohat qilish ovoz uchun foydalidir.

Ma'lumki, inson ovozi tuzilishi har qanday musiqiy cholg'udan mukammaldir. Musiqashunos olim O.Matyoqubov bu xususida o'zining «Maqomot» kitobidan bir lavha keltirgan «Sharqda inson ovozi barcha cholg'u asboblarning ibtidosi» deb qaralgan. Musiqiy cholg'uning mukammal va nafisligidagi bosh mezon – insonning ovoz tabiatiga hamohangligidir. Qo'l bilan yasalgan cholg'u asbobiga nisbatan inson ovozi mohiyatan birlamchi hamda mo'tabar hisoblangan. Haqiqatdan ham, odam ovozi, ayniqsa, xonandalar ovozi juda mo'tabardir. Chunki musiqiy cholg'ular odam ovozi ohangini takrorlash maqsadida yaratilganligi hammamizga yaxshi ma'lum.

4-5- Laboratoriya mashg'ulotlari

“Etmasmidim” – K.Jabborov musiqasi, Fuzuliy g'azali.

Maqsad: “Etmasmidim” ashulasining avj va furovard qismlari ustida ishlash. Asarning badiiy va ijrochilik tomonlarini puxta o'zlashtirish.

R E J A:

1. Asar haqida qisqacha kirish suhbatini o'tkazish.
2. Asar mualliflari haqida ma'lumot berish.
3. Asarni guruh va yakka bo'lib talabalarga kuylatish va baholash.

Tayanch tushunchalar: Fuzuliy lirikasidagi mazkur g'azalning tafsiri.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism - Talabalarning laboratoriya mashg'ulotga tayyorgarligini aniqlash, mashg'ulot mavzusi, maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtirish.

II. Berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, o'rganilgan material yuzasidan talabalardan so'rash

III. Yangi mavzuni bayon qilish: kirish, asarning avj va furovard qismlarini namunaviy ijroda kuylab ko'rsatib berish, Ashulani DVD, SD variantlardagi ijrolaridan foydalanish. Nola va bezaklar ustida ishlash. Nafas olish, diksiya, talaffuz ustida ishlash.

IV. O'rganilgan materialni mustahkamlash uchun savollar.

1. Ashula o'rgatish jarayonida talabalar oldiga qanday maqsad va vazifaier qo'yilgan?
2. Ashula o'rgatish jarayoni qanday faoliyatlardan iborat?
3. Ashula aytishda nola va bezaklarning ahamiyati qanday?

V. Yakuniy qism.

- a) Mashg'ulot davomida talabalar olib borgan faoliyatni tahlil qilish va baholash.
- b) Uyga topshiriqlar, vazifalar berish

Mashg'ulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. Ashula o'rgatish jarayonini izohlaydi,
2. Ashulani badiiy ijro etish uslublariga ta'rif beradi,
3. Ashula aytishda mashqlarning ahamiyati haqida aytib beradi,

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Bell canto so'zining ma'nosini ayting.
2. Binnigi ovoz chiqarish uslubi haqida aytib bering.

3. Gulligi ovoz chiqarish uslubi haqida aytib bering.
4. Ishkambi ovoz chiqarish uslubi qanday uslub?
5. Gumbazi xonaqoyi uslubi haqida ma'lumot bering.
6. O'sib kelayotgan, xonandalik yo'liga birinchi qadam tashlayotgan talabalar uchun qanday maslahatlar berilgan?
7. K.Jabborov hayoti va ijod yo'li haqida gapirib bering.
8. Fuzuliy lirikasi va ijodi haqida ma'lumot bering.
9. Etmasmidim g'azali ma'nosini aytib bering.
10. Etmasmidim asarining birinchi va ikkinchi baytlarini ijro etib berish.
11. Asarni mukammal ijrosini kuylab bering.

6-7 mashg'ulot.

O'zbek bastakorlik san'ati tarixi

O'zbek bastakorlik san'atida xududiy uslublar

“Bu ko'ngil” K.Jabborov musiqasi, Lutfiy g'azali. Asarning daromad, dunasr, miyonxat, avj, furovard qismlari ijrosi ustida ishlash

Maqsad:

1. O'zbek bastakorlik san'ati tarixi, o'zbek bastakorlik san'atida xududiy uslublar haqida nazariy ma'lumotlarni shakllantirish.
2. “Bu ko'ngil” K.Jabborov musiqasi, Lutfiy g'azali. Asarning daromad, dunasr, miyonxat, avj, furovard qismlari ijrosi ustida ishlash.

Tayanch tushunchalar. bastakorlik, Barbod, Abu Nasr Forobiy, Safiuddin Urmaviy, Hoji Abdulqodir Marog'iy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy. «Xazoyin ul-maoniy», «Holati Pahlavon Muhammad», «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon», «Mahbub ul-qulub», Buxoro-Samarqand musiqa uslubi., Farg'ona-Toshkent uslubi, Xorazm uslubi, Surxondaryo-Qashqadaryo uslubi.

R E J A :

1. O‘zbek bastakorlik san’ati tarixi, o‘zbek bastakorlik san’atida hududiy uslublari haqidagi nazariy ma’lumotlar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash.

2. “Bu ko‘ngil” K.Jabborov musiqasi, Lutfiy g‘azali. Asarning daromad, miyonxat, dunasr, avj, furovard va miyonxat qismlari ijro mahoratini shakllantirish. Nola va bezaklari ustida ishlash.

Mashg‘ulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. O‘zbek bastakorlik san’ati tarixi, o‘zbek bastakorlik san’atida hududiy uslublari haqidagi nazariy ma’lumotlar shakllantiriladi.

2. “Bu ko‘ngil” K.Jabborov musiqasi, Lutfiy g‘azali. Asarning daromad furovard qismlari ijrosi bo‘yicha amaliy bilimlar mustahkamlanadi.

O‘zbek bastakorlik san’ati tarixi

Bastakorlik O‘rta Osiyo xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud bo‘lgan professional sozanda va xonandalarning musiqiy ijod san’atidir. Bu san’at har bir xalqning o‘ziga xos musiqiy an’analari asosida vujudga kelib, uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqiy ijod sifatida shakllangan.

Qariyb 2000 yillik ko‘xna tarixga ega bo‘lgan ushbu sohada Barbod, Abu Nasr Forobiy, Safiuddin Urmaviy, Hoji Abdulqodir Marog‘iy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi ulkan siymolar ijod qildi.

Ular musiqa nazariyasi va bastakorlik sohasida juda katta boy meros qoldirdi. Biroq arab istilosi davrida musiqaga oid yozma manbalar kuydirilib, yo‘qotib yuborilgan. Shuning uchun ular yaratgan musiqiy asarlar bizgacha yetib kelmagan.

Lekin keyingi ming yillik tarixga oid yozma manbalar bizgacha yetib kelgan. O‘rta asr musiqashunos olimlari musiqa nazariyasi va bastakorlik masalalari bo‘yicha ko‘proq Abu Nasr Forobiyning «Musiqaga oid katta kitob», «Musiq haqida so‘z», Abu Ali ibn Sinoning «Musiq ilmi haqida risola», «Kitob ash-shifo» asarlarida musiqa ilmi va bastakorlik san’atiga berilgan ta’rifni asos qilib oladilar.

O'zbek xalqining donishmand shoiri va olimi Alisher Navoiy o'zining «Xazoyin ul-maoniy», «Holati Pahlavon Muhammad», «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon», «Mahbub ul-qulub» kabi asarlarida o'zidan oldin o'tgan buyuk musiqiy allomalarimizning musiqa ilmiy, bastakorlik an'analarini davom ettirib, boyitdi.

Musiqa ilmi XIII – XIV asrlarda yashab, ijod etgan olimlar – Safiuddin Urmaviy, Hoji Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabi va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantirilgan edi.

O'zbek bastakorlik san'atining mashhur namoyondalari Hoji Abdulaziz Rasulov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Faxriddin Sodiqov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Muhammadjon Mirzayev, G'anijon Toshmatov, Orif Qosimov, G'ulomjon Hojiqulov va boshqa ustoz bastakorlar o'z ijodida, asosan, xalq musiqiy an'alariga suyandilar. Ularning har biri o'z musiqiy ijod yo'lini yaratdilar. Ular yaratgan va yaratayotgan asarlarining aniq uslubi, ladi, ohang tiniqligiga – intonatsiyasiga katta e'tibor berishgan. Ular musiqani nihoyatda serohang va jiloli bo'lishi uchun xilma-xil va murakkab usullarga murojaat qilishgan. Bundan tashqari, ularning asarlarida o'ziga xos ichki milliy ruh, falsafiy kayfiyat borki, ular asarga go'zallik va umrboqiylik bag'ishlaydi. Bunday ijodiy mahorat, albatta, o'z-o'zidan emas, ko'p yillar davomida olib borilgan sarmashaqqat mehnat, xalq musiqiy merosini chuqur, mukammal bilish evaziga paydo bo'lgan va shakllangan. Shuning uchun ham ustoz bastakorlarning kuy va ashulalari o'zlarining mantiqan serjiloligi hamda falsafiy mushohadakorlik darajasi, to'liq, tugal mazmuni bilan mumtoz xalq musiqiy asarlari bilan bimalol bellasha oladi.

Bu borada ustoz bastakor Yunus Rajabiyning ijodi o'ziga xos ko'p qirralidir. U o'zbek xalq musiqasi va shashmaqomning chuqur bilimdonigina bo'lib qolmay, 20 ta musiqali drama, 200 ga yaqin ashula va kuylar ijod qildi. Shulardan «Koshki» (Navoiy g'azali), «Judo» (Navoiy g'azali, «Jonimdadur» (Navoiy g'azali), «Muncha ham» (Muqimiy g'azali), «Kuygay» (H.Olimjon she'ri), «Ra'nolanmasun» (G'oziy g'azali) kabi ashulalari xonandalar tomonidan sevilib ijro etilib kelmoqda.

O'zbek xalqining ustoz bastakorlaridan yana biri O'zbekiston xalq artisti To'xtasin Jalilovdir. U musiqiy folklorni o'zbek musiqali dramalariga olib kirgan birinchi bastakor hamdir. San'atkorning «Tohir va Zuhra» musiqali dramasidan «Otmagay tong», «Ey

quyosh», «Ayirmish», «Qalandar», «Oh faryodkim», «Nurxon» musiqali dramasidan «Ey sabo», «Muhabbat o'tida kuydim», «Yayragil», «Naxushdirkim», «Ravshan va Zulxumor» musiqali dramasidan «Uzoqdan kelayotirman» kabi qo'shiq ariyalari xalqimizning hurmat e'tiboriga sazavor bo'ldi.

O'zbek bastakorlik san'atining yirik namoyandalaridan Muxtorjon Murtazoyev klassik va zamondosh shoirlarning she'rlariga rang-barang xalqchil ashulalarni yaratdi. Jumladan: «Bir ishva bilan» (Sobir Abdulla so'zi), «Bizni tashlab» (Miskin g'azali), «Aylading, qo'yding» (Muqimiy g'azali), «Tasadduqman» (Chustiy g'azali), «Barnoligingdan» (Charxiy so'zi), «Farg'ona tong otguncha» (Haziniy g'azali) kabi ashulalari xalq dilidan mustahkam o'rin egalladi.

O'zbekiston xalq artisti, bastakor va sozanda Muhammadjon Mirzayev XX asr o'zbek musiqa tarixida yorqin iz qoldirgan. Xalqimizning sevimli hofizi Ma'murjon Uzoqov ijrosida bastakorning quyidagi xalqchil ashula va yallalari ilk bor yangradi: «Qachon bo'lg'ay», «Yor istab», «Yo'lingda», «Sho'xi jononim mening» (Furqat g'azali), «Yakka bu Farg'onada», «Ko'zlaring», «Suvrating», «Yolg'iz», «Yana» (Muqimiy g'azali), «Parvo etib ket» (Sobir Abdulla so'zi), «Shaydo bo'libman» (Kamtar so'zi), o'zbek va tojik xalqlarining sevimli xonandasi, Tojikiston xalq artisti Xanifa Mavlonova ijrosida «Parvona bo'ldim» (Kamatar so'zi), «Gulchehra yor» (Po'lat Mo'min she'ri), «Tong otguncha» (Dilafgor so'zi) kabi lirik ashulalari xalq orasida mashhur bo'lib ketdi. Shuni ham aytib o'tish joizki, M. Mirzayev yillar davomida, Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi «Bahor» davlat ansambli repertuarini boyitib keldi. «Bahor vals», «Gulnoz», «Dildor 1 va 2», «Ufori sanam», «Intizor etma» kabi raqs kuylari ansambl repertuarlaridan mustahkam o'rin egalladi.

Bastakor Muhammadjon Mirzayev o'z davrining mashhur kuychisi edi. Shuning uchun uning ijodida zamonaviy mavzu ustuvor turdi. «Oltin sandiq», «Uch dugona», «Ey gul», «Toshkent nahori», «Muhabbat maktubi» (Turob To'la so'zlari), «Ko'zlarimga ziyo olaman», «Chavandoz qizlar» (Normurod Narzullayev so'zlari), «Onalar», «Assalom, kelin salom» (O'tkir Rashid so'zlari) kabi qo'shiqlari rubob uchun yaratgan, «Go'zal Vatanim», «Orzu dil», «Dilrabo», «Marg'ilon qizlari», «Shodlik», «Yangi tanavor» kabi kuylari keng qanot yozdi.

Ulkan iste'dod egalari bo'lgan bu ustoz bastakorlar o'z ijodiy faoliyatlari bilan Barbod, Forobiy, Ibn Sino, Hoja Abdulqodir Marog'iy asos solgan o'zbek bastakorlik san'atining nodir namunalarini targ'ib qilishdi va davom ettirishdi. Sir emaski, milliy bastakorlik masalasiga yaqin-yaqinlargacha, asosan, g'arbiy musiqashunoslikda qabul qilingan talablar bilan yondashildi. Shuningdek kompozitorlik ijodi uchun birdan - bir xos bo'lgan sabablar, umuman, zamonaviy musiqiy ijodkorlikning shartli mezonlariga aylandi. Zotan, o'zbek milliy bastakorlik ijodiyoti to'g'risida shu payitgacha ijobiy so'zlar aytilmasin, uning tarixi, ijodkorlik qonuniyatlari, rivojlanish xususiyatlari deyarli o'rganilgani yo'q.

Milliy bastakorlik san'atimizning bugungi o'ziga xos ijodiy xususiyatlari yangi uslublarining paydo bo'lishi, inson qalbiga zavq bag'ishlash yo'lidagi izlanishlar ijodkorlik san'atimiz muhitini boyitmoqda. Eng muhimi, xalqning tengsiz mulki hisoblanuvchi taniqli bastakorlar ijodi bilan boyidi.

Hozirgi kunda bastakorlarimizdan O'zbekiston xalq artisti Baxtiyor Aliyev, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov, Ortiq Otajonov, Sultonali Mannopov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Shavkat Mirzayev, Ahmadjon Dadayev, Halimjon Jo'rayev, Shermat Fayzullayev, Qo'ldosh Mamirov, Tuyg'un Otaboyev, Rahmatjon Tursunov, Ravshan Hamroqulov, Orif Atoyev, Payziqu'l Zokirov va boshqa bastakorlar ijod qilgan kuy va qo'shiqlar xalqimizga manzur bo'lmoqda. Bu iste'dodli bastakorlarning musiqiy ijodini tahlil qilar ekanmiz, haqli ravishda o'zbek milliy bastakorlik san'atining munosib davomchilari borligiga to'liq ishonch hosil qilamiz. Yuqorida nomlari zikr etilgan juda ko'p ustoz bastakorlarimizning boy tajribalarini jamlab o'rganish, musiqaparvar xalqimiz oldidagi xizmatlarini qadrlash, eng muhimi bastakorlar ijodini davrimiz talablariga javob bera oladigan mutaxassis ijodkor kadrlar tayyorlash hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, bunday dolzarb masala xalqimiz ichidagi iste'dodli sozanda bastakorlarni topish, ularni o'qitish, tarbiyalash, moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish, professional ashula va raqs jamoalari, musiqali drama teatrlari, badiiy havaskorlik jamoalari, folklor dastalari repertuarini boyitish, ularning xalqimiz yuragiga malham qo'yadigan asarlar ijod qilishlariga amaliy ko'mak bo'ladi.

O‘zbek bastakorlik san’atida hududiy uslublar

O‘zbek bastakorlik merosida, asosan, to‘rtta hududiy uslublar mavjud. Ular quyidagicha nomlanadi.

1. Buxoro-Samarqand musiqa uslubi,
2. Farg‘ona-Toshkent uslubi,
3. Xorazm uslubi,
4. Surxondaryo-Qashqadaryo uslubi.

Har bir xududiy uslub o‘ziga xos musiqaviy ijod, ijro xususiyatlariga ega. Har birining, o‘z navbatida ijodiy maktablarga bo‘linishi diqqatga sazovordir. Masalan, Buxoro, Samarqand bastakorlik maktabi, Andijon, Farg‘ona, Toshkent bastakorlik maktabi va Xorazm bastakorlik maktabidir.

Ushbu hududiy uslublar har bir bastakor ijodining «Oltin beshik» asosini tashkil etadi.

O‘zbek va tojik professional musiqa madaniyatining atoqli namoyandasi Ota Jalol (Jaloliddin) Nosirov XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshida yashagan taniqli musiqa arboblardan biridir. Maqomdon ustoz Ota Jalol Nosirov Shashmaqomning barcha sho‘balari va tarona yo‘llarini puxta bilardi. U shu sababli xalq orasida orbo‘ qozongan, ashula shinavandalarini o‘zining keng diapazonli ovozi bilan maftun etgan ajoyib xonanda edi.

Buxoroda birinchi musiqa maktabi, Samarqandda musiqa bilim yurtining yuzaga kelishida Ota Jalolning xizmati katta. Usta Shodi Azimov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Boboqul Fayzulloev kabi maqomdon xonandalar ham Ota Jaloldan ta’lim olishgan edi. O‘zbek va tojik professional musiqa san’atining durdonalaridan Shashmaqomning yozib olinishi va saqlab qolinishida Ota Jalolning qo‘shgan hissasi katta. Ota Jalol nomini tilga olganimizda ustozlar ustoz, Shashmaqom bilimdoni, murakkab usullar ustasi, ajoyib tanburchi va xushovoz xonanda ko‘z oldimizga keladi. Shu sababli O‘zbekiston va Tojikistonning turli vohalarida Ota Jalolning nomi hurmat bilan tilga olinadi. Darhaqiqat, maqomdonlar tili bilan aytganda, u «ustoyi kulliy» edi. Bu

ibora arabcha «Ustoz ul-kulliy» ya'ni hamma narsa (kuy) larni mukammal va to'kis-tugal biluvchi maqomdon ustozlarga nisbatan ishlatilardi.

O'zbek xalq musiqiy merosini milliy qadriyatlarimizning bir bo'lagi sifatida o'rganish hozirgi davrda dolzarb masalalardan biridir. O'zbek musiqiy merosimizga nazar tashlar ekanmiz, o'tmishda xalq ichidan yetishib chiqqan va o'zlarining ijro mahoratlari, murabbiylıkları bilan xalq dilidan joy olgan san'atkorlarimiz ko'z o'ngimizda gavdalanadilar. Ular ichida musiqa san'atimizning birinchi akademigi Yunus Rajabiyning alohida o'rinlari borligi, shakshubhasiz. U kishi yashagan davr ijodining takrorlanmas qirralari mavjudki, ularning merosini o'rganish kelgusida yaratilajak cholg'uchilik mahoratini rivojlantirishda ijobiy bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Yunus Rajabiy sozandalik, xonandalik va bastakorlik san'atini bunyodkorlaridan bo'lib, ma'rifiy va ta'lim faoliyat bobida mashhurdir. Biz milliy mumtoz musiqa san'atining yirik namoyandasi, cholg'uchi ustozlarning yo'l boshchisi, taniqli bastakor Yunus Rajabiyning ijodiy qarashlari va cholg'uchilik faoliyatiga ahamiyat berishimiz kerak, deb o'ylayman. Yunus Rajabiy 1897-yili Toshkentda tug'ilgan. U, dastavval eski usul maktabida o'qiydi. Eski maktabda o'qigan paytlarida musiqa havasi uyg'ona boshlagan. O'zlari nay chalganlar, yaxshigina dutor ham chertgan. Kuylar uning doimiy hamrohiga aylangan. 1916-yilda mashhur sozanda va xonanda Shorahim Shoumarov bilan tanishadi. Bu tanishuv uning cholg'uchilik va bastakorlik faoliyatida muhim bosqich bo'lib qoladi. 1919-yil Toshkentda ochilgan Xalq konservatoriyasining «Milliy cholg'u asboblari» bo'limiga o'qishga kiradi va shu tariqa butun hayotini musiqa bag'ishlaydi.

1923-yildan Samarqanddagi musiqa pedagogika bilim yurtida musiqa rahbari bo'lib ishlaydi va Samarqand davlat teatrining milliy musiqa rahbari etib tayinlanadi. Yunus Rajabiy hayotidagi muhim voqea uning Samarqandda mashhur bo'lgan hofiz Hoji Abdulaziz Abdurasulov bilan yaqindan tanishgani bo'ldi. Yunus Rajabiy undan kuy va qo'shiq, maqom va bastakorlik sirlarini o'rgandi. Yunus Rajabiy ular bilan to'y va sayllarda hamnafas bo'ldi. Uning ijodidan ilhomlanib, bir necha musiqiy asarlar yaratdi. Yunus Rajabiy musiqa bilim yurtida yoshlarni Toshkent, Farg'ona kuy va qo'shiq ijrochilik uslubi bilan tanishtirdi.

Xorazm olti yarim maqomining bilimdoni, ustoz xonanda hofiz Matpano Xudoyberganov 1880-yilda Xiva shahrida dunyoga keldi. U to'qqiz yoshida maktabga

o‘qishga borib o‘z savodini chiqaradi. Navoiy, Fuzuliy, Shayx Sa‘diy, Jomiy, Bedil, Hofiz, Sheroziy, Munis, Ogahiy va boshqa klassik shoirlarning ijodi bilan yaqindan tanishadi. U yoshlik paytlarida otasining mehmonxonasida har xil mehmon xonandalar, sozandalardan turfa kuylar tinglaydi va ularni o‘rgana boshlaydi. Tanbur, dutor, doira va boshqa musiqa asboblarni chalishni o‘rganadi.

O‘z davrida Xorazm ijrochilik maktabining buyuk namoyondalari yetishib chiqdilar. Muhammad Yoqub devon, Bobo bulomon, Komil Xorazmiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Kurji ota, Polli duzchi, Muhammad Rasul Mirzo, Xudoybergan Muhrkan, Muhammad Yusuf, Devon Chokar, Matpano Xudoyberganov, Madrahim Sheroziy, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov singari ulug‘ san’atkorlar shular jumlasidandir.

Biz uning bastakorlik ijodiga nazar solar ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda o‘tmishda bastakorlar, an‘analarining davomchisini ko‘ramiz.

Ustoz bastakor, asosan, Xorazm maqom yo‘llari, o‘tmish va hozirgi zamon bastakorlarining go‘zal va ko‘rkam tajriba va an‘analari zaminida izlandi. Mumtoz adabiyotimiz namunalaridan qayta so‘z moslashtirish, asarlarning tarkibiy xususiyatlari doirasida turkumlashtirish, qayta ishlash kabi yo‘nalishlardagi amalga oshirilgan ishlar bunga misol bo‘la oladi.

Xorazm maqomlarini Matpano ota, Madrahim Sheroziy, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov va boshqa ustozlardan o‘rganib, 1980 - yilda Matniyoz Yusupov uch jildlik etib kitob shaklida chop qildirdi.

Yuqorida biz «Xorazm maqomlari»ning bilimdoni Matpano Xudoyberganovning ijodiy qirralarini yoritib ko‘rsatishga harakat qildik.

6-7- laboratoriya mashg‘ulotlari

“Bu ko‘ngil” – K.Jabborov musiqasi, Lutfiy g‘azali.

Maqsad: asar mualliflari haqida ma’lumot berish. Asarning daromad - furovard qismlari ijrosi ustida ishlash.

Asarning badiiy va ijrochilik tomonlarini puxta o‘zlashtirish. Daromad va miyonxat qismlari ustida ishlash.

R E J A :

1. Asar haqida qisqacha kirish suhbatini o‘tkazish.
2. Asar mualliflari haqida ma’lumot berish.
3. Asarni gurux va yakka bo‘lib talabalarga kuylatish va baholash.

Tayanch tushunchalar: Fuzuliy lirikasidagi mazkur g‘azalning tafsiri.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism Talabalarning laboratoriya mashg‘ulotga tayyorgarligini aniqlash, mashg‘ulot mavzusi, maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtirish.

II. Berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, o‘rganilgan material yuzasidan talabalardan so‘rash

III. Yangi mavzuni bayon qilish. Kirish, asarning daromad va furovard qismlarini namunaviy ijroda kuylab ko‘rsatib berish, ashulani DVD, SD variantlardagi ijrolaridan foydalanish. Nola va bezaklar ustida ishlash. Nafas olish, diksiya, talaffuz ustida ishlash.

IV. O‘rganilgan materialni mustahkamlash uchun savollar.

1. Ashula o‘rgatish jarayonida talabalar oldiga qanday maqsad va vazifalar qo‘yilgan?
2. Ashula o‘rgatish jarayoni qanday faoliyatlardan iborat?
3. Ashula aytishda nola va bezaklarning ahamiyati qanday?

V. Yakuniy qism.

- a) mashg‘ulot davomida talabalar olib borgan faoliyatni tahlil qilish va baholash.
- b) uyga topshiriqlar, vazifalar berish.

Mashg‘ulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. Ashula o‘rgatish jarayonini izohlaydi.
2. Ashulani badiiy ijro etish uslublariga ta’rif beradi.
3. Ashula aytishda mashqlarning ahamiyati haqida aytib beradi.

Lutfiy

(1367 1465)



Lutfiy - Xurosonining oʻrta asrlar shoiri, (eski oʻzbek tilida) ijod qilgan. Deyarli, butun umrini Hirotida oʻtkazgan. Alisher Navoiy Lutfiyni “oʻz davrining notiqalar shohi, fors va turkiy tilini egallashda tengsiz”, deya taʼriflagan.

Lutfiy 1367-yil Hirot yaqinidagi Dehikanor qishlogʻida dunyoga kelgan. Samarqandda – temuriyning oʻgʻli Shohruh saroyida yashab, xizmat qilgan. Shohruhning oʻgʻli Mirzo Ulugʻbek – buyuk olim va Samarqandning boʻlajak hukmdori bilan munosabatlari juda yaqin boʻlgan.

Lutfiy dunyoviy ilmlarni va adabiyotni juda erta oʻrgangan. Oʻz davrinnig boshqa shoirlari kabi, Lutfiy ham nafaqat forsiy, balki turkiy tilida ham ijod qilgan. Unga Kemal Xoʻjandiy va hofizlar katta eʼtibor qaratishgan.

Yoshligida dunyoviy ilmlarni oʻrganadi, keyinroq, soʻfiylik bilan qiziqib qoladi, zohidiy turmush tarzini olib borgan. Sulton Shohruhning (1405- 1447- yillar hukmronlik qilgan) buyurtmasiga asosan, “Zafarnoma”da Temurning tarjimai holini sheʼriy koʻrinishda bayon etgan. Doston tugallanmagan, qoʻlyozma hamda dostonning matni saqlanib qolmagan.

Bizning davrimizgacha “Gul va Navroʻz” devon va dostoni (1411 1412-yillar) saqlanib qolgan. Doston asosi ertakona mavzuda boʻlib, baxtli yakun topadi. Doston bir nechta katta boʻlmagan boʻlimlardan iborat, uning umumiy hajmi 595 baytni tashkil etadi. Bu kabi dostonlarga xos, anʼnaviy muqaddima, yaʼni Alloh, paygʻambarimiz (s.a.v.), xon madh etilganidan soʻng, mamlakat podshosi Navshad Farruh uzoq kutilgan farzand – oʻgʻillik boʻlib, uni muqaddas oy – Navroʻz sharafiga nomlashadi.

Uning gʻazallarida Sharq anʼanalariga xos bejamdorlik boʻlmagan, zero, bejamdorlik xislati turkiy tilda soʻzlashuvchi xalqlar folklorining taʼsiridir.

“Gul va Navroʻz” dostoni – fors shoiri Jalol Tabibning shu nomli dostoniga (1333) javobi boʻlgan. Shoir uzoq yillik sinovlardan soʻng, oqibatda, birga boʻlishganligi haqida soʻzlaydi.

Gʻazal- Lutfiy ijod qilgan yagona janr boʻlgan. Umuman olganda, XV asrda ijod qilgan boshqa shoirlar kabi.

6 Gʻazal janrining qatʼiy chegaralariga qaramay, Lutfiyning gʻazallari yorqin va betakrordir. Sevgini turli koʻrinishlarida ifodalovchi shoir gʻazallari – tuygʻularning keng ranglarini namoyon etadi, shu sababli, ular kichik sheʼriy shoh asarlar hisoblanadi.

Anʼanaviy yoʻnalishda boʻlishiga qaramay, Lutfiy gʻazallari ruhni koʻtaruvchi muqaddimaga ega. Taraqqiyparvar nuqtai nazarga ega, bilimli va oʻqimishli inson sifatida Lutfiy hayotdagi adolatsizlikka tik qaray olmagan, bu haqda yoza olmagan, biroq, u davrlarda hukmdorlarni ayblashning imkoni boʻlmaganligi ehtimoldan xoli emas.

Lutfiy sheʼriyati anʼanaviy. Sharqiy nafosat, hayajon va yorqin timsollik uning ishqiy gʻazallarini esda qolarli va betakror qiladi. U radif sanʼatini yakunlagan ohangdoshlik va qofiyalanishning boyligi oʻziga xos tovush maʼnodorligini belgilaydi, yorqin taqqoslanishlar va metaforalar kitobxonni jonli turmush tarziga, dunyoviy quvonch va qaygʻularga qaytaradi.

Lutfiyning ayrim sheʼrlari milliy qoʻshiqlarga aylangan.

Meni shaydo qiladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul,
Xor-u rasvo qiladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul.

Meni yozgʻurma "sevar" deb, ki mening haddim emas,
Ul tamanno qiladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul.

Borma derlar eshiki sori damo-dam, netayin,
Koʻp taqozo qiladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul.

Oʻzgadin koʻrma,ki koʻzung yoshini, ey Lutfiy,
Ayni daryo qiladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. O‘zbek bastakorlik san’ati tarixi haqida gapirib bering.
2. Barbod, Abu Nasr Forobiy, Safiuddin Urmaviy, Hoji Abdulqodir Marog‘iy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changiylar ijodi haqida ma’lumot bering.
3. Abu Nasr Forobiyning «Musiqaga oid katta kitob», «Musiqaga haqida so‘z», Abu Ali Ibn Sinoning «Musiqaga ilmi haqida risola», «Kitobu ash-shifo» asarlarida musiqaga ilmi va bastakorlik san’ati haqida qanday fikrlar mavjud ?
4. Hoji Abdulaziz Rasulov, To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Faxriddin Sodiqov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Muhammadjon Mirzayev, G‘anijon Toshmatov, Orif Qosimov, G‘ulomjon Hojiqulov va boshqa ustoz bastakorlar o‘z ijodi haqida gapirib bering.
5. Ustoz bastakorlar To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiyilar ijodi haqida ma’lumot bering.
6. Hozirgi kunda ijod qilib kelayotgan qanday bastakorlarni bilasiz?
7. O‘zbek bastakorlik merosida qanday hududiy uslublar mavjud?
8. Maqomdonlar tili bilan aytganda Ota Jalolning qanday nom bilan baholashgan?

8-9- mashg‘ulotlar

Buxoro-Samarqand bastakorlik maktabi namoyandalari:

Ota Jalol Nosirov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov xayoti va ijodi. Toshkent-Farg‘ona bastakorlik maktabi namoyandalari: To‘xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Yunus Rajabiy, Jo‘raxon Sultonov xayoti va ijodi.

“Ne ajab” O.Nuriddinov musiqasi, Navoiy g‘azali. Asarning daromad - furovard qismlari ijrosi ustida ishlash.

Asarning badiiy bezaklari ustida ishlash

Maqsad:

1. Buxoro-Samarqand bastakorlik maktabi namoyandalari, Toshkent-Farg‘ona bastakorlik maktabi namoyandalari haqida nazariy ma’lumotlarni shakllantirish.

2. “Ne ajab” O.Nuriddinov musiqasi, Navoiy g‘azali.Asarning daromad - furovard qismlari ijrosi ustida ishlash.

Tayanch tushunchalar.

Ota Jalol Nosirov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, To‘xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Yunus Rajabiy, Jo‘raxon Sultonov hayoti va ijodi.Buxoro-Samarqand bastakorlik maktabi namoyandalari; Ota Jalol Nosirov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi,

Toshkent-Farg‘ona bastakorlik maktabi namoyandalari:

To‘xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Yunus Rajabiy, Jo‘raxon Sultonov hayoti va ijodi haqidagi nazariy ma’lumotlar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash.

2. “Ne ajab” – O.Nuriddinov musiqasi, Navoiy g‘azali.Asarning daromad - furovard qismlari ijrosi ustida ishlash.

Mashg‘ulotdan kutilayotgan natijalar.

Mashg‘ulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. Buxoro-Samarqand bastakorlik maktabi namoyandalari; Ota Jalol Nosirov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi,

Toshkent-Farg‘ona bastakorlik maktabi namoyandalari: To‘xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Yunus Rajabiy, Jo‘raxon Sultonov hayoti va ijodi haqidagi nazariy ma’lumotlar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar mustahkamlanadi.

2. “Ne ajab” – O.Nuriddinov musiqasi, Navoiy g‘azali. Asarning daromad – furovard qismlari ijrosi ustida ishlash. Nola va bezaklari ustida ishlash.amaliy bilimlar mustahkamlanadi.

3.“Bu ko‘ngil” – K.Jabborov musiqasi, Lutfiy g‘azali.Asarning avj va furovard qismlari ijrosi ustida ishlash. Mazkur baytlardagi nola va bezaklar ijrosini mukammallashtiriladi. Matnni yoddan kuylashga erishiladi.

Buxoro-Samarqand bastakorlik maktabi namoyandalari:

Ota Jalol Nosirov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi

Ota Jalol 1845 - yili Buxoroning Eshon pir mahallasida tugʻiladi. Otasi Nosir masjidda soʻfilik qilardi. Nosir soʻfining nihoyatda baland ovoz bilan azon aytishi bir necha mahallalarga eshitilib turardi. Uning manna shunday baland va kuchli ovozi oʻgʻli Jalolga ham «meros» boʻlgan edi.

Ota Jalolning ashulachi boʻlishi oddiy bir havas yoki vaqtinchalik qiziqish emasdi. Yosh Jalol musiqachilar davrasida oʻsdi va tarbiyalandi. Uning akasi mulla Xayrullo mahoratli maqom ijrochisi, uning oʻgʻli Karomat esa usta kamonchilardan edi.

Ota Jalol bilan bir necha yillar davomida yaqin munosabatda boʻlgan musiqa etnografi, professor V.A.Uspenskiy hofizning tarjimai holiga oid quyidagi maʼlumotlarni keltiradi: «Ota Jalol Buxoroda maqomni chuqur bilgan va uni saqlab qolgan eng soʻnggi va yagona vakillaridandir. U sakkiz yoshidan musiqa oʻrgana boshlaydi. Maqomlar bilan uni dastlab onasi tanishtiradi. Oʻn olti yoshidan boshlab Amir saroyida xizmat qiladi».

Anna shunday musiqaviy muhit Ota Jalolni yoshlikdan boshlab musiqa bilan mashgʻul boʻlishiga shart-sharoitlar yaratib bergan. Yosh Jaloldagi tugʻma qobiliyat XIX asr ikkinchi yarmida yashagan mashhur ashulachi Tilloboy singari sozanda-xonandalar diqqatini ham oʻziga tortgan edi. Tilloboy Ota Jalolga ustozlik qiladi. U, dastlab, qoʻshiq va cholgʻu kuylarini oʻrgatadi, soʻngra maqom yoʻllarini oʻzlashtirishda koʻmaklashadi. Ota Jalol ustozidan olgan samarali taʼlimi natijasida yigirma yoshida Buxoro Shashmaqomini mukammal aytadigan boʻldi.

Ota Jalol yoshlik davrida Buxoroning mashhur ashulachi va sozandalari Mirzo Hidoyat, Mullaboy, Abdurahmonbek, Abdulxayr Mahmud, Mir Bobo, Mir Vose singarilar orasida boʻladi va birgalashib ashulalar aytadi.

Ota Jalolning maqom ijrochiligidagi shuhrati Buxoro amirligi saroyigacha borib yetadi. 1862-1863- yillarda Amir Muzaffarxon Ota Jalolni saroy hofizi qilib tayinlaydi va doʻstlari davrasida xursandchilik qilish, istagan joylariga borish huquqidan mahrum qiladi. Endi Amir Muzaffar orqasidan ergashib shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurishga, Amiri oliyning istak-xohishini soʻzsiz bajarishga, saroyning har xil tartib-odatlariga

bo'ysunishga majbur edi. Ota Jalol Amir Muzaffarxonda xizmat qilgan ko'p vaqtini Shahrisabzda o'tkazadi. Amir Ahadxon davrida ko'proq Karmanada (hozirgi Navoiy viloyatida), Amir Olimxon davrida esa, asosan, Buxoroda yashaydi.

Amir Olimxon davrida Ota Jalolga «Miroxo'r» (amir saroyi amaldorlarining otlari saqlanadigan maxsus sayisxona boshlig'i) degan unvon beriladi. Ota Jalol amirlik ag'darilgandan keyin saroydagi mudhish xizmatidan abadiy qutuladi.

Buxoroda 1920 yili ochilgan «Sharq musiqa maktabi»ga Ota Jalol ham jalb qilinadi. U o'z atrofiga qobiliyatli yoshlar bilan bir qatorda Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Ma'rufjon Toshpo'latov, Najmiddin Nasriddinov, G'ulom Garmon, Turobqul, Tohirjon Davlatzoda singari mahoratli hofiz va cholg'uchilarni jalb qiladi. Maktabdagi yoshlarga Buxoro Shashmaqomi o'rgatilardi. Bu ishda Ota Jalolning shaxsan o'zi boshchilik qiladi. U Domla Halim va Levicha singari maqomchilarga Shashmaqom yo'llarini izchillik bilan o'rgata boshlaydi. Domla Halim va Levicha, o'z navbatida maqom yo'llarini shogirdlariga o'rgatardilar.

1923- yili V.A. Uspenskiy Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos G'aniyevlardan Shashmaqomning oltita – Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlarini yozib oladi. Shashmaqomning o'sha davrda notaga olinib, 1924-yil (Moskva)da nashr etilishi o'zbek musiqa madaniyatida katta voqea bo'ldi.

Shashmaqom notaga olinayotgan paytda Ota Jalol sakson yoshga yaqinlashib qolgandi. Shunga qaramay, u Shashmaqomni mukammal bilishi, ijro etish uslubi hammani hayratda qoldirgan edi. V.A.Uspenskiy Ota Jalolning mashhurligi to'g'risida quyidagilarni yozadi: «Shashmaqom Buxoro xalqining diqqat-e'tiboriga sazovor katta va sevimli san'atidir, bunga men 1928- yilda ishonch hosil qilgan edim. Katta bir sayilda minglab kishilar mashhur ashulachi Ota Jalol Nosirov aytgan ashulalarni maroq bilan tingladilar. Musiqa san'atini sevish va uni qadrlashning ajoyib misoli bu».

V.A.Uspenskiy boshqa bir maqolasida: «Ota Jalol keksayib qolganligiga qaramay, baland va yoqimli ovozi, o'tkir xotirasi saqlanib qolgandi. Yana shu narsani eslatib o'tish kerakki, bu hofiz barcha ashulalarning kuylari va she'rlari bilan bir qatorda, o'n sakkiz turdan iborat (doira) usullari formulasini ham yodda saqlab kelardi».

Shu paytga qadar Ota Jalol o'zbek va tojik xalqlari musiqa madaniyati tarixida faqat xonanda va sozanda deb qaralardi. Ayrim ilmiy manbalarda uning maqomdon – bastakor

ekani haqida ham gapiriladi. Ota Jalol Shashmaqomning mushkilot qismlarini tartibga solgan, ayrim maqom sho‘balarini kengaytirgan, rivojlantirgan va qo‘shimcha qismlar bastalagan. Ota Jalol Segoh maqomiga savt usulida uch qismli sho‘ba bastalagan. Bu sho‘ba «Savti Jaloliy» deb ataladi.

1925-yilda Ota Jalol Domla Halim Ibodov va Hoji Abdurahmon Umarov bilan Samarqandga keladi. Bu yerda ham u Buxoro musiqa maktabida boshlangan faoliyatini davom ettiradi: yoshlarga maqom yo‘llarini o‘rgatadi, shahar klublarida o‘tkazilgan konsertlarda ishtirok etadi. Ota Jalol Domla Halim, Hoji Abdurahmon, Shohnazar Sohibovlar jo‘rligida Rastai navda ashulalar aytadi. Mahalliy sozanda va hofizlar, Hoji Abdulaziz singari mashhur ashulachilar hamda undan maslahatlar olib turadigan va yaqin munosabatda bo‘ladilar.

Mashhur Toshkentlik hofizlar Mulla To‘ychi Toshmuhammedov va Shorahim Shoumarov Buxoroga borganlarida ularni Ota Jalol uyiga taklif qilgani, qo‘shiqlar aytgani va Ota Jaloldan «Girya» qo‘shig‘ini o‘rganib qaytganini Shorahim Shoumarov mamnuniyat bilan eslab yurardi.

Atoqli san’atkor Yunus Rajabiy ham 1924-yili Buxoroning «Havzi Devonbegi»da Ota Jalol ijrosida Segoh va Navo maqomlaridan parchalarni eshitganligini, u aytgan maqom yo‘llari usulining ravonligi, talaffuzining burroligi va ovozinig katta ta’sir kuchiga ega ekanligini zo‘r hayajon bilan eslaydi.

Ota Jaloldan o‘nlab ashulachi va sozandalar ta’lim oldi. Qaysi bir maqomxondan, kimdan ta’lim olganligini so‘rasangiz, u yo Ota Jaloldan yoki Ota Jalolning biror shogirdidan o‘rgangan bo‘lib chiqadi.

Ota Jalol Nosirov musiqa madaniyatimiz tarixida o‘zbek va tojik xalqlarining professional musiqasi – Shashmaqom bilimdoni, usta ijrochi, ko‘plab xonandalar, sozandalar tarbiyachisi sifatida o‘chmas iz qoldirdi.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov o‘ziga xos ijrochilik uslubi, yorqin ijodiy yo‘li orqali o‘zbek va tojik kuylarini mohirona ijro etib, O‘zbekistonda shuhrat qozongan hofizlardan biriga aylangandi.

Abdulaziz Abdurasulov 1852-yilda Samarqandda tug‘ilgan. Uning otasi to‘quvchilik bilan shug‘ullansa-da, ustaxonasiga ashulachi va sozandalar tez-tez yig‘ilib turardi. Shu sababli yosh Abdulaziz ularning ashulalarini uyida eshitish imkoniyatiga ega edi. Bola 9

yoshida maktabga boradi va 15 yoshiga qadar o'qiydi. 1867-yilda, otasining vafotidan so'ng Xaymardagi solihchining uyida kotiblik qiladi. Abdulaziz yoshlik chog'idayoq klassik shoirlar: Fuzuliy, Jomiy, Navoiy, Bedil va boshqalarning ijodi bilan tanishadi. O'rtoqlari bilan musiqachi, ashulachi va shoirlar ishtirok etadigan kechalarga tez-tez borar, Ramazon oyida Samarqandga kelgan atoqli Buxoro musiqachilarining ijrolarini tinglar edi. Abdulazizning shu vaqtlardan boshlab musiqaga bo'lgan havasi yanada oshadi. Mashhur tanburchi Xo'ja Rahimquldan tanbur chalishni o'rgana boshlaydi. Uning tanbur chalishni o'rganishga ishtiyoqi tasodifiy emas edi. Ota Jalol, Ota G'iyos, Tillaboy va maqomlarni ijro etuvchilar ashulani tanburga jo'r bo'lib aytardilar. Samarqandga kelib turadigan ashulachi va sozandalar ularning shogirdlari yoki doimiy tinglovchilari edi. Uch-to'rt yil davomida Xo'ja Rahimberdidan dars olgan Abdulaziz o'sha davrning mashhur ashulachisi Boruh bilan birga ashula aytadigan bo'ldi. Boruh o'zbek va tojik ashula san'atini, «Shashmaqom» ni yaxshi bilardi va yoshi o'tib qolgan bo'lsa-da, ashulani yaxshi aytardi. Abdulaziz Boruh bilan birga O'zbekistonning shahar va qishloqlarida bo'ladi, asta-sekin uning cholg'u chalish va ashula aytish san'atini ham o'rganib oladi. U «Shashmaqom»ning safti va uforlarini, «Mushkulot»ning cholg'u bo'limidagi keng tarqalgan qismlarinigina aytar edi. Keyinchalik u «Shashmaqom»ni mukammal o'rganishga, kuyning tuzilishini, qismlar o'rtasidagi munosabatlarini, tartibini tushunib olishga va avjlardan foydalanishga harakat qiladi. Shu maqsad bilan Abdulaziz 1880-yilda maqomlarning mashhur musiqachilari yashagan Buxoroga jo'naydi va u yerda Otajaloldan «Shashmaqom»ni o'rganib oladi.

O'z shahriga qaytgach, Samarqand va uning atrofidagi qishloqlarda maqomlardan: «Iroq», «Ushshoq», «Nasrulloiy», «Mustahzod» kabilardan parchalar ijro eta boshlaydi.

Abdulaziz 1887-1888-yillarda ziyoratchilar bilan Makkaga boradi. Keyinchalik 1907-1908-yillarda yana bir marta Haj safarida bo'ladi. Shundan so'ng uning ismi oldiga «hoji» so'zi qo'shib aytila boshlanadi.

Hoji Abdulaziz safarlari Sharq mamlakatlaridan Eron, Arabiston, Hindiston va Afg'oniston ashulachi va sozandalarining kuy va ashulalarini qiziqib tinglaydi. O'zi ham o'zbek kuy va ashulalaridan ularga ijro etib beradi. U shundan keyin o'z shogirdlari va yosh musiqachilarga boshqa mamlakatlarning musiqa madaniyati bilan tanishishni, o'rganishni, repertuarlarini ularning yaxshi asarlari bilan boyitishni maslahat beradi.

Hoji Abdulaziz asta-sekin an'analarga biroz yangicha yondashadi. Masalan, Buxoro va Samarqandda ashulalar odat bo'yicha tanbur jo'rligida aytilsa, Hoji Abdulaziz esa ana shu odatdan voz kechadi va maqomlarni dutorda chaladi. Shundan keyin sevimli cholg'u asbobi dutor hisoblangan joylar (Farg'ona, Toshkent)da ham maqomlarning keng tarqalishiga yordam beradi. A.Abdurasulovning mahorati, ayniqsa, o'sha davrda tez rivojlandi va mashhur xalq musiqachilarining diqqatini ham o'ziga jalb etdi. Shu yillarda u xalq ashulachilari Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov va Mulla To'ychi Toshmuhammedovlar bilan tanishadi. Ular bilan birga respublikaning qishloq va shaharlarida berilgan konsertlarda qatnashadi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov atrofida Sh.Akromov, Qori Siroch va boshqa qobiliyatli yoshlar to'planadi. Abdulaziz Abdurasulov 1924 yilda yosh musiqachilardan konsert brigadasi tuzib, Samarqand va Buxoro atroflarida konsertlar beradi, o'zi ham xalq ashulalaridan parchalar aytadi.

1924 - yili Samarqand pedagogika bilim yurtida musiqa to'garagi tashkil etiladi va u Qori Siroch bilan birga yoshlarga musiqa va ashula san'atini o'rgatadi. Hoji Abdulaziz Abdurasulov 1928- yilda yirik musiqachi mutaxassislar qatorida Samarqanddagi Musiqa va xoreografiya ilmiy tekshirish institutiga ishga olinadi. Ana shu institut qoshida M.Ashrafiy, T.Sodiqov, M.Burhonov, D.Zokirov va boshqalar undan ta'lim olgan edilar. Toshkentning atoqli musiqachisi Yunus Rajabiy u bilan birga to'rt yilga yaqin Buxoro musiqasini o'rganadi, «Shashmaqom»ning usullari va xilma-xil kuylari bilan tanishadi. Abdulaziz Abdurasulov pedagogik faoliyati bilangina chegaralanib qolmay, ijrochilik faoliyatini davom ettiradi va davrning ko'zga ko'ringan ashulachilari qatorida konsertlarda qatnashadi. Uning ovozi lirik tenor bo'lib, ko'proq o'rta registrda yaxshi jaranglar edi. Tovushi qanchalik kuchli va diapazoni katta bo'lishiga qaramay, xonanda sifatida undan mohirlik bilan foydalana olganligi tufayli ijrosi shirali chiqardi. U musiqaga qobiliyatli kishi bo'lganligi uchun ijro etadigan asarning, avvalo, mazmunini ochishga, uning badiiy obrazini gavdalandirishga intilardi.

Hoji Abdulaziz ajoyib dutorchi va hofiz sifatida ham shuhrat qozongan edi. Uning ajoyib mahorati haqida xalq orasida «u chaladigan dutorning pardasi yo'q», degan iboralar yurardi. Uning repertuari 200 dan ortiq asarlardan iborat edi. U ko'p maqomlarni tojik tilida va o'zi bastalagan «Bozurgoniy», «Guluzorim», «Beboqcha» kabi ashulalarini o'zbek tilida aytar edi. Hoji Abdulaziz ba'zi vaqtlarda tinglovchilarning talablariga ko'ra

aynan o'sha ashulalarni o'zbek va tojik tillarida ijro etar edi. Uning ashulachi va sozanda shogirdi Sharifxon Akromovning aytishicha, Abdulaziz Abdurasulov o'rganadigan asarlarni sinchiklab, har tomonlama o'ylab olar edi. Kuylarga she'rlarni o'zi tanlab, she'rdagi har bir so'zning ma'nosini va ahamiyatini anglashga harakat qilardi. U ashulaning ohang yo'lini saqlagani holda, uning so'zlarini, avjlarini, jo'r bo'lishini o'zgartirib, boshqa ijrochilar uchun odat bo'lmagan yo'li bilan asarni olti va yetti xil qilib ijro etar edi. Ba'zi ashulalarni erkin o'zgartirilgan avjlar qo'shish bilan uzaytirar edi. Ashula va maqomlardan bir xillarini o'ziga xos ohangda ijro etgani uchun, bular uning nomi bilan aytiladigan bo'ldi. O'z ustozining ijro etish uslubini yaxshi bilgan Yunus Rajabiy: «Uning asosiy ijro etish uslubi improvizatsiyasi bilan bog'liq edi», deydi. 1909 yilda Abdulaziz Abdurasulov ijrosida Riga «Grammafona» firmasi «Iroq», «Nasrulloiy», «Ushshoq»larni yozib olgan edi. 1930-1932- yillarda ashulachi Samarqand musiqa va xoreografiya institutida ishlagan vaqtida undan 20 ga yaqin: «Iroq», «Qashqarchayi Iroq», «Gulyor», «Ufori Iroq», «Orazi gulyor», «Arzimni aytay» kabi o'zbek musiqasi durdonalari fonografga yozib olingan edi. 1933 yilda uning «Qashqarchai Ushshoq» ashulasi gramplastikaga yozib olindi. Musiqachi hukumat tomonidan berilgan «O'zbekiston Respublikasi xalq artisti», degan yuksak unvonni oqladi. Atoqli xalq ashulachisi va sozandasi nomi o'zbek xalqining tarixida abadiy saqlanib qoladi.

Toshkent-Farg'ona bastakorlik maktabi namoyandalari:

To'xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Yunus Rajabiy, Jo'raxon Sultonov hayoti va ijodi

To'xtasin Jalilov – Ustoz bastakor, mohir sozanda To'xtasin Jalilov hech qanday kompozitorlik texnikasini egallamagan bo'lsa-da, ajoyib milliy kuylar yaratgan. To'xtasin Jalilov 1896- yilda Andijon shahrida tug'ilgan. U 10 yoshdan mehnat faoliyatini boshlagan. To'rt yil usta Abdurahmon etikdo'zning do'konida xizmatchi bo'lib ishlaydi, keyinroq xo'jayin uni usta Xolmirzaga sotadi, ikki yil paxta zavodida ishchi bo'lib ishlaydi. O'spirinning birinchi tanishgan musiqachisi Oppoq oxun bo'lib, u xalq cholg'u asbobi – setorni yaxshi ko'rib chaldirdi. To'xtasin atoqli Qo'qon musiqachilaridan Eshon g'ijjakchi, Madamin dapchi, Yusufjon changchilar bilan uchrashish umidida Qo'qonga

boradi. Yusufjon changchi yosh musiqachiga xalq qo'shiqlarini o'rgatadi. To'xtasin aka Yoqubjon changchi, G'azat oxun g'ijjakchi, Zokirjon doyrachi va Orifjon dutorchilardan tashkil topgan agitbrigada ansambli tarkibida ashulachi va g'ijjakchi sifatida qatnashadi. Ansambl repertuari keng tarqalgan xalq kuylari «Mirzadavlat», «Qora sochim», «Yorlarim» va shu kabilardan iborat edi. U 1919- yilda Andijon shahrida tashkil etilgan «Milliy cholg'u asboblari» ansablida qatnashadi. Bu ansambl o'z repertuariga xalq kuylari va Hamza Hakimzoda Niyoziyning ashulalarini kiritgan edi. Hamza ijodi bilan tanishish, shoir bilan shaxsan uchrashish musiqachiga ta'sir qiladi. Shundan so'ng o'sha davr voqeligi haqida ashulalar yaratdi. O'z asarlarining aniq va pishiq chiqishiga harakat qiladi. 1923- yilda To'xtasin Jalilov o'zbek musiqachilari guruhi bilan Moskvadagi qishloq xo'jalik ko'rgazmasida berilgan konsertlarda qatnashadi. Moskvadan qaytgandan so'ng boshqa mashhur kishilardan o'rnak olib, 24 kishilik milliy musiqa to'garagini tashkillantiradi. Bu musiqa to'garagi ko'proq xalq cholg'u kuylarini ijro etar edi. To'xtasin Jalilov 1925-27-yillarda konsert-etnografiya ansamlida musiqachi, 1929 yildan boshlab, Andijon musiqali drama teatrida musiqa rahbari bo'lib ishlaydi. Bastakor o'zining ijodiy faoliyatini Sobir Abdullaning «Bog'bon qizi», Komil Yashinning «O'rtoqlar» pyesalariga musiqa yozishdan boshlaydi. Bu pyesalarning musiqasi notaga solingan emas edi, ular yoddan ijro etilar edi. Shuning uchun ushbu musiqa haqida biror fikr aytish qiyin. To'xtasin Jalilovning aytishiga qaraganda, ular xalq musiqasi asosida qurilgan edi. Bastakor ommaviy va yakka ashulalar ham yaratgan. Eng dastlabki ashulalaridan biri «Yor ekkanniki» (Kamtar so'zi) edi. Ashulaning kuyi Hamzaning inqilobiy ashulalariga o'xshab ketadi. To'xtasin Jalilovning 30-yillardagi yirik ishlaridan biri o'zbek xotin-qizlarining ozodligiga bag'ishlangan (K.Yashin va Muzaffar Muhamedov asari) «Gulsara» musiqali dramasidir. To'xtasin Jalilov Gulsaraning obrazini ifoda etuvchi «Qanchalar qon yig'lasam», «Qonli yuzim» kabi ariyalarni yaratdi. Bular ham o'zbek xalq kuylari asosida yaratilgan edi. «Gulsara» birinchi marta Andijon musiqali drama teatrida (1929) qo'yildi. 1936-yilda bastakor Tolibjon Sodiqov To'xtasin Jalilovning «Gulsara» uchun to'plagan kuylarini yozib oladi. Ana shundan so'ng «Gulsara» Moskvada bo'lib o'tgan o'zbek san'ati dekadasida (1937) ko'rsatilgan edi. To'xtasin Jalilov 1934 36-yillarda o'zbek davlat musiqali teatrining bosh dirijori va musiqa jamoasining rahbari bo'lib ishlaydi. U yosh kadrlarni tanlashga e'tibor beradi. To'xtasin Jalilov 1937- yilda bo'ladigan o'zbek

san'ati dekadasiga tayyorlanish munosabati bilan endigina tashkil etilgan o'zbek davlat filarmoniyasiga milliy musiqa va raqs ansamblining rahbari qilib tayinlanadi.

1940-yili To'xtasin Jalilov Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida, so'ngra Navoiy nomidagi opera va balet teatrida qo'yilgan «Tohir va Zuhra» spektakliga kuy bastalaydi. «Tohir va Zuhra» spektakli musiqa shonavandalari olqishiga sazovor bo'lib, bastakorga juda katta shon-shuhrat keltiradi.

To'xtasin Jalilov Ikkinchi jahon urushi yillarida Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrining badiiy rahbari bo'lib ishlaydi. 1941-yilda Sobir Abdullaning «Qurbon Umarov» dramasiga musiqa yozadi, «Tohir va Zuhra», «Nurxon», «Alpomish», «Muqimiy», «Ravshan va Zulxumor» musiqali dramalarini yaratadi.

To'xtasin Jalilovning o'sha yillardagi eng katta ishlaridan biri 1942-yili Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida sahnalashtirilgan «Nurxon» musiqali dramasi musiqasidir. To'xtasin Jalilov Z.Fatxullinning «Gulg'unchalar» asariga musiqa yaratgan. Musiqachi 1951-yilning yozida hozirgi zamon mavzularida yaratilayotgan xalq ashulalari bilan tanishish maqsadida Farg'ona vodiysiga borib, to'plagan asarlari asosida yangi kuylar yaratadi. To'xtasin Jalilov o'zining bastakorlik ijodi davomida 30 ga yaqin musiqali drama, 200 dan ortiq qo'shiqlar yozadi.

To'xtasin Jalilovga o'zbek musiqa madaniyatini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun 1937-yilda «O'zbekiston xalq artisti» unvoni berilgan. To'xtasin Jalilov yaratgan o'lmas navolar mumtoz musiqiy merosimizda o'ziga xos munosib o'rin egallab, el hurmatiga sazovor bo'lib kelmoqda.

Imomjon Ikromov. Atoqli sozanda va bastakor Imomjon Ikromov 1891-yil Toshkent shahrida tug'ildi. Unda yoshligidan musiqaga kuchli mehr uyg'onadi. U birinchi musiqiy saboqni sozanda-g'ijjakchi Solixon Xo'jayevdan oladi. U ustozidan ko'pgina xalq kuylarini o'rganadi.

1918-yil Imomjon Ikromov Toshkentda tashkil etilgan Xalq konservatoriyasiga o'qishga kiradi. Shorahim Shoumarov sinfida o'qib, tanbur chalishni o'rganadi. 1923-yilda Yunus Rajabiy, Rixsi Rajabiy bilan birga u Samarqandga ishga yuboriladi. U Samarqand musiqali drama teatrida o'z ish faoliyatini boshlaydi va ustoz san'atkor Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishadi. Undan «Shashmaqom» yo'llarini o'rganadi. 1926-yilda Samarqanddan Toshkentga qaytadi. 1927-yilda O'zbekiston radiosi qoshidagi Milliy

ansablga ishga kirib, to umrining oxirigacha shu ansamblda ishlaydi. Imomjon Ikromov san'at ustalari – Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Shorahim Shoumarov, Hoji Abdulaziz Abdurasulovlardan milliy musiqamiz ijro yo'llarini puxta o'rganadi. U bastakorlik sohasida birinchi va yagona ustoz sifatida mashhur hofiz, hassos sozanda, buyuk bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulovni hurmat bilan qayta-qayta eslardi.

Bastakor ona Vatan madhini, mehnat madhini lirik taronalarda, avjli pardalarda jo'shib ijro qildi. Zero, bastakor doimo Vatanga sadoqat ota-onaga mehr-hurmatdan, do'stga sadoqatdan boshlanadi, deb hisoblar edi. Uning "Onam derman", "Do'st bilan", "E'zoz qiling", "Olqish", "Vatan mehri", "O'zbekiston", "Sadoqat", "Bu vatan" kabi ashulalarida g'oyaviy teranlik va sadoqat ohanglari yangraydi, ularda ko'tarinki ruh yaqqol ko'zga tashlanadi.

Imomjon Ikromov lirikasi, bastakor ijodiy gulbog'ining eng ko'rkam, eng dilgir navolar gulzoridir. Zero, unga shuhrat keltirgan, nomini keng xalq ommasida yoyilishini ta'minlagan asosiy omillardan biri xuddi mana shu – lirik qo'shiqlardir. Shulardan: "Ul qaro ko'z", "Qoldimu", "Topilmas", "Qoshi qarosini ko'ring", "Aylay desam", "O'ynasin", "So'lim" kabilarni kiritishimiz mumkin.

"So'lim" (G'iyos Soatiy she'ri) ashulasi 1933-yilda yaratilgan. Bu qo'shiq o'sha vaqtda Respublikamiz madaniy, musiqiy hayotida o'rin egallagan. Uning yaratilganiga bir asrdan ortiqroq vaqt bo'ldi.

Ashula ilk bor Qobil qori Siddiqov ijrosida sho'xroq va shaxdamroq jaranglagan bo'lsa, O'zbekiston xalq artisti Orif Alimahsumov uni oltmishinchi yillar o'z repertuariga kiritib, yangicha talqin etgan.

Imomjon Ikromov 86 yoshida bandalikni bajo keltirdi. Bastakor yaratgan asarlar milliy musiqamiz xazinasining abadiy mulkiga aylandi.

Yunus Rajabiy sozandalik, xonandalik va bastakorlik san'atini bunyodkorlaridan bo'lib, ma'rifiy va ta'lim faoliyat bobida mashhurdir. Yunus Rajabiy 1897 yili Toshkentda tug'ilgan. U, dastavval, eski usul maktabida o'qiydi. Eski maktabda o'qigan paytlarida musiqaga havasi uyg'ona boshlagan. O'zlari nay chalganlar, yaxshigina dutor ham chertgan. Kuylar uning doimiy hamrohiga aylangan. 1916-yilda mashhur sozanda va xonanda Shorahim Shoumarov bilan tanishadi. Bu tanishuv uning cholg'uchilik va bastakorlik faoliyatida muhim bosqich bo'lib qoladi. 1919-yil Toshkentda ochilgan Xalq

konservatoriyasining «Milliy cholgʻu asboblari» boʻlimiga oʻqishga kiradi va shu tariqa, butun hayotini musiqaga bagʻishlaydi.

1923-yildan Samarqandda, musiqa pedagogika bilim yurtida musiqa rahbari boʻlib ishlaydi va Samarqand davlat teatrining milliy musiqa rahbari etib tayinlanadi. Yunus Rajabiy hayotidagi muhim voqea uning Samarqandda mashhur boʻlgan hofiz Hoji Abdulaziz Abdurasulov bilan yaqindan tanishgani boʻldi. Yunus Rajabiy undan kuy va qoʻshiq, maqom va bastakorlik sirlarini oʻrgandi. Yunus Rajabiy ular bilan toʻy va sayillarda hamnafas boʻldi. Uning ijodidan ilhomlanib, bir necha musiqiy asarlar yaratdi. Yunus Rajabiy cholgʻuchilik repertuarini yangi asarlar bilan boyitish uchun «Shashmaqom»ni oʻrganishga jiddiy kirishdi.

1926-yili Yunus Rajabiy Toshkentga kelib, koʻpgina cholgʻuchilar qatorida korxonalarda beriladigan konsertlarda qatnashadi va havaskorlik toʻgaraklarini tashkil qiladi. Bu toʻgaraklarga oʻsha paytda maktablarda ochilgan «Uchqun», «Namuna»larni misol qilib keltirish mumkin. Bu toʻgaraklarda taniqli sozandalar Orif Qosimov, Mahmud Yunusovlar yetishib chiqdilar. Yunus Rajabiy ijrochilik faoliyatining davomchilaridan boʻlgan Oʻzbekiston xalq artisti Berta Davidova, Tojikiston xalq artisti Barno Isʼhoqovalar shular jumlasidandir.

1927-yili Oʻzbekiston Radio qoʻmitasi qoshida milliy cholgʻular ansambli tashkil etildi va bu ansambl Yunus Rajabiy ijodiy faoliyatida muhim voqea boʻldi. Avvalida u bu ansablda sozanda boʻlib ishlaydi, keyinchalik unga rahbarlik qiladi. Bu ansambl Y.Rajabiyning bastakorlik faoliyatida muhim rol oʻynadi. U 100 dan ortiq ashulalarga kuy bastaladi. «Judo», «Koshki» (Navoiy gʻazallari), «Kuygay» (H.Olimjon sheʼri), «Raʼnolanmasun» (Gʻoziy muxammasi), va boshqa qoʻshiqlar shular jumlasidandir.

1927-yili Oʻzbekiston Bastakorlar uyushmasi tashkil qilinib, unga birinchilar qatorida Yunus Rajabiy qabul qilinadi. 1936- yilning oxirida Yunus Rajabiy rahbarlik qilayotgan radio musiqa dastasi Moskvada ijodiy safarda boʻladi. Yunus Rajabiy xalq musiqasini notaga solishni oldiga maqsad qilib qoʻyadi va hozirgi kunda uning 6 jildlik **«Oʻzbek xalq musiqasi»** va **«Shashmaqom»** musiqa oʻqituvchilari uchun dasturulamal boʻlib kelmoqda.

Yunus Rajabiy soz chalish sanʼatini shogirdlariga ham qunt bilan oʻrgatadi. Tolibjon Sodiqov, Nabi Hasanov, Saidjon Kalonov, Orif Qosimov, Faxriddin Sodiqov, Nazira

Ahmedova, Turg'un Karimov, Ortiqxo'ja Imomxo'jayev kabi ko'plab shogirdlar tayyorladi va bu san'atkorlar o'zbek milliy musiqa san'ati ravnaqiga o'z hissalarini qo'shdilar. Yunus Rajabiyga 1939-yili O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, 1955-yilda O'zbekiston xalq artisti unvoni berildi. 1966-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi unvoniga sazovor bo'ldi.

Jo'raxon Sultonov – mashhur hofiz Jo'raxon Sultonov o'zbek xalqining turli ashula janrlari bilimdoni va ko'pgina xonanda-sozandalar ustози edi.

Sultonov Marg'ilonning «Podsho Iskandar» mahallasida Sultonboy Oshpaz Xudoynazir o'g'li oilasida tug'ilgan.

Marg'ilon qadimdan mohir sozanda va xonandalar shahri bo'lib kelgan. Hunarmandlar ishdan keyin bo'sh vaqtlarini choyxonalarda qo'shiq tinglash va ijro etish bilan o'tkazadilar. Musiqa kechalarida Jo'raxonning otasi ham ishtirok etar, kuchli, yoqimli ovozi bo'lgani uchun, do'stlari unga “Sultonboy Karnay” deb laqab qo'ygandilar. Otasi ishtirokida o'tadigan musiqa yig'inlari yosh Jo'raxon uchun dastlabki musiqa maktabi bo'ldi.

Jo'raxon Sultonov marg'ilonlik Boltaboy hofiz Rajabov bilan mashhur ashulachi-hofiz Mamadbobo Sattorovni o'zining birinchi ustozlari deb hisoblardi.

Jo'raxon Sultonov tez orada Eshmat Haydarov, Erkaqori Karimov, Berkinboy Fayziyev, Sherqo'zi Boyqo'ziyev va Akbar Haydarovlar kabi ma'lum va mashhur ashulachi hofizlar orasida o'zining munosib o'rnini egallaydi. O'sha vaqtlari «Shafoat», «Bir kelib ketsin», «Noma yozmading» kabi patnisaki ashulalar ham ijrochilar, ham tinglovchilar orasida sevimli ashulalardan hisoblanardi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy, Muhiddin qori Yoqubov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov singari talantli san'atkorlar va jamoat arboblari bilan tanishish hofizning ijodiy kamolotiga ta'sir ko'rsatdi. Jo'raxon Sultonov qo'shiq san'atkorlarining ashula yo'llarini o'zlashtirdi, o'z repertuarini boyitdi. Mulla To'ychi Toshmuhammedov bilan Ma'dalibekdan yalla aytishni o'rgandi.

1918 – 1919-yillarda O'zbekiston shaharlarida san'at xodimlari uyushmalari (“Sanoyi nafisa”) tashkil topdi. Shu paytlarda Jo'raxon Sultonov birinchilar qatori bu uyushmaga a'zo bo'ldi, boshqa sozandalarni ham uyushmaga tortdi. Uyushma huzurida bir necha konsert guruhlari tuzildi. Shu guruhlardan biriga Yusufjon qiziq Shakarjonov, Bolaboy ota

Rajabov, Mamadbobo Sattorov, Otaxo‘ja Saidxo‘jayev, Usta Olim Komilov, Qo‘zixon Madrahimov va boshqa sozanda – xonandlar qatori Jo‘raxon Sultonov ham qo‘shildi.

1926-yili O‘zbekiston davlat etnografik konsert ansambli tashkil etildi. Bu ansamblga Muhiddin qori Yoqubov rahbarlik qildi. Yusufjon qiziq, Usta Olim, Hayitoxun, To‘xtasin Jalilov, Xudoybergan Maqsumov kabi xalq san‘ati ustalari qatori Jo‘raxon Sultonov ham bu ansamblga qo‘shildi.

Oradan bir necha yillar o‘tgach (1927), J.Sultonov ansambl bilan birga uzoq safarga, Moskva, Leningrad, Astraxan, Qozon, Kuybishev, Ufa, Boku shaharlariga gastrolga bordi.

1928-yili Marg‘ilon shahrida o‘zbek musiqali drama teatri tashkil etilib, unga L.Sarimsoqova, M.Tojizoda kabi talantli artistlar jalb qilindi. Jo‘raxon Sultonov ham shu teatrdan ishlash boshladi. Teatr artistlari bergan konsertlarda ishtirok etish bilan birga, qo‘shiqchilik san‘atini egallashda yoshlarga (Ma‘murjon Uzoqov, Saodat Qobulova, Zokirjon Ergashev) yordam berdi.

Jo‘raxon Sultonov 1932-yili Toshkentga ko‘chib kelib, biroz vaqt o‘zbek musiqa teatrida, keyin O‘zbekiston radiosida ishladi.

Katta Farg‘ona kanali, Kattaqo‘rg‘on suv ombori, Shimoliy Farg‘ona kanali, Log‘on kanali, Kosonsoy suv ombori kabi xalq qurilishlarida berilgan konsertlarda faol qatnashdi.

Jo‘raxon Sultonov 1940-yili yana Toshkentga kelib, Muqimiy nomidagi o‘zbek musiqali drama va komediya teatrida ishladi. Teatrning «Tohir va Zuhra» spektaklida Hofiz rolda, «Nurxon»da esa ashula muallimi rolda chiqdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Jo‘raxon Sultonov bastakor sifatida ko‘pgina mudofaa qo‘shiqlari yaratdi va ularni o‘zi ijro etdi. Bu qo‘shiqlardan «Yovni yakson qilmasam», «Otga mindim» (Sobir Abdulla she‘rlari) kabilar o‘sha davrlarda tuzilgan o‘zbek diviziyasiga bag‘ishlangan.

Habibiyning she‘riga bastalangan «Ming qadam», Navoiy g‘azali bilan aytiladigan «Mubtaloman» (yoki «Naylayin») ashulalaridan keyin Jo‘raxon Sultonov Chustiyning «O‘zbekistonimda» she‘riga, Muqimiyning «Bormikin», Navoiyning «O‘lmasun» kabi she‘rlariga moslab birmuncha ashulalar bastaladi. Bu ashulalar urush yillarida xonanda va ijrochilar orasida keng yoyilib, hozirda ham ko‘pchilik ijrochilar repertuarida tez-tez uchraydi.

Jo‘raxon Sultonov keng diapazonga, kuchli tenor ovozga ega edi.

Jo‘raxon Sultonovning repertuarida «Chor zarb», «Chaman yalla», «Dugoh Husayn», «Ushshoq», «Patnisaki Chorgoh», «Ey dilbari jononim» kabi mumtoz va xalq qo‘shiqlari qatorida «Bog‘ aro», «Bir kelsin», «Otga mindim» kabi katta ashulalar ham bor edi. Jo‘raxon Sultonov – «katta ashulaning piri» deyishardi. Unda haqiqatan ham katta ashulachiga xos xushovozlilik, improvizatsiya qobiliyati bor edi; kuchli xotiraga ega edi.

Jo‘raxon Sultonov 1950 1958-yillar O‘zbek estrada teatrida, O‘zbekiston radiosida yakkaxon bo‘lib ishladi.

Jo‘raxon Sultonovning san‘at sohasidagi xizmatlarini yuqori baholanib

1939-yili unga O‘zbekiston xalq hofizi degan faxriy unvon berildi. J.Sultonov O‘zbekiston Oliy Soveti Prezidiumining medallari bilan mukofotlangan.

Jo‘raxon Sultonov 1965-yili Marg‘ilonda vafot etdi.

8-9-laboratoriya mashg‘ulotlari

Mavzu: “Ne ajab” O.Nuriddinov musiqasi, Navoiy g‘azali.

Maqsad: “Ne ajab” O.Nuriddinov musiqasi, Navoiy g‘azali. Asarning daromad - furovard qismlari ijrosi ustida ishlash.

Nola va bezaklar va badiiy va ijrochilik tomonlarini puxta o‘zlashtirish.

R E J A :

1. Asarning matni ma‘nosi va aruz vaznidagi g‘azal ohangi ijrosi ustida ishlash.
2. Asarning badiiy musiqiy ijrosi ustida ishlash. Avj qismidagi murakkab nolli joylarni kuylab ko‘rsatib berish.
3. Avj qismi ijrosini alohida har bir ijrochi bilan ishlab kuylatishga erishish.

Tayanch tushunchalar: Ashula g‘azalidagi murakkab ma‘noli so‘zlar.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: Talabalar bilan an‘anaviy uslubda ovoz sozlash mashqlarini bajarish, mashg‘ulot mavzusi

II. Berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, o‘rganilgan material yuzasidan talabalardan so‘rash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish: Kirish, asarni namunaviy ijroda kuylab ko‘rsatib berish. asarining murakkab nola va bezaklari ijrosi ustida ishlash.

“Ne ajab” O.Nuriddinov musiqasi, Navoiy gʻazali. Asarning daromad - furovard qismlari ijrosi ustida ishlash. Ashulaning DVD, SD variantlardagi ijrolaridan foydalanish. Nola va bezaklar ustida ishlash. Nafas olish, diksiya, talaffuz ustida ishlash.

IV. Oʻrganilgan materialni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ashula oʻrgatish jarayonida talabalar oldiga qanday maqsad va vazifalar qoʻyilgan?

2. Ashula oʻrgatish jarayoni qanday faoliyatlardan iborat?

3. Ashula aytishda nola va bezaklarning ahamiyati qanday?

V. Yakuniy qism:

a) Mashgʻulot davomida talabalar olib borgan faoliyatni tahlil qilish va baholash.

b) Uyga topshiriqlar, vazifalar berish.

Mashgʻulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. Ashula oʻrgatish jarayonini izohlaydi

2. Ashulani badiiy ijro etish uslublariga taʼrif beradi

3. Ashula aytishda mashqlarning ahamiyati haqida aytib beradi

8-9- mavzular. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Buxoro-Samarqand bastakorlik maktabi namoyandalari:

Ota Jalol Nosirov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov hayoti va ijodi haqida gapirib bering.

2. Toshkent-Fargʻona bastakorlik maktabi namoyandalari: Toʻxtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Yunus Rajabiy, Joʻraxon Sultonov hayoti va ijodi haqida gapirib bering.



1. “Ne ajab” ashulasining mukammal ijrosini kuylab bering.

1. 2. Ashulaning matn muallif nomini ayting.

3. Ashulaning musiqa muallifi nomini ayting.

NE AJAB

M.M. ♩ = 108





Xorazm bastakorlik maktabi namoyandalari:

Maqsad:

1. Xorazm bastakorlik maktabi namoyandalari: Matyusuf Xarratov, Komiljon Otaniyozov xayoti va ijodi, o'ttizinchi-qirqinchi yillar bastakorlik san'ati namoyandalari: Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatovlar haqidagi nazariy ma'lumotlarni shakllantirish.

2.“Koshki” – Y.Rajabiy musiqasi, Navoiy g'azali. Asarning daromad - furovard qismlari badiiy bezaklari ustida ishlash.

Tayanch tushunchalar. Matyusuf Xarratov, Komiljon Otaniyozovlar hayoti va ijodi.

R E J A :

1. Xorazm bastakorlik maktabi namoyandalari:Matyusuf Xarratov, Komiljon Otaniyozov xayoti va ijodi,O'ttizinchi-qirqinchi yillar bastakorlik san'ati namoyandalari: Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov r xayoti va ijodi haqidagi nazariy ma'lumotlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash.

2.“Koshki” – Y.Rajabiy musiqasi, Navoiy g'azali.

Asarning daromad - furovard qismlari badiiy bezaklari ustida ishlash.

Asarning kuylash malakalarini shakllantirish.

Mashg'ulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. Xorazm bastakorlik maktabi namoyandalari: Matyusuf Xarratov, Komiljon Otaniyozov xayoti va ijodi, o'ttizinchi-qirqinchi yillar bastakorlik san'ati namoyandalari: Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatovlar xayoti va ijodi haqidagi nazariy ma'lumotlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlanadi.

2. .“Koshki” – Y.Rajabiy musiqasi, Navoiy g'azali. Asarning kuylash malakalari shakllantiriladi.Nola va bezaklari ustida ishlash amaliy bilimlar mustahkamlanadi.

Xorazm bastakorlik maktabi namoyandalari:

Matyusuf Xarratov, Komiljon Otaniyozov hayoti va ijodi

Matyusuf Xarratov - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, maqom bilimdoni, sozanda va bastakor Matyusuf Xarratov XX asrning birinchi yarmida, o'zbek musiqa madaniyatining rivojlanishiga tamal toshini qo'ygan ustoz san'atkorlardan. U butun umrini Xorazm xalq musiqa merosini, tarixini, ulug' ustozlarning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishga bag'ishlab ularni targ'ib qildi, o'zi ham san'atkor sifatida shakllandi, yoshlarga ustozlik qildi va musiqa bastaladi. 1928-yildan 1932-yilga qadar Samarqandda tashkil etilgan Musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot institutida 1932-yilga qadar Xorazm maqomlarini talabalarga o'rgatdi. Bu ko'p qirrali iste'dod sohibi, radio, filarmoniya va musiqali teatlarda faoliyat ko'rsatib, zamonaviy o'zbek musiqasining rivojlanish jarayoniga ulkan hissa qo'shdi. O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi a'zolarining safiga 1940-yilda qabul qilingan.

Matyusuf (Chokar) Xarratov o'zi bosib o'tgan xayot va ijod yo'lini shunday ta'riflagan: «Men Xiva shahrining yonidagi Shayxlar qishlog'ida 1889-yili dunyoga keldim. Otam Matyoqub Xarratov va bobom Hojiniyoz oddiy dehqon, tikuvchi-kosib bo'lsalarda, lekin ular mashhur tanburchi, maqom san'atining bilimdoni edilar. Ular tarixini, adabiyotni, ayniqsa, she'riyatni va musiqani benihoya sevishardi. Bobomning otamdan tashqari ikki qizi bor bo'lsa-da, meni juda ham kichikligimdan to voyaga yetgunimga qadar, asosan bobom tarbiyalab o'stirdilar. Olti yoshimdan boshlab qishloq maktabida ayrim vaqtlarda Xiva madrasasida o'qidim. Bu oliy o'quv dargohida arab, fors, turk tillarini, she'riyat qonunlarini, shakllarini o'rgandim. Ayniqsa, shoir Komil Xorazmiyning o'g'li shoir va tanburchi Matrasul Mirzaboshi (taxallusi Mirzo)dan juda ko'p narsalarni o'rgandim va o'zim ham Chokar taxallusi bilan she'r yozib mashq qildim. Bobomning xonadonida shoir va san'atkorlardan Avaz O'tar, Muhammad Yusuf (taxallusi Bayoniy), Matrasul Mirzaboshi, Matyoqub Pozachi, Qalandar Do'nmas, Masharif Qambar, Qurbon sozchi va boshqalar musiqali kechalar o'tkazishar edi. Men ularga xizmat qilar edim. Musiqaga qiziqqanimni sezgan bobomning iltimosi bilan musiqiy mushoirada qatnashib kelgan sozanda va xonandalar har biri o'z kasbini menga 7

yoshimdanoq o'rgata boshladilar. Shu sababli men doira, garmon, tanbur, santur, g'ijjak, chang, dutor chalishni va ashula aytishni ustozlardan o'rgandim. Yosh san'atkor sifatida 1920-yilga qadar ona yurtimda xalqqa xizmat qildim.

Xorazmda 1920-yili Xiva bolalar musiqa maktabini ochdim, direktor lavozimida ishladim va san'atim bilan xalqqa xizmat qildim.

O'zbekiston Respublikasining avvalgi poytaxti Samarqand shahrida 1928-yili Musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil topdi. Uning direktorii N.N.Mironov meni Xorazm maqomidan dars berishga taklif qildi. Shu yildan boshlab mening hayot va ijod taqdirimda o'zgarishlar ro'y berdi. Mazkur institutda 1932 - yilga qadar ishladim. Ilmiy ish bilan ham shug'ullanar edim. 1928-yildan boshlab Samarqand radiosining musiqa bo'limi mudiri va san'atkor ijrochi bo'lib 8 yil xizmat qildim. Tojikiston Respublikasining radio eshittirish musiqa bo'limini ochishda ko'maklashdim. 1935-yili O'zbekiston radiosida ishlash uchun Toshkentga taklif qilishdi. Musiqa bo'limida ishladim. O'zbek filarmoniyasining ijrochi jamoalari bilan 1937-yilda Moskva shahrida o'tgan O'zbek adabiyot va san'atining 10 kunligida ijrochi sifatida faol qatnashdim. Dekadadan qaytgach, 1937-yili Toshkent davlat Konservatoriyasi kompozitorlik fakultetining tayyorlov bo'limiga o'qishga kirdim, yevropa nota yozuvini o'rgandim. Musiqa nazariyasi, tarixi va klassik kompozitorlarning xayoti va ijodiy faoliyatlari bilan tanishdim. Uch yil konservatoriyada o'qidim. 1935 1949-yillarda O'zbekiston radio komitetida sozanda va xonanda lavozimida ishlab, qo'shiq va kuylar yaratdim. 1938 yilda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi tashkil qilish ta'sis komissiyasiga a'zo bo'ldim. 1940-yili Bastakorlar uyushmasiga qabul qilindim.

Ikkinchi jahon urushi yillari radioda ishlash bilan birga bir necha vatanparvarlik ruhida qo'shiqlar bastaladim. Ular orasida: "Sevimli Vatan", "Davron", "Yigitlar" (Uyg'un so'zi), Bahodir yigitla" (Oybek so'zi), «Pulemyot», "Qahramon uchuvchilar", "Zenitchi", "Qiruvchi", "Tankist", "Oq oltin" (Zafar Diyor so'zlari), "Davron bizniki" (A.Bobojonov so'zi), raqs "Farhod ufori" nomli qo'shiqlarim va raqs musiqalarim yakka xonanda, xor va raqs jamoalarining repertuarlaridan joy oldilar».

Bastakor va shoir Matyusuf Xarratov (Chokar) o'z zamonasining zabardast va ilg'or fikrli san'atkori sifatida qaynoq hayot ichida yashadi va uning ijodida o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot o'z ifodasini topdi. Bastakor 1929 1941- yilga qadar

o‘zining she‘rlariga kuylar bastaladi: “Kolxozchi”, “G‘ayratim paxtaga”, “Zindabod dehqoni”, «Paxtaga ahamiyat bering», «Chindani paxta», «Paxtachilik yashnasin», “Paxta teramiz”, “Kolxozga boraylik” (Abdullayev so‘ziga), “Mening tog‘im” va o‘z so‘ziga “O‘zing”, “Muhabbatim”, “Shahlo ko‘zlar”, “Yoshlik tuyg‘usi” kabi lirik ashulalar ham yaratdi. 1937-yili Moskvada o‘tkazilgan dekadada uning “Sayl va kolxozda to‘y” sahnasida “Mustahzod ufori” ashulasi (so‘zi va kuyi o‘ziniki) ijro etildi. Shular bilan u o‘z ijodiy faoliyatida nota yozuvini o‘rgangandan keyingi yillarda Xorazm maqomlarini notaga yozishga kirishdi va ayrimlarini yozishga ulgurdi.

N.N.Mironov rahbarligida tashkil topgan “Notali orkestr” yangi jamoasida changchi bo‘lib ishladi. Changchi diatonikdan xromatik uslubga o‘tkazishda faol qatnashdi. Ushbu orkestr Belorusiyaning turli shaharlarida o‘tkazilgan gastrollarda ham qatnashdi.

Matyusuf Xarratov musiqa san‘ati va adabiyotida qilgan ulkan xizmatlari uchun 1944-yili “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi” yuksak unvon bilan taqdirlandi. Uning farzandlaridan Foziljon va qizi Muslima Xarratovalar ham otalari izidan borib, o‘zbek san‘ati taraqqiyotiga o‘z munosib hissalarini qo‘shganlar. Urganch musiqa bilim yurti shu kungacha Matyusuf Xarratov nomi bilan atalgan.

Komiljon Otaniyozov - O‘zbek musiqa san‘atining mashhur namoyandalaridan biri Komiljon Otaniyozov 1917 yilning 22-iyul Xorazm viloyati Shovot tumanining Bo‘yrachi qishlog‘ida tug‘ildi. U to‘liqsiz o‘rta maktabni tugatib, Urganchdagi pedagogika kursida o‘qiydi. O‘qishni tugatib, Urganchda o‘qituvchilik qiladi. 1936 1942-yillarda kolxoz-sovxozi teatrida ishlaydi. 1942 1949-yillar Xorazm viloyat teatrida yakkaxon solist, keyinchalik musiqa rahbari bo‘lib xizmat qiladi. Bu davrda Komiljon Otaniyozov Respublikaning hamma viloyatlarida ijodiy safarda bo‘lib, musiqa shinavandalari olqishiga sazovor bo‘ladi.

1951-yilda Toshkentdagi Hamza nomidagi musiqa bilim yurtiga o‘qishga kiradi. 1955-yilda o‘qishni tugatib, konservatoriyada o‘qishni davom ettiradi. Keyinchalik, «Lazgi» ashula va raqs ansambliga rahbarlik qiladi. Juda ko‘p shogirdlar yetishtiradi. 1955-yilda Hindiston, Afg‘oniston, Birma, Kambodja, Turkiya davlatlarida ijodiy safarda bo‘lib, o‘zbek milliy san‘atini targ‘ibot qiladi, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘ladi. Uning bastakorlik ijodi nihoyatda sermahsuldir. U bir qancha 100 lagan ashulalar yaratgan, 4ta musiqali dramaga kuylar bastalagan, g‘azallar, muxammaslar juda katta

musiqiy meros qoldirdi. “Bo‘lmasa bo‘lmasin netay”, “Ko‘rsat jamoling”, “Ishqing o‘tiga kuygali keldim”, “Bilib bo‘lmas”, “Ayshi kamolini ko‘ring”, “Ayrilmasin nigoridin”, “Oshiq bo‘lmisham”, “Ko‘ring”, “Maxsus”, “Istamas”, “Nozlini”, “Bormi yoronlar”, “Aziz Vatanim”, “O‘zbekiston”, “Salom senga Xorazmdan”, “Vatan”, “Xo‘sh endi” va boshqa ko‘plab ashulalari xalq mulkiga aylandi.

“Dog‘man” – noyob qo‘shiqchilikning yorqin namunasidir. Noqis qalamiga mansub ishqiy-lirik mavzudagi satrlar bastakorga ilhom keltirib, nafis va falsafiy musiqiy ashula paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Ushbu ashula Komiljon Otaniyozovning bisotidagi eng jozibali, insonga zavq bag‘ishlaydigan yuksak ijodiy izlanishlaridan biridir. She’riy matndan ustalik bilan foydalanib, kuyga singdirilish salohiyati, so‘z matni bilan sehrli ohanglar mushtarakligi, erkin uslubdagi keng ta’sirchan avjlari ovoz va sozlarga mos tushgan milliy qochirimlarning mohirlik bilan ishlatilishi ashulaga badiiy betakror sifat keltirgan.

Komiljon Otaniyozov safdosh bastakorlar orasida sermahsulligidan tashqari tenggi yo‘q hofiz, xassos sozanda, ajoyib shoir, dunyoqarashi ancha keng, xususan, hayotiy muhim voqea va hodisalarga nisbatan hozirjavob ustoz san’atkor edi.

Uning mashhur san’atkor bo‘lib yetishishida XX asr Xorazm yetuk maqom musiqasining ustoz hofizi, oqsoqoli Hojixon Boltayevning o‘rni katta bo‘ldi. Uning ta’siri va ta’limi asosida Komiljon Otaniyozovning ijrochilik faoliyati, badiiy dunyoqarashi shakllandi va bastakorlik faoliyatiga ham zamin yaratildi.

Komiljon Otaniyozov tashabbusi bilan «Lazgi» ashula va raqs ansambli O‘zbekiston davlat filarmoniyasi qoshida tashkil qilindi. Komiljon Otaniyozov ansamblni tashkil qilish, xalq orasidan yosh talantlarni izlash, ularni o‘rganish, jamoaga jalb qilish ishlarini muvaffaqiyatli olib bordi, biroq yangi tashkil topgan ijodiy jamoa oldida keng, sermazmun repertuar tanlash vazifasi turardi.

Ansambl, avvalo, Xorazm musiqa san’atini o‘zida mujassam qildi, milliy raqslar va qo‘shiqlarga salmoqli o‘rin berdi. Lekin biz bu bilangina cheklansak, repertuar doirasini toraytirgan bo‘lamiz. “Xorijiy xalqlar musiqa san’atining eng yaxshi namunalarini tanlab, repertuarga kiritishimiz kerak”, degan edi Komiljon Otaniyozov. Uning fikri qo‘llab-quvvatlandi.

Katta mehnat, izchil harakatu ijodiy izlanishlar tufayli, rang-barang repertuar yaratildi. Milliy qo‘shiqlar va raqslar bilan birga, ozarbayjon, turkman, tojik, uyg‘ur, qoraqalpoq, rus xalq qo‘shiqlari va raqslari, shuningdek, xorijiy xalqlar: hind, afg‘on, eron, arab va boshqa xalqlarning musiqa asarlaridan namunalar o‘rganila boshlandi.


Ansamblga O‘zbekiston xalq artistlari Komuna Ismoilova, Quvondiq Iskandarov, Bekjon Otajonov, Otanazar Abdalniyoziyov singari iste’dodli san’atkorlar, xalqqa endi tanila boshlagan yoshlar uyushgandi. Ansamblning ijodiy safarlari muvaffaqiyatli o‘ta boshladi. Respublikamiz bo‘ylab qilingan ijodiy safarlar, mehnatkashlarga namoyish etilgan turli konsertlar ansambl jamoasining ijrochilik mahorati uchun sinov bo‘ldi.

Tez vaqt ichida ansambl o‘zining to‘liq jamoasiga ega bo‘ldi. Ansamblga Olmaxon Hayitova, Ortiq Otajonov, Sharif Sultonov, Gulchehra Ismoilova, Ibodulla Abdullayev kabi istiqbolli yosh kuchlar kirib keldi. “Lazgi” ashula va raqs ansamblining bosib o‘tgan oydin yo‘li, ijodiy muvaffaqiyatlari Komiljon aka o‘ziga xos katta ijodiy maktabning asoschisi, muallimi ekanligi natijasidir. Maktab o‘z darsxonasiga, talabalariga, kelajagiga ega. U maktabda tahsil ko‘rgan, san’atda yangi-yangi kamolot pog‘onalariga ko‘tarilgan iste’dodli xonandalar: Hamza nomidagi O‘zbekiston davlat mukofotining sovrindori, O‘zbekiston xalq artistlari Otajon Xudoyshukurov, Komuna Ismoilova, Bobomurod Hamdamov, San’at Devonov, Olmaxon Hayitova, Ortiq Otajonov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar – Sharif Sultonov, Jumanazar Bekjonov, Sheramat Fayzullayev kabi o‘nlab xonandalar Komiljon Otaniyozovni o‘zlariga ustoz, deb biladilar.

Komiljon Otaniyozov og‘ir xastalikka yo‘liqib, 58 yoshida bandalikni bajo keltirdi. Uning musiqiy merosi qisman yaqin o‘tmishimizdagi ma’naviy hayotimizning muayyan bo‘lagi sifatida tarix sahifalariga ko‘chdi. Komiljon Otaniyozov bunyod etgan o‘lmas navolar mumtoz musiqiy shohsupadan o‘ziga munosib o‘rin egallab, el ardog‘iga sazovor bo‘lmoqda.

MATNIYOZ YUSUPOV hayoti va ijodi.

(1925-1992)



Matniyoz Yusupov 1925 yilning 1-yanvarida Xorazm viloyati, Urganch shahrida hizmatchi oilasida tavallud topdi. Matniyoz Yusupovning otasi Abdalniyoz Yusupov ham

san'atni sevib qolmasdan tuzukkina dutor chaladigan sozanda ham bo'lgan. Otaning honadonida hofizasi keng maqomdonlar Hojihon Boltaev, Madrahim Yokubov (Sheroziy), Jumaniyoz Hayitboevlar tez-tez mehmon bo'lib turishgan va ularning ijrochilik maxorati yosh Matniyozni murg'ak qalbini chulg'agan. Bu qiziqish Matniyoz Yusupovni maktabda o'qib yurgan chog'larida skripkachi Sobirjon Yokubov rahbarlik qilgan musiqa to'garagiga etakladi va Sobirjon akadan skripka chalishni o'rgana boshladi. Matniyoz Yusupovning murg'ak qalbiga ilhom berib turgan otasi Abdalniyoz Yusupov 1935 yilning may oyida dunyodan o'tadi. Ota chalgan va mashhur mashshoqlar chalgan dutor yodgorlik bo'lib qoldi va Matniyoz Yusupovni ijodiy faoliyatida umrining ohirigacha bu dutor ma'naviy ilhom berdi. Matniyoz Yusupov 1940 yili ettinchi sinfni tamomlab viloyat teatri qoshida tuzilgan estrada ansanbliga sozanda bo'lib ishga kiradi. Bu erda san'atkorlardan ko'pgina ashula va kuylarni, ijrochilik an'analarini o'rganadi. Ayniksa, mashhur sozanda, maqomchi Matpano ota Hudoyberganovga shogird tushib, Xorazm maqomlarini o'rganishga intilgan. Matniyoz Yusupovning ezgu niyatlari ruyobga chiqayotgan, xalqmaqomlari sirlarini o'rganayotgan kunlarda Ulug' Vatan urushi boshlanib, 1943 yilning aprel oyida fashist bosqinchilariga qarshi kurashish uchun Vatan himoyasiga otlanadi. Amudaryo sohillarida bo'lgan hayrlashuv onlarini shunday eslaydilar:

«U paytlarda Urganch shahriga poezd yo'li etib kelmagan edi. Shuning uchun daryo bo'yiga 12 chaqirim yo'l piyoda yurib, daryodan matorli katerlarda suzib, askarlar Turkmanistonning Cxorjuy shahridan poezd bilan jo'natilar edi. Yosh jangchilarning ota-onalari, yuzlarcha qarindosh urug'lari Vatan mudofaachilari bilan hayrlashish uchun daryo bo'yiga to'plangan edilar. O'sha paytda Karim Ismoilov (O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan artist) bilan tanishib koldim. Bilsam, u kishi ham honanda ekan. Meni sevimli sozim skripkam yonimda edi. Biz mehribon onalarimiz, qarindoshlarimiz bilan hayrlashar ekanmiz, Karim Ismoilov bilan:

Og'a - ini, dust-yoronlar, xo'sh endi,

Oq sut bergan onajonlar, xo'sh endi

degan so'zlar bilan boshlangan ashulani aytganimizda hammaning ko'zida sevinch va g'azab yoshlari balqigan edi.

1944 yili 19 yoshli Matniyoz Yusupov qadrdon diyoriga qaytib kelib san'at yo'lidagi izlanishini davom ettiradi. U Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatrida sozanda bo'lib ishlay boshlaydi. Uning san'atga bo'lgan mehri, kuchli ishtiyoqi kishini maftun etuvchi shirali ovozi, rubob, g'ijjak, skripka torlarini yoqimli va hushnavo sayratishi teatrdagilarni o'ziga jalb etib yosh ijodkorga alohida e'tibor beradilar. Matniyoz Yusupov o'zbek bastakorlik an'analarni o'zlashtirgan holda yaratgan yangi qo'shiq va kuylarini sozanda va honandalarga o'rgatadi.

Matniyoz Yusupovning xalqmusiqa hazinasiga intilishi Xorazmning mashhur maqomdoni Matpano Hudoyberganov dargohiga etaklaydi. U kishiga shogird tushib maqom sirlarini o'rgana boshlaydi. Matniyoz Yusupov o'zining «Xorazm maqomlari» maqolasida: «Xorazm maqomlarini 1942 yildan o'rgana boshlagan bo'lsam, chertim va aytim qismlarini yozib olish fikri menda 1947 yilda boshlandi. Birinchi bo'lib «Segoh» maqomidan parchalar yoza boshladim. 1950 yilgacha maqomlarni ko'pgina chertim va aytim qismlarini notaga olishga muyassar bo'ldim. 1950-yil boshlarida Toshkentga muzikashunos olim Ilyos Akbarovga hat yozib, qilayotgan ishlarim tug'risida maslahat so'radim. Ilyos aka 30- aprel 1950 yilda yozgan hatida: Maktubingizni oldim. Boshlagan ishingizni natijasi kanday bo'lishidan qat'iy nazar juda yahshi va hayrli ishga qo'l urgansiz. Albatta, bu ishni ohiriga qadar davom ettirishingizni maslahat beraman. Ishingizda kamchilik va hatolar bo'lishi mumkin.

Atoqli sozandalarni to'plab, yozgan notalaringizni chalib bering, ishingizni qanchalik to'g'ri ekanligi to'g'risida ularni fikrini bilib, yig'ilishda qaror chiqarilsin. Yig'ilish qarori bilan ishingizni menga yuborsangiz buni bosilib chiqishida yordam beraman. Agar meni yordamim kerak bo'lsa hat yozing. Ilyos Akbarov. Hatni olganimdan so'ng menda maqomlarni to'la qismini yozib olish va nashr qildirish ishtiyoqi paydo bo'ldi. Ammo, ma'lumotim kamligi uchun ustozim Matpano Hudoyberganovdan o'rgangan maqomlarni, o'zim yaratgan kuy va qo'shiqlarlarni notaga tushirishga qiynalardim" deb yozadi. Teatrda ishlab yurgan kezlarda kuy va qo'shiqlar bastalashga intildi, maqom san'atini ustozlardan o'rgandi. Yoshligidan ijrochilik ila musiqa bastalashga juda qiziqan va musiqadan mashq qila boshlagan lekin ularni notaga yozishni bilmas edi. O'qish zaruriyati bo'lib qoldi va u zamonaviy Ovro'po nota tizimini, ko'p

ovozli musiqa qoidalarini o'rganish ehtiyoji bilan 1951-yil Komiljon Otaniyozov, Abdusharif Otajonov, Sulton Hayitboevlar bilan birgalikda Hamza nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtiga o'qishga kirdilar. El-yurt orasida obro' e'tiborga sazovor bo'lgan san'atkorlarga o'quv yurti direktori Ibrohim Hamroev ularga sharoitlar yaratib berdi. 1955-yili o'qishni muvaffaqiyatli tamomlab, o'sha yili Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kirdi. Toshkent uning professional kompozitor bo'lib etishishida va shahsiy hayotida muhim rol o'ynadi. Matniyoz Yusupov bu oliy dargohda talabalik yillarida professor Boris Nadejdindan kompozitsiya bo'yicha va Aleksey Kozlovskiydan instrumentovka bo'yicha ta'lim oldi. Keyingi yillarda kompozitor Boris Zeydmanning qimmatli maslahatlaridan bahramad bo'lib, xalqmusiqa durdonalariga bo'lgan qiziqishi mustahkamlanib, o'qish yillarida ko'plab orzu qilib, to'plab yurgan ishi Xorazm maqomlari va xalq doston kuylarini o'rganish va notaga olishga kirishdi.

Toshkentda talabalik yillari bu uch san'atkor Komiljon Otaniyozov boshchiligidagi o'zlarining shirali ovozlari bilan, sozlari bilan Respublikamiz mehnatkashlarining olkishlariga sazovor bo'lgan. Matniyoz Yusupov, Komiljon Otaniyozovga g'ijjakda, skripkada va qo'shiq aytishda jo'r bo'lgan bo'lsa, Abdusharif Otajonov doirada jo'r bo'lganlar. Matniyoz Yusupov konservatoriyaning talabalik yillarida qo'lga tor olib, o'zining lirik ovozi bilan poytahtimiz Toshkentning kontsert zallarida, radio to'lqinlari orqali "Qora soching", "Ustozingdan ayrilma", "Jon ustina", "Feruz" kabi qo'shiq va g'azallarni ijro etib, halqimiz dilidan munosib o'rin ola boshladi.

Matniyoz Yusupovning ijodiy faoliyati Toshkent davlat konservatoriyasida talabalik yillarida jiddiy boshlanib ketdi. San'atkor talabalik yillarida honanda sifatida xalq dilidan o'rin oldi va maqomshunoslik ishlar i bilan birga kompozitorlik ijodini uzviy ravishda davom ettirdi.

Matniyoz Yusupov 1960- yilda Ahmad Bobojon librettasi asosida bir pardali "Bo'z o'g'lon" operasini yozib diplom ishiga tavsiya qilib Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetini Oliy darajada yakunladi.

Opera yozish uning oldida turgan yagona maksad edi. 1959 - yilda u Komiljon Otaniyozov va Stepanov bilan hamkorlikda "Oshiq G'arib va Shohsanam" muzikali dramasi Toshkentda Muqimiy nomli musiqali teatrdan sahnalashtirildi. Shu teatrdan 1962 yilda Ahmad Bobojon pesasi asosida atokli shoir Avaz O'tar hayotiga bag'ishlangan "G'azal Fojiasi", 1963- yilda Tursun Sobirov pesasi asosida "Uch bahodir", "Qaydasan hayot" 1976- yilda Hayitmat Rasul pesasi asosida "Muqaddas diyor" nomli musiqali dramalari sahnalashtirilib, xalq tomonidan tamosha qilindi.

Saxna asarlari yozish Matniyoz Yusupov uchun katta orzu va maksad bo'lib qoldi. U uch yil davomida u Hamid G'ulomning librettasi asosida opera yozish uchun tinmay ishladi. Nihoyat "Xorazm qo'shig'i" operasi Navoiy nomli opera va balet teatrida 1964-yilda tamoshabinlar tomonidan qizg'in kutib olindi. 1964-yilning dekabr oyida Moskvada O'zbekiston san'atining 10-kunlik dekadasi bo'lib o'tdi. Shunda Moskvalik tamoshabinlar Kreml saroyining katta zalida "Xorazm qo'shig'i" operasini o'zbek tilida ko'rib tinglaganlar. Ular o'zbek san'atkorlarining har-bir chiqishlarini qarsaklar bilan kutib oldilar. Albatta, bu olqishlar bastakor mehnatiga berilgan baho edi. Matniyoz Yusupov yana bir yirik asarga qo'l urdi. Bu U. Umarbekov librettosi asosida "Gulsanam" baleti edi. Balet tamoshabinlarga 1974-yilda Samarkand opera va balet teatrida takdim etildi. So'ngra shu sahnada 1984-yilda M. Muhamedov librettosi asosida "Chevar qiz" operasi sahnalashtirildi. Shuningdek bastakorning Xorazm viloyat teatrida "Dil kuzgusi" (Hamid G'ulom p'esasi), "Millioner o'g'li" (T.Teshaboevning asari), "Tungi faryodlar" (Mirzakarim Boboev p'esasi), "Tun va nohun", "Respublika o't ichida" (Yunus Yusupov asarlari), "Tugon" (Omon Matchon p'esasi), Namangan viloyat teatrida "Kaychi kudalar", "O'lim bilmagay aslo muhabbat" (Rahima p'esasi) musiqiy asarlari viloyat teatrlarida sahnalashtirildi.

Matniyoz Yusupov yuqorida aytilgan maqomlarning 6-tomi bilan cheklanib qolmasdan, balki eng nafis didli maqomshunos olim sifatida hayot bo'lgan ustozlardan o'rganib kelayotgan ishlarini yana yuzaga chikardi.

G'.G'ulom nashriyotida 1980-1987yillar chop etilgan 3 tom 5 kitobdan iborat "Xorazm maqomlari", o'zbek musiqa hazinasiga qo'shilgan bitmas tunganmas boylikdir.

Shu qilgan ulkan ishi uchun muallif 1991 yilda O'zbekiston davlat mukofoti sovrindori bo'ldi.

Matniyoz Yusupov lirik honanda hofiz sifatida "Feruz", "Hush parda suvora", "Savti suvora", "Bazminga keldi", "Chapandozi suvora", "Feruz-2", "Ayro solding", "Mo'g'ilcha uforisi", "Faryod", "Nasrullo", "Tarona", Buzruk talqini", "Jon ustina", "Dugoh", "Jonim sadha", "Aqlu odobdandur", "Qoshing hilolidir", "Bog' saylina galdim", "Talqini rost", "Qora soching", "Cxorgoh", "O't endi gunohimni", "Gulandomim", "Yozmishlar", "Hush keldingiz", "Noz uyqusidan uyg'ot", "Dildoring kelur", "Sen bilan", "Jonona ekansiz", "Ikkinchi savti suvora", "Cxorgoh birinchi", "Rajabiy-1", "Sarparda-1", "Dildorga mushtoq", kabi klassik shoirlarning g'azallarini kuylagan. Bu qo'shiqlarning hammasi O'zbekiston radiosi fonotekasidan o'rin olib shu kungacha radio tinglovchilarni bahramand etib kelmokda.

Bastakor Matniyoz Yusupov ijodiy faoliyati davomida "Bilmaguncha", "Shod bo'lsin", "Xorazm", "Yulduzlar", "Ayol hayoli", "Baxor navosi", "Assalom Gulchehra", "Ishq kuyida", "Soat sanadim", "Bilmadim", "Hijron", "Kelibdur", "Yorimga ayting", "Alla", "Salomingdan", "Baraka chanog'i", Afg'on rubobi uchun p'esa, "Yal-yal yonadi", "Pahtamiz", "Sevgi sururi", "Bu tuproq", "Ulug'ligim", "O'lka", "Oq qush", "Sevindim", "G'alabamiz bayrami", "Yor kelibdi", "P'esa", "Joningdan aylansun", "Umring o'tar e'zoz bilan", "Saloming bo'lmasa", "Qalbi daryo", "Yoshlik gul baxorim", "Hamdamim bo'l", "Nigor", "Guli Ra'noderman", "Cho'lquvarlar qo'shig'i", "Cxorvoqdan dovrug' solay", "Bir diyorki" kabi zamondosh shoirlarimiz tomonidan yozilgan qo'shiqlarga kuy bastalab, san'atkorlarga o'rgatdi. Bu qo'shiqlar ham hozirgi kunda O'zbekiston radiosi fonotekasida munosib o'rin olib, radio to'lqinlari orqali taralmokda.

Kompozitor Matniyoz Yusupovning asarlari qatori simfonik syuitalar, kantanta "Tasanno ishchilar" (Hamid G'ulom she'ri), "Simfonik poema", "Kahramonona simfonik uvertyura", "Tuyamuyin taronalari", (Erkin Samandarov she'ri), Vokal instrumental syuita va bir necha o'zbek xalq cholg'u asboblari uchun yozilgan yirik asarlari O'zbekiston radiosi fondidan o'rin olgan. Matniyoz Yusupovning G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida 1976-yilda "Xorazm qo'shig'i" operasidan, "Dil ko'zgusi", muziqali komediyasidan, 1977 – yilda "Gulsanam" baletidan, 1989 –

yilda Gʻazal fojeasi" muzikali dramasidan parchalar chop qilinib kitob holida muzika ihlosmandlariga taqdim etildi.

Kompozitor Matniyoz Yusupov qoʻshiq janrida ham sermahsul ijod qilib keldi. U oʻz qoʻshiqlarida, oʻzbek shoirlari bilan hamkorlikda zamonasini, Vatanimizni yoshlikni, halqlar doʻstligini sevgi - muhabbatni kuylab, sharaflab keldi. Bunday mavzularda yaratilgan qoʻshiqlar, romanslar, "Bolalarga fortepiano uchun" 1969 yil. "Mahliyo" 1971yil. "Shodiyona" 1977 yil. "Bir diyorki " 1981yil. "Guldasta" 1985 yil. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti tomonidan qoʻshiq shaydolariga tavsiya etilib toʻplamlarda oʻz ifodasini topdi.

Matniyoz Yusupov 12 tadan iborat har-hil toʻplamlar, oʻrta va oliy musiqa bilim yurtlari uchun notalashtirish hamda oʻzbek musiqa tarihiga oid qoʻllanmalar yaratdi. Asarlari qatori musiqa madaniyatimizni targʻib etuvchi maqolalari, maqomchilar haqida monografiyalari Respublika gazeta va jurnallarda chop etildi.

Matniyoz Yusupov oʻzbek musiqa sanʼatini rivojlantirib Oʻzbekiston radiosi musiqali yozuvlar tahririyatida katta muharrir, 1967-1972 yillar Urganch shahridagi Matyusuf Xarratov nomidagi musiqa bilim yurti direktori, 1972-1974 yillari Oʻzbekiston Davlat filormoniyasi qoshidagi "Lazgi" ashula va raqs ansamblining badiiy rahbari boʻlib ishladi.

Matniyoz Yusupov umrining ohirgacha Toshkent teatr va rassomchilik instituti anʼanaviy qoʻshiq kafedrasida, Toshkent Davlat Madaniyat institutining madaniy oqartuv fakultetida talabalarga sabok berdi.

Matniyoz Yusupov 1969 yili el - yurtga qilgan hizmatlari uchun Oʻzbekistonda hizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi» unvoniga musharraf boʻlgan ulkan sanʼatkordir.

Javohirlar hazinaboni ustoz honanda, sozanda va bastakor Matniyoz Yusupovning Oʻzbekiston musiqasi madaniyati sohasidagi hizmatlari yuksak va munosib takdirlanib, koʻplab orden va medallar bilan mukofotlandi. Butun umrini musiqa ilmiga bahshida etgan Matniyoz Yusupov 1992 yilda 67 yoshida olamdan oʻtdi.

ABDUSHARIF OTAJONOV hayoti va ijodi.

(1924 - 1987)



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, sozanda va kompozitor Abdusharif Otajonov 1924 yilning 1 yanvarida Xorazm vohasining Xiva shaxrida sozandalar oilasida dunyoga keldi. Uning bobosi Xiva xonligida Masharif surnaychi nomi bilan yaxshi tanilgan edi.

Otasi Otajon aka esa "sozchi usta" nomi bilan tanilgan surnaychi edilar. Ular Abdusharifda tug'ma musiqiy qobiliyat borligini sezib, musiqadan saboq bera boshladilar. 1932 yili boshlang'ich o'rta ta'lim maktabida, so'ngra yoshlar maktabida o'qidi, 1937 yili Xiva qishloq xo'jaligi texnikumiga o'qishga kirdi. Mazkur o'quv dargoxida musiqa to'garaklariga xam qatnashdi.

1945-1951 yillarda A.Otajonov Ogaxiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatrida sozanda, musiqa bo'limi maslaxatchisi bo'lib ishladi. Yoshligidan ijrochilik ila musiqa bastalashga juda qiziqadi va musiqadan mashq qila boshlagan Abdusharif zamonaviy ovro'po nota tizimini, ko'p ovozli musiqa qoidalarini o'rganish extiyoji bilan 1951 yili Xamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtining musiqa nazariyasi bo'limida Komiljon Otaniyozov, Matniyoz Yusupov va Sulton Xayitboevlar bilan birgalikda o'qidi.

1955- yili o'qishni imtiyozli diplom bilan bitirib, Xiva shaxriga ishga yo'llanma oldi va shu yili A.Otajonov Xiva shaxrida bolalar musiqa maktabini tashkil etdi. Shu bois bu san'at maktabiga Abdusharif Otajonov nomi berildi. 1961-1966- yillarda Ogaxiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatri direktori va dirijori lavozimlarida ishladi, ayni paytda Toshkent davlat konservatoriyasida kompozitsiya bo'yicha sirtki bo'limda professor B.I.Zeydman sinfida o'qidi. 1964 - yili A. Otajonov chang va simfonik orkestr uchun kontsert asari bilan konservatoriyaning muvaffaqiyatli bitirdi. Oliy ma'lumotli mutaxassis Urganch shaxar Matyusuf Xarratov nomli musiqa bilim yurtida ishladi. 1967-1973 yillarda u Ogaxiy nomidagi teatr direktori va dirijori, 1973-1980 yillarda musiqa bilim yurti direktori bo'lib ishladi. 1980-1986 yillarda Ogaxiy

nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatri direktori va bosh dirijori lavozimlarida ishladi.

. Davlatimiz va xalqimiz oldidagi xizmatlari uchun bir qancha orden va medallar, O'zbekiston va Qoraqalpoqiston Respublikasi faxriy yorliqlari bilan mukofatlangan. A.Otajonov 1969 yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvoni bilan takdirlandi. 1975- yilda Respublika kompozitorlar uyushmasi a'zosi bo'ldi. Xozirda Urganch shaxrining ko'chalaridan biri Abdusharif Otajonov nomi bilan atalsa, shunga qo'shni ko'cha nomi Abdusharif akaning rafiqasi O'zbekiston halq artisti Bikajon Raximova nomi bilan ataladi. Abdusharif Otajonov 1987 yil 5-dekabr kuni 63-yoshida vafot etdi. Abdusharif aka endi oramizda yo'q, biroq o'tli olovqalb insonning yashnagan ijod boqi kelgusi avlodlar uchun meros bo'lib qoldi. Kompozitorning ijod qilgan musiqali dramalari va komediya asarlari, qo'shiqlari saylanmasini nashr etish nazarda tutiliyapdi albatta bularni qardosh tillarda chop qilinsa xam ayni muddao bo'lar edi. Tan olish kerakki oddiylik va kamtarinlik, sharqona urf, milliy qurur ufirib turadi uning asarlarida.

Sahna asarlari: (musiqali drama)

1. "Oq nilufar" (Xind yozuvchisi R. Tagor asari, Avinnikov, S. Ospos va A. Bobojonovlar tarjima va instsenirovkalari, 1958 y.),

2 "Oshiq G'arib va Shoxsanam" (Yunus Yusupov p'esasi, 1958 y.) musiqasi Raxmon Olloberganov bilan xamkorlikda yozilgan.

3. "Ma'rifat qurbonlari" (Egam Raxim p'esasi, 1960 y.) musiqasi Raxmon Olloberganov bilan xamkorlikda yozilgan,

4. "Ishq bilan o'ynashma" (A.Xayrullaev va K.Axmadiylar p'esasi, 1960 y.)

5 . "Kim aybdor" (I.Axmedov va U.Ismoilovlar p'esasi, 1960 y.)

6. "Sensiz yasholmayman" (Raxim Bekniyoz p'esasi, 1961 y.)

7. "Tog' qizi" (Doqiston dramaturgi R. G'amzatov p'esasi,1963 y.)

8. "Tosh teshar" (Alp Jamol, 1964 y.)

9. "Ikki o't o'rtasida" (Raxim Bekniyoz p'esasi, 1964 y.)

10. “Maxtumdqli” (Qurbonboy Matrizaev p’esasi, 1966 y.)
11. “Mavlono Ogaxiy” (Yunus Yusupov p’esasi, 1968 y.)
12. “Mexribonlar” (A.Jamol p’esasi, 1970 y.)
13. “Tuzoq” (A.Jamol p’esasi, 1972 y.)
14. “Qizlar isyoni” (Yunus Yusupov p’esasi, 1973 y.)
15. “So’nggi pushaymon” (A.Jamol p’esasi, 1974 y.)
16. “Toshlar tilga kirganda” (P.Telegenov p’esasi, tarjimon N. Komilov, 1976-y)
17. “Munozara davom etadi” (K.Mirzoev p’esasi, 1981 y.)
18. “Javoxir” (Erkin Samandarov p’esasi, 1984 y.)
19. “ Baxor” (Ozarbayjon dramaturgi M. Tamsaxib p’esasi, 1961y.)
20. “Bo’ronli yillar” (O’lmas Umarbekov p’esasi, 1963 y.)
21. “Shoxning boshi bormidi, yo “ (A.Muxtor p’esasi, 1985y
22. “Toj va qon”. (Yu. Yusupov p’esasi,)

Sahna asarlari: (musiqali komediya)

23. “Fotima kampirning lotareyasi” (O.Matchon p’esasi, 1977 y.)
24. “Xo’ja Nasriddin” (Azimzoda p’esasi, 1965 y.)
25. “Orzu” (X.Rasul p’esasi, 1984 y.)
26. “Ali masxaraboz” (A.Bobojonov p’esasi, 1972 y.);
27. “Isqirt satang”

Qo’shiqlar ro’yxati.

1. “Mexnat zavqi” (M. Abduraximov so’zi),
2. “Roxati bir jonga yetishdim” (M.Raxmonov so’zi)
3. “Gaz keldi, gaz” (E.Eshmonov so’zi),

4. “Salom mardu mardonlarimga” (A.Po’lat so’zlari)
5. “Cho’pon yigit qo’shiqi” (A.Po’lat so’zlari)
6. “Mash’al eli” (R.Bekniyoz so’zi)
7. “Kuylaydi tabiat” (X.Sharipov so’zi)
8. “Keldi yorim qoshimga” (X.Saidov so’zi)
9. “Kezarman” (Axmadiy so’zi)
10. “Intizormikin” (R.Bekniyoz so’zlari)
11. “Ayirma mani” (R.Bekniyoz so’zlari)
12. “Jonginam shartingni ayt” (R.Bekniyoz so’zlari)
13. “Oshiq nolasi” (Dilafkor so’zi)
14. “Kel, kel jonim” (Shuxrat so’zi)
15. “Biri binafsha, biri Ravshan” (Bobur so’zi)
16. “Sho’x oshpaz” (Porloq so’zi),
17. “ Pochtachiman, pochtachi” (K. Axmadiy so’zi)
18. “Uzuk taqсам bilagingga”
19. “Boboyjonim”
20. “Aravakash” (R.Bekniyoz so’zi)
21. “O’zi bilsa, bilsin” (R.Bekniyoz so’zi)
22. “Xar kishining bo’lsa ikki xotini” (Maxtumquli so’zi)
23. “ Kaminangiz komendant” (E.Raxim so’zi)
24. “Suratchiman, suratchi” (Xurshid so’zi)
25. “Loyiq”
26. “Ado qilasiz”

27 “Ko’p sog’intirma”

28 “Muchuk”

29 “Mexnat bilan”

30 “Nevarajon- nevaram”

Xor va orkestr uchun yozilgan ko’p qismli musiqiy asarlar.

1 “Shodiyona” (Xurshid so’zi, 1968 y.) vokal-xoreografik syuita

2. “Uluq kun” (Xushnud va O.Matchon so’zlari, 1967 y.)

xor va orkestr uchun Ofarin(O.Matchon so’zi, 1967 y.)

3. “ Oq oltin “(O.Matchon so’zi, 1967 y.)

4. “Xorazm” (E.Raxmon so’zi, 1968 y.) vokal xoreografik syuita.

yakkaxon, xor va orkestr uchun poema

5. “Maxallada to’y” (Xurshid so’zi, 1971 y.)

6. “Sumalak oqshomi” (Xurshid so’zi, 1971 y.) vokal-xoreografik syuita

7. “Zamon an’anasi—nikox tantanasi” (Xurshid so’zi, 1973 y.)

vokal xoreografik syuita

8. “Oltin qo’llar” (Mirtemir so’zi, 1973 y.)

9. “Xorazm Yor-yor” ini a kapella xori uchun qayta ishlagan;

RAXMON OLLABERGANOV hayoti va ijodi.

(1910-1988)



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi bastakor Raxmon Ollaberganov 1910-yilda Xiva shahrida san'atkorlar oilasida tug'ilgan. 1923-yili maktab internatning skripka sinfiga o'qishga kiradi. 1928-yilda Samarqandda yangi ochilgan musiqa va xoreografiya institutiga yo'llanma bilan o'qishga kiradi. Bu dargohda u o'z teng-qurlari, O'zbekistonning bo'lajak zabardast kompozitorlari Muxtor Ashrafiy, Mutavakkil Burxonov, Mardon Nasimov, Tolibjon Sodiqov, Manas Leviev, Sharif Ramazonovlar bilan birgalikda institutni tamomlab, Xorazm viloyat teatrida musiqa rahbari vazifasida ishlaydi. 1940-yilda viloyatda birinchi bolalar musiqa maktabini ochadi. 1944-yilda "Jaloladdin" spektakli bilan ko'rik tanlovda g'olib bo'ladi va O'zbekiston kompozitorlari uyushmasiga a'zolikka qabul qilinadi.

Raxmon Ollaberganov voxamizda birinchilardan bo'lib kompozitorlar uyushmasigaa'zo bo'lgan. O'z ijodida bolalar uchun ko'plab asarlar yaratgan. Uning Respublika radiosining oltin fondida- "Bir kelib keting qishlog'imizga", O'zbekiston diyorim", "Atlas kiying bahorda", "O'zbekiston" kabi o'nlagan qo'shiqlari joy olgan. Raxmon Ollaberganov "Ma'rifat qurbonlari", "Alangali yillar", "Adolat", sahna asarlariga musiqa bastalagan. Abdusharif Otajonov bilan hamkorlikda "Oshiq G'arib va Shohsanam" musiqali sahna asariga musiqa bastalaganlar. U o'zining ijodiy faoliyatida 100 dan ortiq turli janrlardagi qo'shiq, bolalar uchun p'esalar va bir qancha sahna asarlariga musiqa yozgan. 1962-yil Urganch shahrida Matyusuf Xarratov nomidagi musiqa bilim yurtini tashkil qilgan va bir qancha yillar o'zi rahbar bo'lib ishlaydi. Raxmon Ollaberganov ishdan ajralmagan xolda, Toshkent davlat konservatoriyasini sirtqi bo'limini muvaffaqiyatli o'qib tamomlaydi. Uning xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib deb topilib, 1967-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi yuksak unvon bilan taqdirlanadi. Raxmon Ollaberganov juda ko'plagan sozanda va bastakorlarning ustozidir.

ULUG‘BEK MUSAEV hayoti va ijodi. (1948-2000)



Ulug‘bek Razzoqovich Musaev 1948- yil 12- sentyabrda Xorazm viloyatining Urganch shahrida tavallud topdi. Yoshligidan musiqaga mehr qo‘ygan Ulug‘bek 1962- yilda Matyusuf Xarratov nomidagi Urganch musiqa bilim yurtiga o‘qishga kiradi.

1964 yili O‘zbekiston davlat konservatoriyasining tayyorlov kursiga o‘qishga kirib, kompozitsiya ixtisosligi bo‘yicha professor Boris Gienko sinfida tahsil oldi. O‘zining iste’dodi va bilimi bilan konservatoriya o‘qituvchilari va talabalari orasida hurmat qozondi. Bu davr mobaynida Ulug‘bek Musaev qo‘shiqlar, romanslar, turli cholg‘u asboblari va fortepiano uchun pesalar, Lutfiy so‘zlariga «G‘azallar» vokal-simfonik turkumi, simfoniya-poema va boshqa ko‘pgina asarlar yaratdi. U. Musaev yaratgan bir qator asarlar respublika va xalqaro tanlovlarda sovrinli o‘rinlarni egallagan. Xususan, 1968-yilda yaratilgan «Navoiy xotirasiga» fortepiano triosi yosh kompozitorlarning Respublika tanlovida birinchi o‘rinni, skripka va fortepiano uchun yozilgan 3 qismli sonatinasi esa 1969-yilda Moskvada o‘tkazilgan tanlovda sovrinli o‘rinni egalladi. 1972 yilda U. Musaev konservatoriyani Egam Rahim librettosi asosida yozilgan «Mangulik» operasining muqaddimasi bilan muvaffaqiyatli tamomladi. Keyinchalik bu opera to‘liq ko‘rinishda Navoiy nomidagi opera va balet teatrida sahnalashtirildi. Operaning alohida lavhalari O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi plenumida ham muvaffaqiyat bilan ijro etilib, Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. YOsh kompozitor mustaqil ijodkorlik ishini muallimlik faoliyati bilan bog‘lab bordi. Dastlab Urganch musiqa bilim yurtida, 1975 yildan esa Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida o‘qituvchilik qildi. 1982-1991 yillarda U Musaev O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi kotibi, 1992-1995 yillarda esa rais vazifasida faoliyat yuritdi.

Kompozitor turli janrlarda barakali asarlar yaratdi. Birin ketin yaratilgan «Bayramona» simfonik poemasi, fortepiano va orkestr uchun «Poema», turli cholg‘ular

tarkibi uchun kamer asarlar, romanslar, qo‘shiqlar, «Xalqqa qasida», «G‘alabaga qasida», «SHon-sharaf» qasidaları kompozitorning ijodiy etuklik davrini tashkil etadi. Ulug‘bek Musaev ayniqsa musiqali teatr sohasida kagta muvaffaqiyatlarga erishdi. «Mangulik», «Robiya» operalari, SHarof Rashidovning «Kashmir qo‘shig‘i» dostoni asosida «Hind dostoni», «To‘maris», Navoiy «Xamsa»si asosida «Poetik miniatyuralar», «Elektra» baletlari kompozitorning yirik sahna asarlari qatoriga kiradi. Ayniqsa, uning baletlari xalqaro miqyosda shuhrat qozongan. Kompozitorning «Afsonalar vodiysi» baleti 1978-yilda opera va balet teatrida sahnalashtirildi, keyinchalik esa Moskva Katta teatrida «Hind dostoni» nomi bilan YU.Grigorovich rahbarligida baletmeysterlar R.Papko va YU.Skot tomonidan qayta qo‘yilib, tomoshabinlar va san‘at ahli tomonidan yuqori baholandi. O.Uzoqov librettosi asosida yaratilgan «To‘maris» baleti esa birinchi marotaba 1981- yilda Qirg‘izistonda Katta opera va balet teatrida bosh baletmeyster Uran Sarbagishev tomonidan sahnalashtirildi. 1984 yilda esa baletmeyster I.YUsupov tomonidan Toshkentda qo‘yildi. Kompozitor yaratgan har bir sahnaviy asar respublikaning musiqiy hayotida katta quvonchli voqeaga aylanardi.Bunga nafaqat yuqorida tilga olingan baletlar, balki «Poetik miniatyuralar» baleti ham yorqin misol bo‘la oladi. Bu balet ham «To‘maris», «Hind dostoni»singari Navoiy nomidagi opera va balet teatri balet truppasi tomonidan Germaniya, Malayziya, Avstraliya, Rossiya, Qozog‘iston kabi ko‘pgina mamlakatlarda namoyish etildi. Ulug‘bek Musaev hozirgi zamon o‘zbek professional musiqa san‘atiga ulkan hissa qo‘shgan ijodkorlardandir. U «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi» faxriy unvoni va Respublika Davlat mukofotiga musharraf bo‘ldi. 2000-yil Urganch shahrida vafot etadi.

O‘ttizinchi-qirqinchi yillar bastakorlik san’ati namoyandalari:

Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, G‘anijon Toshmatovlar hayoti va ijodi

Komiljon Jabborov - Ustoz bastakor, mohir sozanda Komiljon Jabborov 1914- yilda Andijon shahrida tug‘ildi. U yoshligidan musiqaga havas qo‘ydi. Keyin namanganlik mashhur san’atkor usta Ro‘zmat Isaboyevga shogird tushdi. Undan chang sozini o‘rgana boshladi. G‘ijjak chalishni andijonlik sozanda Sobirjon Siddiqovdan, dutor chalishni Muhiddin Qoridan o‘rgandi. 16 yoshidan To‘xtasin Jalilov rahbarligidagi «Milliy musiqa to‘garagi» da sozanda bo‘lib ishlay boshlaydi.

1931-1942-yillarda Andijondagi Oxunboboyev nomidagi musiqali drama teatrida sozanda bo‘lib ishlaydi. Bu yerda u “Layli va Majnun”, “Gulsara” spektakllariga kuy bastalaydi. Bastakorlik ijodi ham aynan shu yillardan boshlanadi.

1932-yilda Sobir Abdullaning «Chayqalur» she’ri asosida ashula yozib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘ladi. Ikkinchi Jahon urushi yillarida u Yangiyo‘lda tashkil etilgan musiqali drama teatriga ishga taklif qilinadi.

Komiljon Jabborov 1947-yildan umrining oxirigacha O‘zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg‘ulari orkestrida yetakchi g‘ijjakchi bo‘lib ishlaydi. G‘ijjak ijrochiligining yuqori darajali malaka va mahoratini egallagan san’atkor asarning badiiy mezonini ifoda etishga asosiy e’tiborni qaratadi. Uning ijrochilik amaliyoti bastakorlik tafakkuriga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Komiljon Jabborov ijodida turfa janrlar o‘laroq qo‘shiqchilikka bosh o‘rin beriladi. Aynan shu nuqtada bastakorning ijodiy intilishlari hamda shunga bo‘ysungan badiiy vosita ifodalari o‘z aksini topadi. Komiljon Jabborov qo‘shiqlari mazmunan serqirra, jumladan, ona diyor, Vatan, qahramonlik, mehnat va turli kasb egalari haqidagi mavzular tarannum etiladi. Bastakorning o‘zbek qo‘shiqchiligi «oltin xazinasi»dan o‘rin olgan ijod namunalari qatorida lirik mavzuli ashulalar muhim o‘rin tutadi. “Bu ko‘ngil”, “Etmasmidim”, “Nazzora qil”, “Senga”, “Tokay” shular jumlasidandir. Komiljon Jabborov qo‘shiq she’rlarini tanlashga alohida e’tibor bilan yondashadi. Bunda she’r matnida ikki holat bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etgan – mazmun teranligi va so‘z ifodaviyligi, uning musiqaga tabiiy payvasta bo‘lishi. Ushbu sifatlarni izlash jarayonida o‘tmish va hozirgi

zamon she'riyatiga murojaat etadi. Shu asnoda A.Navoiy ("Senga", "Nazzora qil", "Ey pari", "Mubtalo bo'ldim senga"), Muqimiy ("Assalom"), Furqat ("Aylanay"), Uvaysiy ("Tokay"), E.Oxunova ("Kel"), S.Abdulla («Toza Lutf»), P.Mo'min ("Shifokorlar"), T.To'la ("Birma-bir", "Ko'rgim kelur"), S.Zunnunova ("Yor keladi") kabi mumtoz va zamondosh shoirlar nazmiga asoslangan ashula-qo'shiqlar ijod etiladi. Bu qo'shiqlarda, odatda, an'anaviy qo'shiqchilik janrining xususiyatlari saqlangan holda, ularning kuy yo'nalishini yangi jihatlar bilan boyitadi. Bunda shunday mazmunli ifoda vositalari qo'llaniladiki, ular bir tomondan qo'shiqning an'anaviy janr mezonini bilan tabiiy uyg'unlashadi.

Komiljon Jabborov musiqa san'atimizning taraqqiyotiga qo'shgan xizmatlari uchun "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan.

Faxriddin Sodiqov - XX asr o'zbek bastakorlik san'atining yirik namoyandalaridan biri, xassos sozanda, ustoz bastakor Faxriddin Sodiqov 1914-yil 13-iyunda Toshkentda Shayxontahur dahasi, Qoryog'di mahallasida dunyoga keldi. Uni yoshligidan musiqa tarbiyaladi. Qalbida musiqaga kuchli havas uyg'ongan yosh Faxriddin taniqli sozanda No'mon qori Mo'minzoda rahbarlik qilgan maktab qoshidagi musiqa to'garagiga qatnashib, chang, dutor chalishni o'zlashtiradi. Keyinchalik, u Toshkent musiqa texnikumiga o'qishga kirib, san'at ustalari Shorahim Shoumarov va Abdusaid Vahobovlardan saboq oladi. O'qishni bitirgach, dastlab, o'zbek musiqa teatrida, O'zbek davlat filarmoniyasi tashkil etilishi bilan xalq cholg'ulari orkestrida ishlay boshlaydi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida u filarmoniya qoshida tuzilgan Gavhar Rahimova boshchiligidagi front-konsert brigadasida changchilar musiqa rahbari sifatida xizmat qiladi. Bir qator jangovar musiqiy asarlar yaratadi. Jumladan, "Yorga maktub", "Zebixon" qo'shiqlari keng tarqalib, mashhur bo'lib ketadi.

Faxriddin Sodiqovning sozandalik san'atini alohida ta'kidlamoq kerak. U chang, dutor cholg'ularini mahorat bilan ijro etadi. Ayniqsa, chang sozining ijrosi tahsinga sazovor edi. Chang ijrochiligini mahoratli egallagan san'atkor asarning badiiy mazmunini ifoda etishga va bunda tovushlarning tabiiy tarovat kasb etishiga asosiy e'tiborni qaratadi.

Faxriddin Sodiqov 1961-yildan Respublika radiosi huzurida Yunus Rajabiy tashkil etgan maqomchilar ansamblida changchi musiqa rahbari lavozimida ijodiy faoliyat ko'rsatadi.

Ansamblning sozandalari – Turg'un Alimatov (tanbur va satoda), Dadaxo'ja Sottixo'jayev (doyrada), Orif Qosimov (dutor), G'aybullo Sa'dullayev (qo'shnayda), Is'hoq Qodirov (nayda), Ilhom To'rayev (g'ijjakda), Yoqubjon Davidov (tanburda), Zokirjon Sodiqov (g'ijjakda), Faxriddin Sodiqov bilan yonma-yon turib, juda katta mashaqqatli mehnat qilishadi. Ular qisqa muddat ichida maqomning nasr, mushkilot qismlarini puxta o'zlashtirib, radioning «oltin fond» iga yozdirishadi.

Uning bastakorlik ijodi 1940-yildan boshlanadi. U o'zining 50 yillik ijodiy faoliyati davomida 300 dan ortiq kuy, ashulalar, radio va spektakllar uchun musiqa, o'zbek xalq cholg'u ansambli uchun asarlar yaratdi. Bastakorning O'zbekiston radiosida "Chaqiriq" kuyi, "O'zbekcha vals", "Bir go'zal" (Mirtemir she'ri), "Ko'rsatmag'ay" ("Ishq") (Bobur g'azali), "Oq oltin karvon-karvon" (Z.Obidov she'ri), «Barno yigit» (S.Zunnunova she'ri), «So'lim bahor» (A.Isroilov she'ri), "Menga navbat" (T.To'la she'ri), "Yorim to'qir xon atlas" (A.Bobojon she'ri) va boshqa asarlari musiqiy xazinamizdan mustahkam o'rin oladi. Faxriddin Sodiqov o'zbek klassik shoiri Boburning g'azaliga bastalagan ashulasini "Ishq" deb nomlaydi. Ashula 1960-yilda yaratilgan. Keyin ashula "Ko'rsatmag'ay" deb ijro qilina boshladi. Ashulaning birinchi ijrochisi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Karim Mo'minovdir.

1972-yildan umrining oxirigacha Faxriddin Sodiqov Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining yangi ochilgan sharq musiqasi kafedrasida ustozlik qiladi. U chang, dator, maqom ansambli ixtisosliklari bo'yicha shogirdlar tayyorlaydi. Faxriddin Sodiqovdan tahsil ko'rgan, san'atda yangi-yangi kamolot pog'onalariga ko'tarilgan talantli sozanda, xonanda va bastakorlar O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, bastakor Abduhoshim Ismoilov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, bastakor Tuyg'un Otaboyev, Toshkent davlat konservatoriyasining "An'anaviy ijrochilik" kafedrasi mudiri, professor Rifatilla Qosimov, sozanda, taniqli dutorchi Abdurahim Hamidov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Hadya Yusupova va boshqalar Faxriddin Sodiqovni o'zlariga ustoz, deb biladilar.

Demak, Faxriddin Sodiqov bunyod etgan o'lmas navolar mumtoz musiqiy shohsupadan o'ziga munosib o'rin egallab, el ardog'iga sazovor bo'lmoqda.

Shu boisdan Faxriddin Sodiqov ijodiy faoliyatini kelgusida mufassal o'rganib, yoritish ishi e'tiborli hamda xayrli vazifalardan biridir.

Gʻanijon Toshmatov 1913-yili Andijon viloyatining Asaka tumanida, dehqon oilasida dunyoga keldi. Uning otasi musiqaga ixlosmand, akalari sanʼatga oshno kishilar edi. Ular Gʻanijondagi isteʼdod kurtaklarini payqab, uni toʻgʻri yoʻlga solishgan. Gʻanijon Toshmatov ilk bor musiqa sirlarini Sobirjon Siddiqov, Karim sher akalardan oʻrganadi. Xalq musiqa merosiga kuchli ishtiyoq ham oʻshanda paydo boʻldi.

Keyinchalik, Gʻanijon Toshmatov ustoz Toʻxtasin Jalilov bilan tanishadi. Gʻanijonni Andijon teatriga olib kelib, ustozlik qildi.

Uning bobosi ham sanʼatkor oʻtgan. Oʻz davrining dovrugʻli mashshogʻi va xonandasi boʻlgan. Ijrochilikni dastlab akasidan oʻrgangan. Voyaga yetgach, Asakada boʻladigan yigʻinlarda, kolxozchilar uchun uyushtiriladigan konsertlarda qatnashib, shinavandalar nazariga tushadi.

Ijodkorlik faoliyatini Fargʻonada, keyin Toshkentda davom ettiradi. Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida Joʻraxon Sultonov, Maʼmurjon Uzoqov, Oxunjon qiziq Shakarjonov kabi sanʼatkorlar bilan birga ishlash yosh sozanda uchun katta maktab boʻladi.

U oʻz sanʼati bilan shimoliy Fargʻonada, janubiy Fargʻonada, Toshkent kanallari, Kosonsoy, Kattaqoʻrgʻon suv omborlarida xizmat qiladi. Gʻanijon Toshmatovning tahsinga sazovor xizmatlaridan biri shuki, u merosimizdagi koʻpgina durdona asarlarni yillar changidan qoqib, sayqallab xalqqa qaytardi. Dutorchi qizlar ansambli tomonidan ijro etilayotgan oʻlan va laparlar fikrimizning yorqin dalilidir.

Gʻanijon Toshmatov Ikkinchi jahon urushi yillari Muqimiy nomidagi Oʻzbek davlat musiqali drama va komediya teatrida ishlardi. Bastakor darhol ansambl tuzib, Toshkent, Boʻka tumanlarida, Farhod GESi quruvchilari huzuriga otlandi. Ansambl sanʼatkorlari kuy va qoʻshiqlar, raqslar bilan mehnatkashlarni mamnun etishdi.

Respublika radiosi qoshida tuzilgan Yunus Rajabiy rahbarligidagi oʻzbek xalq cholgʻu asboblari ansambliga ishga kelishi bilan Gʻanijon Toshmatov ijodi yanada barq urdi, qator-qator musiqalar yaratdi. Boris Zeydman bilan hamkorlikda Turob Toʻlaning «Qari qiz» musiqali dramasiga musiqa yaratdi. Keyinchalik, bastakor yirik ishga yoʻl uradi – Navoiyning dostoni asosida Xurshid yaratgan «Layli va Majnun» musiqali dramasiga ajoyib musiqa bastalaydi.

Gʻanijon Toshmatovning ilk bastakorlik namunalari 30-yillarda paydo boʻldi. Fargʻona kanali qurilishi davrida “Vatan”, “Karvon keldi”, Ikkinchi jahon urushi yillarida “Botir askar”, “Yor kelur”, “Istadim” keyingi davrlarda esa “Choʻpon qoʻshigʻi”, “Mirzachoʻl sahrosiga”, “Yor-yor”, “Ikki ohu”, “Na goʻzalsan”, “Paxtazorda koʻrdim”, “Kezarman” kabi turli mavzudagi qoʻshiqlarni yaratdi. Bu roʻyxatni ancha davom ettirish mumkin, lekin eng muhimi shundaki, tilga olingan qoʻshiqlarning koʻpchiligi vaqt sinovidan oʻtib, oʻzbek qoʻshiqchilik sanʼatining umrboqiy namunalari qatoridan oʻrin oldi. Bastakor uchun bundan ziyod baxt boʻlmasa kerak. Ustoz sanʼatkorning “Kel yorim”, “Paxtazorda koʻrdim”, “Kezarman” kabi qoʻshiqlarini ajoyib sanʼatkorlar Oʻzbekiston xalq artisti - Nazira Ahmedova, Berta Davidova, Oʻzbekiston xalq hofizlari - Akbar Haydarov, Boboxon va Akmalxon Soʻfixonovlar, Joʻraxon Sultonov kabi taniqli sanʼatkorlar ijro etib, xalqimiz olqishiga sazovor boʻldi.

Gʻanijon Toshmatov- mohir gʻijjakchi. Uning ijrosidagi “Navo”, “Tanovor”, “Ushshoq” va boshqa kuylarni tinglar ekanmiz, insoniy kechinmalarni musiqada bu qadar nafis, teran, rang-barang ifodalay olish mumkinligiga hayratlanamiz. Buning uchun sozanda tugʻma isteʼdod sohibi boʻlmogʻi kerak. Gʻanijon Toshmatovda esa bu xislatlar mujassam edi. U xalq kuylarining bilimdoni. Shu bois xoh lirik qoʻshiqqa, xoh shoʻx laparga kuy bastalamasin, mehnati hamisha elga manzur boʻldi, chunki asarlarida xalq tabiatiga muvofiqlik bor edi. Ansambl repertuaridan Gʻanijon Toshmatov oʻzi ijod qilgan kuy va qoʻshiqlar oʻrin olgan.

Zamonamizda yoshlarni hur va farovon hayotlarini madh etuvchi Bobuqul Mansurov sheʼri bilan “Zardoʻz Buxoro qizlari”, Tabibiy sheʼri bilan “Gʻunchalaringdan”, Oxunjon Hakimov sheʼriga “Durdonaman”, Jumaniyoz Jabborov sheʼri bilan “Dutorchi qiz qoʻshigʻi” kabi qoʻshiqlari sevilib kuylanib kelmoqda. Gʻanijon Toshmatov oʻz ijodini xalq sanʼatini rivojlantirishga, sanʼatkorlarni tarbiyalashga bagʻishladi. Uning bu xizmatlari munosib taqdirlangan. Gʻanijon Toshmatovga 1972-yilda “Oʻzbekiston xalq artisti” unvoni berildi.

10-11- Laboratoriya mashg'ulotlari.

Mavzu: “Koshki” – Y.Rajabiy musiqasi, Navoiy g'azali.

Maqsad: Asar mualliflari haqida ma'lumot berish. Asarning daromad - furovard qismlari badiiy bezaklari ustida ishlash. Asarning kuylash malakalarini shakllantirish. Nola va bezaklar va badiiy va ijrochilik tomonlarini puxta o'zlashtirish.

R E J A :

1.Asarning matni ma'nosi va aruz vaznidagi g'azal ohangi ijrosi ustida ishlash.

2.Asarning badiiy musiqiy ijrosi ustida ishlash. Avj qismidagi murakkab nolali joylarni kuylab ko'rsatib berish.

3.Avj qismi ijrosini alohida har bir ijrochi bilan ishlab kuylatishga erishish.

Tayanch tushunchalar: ashula g'azalidagi murakkab ma'noli so'zlar.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: Talabalar bilan an'anaviy uslubda ovoz sozlash mashqlarini kuylatish, o'tilgan asarlardan takroriy ijrolarni bajarish.

II. Berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, o'rganilgan material yuzasidan talabalardan so'rash. Asarlarni takrorlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish: kirish, asarni namunaviy ijroda kuylab ko'rsatib berish. “Koshki” – Y.Rajabiy musiqasi, Navoiy g'azali. Asar mualliflari haqida ma'lumot berish. Nola va bezaklar va badiiy va ijrochilik tomonlarini puxta o'zlashtirish. Asarning DVD, SD variantlardagi ijrolaridan foydalanish. Nola va bezaklar ustida ishlash. Nafas olish, diksiya, talaffuz ustida ishlash.

IV. O'rganilgan materialni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ashula o'rgatish jarayonida talabalar oldiga qanday maqsad va vazifalar qo'yilgan?
2. Ashula o'rgatish jarayoni qanday faoliyatlardan iborat?
3. Ashula aytishda nola va bezaklarning ahamiyati qanday?

V. Yakuniy qism:

a) Mashg'ulot davomida talabalar olib borgan faoliyatni tahlil qilish va baholash.

b) Uyga topshiriqlar, vazifalar berish:

Mashg'ulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. Asar mualliflari haqida ma'lumotlar berish.
2. Ashula o'rgatish jarayonini izohlaydi.
3. Ashulani badiiy ijro etish uslublariga ta'rif beradi.
4. Ashula aytishda mashqlarning ahamiyati haqida aytib beradi.

10-11- mavzularni mustahkamlash uchun savollar;

1. Xorazm bastakorlik maktabi namoyandalari: Matyusuf Xarratov, Komiljon Otaniyozov hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni aytib bering.
2. O'ttizinchi-qirquinchi yillar bastakorlik san'ati namoyandalari: Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatovlar haqida ma'lumot bering.
3. Lutfiy hayoti va ijodi haqida ma'lumot bering.
4. Asarning musiqa muallifi haqida gapirib bering.
5. "Koshki" ashulasining matnini yoddan aytib bering.
6. Asarni kuylab bering.

Koshki

Yu. Rajabiy musiqasi
A.Navoiy g'azali

M.M. ♩ = 66

Och-ma-gay er-ding ja-mo - ling o-lam o -
ro kosh - ki Sol-ma-g'ay er-ding ba-ri o - lam-ga g'ov -
g'o kosh - ki Chun ja-mo - ling jil-va-si o - lam-g'a sol -
di rus - ta-xez, Qil-ma-g'ay er-di ko'-zum o - ni ta-mo -
sho kosh - ki Vas - li-chun mum - kin yo'q o'l -
- tur - g'ay bu sav - do kosh - ki Vas - li chun

12-13- mashgʻulot.

50-60-yillar bastakorlik sanʼati namoyandalari:

**Fattohxon Mamadaliyev, Neʼmatjon Qulabdullayev, Gʻulom Qoʻchqorov hayoti
va ijodi.**

70-80-yillar bastakorlik sanʼati namoyandalari:

**Oʻlmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, Rahmatjon Tursunov
hayoti va ijodi.**

“Yor mehri” Y.Rajabiy musiqasi, A.Navoiy gʻazali.

Maqsad:

1. 50-60-yillar bastakorlik sanʼati namoyandalari: Fattohxon Mamadaliyev, Neʼmatjon Qulabdullayev, Gʻulom Qoʻchqorov, xayoti va ijodi.

70-80-yillar bastakorlik sanʼati namoyandalari: Oʻlmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, Rahmatjon Tursunov xayoti va ijodi haqida nazariy maʼlumotlar berish.

2. “Yor mehri” Y.Rajabiy musiqasi, A.Navoiy gʻazali. asarining daromad - furovard qismlari ijrosi ustida ishlash. Kuylash malakalarini shakllantirish hamda badiiy bezaklari ustida ishlash.

Tayanch tushunchalar.

50-60-yillar bastakorlik sanʼati namoyandalari:

**Fattohxon Mamadaliyev, Neʼmatjon Qulabdullayev, Gʻulom Qoʻchqorov, xayoti
va ijodi.**

**70-80-yillar bastakorlik sanʼati namoyandalari: Oʻlmas Rasulov, Abduhoshim
Ismoilov, Rahmatjon Tursunovlar hayoti va ijodi.**

R E J A :

1. 50-60-yillar bastakorlik sanʼati namoyandalari: Fattohxon Mamadaliyev, Neʼmatjon Qulabdullayev, Gʻulom Qoʻchqorov, 70-80 yillar bastakorlik sanʼati namoyandalari: Oʻlmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, Rahmatjon Tursunov hayoti va ijodi haqidagi nazariy maʼlumotlar boʻyicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash.

2. “Yor mehri” Y.Rajabiy musiqasi, A.Navoiy gʻazali. Asarning daromad - furovard qismlari ijrosi ustida ishlash. Kuylash malakalarini shakllantirish hamda badiiy bezaklari ustida ishlash.

Mashgʻulotdan kutilayotgan natijalar

Mashgʻulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. 50-60-yillar bastakorlik sanʼati namoyandalari: Fattohxon Mamadaliyev, Neʼmatjon Qulabdullayev, Gʻulom Qoʻchqorov, 70-80-yillar bastakorlik sanʼati namoyandalari: Oʻlmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, Rahmatjon Tursunov hayoti va ijodi haqidagi nazariy maʼlumotlar boʻyicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlanadi.

2. “Yor mehri” Y.Rajabiy musiqasi, A.Navoiy gʻazali. Asarning daromad - furovard qismlari ijrosi ustida ishlash. Kuylash malakalarini shakllantirish hamda badiiy bezaklari ustida ishlash.

Nola va bezaklari ustida ishlab amaliy bilimlar mustahkamlanadi.

50-60-yillar bastakorlik sanʼati namoyandalari: Fattohxon Mamadaliyev, Neʼmatjon Qulabdullayev, Gʻulom Qoʻchqorov hayoti va ijodi

Fattohxon Mamadaliyev - taniqli bastakor, tanburnavoz sozanda, mashhur hofiz Fattohxon Mamadaliyev 1923-yilda Andijon viloyati, Baliqchi tumani eski Haqqulobod qishlogʻida tugʻildi. Yoshligidan milliy musiqa sanʼatiga ixlosi kuchliligi tufayli dutor, tanbur chalishni mukammal oʻzlashtirib, xalq kuy-qoʻshiqlarining mohir ijrochilari boʻlmish Umrzoq Polvon Saydali, Abdulla Taroq, Berkinboy Fayziyev, Joʻraxon Sultonov, Yunus Rajabiy singari ulkan ustozlardan saboq oldi, natijada oʻziga xos ijro yoʻli va ijro uslubini egalladi.

Fattohxon Mamadaliyev Andijonda madaniyat uyi qoshida maqomchilar ansamblini tuzib, 20 yil davomida oʻnlab havaskor sozanda va xonandalarni katta sanʼat yoʻliga boshladi.

1984-yildan 1996-yilgacha Muhiddin Qoriyoqubov nomidagi davlat filarmoniyasida ishlaydi.

Fattohxon Mamadaliyev yakka va hamnafaslikda ashula, katta ashula. Maqom namunalari qiyomiga yetkazib ijro etdi. Uning oʻta tiniq shirali ovozi va oʻziga xos ijro

mahorati mumtoz musiqiy merosimizga yangidan hayot baxsh etdi. U bastalagan “Dardi dilim” (Ogahiy g‘azali), “O‘lmag‘ay” (Navoiy g‘azali), “Netar” (Furqat g‘azali), “Xazon bo‘lg‘ay (Bobur g‘azali), “Sog‘indim” (Nodira g‘azali), “Ayondir ayon” (Munis g‘azali), “Kamolingdan” (Azimiy she‘ri) kabi o‘nlab ashulalar muxlislar ko‘nglidan joy oldi. El suygan hofiz “Miskin”, “Ushshoq”, “Munojot”, “Nasrulloiy”, “Girya”, “Chapandozi Navo” kabi turkum asarlarni nozik jilolar bilan sayqallashtirdi.

Ijrochilikning o‘ziga xos yo‘nalishini yaratdi. Uning xalqaro maqomchilar festivali bosh mukofotini olgan “Dardi dilim” ashulasi butun Osiyo qalbini zabt etdi.

Ushbu ashulaning eng joiz tomonlaridan biri, uning milliy ashulachilik an‘analariga, mumtoz qo‘shiqlarning nihoyatda jozibali, ta‘sirchanligiga yaqin ekanligidadir. Ashulada so‘zlar bilan ohanglar mushtarakligi, bastakor dunyoqarashi, ichki dunyosidan katta o‘rin olibgina qolmay, balki uning musiqaviy badiiy ijodida ham o‘z aksini topadi.

Ashula kuyining samimiyligi, seravjligi, keng ko‘lamligi, osoyishtalik ruhini bag‘ishlaydigan xususiyati musiqaviy ta‘sir tuyg‘ularini ifodalaydi. Fattohxon Mamadaliyev 1986-yildan umrining oxirigacha Muhtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining «An‘anaviy ijrochilik» kafedrasida ustozlik qildi.

U an‘anaviy qo‘shiqchilik ixtisosi bo‘yicha shogirdlariga saboq berdi. Undan tahsil olgan talantli xonandalardan: Hurriyat Isroilova, Soib Niyozov, Abror Parpiyev, Bahodir Ibrohimov va boshqalarni aytish mumkin.

Fattohxon Mamadaliyev sermazmun umrini o‘zbek musiqa madaniyatini rivojlantirishga bag‘ishladi. U yaratgan ashulalarning asosiy qismi milliy musiqamiz xazinasidan mustahkam o‘rin egalladi. Vaqt o‘tishi bilan u yangi-yangi avlodlarning ma‘naviy ehtiyojini qondiradi, beminnat xizmat qiladi.

Ne‘matjon Qulabdullayev - O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, taniqli bastakor, xonanda va sozanda Ne‘matjon Qulabdullayev o‘zining betakror san‘ati bilan xalq dilidan chuqur joy olgan.

Ne‘matjon Qulabdullayev- 1930-yili Chimkent viloyatining Qo‘shtegirmon qishlog‘ida tug‘ilgan. 1948-yilda Hamza nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtini, 1956-yilda Toshkent davlat konservatoriyasining tayyorlov bo‘limida vokal sinfida dotsent D.Mullaqandov va dutor sinfida dotsent F.Vasilevlardan saboq oldi. N.Qulabdullayev 30 yil davomidv Qori Yoqubov nomidagi o‘zbek davlat filarmoniyasida mehnat qildi. Dutor

sozandaligi va xonandalik san'ati bilan 60 yil davomida N.Qulabdullayev nafaqat respublikamizda, balki Xitoy, Misr, Arab amirliklari, Eron, Turkiya, MDH davlatlarida ijodiy uchrashuvlar va konsertlarda qatnashib, o'zbek mumtoz va zamonaviy musiqa san'atini keng targ'ib qildi.

N.Qulabdullayev ijro etgan "Indamadi", "O'ynasin", "Qo'lda ra'nosi bilan", "Jon bo'libdi, janon bo'libdi", "Roziman", "Ey yurak", "Sog'indim, sog'indingmi", "Ona yurtim O'zbekiston", "Onadur ul onadur", "Kulgay" kabi qo'shiq va ashulalar xonandaga shuxrat keltirdi.

Bastakor N.Qulabdullayev o'tgan davr mobaynida qo'shiqchilik janrida ijodiy izlandi, an'anaviy xalq uslubida, turli mavzularda, klassik va zamondosh shoirlarning she'rlariga 200 ga yaqin rang-barang qo'shiq va ashulalar yaratdi. Bastakor yaratgan kuylar, qo'shiq va ashulalari o'zi va boshqa mashhur xonanda va sozandalar tomonidan konsert dasturlarida ijro etilgan, radio to'lqinlarida muntazam jaranglaydi. Xususan, "Sog'indingmi", "O'zbeklar ishi", "Intizor etma", "Zeboligingdan", "Dilda bormisan", "Kulib, kulib", "Ey, yurak", "Dilorom", "Bilgaysiz", "Kunlarim", "Bo'lmog'il", "Ovvora bo'lma", "Ming yil nazzora qilsam", "Dutorim", "O'zbekistonim", "O'zbekim xazinasini" asarlari bastakor ijrosida, "O'zbekiston gullari", "Hayol", "O'tmasmikan" ashulalari Olmaxon Hayitova ijrosida, "Kulgay", "Topmadim" asarlari D.Qayumova ijrosida, K.Ismoilova ijrosida "Ey sohibi dil", H.Yusupova ijrosida "O'rgilayin yor bo'yidan" asarlari yangragan.

N.Qulabdullayev dutor, nay asboblari va xalq cholg'u ansambllari uchun bir qator kuylar bastalagan. Bastakor yaratgan va ijro etgan asarlari O'zteleradiokompaniyasining "Oltin fondida" saqlanmoqda.

O'zbek musiqa san'atining rivojlanishida va targ'ib etilishida munosib hissa qo'shgan bastakor, sozanda va mehribon ustoz Ne'matjon Qulabdullayev "O'zbekistonda xizmat uo'rsatgan artist" unvoni va "El- yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlangan.

G'ulomjon Qo'chqorov - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, dirijyor, mohir pedagog-murabbiy, bastakor va jamoat arbobi, G'ulomjon Qo'chqorov 1991-yildan buyon O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining a'zosi. U 50 yildan ortiq ijodiy va pedagoglik faoliyatini yosh avlodlarning musiqiy tarbiyasiga bag'ishlab kelmoqda. Uning musiqa maktab o'quvchilari va musiqiy-badiiy havaskorlar jamoalari uchun mo'ljallab yaratgan

nota to'plami va darsliklari uzoq yillardan beri qo'llanma sifatida xizmat qilib kelmoqda. Zamondosh shoirlar bilan hamkorlikda turli mavzularda yaratgan qo'shiqlari jaranglamoqda. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun bastalagan musiqiy asarlari ham orkestr repertuaridan munosib o'rin olgan.

G'.Qo'chqorov Toshkent shahrida hunarmand oilasida 1919-yili 15-iyulda tavallud topdi. G'ulomjon 1928-yili qishloq maktabida 1932-yilga qadar o'qidi. Maktabda o'qib yurgan paytlarida musiqaga qiziqdi va o'sha yili Hamza nomidagi Toshkent davlat musiqa texnikumining tayyorlov bo'limiga o'qishga kirdi. Bu o'quv dargohida u dutor va tanbur sinfida tahsil ko'rdi. Mazkur texnikumda 1936- yildan boshlab talabalarni nota uslubida o'qitish boshlandi. Shu sababli G'ulomjon 1936 1942-yillarda shu o'qish uslubida, g'ijjak sinfida o'qib, texnikumni 1942-yili muvaffaqiyatli bitirdi. U 1937 1942-yillarda Toshkent shahridagi 7-etim bolalar uyida badiiy havaskorlar to'garagiga rahbarlik qildi. 1942 1960-yillarda esa Respublika o'quvchilar saroyidagi musiqa maktabida o'qituvchi va o'zbek xalq cholg'u asboblari ansambliga rahbarlik qildi. 1938-73-yillarda hozirgi To'xtasin Jalilov nomidagi o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrida sozanda, keyinchalik konsertmeyster lavozimida ishladi. U pedagoglik va ijrochilik malakasini oshirish niyatida 1949-yili Toshkent Davlat Konservatoriyasining o'zbek xalq cholg'u asboblari fakultetiga o'qishga kirdi va 1954-yili dirijyor, sozanda va pedagog ixtisosi bo'yicha o'qishni muvaffaqiyatli bitirdi. 1961-87 yillarda Toshkent shahar T.Sodiqov nomidagi 1-son bolalar musiqa maktabida pedagog va bo'lim mudiri bo'lib ishladi va shu maktabdan nafaqaga chiqdi.

Bastakor va pedagog G'.Qo'chqorovning ijodiy faoliyati asosan maktab bolalari bilan bog'liq bo'lgani sababli uning yaratgan qo'shiq va kuylari o'zi yozgan va chop ettirgan to'plam va kitoblariga kiritilgani uchun ularning nomlari o'rniga to'plam va kitoblarining nomlari berilmoqda.

Musiqa maktablari uchun "Shodiyona" nomli o'quv qo'llanmaga 18 ta tarona va etyudlar kiritilgan (G'.G'ulom nomidagi nashriyotida 1982-yil chop etilgan, 1990-yili qayta chop etilgan).

"Gulshan" nomli darslik-to'plam qashqar rubobi uchun fortepiano jo'rligida musiqa maktablarining 2-3- sinf o'quvchilariga mo'ljallangan.

“Dilrabo” nomli to‘plam-darslik qashqar rubobi va fortepiano uchun musiqa maktab va o‘rta bilim o‘quv yurti talabalariga mo‘ljallangan.

“Yosh dutorchi” to‘plam-darslik yosh dutorchilar uchun yaratilgan.

Badiiy havaskorlar to‘garaklari uchun “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” to‘plamiga; “Yor-yor”lar, laparlar, yallalar, qo‘shiqlar kiritilgan. To‘plamga kiritilgan asarlarni bastakor o‘zi notaga olgan va fortepiano jo‘rligida qayta ishlagan.

“Dutor nolasi” nomli to‘plam Respublika madaniy-ma’rifiy ishlar boshqarmasi tomonidan 1992-yili nashr etilgan.

Bastakor G‘.Qo‘chqorov “Do‘stlik taronasi”, “Baxtiyorlar marshi” kabi pesalar, “Dono qiz” (Kamtar so‘zi), “Xumor erur” (R.Usmonov so‘zi) qo‘shiqlari T.Jalilov nomidagi o‘zbek xalq cholg‘u orkestrining repertuaridan joy oldilar. Bolalar uchun qo‘shiqlar “Jo‘r bo‘laylik, o‘rtoqjon” nomli turkum (P.Mo‘min so‘zi). Bolalar uchun dutor va rubob kuylari; “Sevinch”, “Dilrabo”, “Yor xumori” kabi pesalar.

G‘ulomjon Qo‘chqorov 1971-yili “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvoni bilan, “O‘zbekiston xalq maorifi a’lochisi” unvoni bilan taqdirlangan.

70-80 yillar bastakorlik san’ati namoyandalari:

O‘lmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, Rahmatjon Tursunovlar hayoti va ijodi

O‘lmas Rasulov 1951-yilda Surxondaryo viloyati Denov tumanida tavallud topdi. U maqom ustozlarining yangi avlod vakili, hozirgi kunda Shashmaqomning bilimdoni targ‘ibotchidir. Besh yoshligida to‘satdan ko‘zi ko‘rmay qolgan. 1958- yilda Buxoro shahridagi ko‘zi ojizlar internatida tahsil olgan, keyinchalik, u Buxoro musiqa bilim yurtini, 1971-yil Toshkent davlat konservatoriyasi “Sharq musiqasi” bo‘limiga o‘qishga kirib, 1977-yili g‘ijjak ixtisoligi bo‘yicha tamomladi. Uning xotirasi juda o‘tkir va tug‘madir. U bir eshitgan kuy va ashulani oylab to‘la-to‘kis esida saqlashga qodirdir.

Ma’lumki, nota vositasidan tashqarida rivojlanuvchi an’anaviy o‘zbek xalq musiqasi ham mohiyatan (nisbatan) aynan shu xotira quvvatiga tayanadi. Shunga ko‘ra xonanda va sozandaning musiqiy xotirasi qanchalik kuchli bo‘lsa, mumtoz kuy, ashula va maqom

bisotidan shu qadar keng xabardor bo‘ladi. O‘lmas Rasulov o‘zining musiqiy merosimizga tashnaligi tufayli maqom ilmining amaliy va nazariy asoslaridan keng xabardordir. Darhaqiqat, u mumtoz kuy, ashula va maqom asarlarining cholg‘uchisi hamda xonandasi sifatida nafaqat mohir ijrochi, balki eng nozik qirralarigacha idrok etuvchi bilimdon sozandadir.

O‘lmas Rasulov tabiatan yangilikka tashna, izlanuvchan, ijodkor hamda dadil san’atkor. U kutilmagan yangilikni ham sinab ko‘rishdan qaytmaydi. Shu bilan birga, an’anaviy g‘ijjak asbobini ijro imkoniyatlarini kengaytirish yangi uslublar, xususan, cholg‘u texnikasining ochilmagan qirralarini keng joriy etishda ham katta jonbozlik ko‘rsatdi.⁴⁰

G‘ijjak sozida mumtoz kuylar ijrosini targ‘ib qilish bilan bir qatorda bu asbobning imkoniyatlarini namoyish etuvchi yangi zabardast (virtuoz) asarlar ijod etib, dasturini kengaytirdi.

U ko‘lami uncha keng bo‘lmasa ham o‘ziga xos xasta va yoqimli ovozga ega. Xonanda sifatida keng dasturi bor. Mumtoz ashulalar, maqom yo‘llarida aytiladigan yuzlab she‘rlarni yoddan biladi. U sozanda, xonanda, bastakor va musiqashunoslik ilmlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi mukammal san’atkordir.

O‘lmas Rasulov Buxoro san’at bilim yurtida ham, O‘zbekiston davlat konservatoriyasida maqom asoslaridan saboq bermoqda. U an’anaviy musiqaning dolzarb masalalariga oid ilmiy hamda ilmiy-uslubiy maqolalar muallifi. U ustoz sifatida maqom ijrochiligining asl an’analarini tiklashda jonbozlik ko‘rsatib kelmoqda. Buxoro shashmaqomining eski uslubini tiklashda O‘lmas Rasulov katta ijodiy ishlar olib bormoqda.

Uning bastakorlik ijodi 1980-yildan boshlandi. U o‘zining 30 yillik ijodiy faoliyati davomida 200 dan ortiq kuy, ashulalar, radio va videofilmlar uchun musiqa o‘zbek xalq cholg‘u ansambl uchun asarlar yaratdi.

Bastakorning “Bobur” videofilmiga yaratgan ashulalari, “Shir-u-shakar”, Mukarrama G‘afarova “Alla”, “Nazzora qilmas” Navoiy g‘azali, “Noz”, “Tasavvur”, “Oypalak”, “Tamon ufori” kuy va ashularini bastaladi.

⁴⁰ O. Matyoqubov «Maqomot» «Musiqqa» nashriyoti, Toshkent 2004-y. 309-bet.

O'lmas Rasulovdan tahsil olgan, san'atda yangi-yangi kamolot pog'onalariga ko'tarilgan talantli xonanda, sozandalar O'zbekiston xalq artistlari Maryam Sattorova, Ahmadjon Shukurov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Nasiba Sattorova, Rustam Abdullayev, Soyib Niyozov, sozandalar Salohiddin Azizboyev, Saydullo Ubaydullayev va boshqalar O'lmas Rasulovni o'zlariga ustoz deb biladilar.

Uning mehnatlarini hukumatimiz tomonidan qadrlanib 1993-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, 2003-yilda O'zbekiston xalq artisti unvoni bilan mukofotlandi.

Abduhoshim Ismoilov - mohir kamonchi, taniqli bastakor Abduhoshim Ismoilov 1952-yilda Farg'ona viloyati Quva tumanida, dehqon oilasida dunyoga keldi.

1967-yilda o'rta maktabni tugatgach, Farg'ona musiqa bilim yurtiga g'ijjak sinfi bo'yicha o'qishga kirdi.

Bilim yurtini 1972-yilda tugatdi. 1972-1975-yillar harbiy xizmatda Ikromjon Bo'ronov ansamblida xizmat qildi.

1976-yilda Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasi (an'anaviy ijrochilik) sharq fakultetiga o'qishga kirib, uni 1982-yilda tugatdi.

1974-yildan hozirgi kunga qadar Yunus Rajabiy nomidagi "Maqomchilar" ansamblining badiiy rahbari bo'lib ishlab kelmoqda. Uning bastakorlik ijodi 1973-yildan boshlandi.

O'ylab qarasak, go'zal Farg'ona vodiysidan ne-ne hassos hofiz va sozandalar, mashhur bastakorlar yetishib chiqmagan. Abduhoshim Ismoilov ham o'z ijodini bu an'analarga tayangan holda boshlagan ko'rinadi. U hozirgacha To'xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov, G'ulomjon Hojiqulov, G'ulomjon Ro'ziboyev kabi g'ijjakchi bastakorlarning ijodiy maktabi, asar bastalash uslublarini puxta o'zlashtirishga tinmay intilib kelmoqda.

Ijodiy kamolotga yetish jarayonida unga Toshkent davlat konservatoriyasining Sharq musiqa bo'limida Faxriddin Sodiqovdan olgan saboqlari qo'l keldi. Aynan shu san'atkor ijodida yuzaga kela boshlagan an'anaviy bastakorlarimiz uslublariga tubdan yangicha yondashish misollari bo'lajak mohir sozanda va bastakor uchun omilkorlik ijodiy izlanishlariga ro'shnolik baxsh etdi. Xususan, ustozning «O'zbekcha vals» nomli cholg'u asari qator qo'shiqlardan iborat bo'lib, azaliy monoliya tarzidagi asar yo'nalishini (har bir sozning tembr bezaklari aynan shu soz yoxud muayyan cholg'u asboblarning guruhining

o'zigagina xos kuy taratishi, bulardagi tabiiylik sado va usullar jozibasi) to'laqonli ochib berishga intiladi. Buni Abduhoshim Ismoilovning yakkanavoz g'ijjak va sozandalar ansambli uchun bastalangan deyarli barcha asarlarida yaqqol ko'ramizki, mazkur yo'nalish zamonaviy o'zbek bastakorligining ustuvor ijodiy uslublaridan biriga aylanayotganini e'tirof etishimiz hamda hozirgi polimonodiya degan ibora ila ifodalashimiz mumkin.

Ishonchimiz komilki, bu yo'nalishning kelajagi porloq va beqiyosdir.

Abduhoshim Ismoilov ijodida xilma-xil janrlar o'laroq qo'shiqchilikka asosiy o'rin beriladi. Uning qo'shiqlari mazmunan falsafiy serqirra bo'lib, ona diyor, Vatan, lirik mavzuli ashulalar muhim o'rin tutadi. "Nasib bo'lgay", "Sarvinoz", "Xasta ko'nglim", "Yor emas" (Navoiy g'azallari), "Yorima ayting" (Ogahiy g'azali), "Oshiqnoma" (N.Narzullayev she'ri), "Tushar yodimga" (G'ayratiy she'ri) shular jumlasini tashkil etadi.

A.Ismoilov qo'shiq she'rlarini tanlashga alohida e'tibor bilan yondashadi.

Bastakorning sozandalik mahorati uning ijodkorlik tafakkuriga shubhasiz katta ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, "To'yona", "Buyuk chinor", "Al Farg'oniy", "Hayronaman" asarlari fikrimizning isbotidir. Bu cholg'u asarlari bastakorning o'zbek sozandaligi "Oltin xazina"sidan mustahkam o'rin tutadi.

Abduhoshim Ismoilovning o'zbek musiqiy san'ati rivojidadagi ulkan mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib baholanib, 1990- yili «O'zbekiston xalq artisti», 1997-yili "Shuhrat" medali, 1999-yili "YUNESKO" mukofoti sovriddori, 2000-yili "Qoraqalpog'iston xalq artisti", "Ofarin" mukofoti sovrindori bo'ldi.

Rahmatjon Tursunov - hozirgi davr o'zbek milliy san'atining ko'zga ko'ringan taniqli vakillaridan biri.

U 1939-yil 5-martda Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumani, Mulla Quvvat qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. O'rta maktabni tugatgandan so'ng 1956-yili Toshkentdagi Hamza nomidagi musiqa bilim yurtiga o'qishga kirdi. 1960-yilda bilim yurtini tugatib, Toshkent davlat konservatoriyasida o'qishni davom ettirdi. 1968-yili konservatoriyaning tugatdi, so'ngra turli o'quv dargohlarida musiqa o'qituvchisi bo'lib ishladi.

1962-1968-yillar Qarshi davlat pedagogika instituti musiqa va ashula kafedrasida o'qituvchi, kafedra mudiri, 1968-1974-yillar Toshkent madaniyat o'qartuv texnikumi va Respublika maktabgacha tarbiya pedagogika bilim yurtida o'qituvchi, 1974-1987-yillar

Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat institutining xor dirijyorligi kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent. 1987-yildan A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat institutida Xalq ashula va raqs ansambliga rahbarlik kafedrasini mudiri lavozimida ishlab keldi.

1987-yilda pedagogika fanlari nomzodi, 1989-yilda dotsentlik, 1994-yilda professorlik unvonlari berildi.

Rahmatjon Tursunov institutda ishlash jarayonida juda ko'p shogirdlar tayyorladi. Ularning ko'pchiligi turli lavozimlarda ishlab kelmoqdalar.

Uning tashabbusi bilan 1987-yilda A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat institutida "O'zbek xalq musiqasi" kafedrasini tashkil etildi.

Uning bastakorlik ijodi 1960-yildan boshlandi. U bastakor sifatida ko'plab, har xil musiqiy janrlarda asarlar yozib, xalqqa tanildi. Ayniqsa, qo'shiqchilik janri Rahmatjon Tursunovning ijodida alohida o'rin egalladi. Uning "G'amzasin" (Fuzuliy), "O'rtadi" (Navoiy), "Visoling bo'lmasa" (Otashiy), "Muhtalo qilursan" (Lutfiy), "Oshkor bo'lsin" (Samad Vurg'un), "Bulbul", "Ayon bo'lg'ay" (A.Oripov), "Madhingni kuylay" (T.To'la), "Shahlo" raqsi kabi ashula va kuylari musiqa shonavandalari tomonidan munosib baholandi.

Rahmatjon Tursunov ijodida rang-baranglik hayot haqiqatining turli tomonlari qamrab olingan, ular badiiy jihatdan umumlashtirilgan. Bularning barchasi bastakorning har bir asarida yorqin ifodalangan.

12-13- laboratoriya mashg'ulotlari

Mavzu: “Yor mehri” Y.Rajabiy musiqasi, A.Navoiy g‘azali.

Maqsad: “Yor mehri” Y.Rajabiy musiqasi, A.Navoiy g‘azali Asarning daromad - furovard qismlari ijrosi ustida ishlash. Kuylash malakalarini shakllantirish hamda badiiy bezaklari ustida ishlash.

REJA :

1.Asarning avj qismidagi matni ma’nosi va aruz vaznidagi g‘azal ohangi ijrosi ustida ishlash.

2.Asarning avj qismidagi badiiy musiqiy ijrosi ustida ishlash. murakkab nolali joylarni kuylab ko‘rsatib berish.

3.Yakka ijroda har bir ijrochi bilan kuylatishga erishish.

Tayanch tushunchalar: ashula g‘azalidagi murakkab ma’noli so‘zlar.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: an’anaviy uslubda ovoz sozlash mashqlarini kuylatish, o‘tilgan asarlardan takroriy ijrolarni bajarish.

II. Berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, o‘rganilgan material yuzasidan talabalardan so‘rash. Asarlarni takrorlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish: kirish, asarni namunaviy ijroda avj qismini kuylab ko‘rsatib berish. “Yor mehri” Y.Rajabiy musiqasi, A.Navoiy g‘azali Asarning daromad - furovard qismlari ijrosi ustida ishlash. Kuylash malakalarini shakllantirish hamda badiiy bezaklari ustida ishlash hamda asarning murakkab nola va bezaklari ijrosi ustida ishlash.

Asarning DVD, SD variantlardagi ijrolaridan foydalanish. Nola va bezaklar ustida ishlash. Nafas olish, diksiya, talaffuz ustida ishlash.

IV. O‘rganilgan materialni mustahkamlash uchun savollar:

1.Kuylash jarayonida talabalar oldiga qanday maqsad va vazifalar qo‘yilgan?

2. Kuylash jarayoni qanday faoliyatlardan iborat?
3. Kuylashda nola va bezaklarning ahamiyati qanday?

V. Yakuniy qism:

- a) Mashg‘ulot davomida talabalar olib borgan faoliyatni tahlil qilish va baholash.
- b) Uyga topshiriqlar, vazifalar berish:

Mashg‘ulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. Asarning birinchi qismini kuylash malakalarini shakllantirish.
2. Nola va bezaklarning o‘rni haqida gapirib berish.
3. Ashulaning dinamik ijrosini shakllantirish.
4. Ashula aytishda mashqlarning ahamiyati haqida aytib beradi.

12-13 mavzularni mustahkamlash uchun savollar.

1. Fattohxon Mamadaliyev ijod yo‘li haqida gapirib bering.
2. Ne‘matjon Qulabdullayev ijodiy yo‘li haqida gapirib bering.
3. G‘ulom Qo‘chqorov hayoti va ijodi haqida ma’lumot bering.
4. O‘lmas Rasulovning ijodiy yo‘li.
5. Abduhoshim Ismoilov asarlari haqida nimalarni bilasiz?

Rahmatjon Tursunovh xayoti va ijodi haqida nazariy ma’lumotlar bering.

7. “Yor mehri” (Y.Rajabiy musiqasi, Navoiy g‘azali) asarining mukammal ijrosini kuylab bering.

14-15- mashg‘ulotlar.

O‘zbek mumtoz musiqa janrlari tasnifi.

O‘zbek mumtoz cholg‘u musiqasi

“Talqinchai mo‘g‘ilchai Navo” Lutfiy g‘azali.

Maqsad:

1. O‘zbek mumtoz musiqa janrlari tasnifi. O‘zbek mumtoz cholg‘u musiqasi haqida nazariy ma’lumotlar berish.

2. “Talqinchai mo‘g‘ilchai Navo” Lutfiy g‘azali. Asarning daromad - furovard qismlarini kuylash malakalarini shakllantirish.

Tayanch tushunchalar; aytim yo‘llari, mumtoz yalla va ashula, katta ashula, dostonlar, maqomlar, cholg‘u kuyi yoki asar va cholg‘u turkumlar, cholg‘u usullari, maqom cholg‘u yo‘llari va turkumlari, cholg‘u yo‘llari, ilmi advor, ilmi iqo, “Cho‘li Iroq” “Yovvoyi Chorgoh”.

R E J A :

1. O‘zbek mumtoz musiqa janrlari tasnifi, o‘zbek mumtoz cholg‘u musiqasi haqidagi nazariy ma’lumotlar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash.

2. Talqinchai mo‘g‘ilchai Navo Lutfiy g‘azali. asarning daromad - furovard qismlarini kuylash malakalarini shakllantirish.

Mashg‘ulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:








1. O‘zbek mumtoz musiqa janrlari tasnifi, o‘zbek mumtoz cholg‘u musiqasi haqidagi nazariy ma’lumotlar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlanadi.

2. “Talqinchai mo‘g‘ilchai Navo” Lutfiy g‘azali. asarning daromad - furovard qismlarini kuylash malakalarini shakllantirish. Nola va bezaklar ustida ishlash.

Talqinchai Mo'g'ulchai Navo

Lutfiy

M.M. ♩ = 1/2



-da ko'r - ma-di ul ha - lo - vat - lar-ki la' -



 - li shak-kar af - sho - nin - da dur(o). - -

Bir qa - tig' jon - liq ja - hon - da ko' r - ma - dim

ko'n - lim ki - bi (o) - kim, che - kar ja - brubu - run - qi ah - du pay - mo - nin - da - dur

jo - nim VI.1.
Lu - tfry qui

er - mas ha - mo - no, ko'p na - si - hat qil - man - giz, kim a -

ning de-vo-na ko'ng - li ish - q(i) far mo -nin-da-dur

Halqa-halqa zulfikim ul mohi tobonidur,
Ching'a boqsam doldek xurshidaning yonindadir.

Porso mushaf yuzin ko'rsa, ravon jon voqf etar,
Dilrabolik oyati go'yo aning sha'nindadir.

Zarradek tor og'zidin qaydin topilsun bizga tom.
Kim, kalom ahli aqal derlarki yo'q sonindadir.

G'olibokim Yusufi Misriy tushinda ko'rmadi,
Ul halovatlarki la'li shakkar afshonindadur.

Bir qatig' jonliq jahonda ko'rmadim ko'nglim kibi,
Kim, chekar javru burunqi ahdu paymonindadaur.

Lutfiy qul ermas hamono, ko'p nasihat qilmangiz,
Kim ani devona ko'ngli ishq farmonindadur.

O‘zbek mumtoz musiqa janrlari tasnifi

Asrlar osha davr tahririga uchrab, sayqallashib, o‘ziga xos murakkab shakllari, teran mazmuni, jozibali va ohangdor kuylari bilan bizgacha yetib kelgan mumtoz musiqa namunalari hanuzgacha eng sevimli, eng ardoqli xalq asarlari bo‘lib kelmoqda.

Mumtoz musiqa asarlarining badiiy kuchi – ularning xalq orzu-umidlari, his-tuyg‘ulari, fazilatlarini va turmush haqiqatlari bilan uyg‘unligi, kishilarning ruhini, dardini o‘zida aks ettirishida, undagi tinglovchilarga ham birday yoqimli, so‘z va ohang, soz va kuy mushtarakligidadir. Inson yashashi uchun, millat taqdiri va munosabatlari uchun zarur bo‘lgan ma’naviy jarayonlar kuyga va aytim – ashulaga solinadi. Inson boshidan kechiradigan turli-tuman voqelik, yuragini zabt etuvchi shodu-xurramlik yoki dardualamlar, yorug‘ yoki qorong‘u kunlarning izi cholg‘u kuyi va ashulaga aylanadi.

Mumtoz ashula yo‘llari va cholg‘u kuylarining umrboqiyli, ulardagi ma’naviy-axloqiy ma’noning chuqurligi, musiqiy ohanglarning go‘zalligidir. Ularda insoniy kechinmalar andishaga boy, hayotiy va samimiydir; shuning uchun tinglovchiga zavq bag‘ishlaydi, ko‘nglini ko‘taradi. Bunday ma’naviy go‘zallik taronasi mumtoz musiqaning ajib va o‘lmas an‘anasiga aylangan. Mumtoz musiqa o‘zining mukammalligi, mo‘‘jaz shakli, obrazlarning serqirra ma’nodorligi va nafisligi bilan ajralib turadi. Abdurauf Fitrat musiqa ijodiyotining asrlar mobaynida yashab kelgan shakl-shamoyillari, ularning turlari (ashula, doston va b.) haqida yozar ekan, ashulaga quyidagicha ta’rif beradi: «Kuy, ohang bilan o‘qulaturgon she’rlar, tizmalarga ashula deyiladi».

Darhaqiqat, mumtoz musiqa insonning moddiy va ma’naviy turmush talablari, ehtiyojlari va o‘zini qurshab turadigan tashqi muhitga, boshqa kishilarga bo‘lgan munosabatlari natijasida, mumtoz she’riyatning va ijrochilik mahoratining rivojida yuzaga kelgan. Xalqning ichki ruhiyati, dunyoqarashi, intilishlari va orzu-umidlari musiqa ohanglarida aks etadi. Ushbu musiqa namunalari minglab yillar davomida shakllanib, sayqal topib, badiiylashib, yuksak pog‘onalarga ko‘tarilgan va xalqning madaniy-ma’naviy boyligiga aylangan.

Har bir musiqa asari, birinchi navbatda, kishiga ruhiy yengillik baxsh etish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, kishining tashqi dunyoga estetik munosabatda bo‘lishini

shakllantiradi; uchinchi tomondan esa tarbiyaviy ta'sir vazifasini ham o'taydi. Musiqa asarlarining kishi ruhiyatiga ta'siri haqidagi fikrlarni qadim davrlarda yashab o'tgan olimlarning asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Masalan, Sharqning buyuk mutafakkirlari o'zlarining "musiqiy risolalarida" musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri, turli his-tuyg'ular uyg'ota olish xususiyatlarini batafsil tahlil qilishib, jumladan, maqom va ularning sho'balari kishiga shijoat va jasorat bag'ishlaydi deb uqtirib o'tishgan. Navo yoki Ushshoq jozibador va ohangdor maqom yo'llari deb hisoblansa, Rost yoki Iroq nozik va yoqimli maqom yo'llari bo'lib, kishiga huzur, xushchaqchaq kayfiyat bag'ishlaydi. Buzruk yoki Segoh va ularning sho'balari ulug'vorlik, g'amginlik, quvonch hamda qayg'u kayfiyatini qo'zg'aydi. «Dilxiroj» cholg'u kuyini tinglaganda kishida ko'tarinki ruhiy holat vujudga kelsa, «Cho'li iroq» kuyi ruhan moziydan sado eshitilgandek bo'ladi. Kishining tashqi dunyoga estetik munosabatini shakllantirishdagi mumtoz musiqaning vazifasi insonning ta'sirchanlik kayfiyati bilan bevosita bog'liqdir.

Xalq yoki bastakor tomonidan yaratilgan har bir musiqa asari o'z oldiga u yoki bu darajadagi vazifani qo'yadi. Mumtoz musiqa ham o'z mavqeyi, mohiyati, mazmuni, vazifasi va ijrochilik xususiyatlari jihatidan ikki yirik guruhga – ovoz va so'z bilan bog'liq bo'lgan aytim yo'llari va cholg'u orqali ifoda etiluvchi cholg'u yo'llariga bo'linadi. Ularning har biri, o'z navbatida quyidagi janrlarga tasniflanadi:

Aytim yo'llari:

1. **Mumtoz yalla va ashula** – har biri rivojlangan kuy va shakldan, o'ziga xos mazmundan va ijro uslubidan iborat. Bularga lokal xususiyatlariga ega bo'lgan xalq ashula yo'llari, suvoralar, naqshlar ham kiradi.

2. Yirik ashula janri bo'lmish – faqatgina Farg'ona vodiysida shakllanib, rivoj olgan **katta ashula**.

3. **Dostonlar**, xalq epik janri bo'lib, adabiy matn, she'r, musiqadan iborat uch birlik tamoyili mavjudligi bilan ajralib turadi.

4. **Maqomlar**, o'z navbatida maqom ashula yo'llari va yirik ashula-cholg'u turkumli janr sifatida keng tarqalgan. Buxoro «Shashmaqomi», «Xorazm maqomlari» turkumi va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari kabi maqom turkumlaridan iborat.

Cholg‘u yo‘llari:

1. Rivojlangan kuy va shakllardan iborat, murakkab ijro uslublari mavjudligi bilan ajralib turuvchi **cholg‘u kuyi yoki asar** va **cholg‘u turkumlar** (bu toifaga yirik **cholg‘u usullari** ham kiradi), jumladan, Eshvoy – Eshvoy kurd – Eshvoy turkman; Dilxiroj va Sinaxiroj.

2. **Maqom cholg‘u yo‘llari va turkumlari**, jumladan, Cho‘li iroq, Mushkiloti dugoh, Ajam taronalari; Dutor maqom turkumlari (Xorazmda), Surnay maqom yo‘llari – Navo, Chorgoh va b. (Farg‘ona-Toshkent).

3. Mumtoz ashulalarning **cholg‘u yo‘llari** (variantlari) va turkumlari, jumladan, Tanovar turkumi, Chorgoh turkumi va bosh.

Har bir janr o‘z mavqeyi, kuy-ohang tuzilishi, ijro uslubi bilan ajralib turadi.

O‘zbek mumtoz musiqasi asrlar osha og‘zaki tarzda avloddan avlodga o‘tar ekan, bu jarayonda u boyib, xalqning fikr-o‘yi, dardi, orzusi, donishmandligini o‘zida mujassamlashtiradi. O‘zining an‘naviyligi, buyukligi, ta’sirchanligi, professionalligi, mukammalligi, ko‘plab badiiy vositalarga boyligi bilan o‘ziga xos musiqa san’ati turiga aylanadi. Katta badiiy-estetik imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘zbek mumtoz musiqasi milliy ruh, milliy qiyofani shakllantirish, milliy qadriyatlarni saqlash, boyitish va keyingi avlodga yetkazib berishning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek mumtoz musiqasida xalqning ma’naviy madaniyatiga doir durdonalar to‘plangan bo‘lib, xozirgi mustaqillik davrida milliy o‘zlikni anglash va milliy ongini taraqqiy ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek mumtoz cholg‘u musiqasi

Mumtoz musiqasi inson moddiy va ma’naviy turmush talablari, ehtiyojlari va o‘zini qurshab turgan tashqi muhitga, boshqa kishilarga bo‘lgan munosabatlari natijasida paydo bo‘lgan. Xalqning ichki ruhiyati, dunyoqarashi, intilishlari va orzu-havasi musiqa ohanglarida aks etilib kelingan.

Musiqiy ohanglarda uning ijodkori hisoblangan xalqning yoki elatning sho‘x va hazil, o‘ynoqi va mungli ichki nidolari mujassamlangan. Mumtoz musiqasida kishilar o‘rtasida ro‘y beradigan insoniy-axloqiy munosabatlar o‘z ifodasini topadi.

O'tmish ajdodlarimiz katta yig'inlar, xalq bayramlari va sayillarni, to'y-tomoshalarni musiqasiz tashkil qilmaganlar, chunki bu yirik anjumanlarda yangragan har bir cholg'u kuyi, ijro etilgan qo'shiq-ashula yoki raqs anjuman ishtirokchilarining ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

An'anaviy cholg'u musiqasi xalq va mumtoz cholg'u kuylari va asarlaridan iborat bo'lib, asrlar davomida shakllanib, sayqal topib, badiiylashib, yuksak pog'onalarga ko'tarilgan va har bir xalqning madaniy-ma'naviy boyligiga aylangan.

O'zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo'lgan musiqa cholg'ulari va cholg'u musiqasi qadim-qadimdan boy va murakkab tasviriy imkoniyatlarga egadir. O'zbek cholg'u musiqasi barcha xalqlar musiqasi kabi o'ziga xos tarix va an'analarga boy. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan ushbu musiqaning ajoyib namunalari o'zining rango-rang jilosi, ohangrabo kuylari bilan kishilarga olam-olam zavq-shavq va huzur baxshida etmoqda. Kishining tashqi dunyoga estetik munosabatini shakllantirishdagi cholg'u musiqasining vazifasi insonning ta'sirchanlik kayfiyati bilan bevosita bog'liqdir. Musiqa ta'sirida shakllanadigan estetik munosabat kishi ruhiy holatiga yo bog'liq bo'ladi, yoki uni belgilab beradi. Bog'liqligi shundaki, kishi ruhiyati tushkun holatda bo'lsa, musiqiy ohanglar ta'siri qanchalik kuchli bo'lmasin, hatto bulbulning sayrash ham uning qalbiga faqat mung bo'lib kiradi.

Inson hayotida musiqa cholg'ularini yaratilishi bevosita ushbu cholg'u orqali ijro etiladigan kuylarni ijod etishiga undaydi. Bizning xalqimiz xilma-xil cholg'ularga ega bo'lib, o'ziga xos cholg'u musiqasini yaratgan. Bu cholg'ular tovush chiqarish xususiyatlari bo'yicha torli (torli chertim, torli plektor, torli kamonli va torli urma), puflama-damli (naysimon, tilsimon va karnaysimon) va urma-zarbli (teri bilan qoplangan va o'zi sado beruvchi) cholg'ular guruhi va turlariga bo'linadi. har bir cholg'u o'z tuzilishi, tasviriy vositalarining xarakteri xususiyatlari va ijrochilik uslublari bilan ajralib turadi. O'zbek musiqa cholg'ulari an'anaviy (nay, sibizg'i, qo'shnay, qajir nay, surnay, bulamon, karnay, tanbur, dutor, do'mbira, qonun, qo'biz, sato, chang-qo'biz, doira, nog'ora, doul va b.) va qayta ishlangan (g'ijjak, qashqar va afg'on ruboblari, chang, ud) xillariga bo'linadi. Bu cholg'ularning har biri ijro etiladigan musiqa asari xususiyatlari va vazifalariga qarab yakkasoz yoki ma'lum ansambl tarkibida ishlatiladi. Shu tufayli an'anaviy yakkasoz va ansambl ijrochiligi yuzaga kelgan.

O'zbek mumtoz cholg'u musiqasi xalq cholg'u musiqasiga qaraganda kuy rivoji, shakl murakkabli va ijro uslubining mukammalligi bilan ajralib turadi. Uning janrlar tarkibi ham yirik va murakkab cholg'u kuylari, asarlari va turkumlaridan iborat. Bular yirik cholg'u usullari (doyra yoki nog'ora cholg'ulari ijro etilgan), cholg'u kuylari (yakkasoz yoki ansambl uchun mo'ljallangan), yirik cholg'u asarlari, masalan, Cho'li Iroq, Munojot, Tanovar, Aliqambar, Qo'shchinor, Qo'shtor, Yovoiy Chorgoh (yakkasoz uchun mo'ljallangan, masalan, G'ijjak, dutor, tanbur, nay, surnay, qonun, chang), cholg'u turkumlari va maqom cholg'u asarlari – turkumlari, jumladan, Nog'ora Bayoti, Dutor Bayoti, Duchava, Eshvoy, Surnay Navosi, Ajam taronalari, Mushkiloti Dugoh, Alikambar, Rahoviy, Qora dali, Miskin I-VII, dutor maqomlari, surnay maqom yo'llari va b (yakkasoz yoki ansambl ijrochiligida).

Musiqiy cholg'ularining kelib chiqishi, ishlatilishi va o'zaro muvofiqlashuvi ularning taraqqiy yo'lida sozandalik san'atini o'tmishdan yuzaga kelishiga va ushbu san'atning rivoj olishiga olib keldi. Bu san'at o'z ichiga ijrochilik mezonlari va uslublari, cholg'u musiqa asarlarini ijod etishi va ularning o'ziga munosabatlarini kamrab oladi. Bu esa ijrochi-sozandaning ijodi va mahorati bilan bog'liqdir. Cholg'uning umumiy ko'rinishi, parda tuzilishi (torli cholg'ularda) va tembr-akustik xususiyatlarining shakllanishi sozandalarning kasbkor qurollarini o'zlariga moslashtirish yo'lidagi izlanish va intilishlarining samarasidir. O'rta asrlarda parda-lad tizimi, kuy-ohang tuzilishining tarkibiy birliklari (*ilmi advor*) va yangrashi, ritm-usul tizimi (*ilmi iqo'*) shakllanishi va amaliyotda qo'llanishi musiqa cholg'usi orqali o'z ifodasini ilmiy-amaliy ishlarda topgan. Birobarin, qaysi musiqa cholg'usi bo'lmasin, mohiyatan musiqa amaliyatini takomillashtirishga, kuy va ashulalarning jozibasini oshirishga qaratilgandir. Qadimgi davrlardan ma'lum bo'lgan cholg'ularning har birida inson qalbining nozik tuyg'ulariga hamohang sadolarni izlab topish va ularni mukammal shakllarga keltirishning uzoq tarixi aks ettirilgan. Barhayot an'analarga ko'ra musiqa cholg'usi sozanda va ayniqsa, xonandaning suyanchi va ishonchli hamrohi hisoblanadi. Darhaqiqat, musiqa cholg'usi ijrochi uchun chinakam ilhom manbai, erkin ijodiy intilish va mahorat namoyish etishda uning yo'ldoshidir. Musiqa cholg'ularining shakllanishi, avvalo, amaliyotda yuzaga keladi, ularning parda tuzilishi, bezagi, tovush chiqarishi va yangrashi, uslublari ijro jarayonida shakllanadi va takomillashadi. Shu bois har bir cholg'uning repertuari ham

mukammallashib va murakkablashib boradi. Musiqa madaniyatining oʻrta asrlarda, ayniqsa, uning uygʻonish davri (IX – XVI asrlar)da, misli koʻrilmagan darajada yuksalishi musiqa cholgʻularning repertuari va ijro uslublarini yanada boy va rang-barang boʻlishidan guvohlik beradi.

Oʻzbek milliy sozandalik sanʼatida shakllangan yakka, ikki yoki undan ortiq cholgʻular ishtirokidagi ijro uslublari, ularning turli milliy va umummilliy koʻrinishlari takomillashib, yangi ijrochilik uslubiga ega boʻlgan turli oqimlarning vujudga kelishi kuzatildi. XX asrda anʼanaviy (maqom cholgʻu ansambli, tomosha sanʼati cholgʻu ansambli, dostonchilik cholgʻu ansambli, joʻrnavez xonandalik cholgʻu ansambli, bayramona-marosim cholgʻu (yoki karnay-surnay) ansambli) va zamonaviy (dutorchilar, doyrachilar, gʻijjakchilar, rubobchilar, changchilar, udchilar, baxshilar, xalfachilar kabi) cholgʻu ansambllari shakllangan boʻlib, festivallar, bayramlar, koʻrik-tanlovlar mazmunini toʻldirish bilan birgalikda, anʼanaviy cholgʻu musiqasi janrlari qonun-qoidalarida asosida yaratilgan asarlar hisobiga oʻz repertuarlarini boyitib bormoqdalar.

Hozirgi davrida milliy musiqaga boʻlgan eʼtibor, xususan, cholgʻu musiqa janrlarining mahalliy koʻrinishlari, kuylarning shakl va ohang jihatlari, ijro uslublarining mahalliy va badiiy mezonlari va, ayniqsa, uning autentik (jonli sharoit) koʻrinishdagi ijrosiga imkon yaratmoqda. Xorazm mahalliy musiqa sanʼati xususiyatlarini belgilab beruvchi qoʻl sozi (garmon), bulamon va tor; Surxondaryo, Qashqadaryo va qisman Samarqand hududlaridagi turli oʻzbek urugʻlarining asosiy musiqa vositasi hisoblangan doʻmbira va chang-qoʻbiz (Surxon vohasida nay shuvulloq va gʻajir nay), Qoraqalpogʻistonda baxshichilik sanʼatida oʻrin olgan qoʻbiz, dator va uch torli gʻijjak boshqa cholgʻu (nay, surnay, karnay, qoʻshnay, tanbur, dator, qashqar va afgʻon ruboblari, ud, sato, gʻijjak, chang, qonun, doyra, nogʻora)larning umumoʻzbek cholgʻu sozlari sifatida oʻz vazifa va qiyofalarini saqlab qolishi oʻzbek milliy sozandalik sanʼatining toʻgʻri yoʻlda ekanligidan dalolat beradi. Bu jarayonga xos boʻlgan yana bir xususiyat – bu oʻzbek guruhli cholgʻu ijrochiligi sanʼatida badihagoʻylik (improvizatsiya) uslubidagi yoʻnalishni paydo boʻlishi (Abduhoshim Ismoilov rahbarligida “Oʻzbek virtuozlari” cholgʻu ansambli faoliyatida kuzatish mumkin). Ansambl ijrosidagi musiqa asarlarining shakliy koʻrilmasi, kuy-ohang xususiyatlari va rivoji, tovush bezaklari, usullar majmui oʻzbek musiqiy ijrochilik anʼanalariga xos va mos tarzda, turli cholgʻu (gʻijjak, nay,

qonun, ud va doyra)larining texnik imkoniyatlarini to'la ochib berilishi natijasida yuzaga keldi va o'z samarasi bermoqda. Ansamblning repertuarida o'zbek mumtoz va xalq cholg'u kuylari bilan birgalikda A.Ismoilovning bastakorlik ijodiga mansub "Favvora", "To'yona", "Dil nolasi", "Buyuk chinor", "Mustaqillik", "Holim so'rma", "Qalb sadosi", "Gullola», "Bazm kuyi", "Visol" va boshqa qator cholg'u asarlar o'rin olgan.

Mumtoz cholg'u musiqasi yakkasoz va ansambl ijrosiga mo'ljallangan asarlardan iborat bo'lib, har bir soz va ma'lum ansamblning ijro imkoniyatlari, kuy rivoji va shakli bilan ajralib turadi. Ularning repertuarlari ham o'z vazifalariga bevosita bog'liq bo'lgan janrlardan tashkil topgan. Shaklan murakkab va juda rivojlangan asarlarida mumtoz cholg'u musiqasining barcha qatlamlari taraqqiyotini yorqin namoyish qiladi. Do'mbira juda sodda va imkoniyati kam cholg'u hisoblanib kelingan, ammo ayrim do'mbirachilar tomonidan talqin etilgan "Baxshi va do'mbira kuylari", masalan, "Qadimgi nag'ma", "Qo'ng'iroqcha nag'ma" va b. o'ziga xos uslubda, kuylari rivojlangan holda cholg'uning murakkab soz sifatida qabul qilishiga imkon yaratdi. Nay, qo'shnay, bulamon va surnay cholg'ulari kengroq imkoniyatlarga ega bo'lib, musiqa amaliyotida ularga mos yirik cholg'u va maqom cholg'u kuylari ijro etilib kelinmoqda ("Yovoiy Chorgoh", "Surnay Navosi", "Xorazm Dugohi", "Aliqambar", "Cho'li Iroq", "Begi sulton", "Shodiyona" va b.).

Puflama-damli cholg'ularda ijro etilgan musiqa asarlarning kuy tuzilishlari, tovush bezaklari har bir sozning ijro imkoniyatlari hamda puflab chalish jarayonida tovushlarni aniq va baland chiqarilishiga bog'liqdir. "Yovoiy Chorgoh" nay cholg'usiga mo'ljallangan bo'lib, uning kuyi rivojlangan, "Chorgoh" sho'basining ohang asosida yuzaga kelgan. Kuyning tuzilishi va baland pardalarda intilishi, kuy misralarini nafas birligida chalishini asarni nozik, jarangdor va ta'sirchan bo'lishiga olib keladi. "Cho'li Iroq" kuyi o'ziga xos lirik-vazmin xarakterda ijro etilib, cholg'uga xos bo'lgan boy tembr xususiyatlari va rang-barang ijro-texnika vositalari bilan o'ziga jalb qiladi. Kuyning ohangdorligi, kuychanligi, tovush tebratish mayinligi sozandaning mahorati bilan ham bog'liqdir. "Shodiyona" musiqa asari surnay va nog'ora cholg'ulariga mos bo'lib, yirik xalq yig'inlari, to'yutomoshalarda ijro etilib kelingan. Ushbu asar turkumli cholg'u kuylari sifatida ajralib turadi. Ular ohang xilma-xilligi va usullarning rang-barangligi bilan o'ziga tortadi. Xush kayfiyat, ko'tarinki-tantanavor xarakterlarida ijro etilgan kuylar (9,10 ta kuyni qamrab

olgan, nog'ora usullari ham 9 tadan to 32 tagacha bo'lishi mumkin) jo'shqinlik va ulug'vorlik bag'ishlaydi.

“Begi sulton” kuy amaliyotda keng tarqalgan asar bo'lib, ko'proq surnay cholg'usi ijrosi tinglovchilarga tanish. Uning kuy tuzilishi va rivoji, jarangdor va jozibali xarakterida talqin etilishi, cholg'uning tabiati, imkoniyati, tovush chiqarish usuli, bezaklar, nafasni to'g'ri ishlatilishi, kuy talqini bilan belgilanadi. Qo'shnay tabiatdan juda nozik va mayin cholg'u bo'lgani uchun uning kuylari ham og'ir va vazmin uslubida talqin etilib, sozandaning ibtidosi bilan qo'shnay cholg'usiga asoslanadi.

Tanbur va dutor cholg'ulari sozandachilik va maqomchilik san'atlarida keng ishlatilgan. Mazkur cholg'ularning turli ko'rinishlari mintaqadan tashqarida va ko'pgina xalqlar madaniyatida ham qo'llanib kelingan. Ushbu cholg'ularda ijro etilgan kuy sadolari, tembr-akustik tuzilishi va ijro uslublari har bir musiqa sarlarining betakror ohanglarida o'z aksini topadi. Tanbur va dutor, asosan, mohir sozandalar tomonida chalinganligi uchun repertuari deyarli rivojlangan va jozibali maqom cholg'u yo'llaridan hamda shularga yaqin cholg'u kuylardan iborat. Cholg'ular ijrosidagi nola va qochirimlar kuylarning g'oyat ta'sirchan bo'lishiga erishiladi (“Tanovar”, “Rok”, “Qo'shtor”, “Azim daryo”, “Bilak uzuk”, “Yovvoyi chorgoh”, “Sarparda”, “Munojot”, “Dutor navosi”, “Shahd”, “Qurd”, “To'rgay” va b.). Ushbu cholg'ularda ijro etilgan musiqa asarlari o'zining ohangdor lirik xarakterlari va kuylarga xos bo'lgan ta'sirchan tuyg'ular bilan chambarchas bog'liq holda zavq-shavq baxshida etadi. Bunga yorqin misol sifatida “Tanovar” kuyini dutor va tanbur cholg'ulari talqin etilganini misol qilish mumkin (mohir sozanda Turg'un Alimatov ijrosida). “Qo'shtor” cholg'u kuyi turkumli asar sifatida zamonaviy dutorchilik san'atida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu kuy Marg'ilonlik sozanda Qo'zixon Madraimov ijodiga mansub bo'lib, asar o'zining ijro texnik uslubi, zarblarning kuylar bilan mutanosibliги va jarangdorligi, turli-tuman harakatlar (pitsikato va chertim yo'llari talqini) va boy tasviriy vositalarga ega bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Qashqar va afg'on ruboblari o'zlarining ovoz chiqarish uslublari, xarakterli tembri va ijro texnikalari bilan amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Qashqar rubobi jarangdor soz bo'lsa, afg'on rubobi mungli va mayin ovozga ega. Lekin ularning repertuarlari bir-biriga yaqin va aniq – an'anaviy cholg'u asarlaridan tashqari (“Jigar pora”, “Rohat”, “Eshvoy”,

“Eshvoy qurd”, “Eshvoy turkman”, “Mushkiloti Dugoh” va b.) bastakorlar va kompozitorlar asarlari ham o‘rin olgan.

Chang va qonun cholg‘ulari ham o‘zlarining tasviriy imkoniyatlari jihatidan deyarli boy va ta’sirchan, ularning repertuarlari ham rang-barangdir (“Gulbahor va Tanovar”, “Qo‘shchinar”, “Munojot”, “Jigar pora” va maqom cholg‘u yo‘llari).

Mumtoz ijrochilik san’atida g‘ijjak va sato cholg‘ulari ham yetakchi o‘rin egallab kelmoqda. Qadimiy cholg‘ular sifatida hozirgi kunda keng tarqalgan g‘ijjak va sato o‘z ijro imkoniyatlari va ularga mos repertuarlari bilan ajralib turadi. G‘ijjak kamonli cholg‘ular orasida o‘zining yoqimli, nozik va ayrim holatlarda jarangdor soz bo‘lib, ijro texnikasi va keng ishlatiladigan tovush bezaklari hamda kuylarning shaklan va rivojlanganligi bilan o‘ziga jalb qiladi. Yirik cholg‘u (“Qo‘shchinar”, “Tanovar”) va maqom cholg‘u yo‘llari (“Nasrulloiy”, “Chorgoh”, “Saqili navo”, “Muxammasi Bayot”, “Hojiniyoz 1 2” va b.), o‘zbek bastakorlari cholg‘u asarlari g‘ijjak repertuaridan o‘rin olgan.

Sato cholg‘usi o‘zining ijro etilishidagi imkoniyatlarining boyligi va ovozinining nozik, yoqimli tembri (cholg‘uni “inson ovozigaga o‘xshash nidosi” ta’riflanishi bejiz emas) jihatidan yaqqol ajralib turadi. Satoda asosan vazmin, og‘ir kuylar ijro etilib, ular kamon orqali cho‘zik ovozli, mayin va dardli hamda xilma-xil va ta’sirchan qilib chalinadi (“Fig‘on”, “Nola”, “Tasnifi, Tarjei va Garduni Navo” va b.). Satoda chalish uslubi ma’lum darajada murakkabroq, mukammalroq va ovoz chiqarishga mahoratlik talab etgani uchun asosan mohir sozandalar tomonidan ishlatiladi va shu tufayli uning repertuarida ko‘proq an’anaviy cholg‘u musiqa namunalari o‘rin olgandir.

Sozandalik san’atida maqom cholg‘u yo‘llari (Buxoro, Samarqand, Xorazm, Farg‘ona vodiysi)dan tashqari, rango-rang mumtoz cholg‘u asarlari ham o‘zlarining lokal variantlari bilan o‘rin olgan. Ular yetuk sozandalar va bastakorlar tomonidan turli davrlarda yaratilgan va keng tarqalgandir. Bu kuylar o‘zlarining kuy-ohang tizimi, ularning tuzilishi rivoji jihatidan ancha murakkab, shaklan rivojlangan, hajman keng va davomli, usullari xilma-xil, baland avjli, ijro uslublari va texnik vositalari mukammal bo‘lgan asarlar (cholg‘u kuylari va turkumlari). Cholg‘u kuylari o‘ziga xos mazmun, holat, kayfiyat, ohangdorlik, tasviriy va ta’sirchan mezonlari bilan huzurbaxsh ruhiy-ma’naviy ozuqa sifatida diqqatni jalb qiladi.

O'zbekiston musiqiy amaliyotida sozandalik san'ati oddiy musiqiy jarayon bo'lib qolmasdan, milliy ijrochilik an'analari asosida shakllandi va milliy-madaniy yuksalishini ta'minlashda muhim omil sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Birobarin, musiqa san'atimizning bu turi shaklan va mazmunan boyigan o'zbek milliy cholg'ulari va mumtoz cholg'u musiqasining barcha ko'rinishlarini o'zida uyg'unlashtirgan badiiy (ijod va ijro) faoliyat natijasining ijobiy namunasidir.

14-15 laboratoriya mashg'ulotlari.

Mavzu: "Figonkim" Furqat g'azali.

Maqsad: "Figonkim" Furqat g'azali. Asarning daromad - furovard qismlarini kuylash malakalarini shakllantirish. Nola va bezaklar ustida ishlash, badiiy va ijrochilik tomonlarini puxta o'zlashtirish.

R E J A :

1. Asarning avj qismidagi matni ma'nosi va aruz vaznidagi g'azal ohangi ijrosi ustida ishlash.
2. Asarning avj qismidagi badiiy musiqiy ijrosi ustida ishlash. murakkab nolali joylarni kuylab ko'rsatib berish.
3. Yakka ijroda har bir ijrochi bilan kuylatishga erishish.

Tayanch tushunchalar: Ashula g'azalidagi murakkab ma'noli so'zlar.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: an'anaviy uslubda ovoz sozlash mashqlarini kuylatish, o'tilgan asarlardan takroriy ijrolarni bajarish.

II. Berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, o'rganilgan material yuzasidan talabalardan so'rash. Asarlarni takrorlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish: kirish, asarni namunaviy ijroda avj qismini kuylab ko'rsatib berish. Asarning daromad - furovard qismlarini kuylash malakalarini shakllantirish. Asarning murakkab nola va bezaklari ijrosi ustida ishlash.

Asarning DVD, SD variantlardagi ijrolaridan foydalanish. Nola va bezaklar ustida ishlash. Nafas olish, diksiya, talaffuz ustida ishlash.

IV. O‘rganilgan materialni mustahkamlash uchun savollar:

1. Kuylash jarayonida talabalar oldiga qanday maqsad va vazifalar qo‘yilgan?
2. Kuylash jarayoni qanday faoliyatlardan iborat?
3. Kuylashda nola va bezaklarning ahamiyati qanday?

V. Yakuniy qism:

- a) mashg‘ulot davomida talabalar olib borgan faoliyatni tahlil qilish va baholash.
- b) uyga topshiriqlar, vazifalar berish.

Mashg‘ulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. Asarning birinchi qismini kuylash malakalarini shakllantirish.
2. Nola va bezaklarning o‘rni haqida gapirib berish.
3. Ashulaning dinamik ijrosini shakllantirish.
4. Ashula aytishda mashqlarning ahamiyati haqida aytib beradi.



14- 15- mavzularni mustahkamlash uchun savollar.

1. O‘zbek mumtoz musiqa janrlari tasnifi haqida ma’lumot bering.
2. Mumtoz musiqaning aytim yo‘llari va cholg‘u orqali ifoda etiluvchi cholg‘u yo‘llariga ta’rif bering.
3. Mumtoz yalla va ashula yo‘llariga qanday ijro namunalari kiradi?
4. Katta ashula qaysi maxalliy uslubga xos ijro yo‘li hisoblanadi?
5. Dostonlar qanday uchlik ijod mahsuli hisoblanadi?
6. O‘zbekistonda nechta maqom ijrochiligi maktabi mavjud?
7. Cholg‘u kuyi yoki asar va cholg‘u turkumlar, yirik cholg‘u usullari yo‘llariga ta’rif bering.
8. Maqom cholg‘u yo‘llari va turkumlariga qanday asarlar kiradi?
9. O‘zbek mumtoz cholg‘u musiqasi yo‘llariga ta’rif bering.
10. “Ilmi advor” va “ilmi iqo” shakli haqida gapirib bering
11. “Figonkim” ashulasining mualliflari haqida gapirib bering.
12. Asarning daromad va miyonxat qismlarini kuylab bering.

FIG'ONKIM

A.Navoiy g'azali

M.M. ♩=66



- fa-ron-dur cheh - ra - yi o - lim. me-ni, kim ko'r - sa
farq et- mas xa-zon bir-la ba- ho. - rim-din. Mu-hab-bat
dar - di - da o'l- sam, o'-tib um - rim a - do bo'l gach,
din. (o o yo-ro o yo-ro)
A-dash-gan it ka-bi Fur- qat qa-yon bor g'um bi- lol - mas
man, qa - chon bo'l - g'ay - ki, top - kay - man xa -
bar yo - ru di - yo - rim - din. din.

FIG'ONKIM

Furqat g'azali.

Fig'onkim gardishi davron ayirdi o'z diyorimdin.
G'amim ko'p ey ko'ngil sen bexabar sen oh-u zorimdin.
G'uborim ishq vodisida barbod o'ldi andog'kim,
Biyobonlarda Majnun to'tiyo izlar g'uborimdin.
Qizil qondur sirishkim, zafarondur chehrayi olim,
Meni kim ko'rsa farq etmas hazon birla bahorimdin
Muhabbat dardida o'lsam o'tib umrim ado bo'lgach,
Qamishlar o'rniga mehri giyo ungay mazorimdin
Adashgan it kabi Furqat qayon borgum bilolmasman,
Qachon bo'lg'ay-ki, topgayman xabar yor-u diyorimdin.

O‘zbek mumtoz yalla va ashula janrlari

O‘zbek mumtoz musiqasini tashkil etuvchi aytim-xonandalik janrlar tarkibiga yalla va ashula kiradi. Har biri o‘z mavqei, mazmuni, kuy-ohang tizimi, shakli va ijro uslubi bilan ajralib turadi.

Yalla - keng tarqalgan qo‘shiq-raqssimon janr bo‘lib, ishqiy-lirik mazmuni bilan yakkanavoz (xonanda yoki yallachi tomonidan) cholg‘u ansambli jo‘rligida ijro etiladi. Mumtoz yallalar xalq yo‘lidagi yallalarga nisbatan keng diapazonli rivojlangan kuy bilan farq qiladi. Xalq yallalari tor diapazonli bo‘lib, uning she‘rdagi har bir bandi va raqs harakatlari yakkaxon yallachi, naqorati esa guruh tomonidan cholg‘u jo‘rligi (ko‘proq doyra yoki dutor)da aytilib kelingan. Jozibador va o‘ynoqi xarakteridagi kuy hammani raqsga chorlaydi (yalla(lapar) – bu “o‘ynab-kuylash qo‘shig‘i” ma’nosini bildiradi). Yalla mumtoz she‘ri va ijrochilik madaniyati rivoji bilan chambarchas bog‘liq holda taraqqiy qilgan. Har bir yallada she‘rlar bayti soni kuy va hajmiga mutanosib bo‘lib, asarning kuy tuzilishi va shaklini (kuplet shakli) ta’minlaydi (she‘r matni sifatida xalq so‘zlari va o‘zbek mumtoz va zamonaviy shoirlarining she‘rlari qo‘llaniladi). Shu tufayli mumtoz yallalar ham jozibali, o‘ynoqi xarakterda, o‘ziga xos ⁶G₈ raqsboq o‘lchovli ritm-usulda aytiladi. Raqsni esa qo‘shiqchi-yallachi o‘zi emas, balki alohida raqqosa (yoki raqqos) ijro etadi. Asarning ta’sirchanligi - hamma vositalarni bir-biri bilan chambarchas holda mahorat va xushkayfiyat bilan ijro etilishidadir. Bunday birlikni yallaning g‘oyaviy-estetik mantiqi, asar obrazining ichki dunyosi hamda kuy-ohang, ritm-o‘lchov, shakl va usul singari musiqiy-poyetik vositalar keltirib chiqaradi.

Shu ma’noda Chokariy so‘zi bilan aytiladigan “Mustahzod” yallasini ko‘rib chiqamiz. Bu asar mavzusi muhabbat bo‘lib, oshiqning ma’shuqaga nisbatan otashin sevgisi tavsifi yalla mazmunini tashkil etadi. Kuy jozibali xarakterda bo‘lib, uning rivojlanishi muayyan ohang takroriga asoslanadi. Ancha davomli va ta’sirchan, usluban ufor sifat ohanglar bu asarda boshqa shakllantiruvchi vositalar qatori mohirona ishlatilganligini ko‘ramiz. Ishqiy-lirik yo‘sindagi nafis hissiyotlarni ifoda etuvchi misralarni ijodkor o‘ta xushyorlik hamda nozik did bilan, mazmuniga, kayfiyatiga monand ohanglar, usullar, sur’at, usul, cholg‘u va yallaga xos bezaklari hamda raqsboq vositalar yordamida birmuncha murakkab musiqiy shaklda bayon etadi. Xuddi shu holat «Qalam

qoshliging» yallasida ham namoyon bo‘ladi. Yallada zuhur etilgan raqsbop holati musiqiy omillar vositasida yana ham yorqin tus olgan, uning jonli va raqsbop ufor usuli orqali o‘ziga xos aks ettirilgan. Yallaning jo‘rnavozi boshidan oxirigacha xuddi shu zaylda kechadi.

Mumtoz va zamonaviy o‘zbek shoirlarining she‘rlari asosida vaznu ohangdoshlik xislatlarini yalla uslubiga tatbiq etishni “Surating”, “Dog‘man”, “O‘zingsan”, “Ko‘chabog‘i II”, “Fig‘ondur”, “Gulyor” kabi asarlarda kuzatish mumkin.

Yallalar hozirgi kunda ham tinglovchilarning qalbida nozik tuyg‘ular, hayajonli fazilatlar uyg‘otib, eshituvchi ommaning olqishiga sazovor bo‘lmoqda. O‘z kuyining rivojlanish uslubi va xarakteri jihatdan mumtoz yalla ashula janriga mos keladi.

“Ayrulmasun” mumtoz yallasi Muqimiy she‘ri bilan xalq orasida ommalashib ketgan, u sevimli yallalardan bo‘lib qolgan. Muqimiy she‘rlarining yashovchanligi – ularning yuksak badiiyligi, chuqur g‘oyaviyligi va jozibadorligida.

Do‘stlar hech kim meningdek yordin ayrilmasun,

Mehribon munis o‘shal dildoridin ayrilmasun.

Ishkiy lirik mazmunidagi she‘r matni asarning kuyga mos tushgan, uning ohangi va ritmik asosi so‘zlarining nozik tabiyatini, dilkashligini ta‘minlaydi. Yallaning asosiy kuyi ravon taraladi, tayanch pardalar esa davomli tovush cho‘zimlari orqali berilgan. Kuyning go‘zalligi, rivoj topishi, usul ravon harakati bilan avjga yetib borishi va umumiy holatni haqqoniy unsurlar ila boyitilgan badiiy tasvirlash uchun she‘r mazmuniga o‘ta xushyorlik bilan yondoshish asarning ko‘pgina xonandalar tomonidan talqin etishiga olib kelgan va xalqimiz orasida juda keng tarqalganligidan dalolat beradi.

Ashula – lirik xarakteridagi rivojlangan kuy va shakliga ega bo‘lgan aytim yo‘li. Ashula janri ham mumtoz musiqaning yetakchi janrlaridan bo‘lib, o‘zining kuy rivoji, vazmin lirik yoki og‘ir xarakteri, hayajoni va dardli mazmuni, diapazon kengligi, ritmining sezilarli darajada murakkabligi va ijro uslubi mukammalligi bilan ajralib turadi. Aruz vaznida yozilgan g‘azal, ruboiy, muxammaslar ashula janrida keng qo‘llanib kelgan.

Falsafiy ma‘noga ega bo‘lgan, shuningdek, sog‘inch, alam, ayriliq va hasratni ifodalovchi ishqiy-lirik va ayrim nasihatgo‘y mazmun ko‘proq ashula mavzusiga xosdir. Ashulada so‘z va kuy uzviy bog‘liqni, bu holat asarning butun mazmunini, mohiyatini

tashkil etadi. Chunki undagi umumiy mantiqiy bog‘liqlik, vazn, qofiya, ohang, musiqiylik tinglovchida zavq-shavq uyg‘otadi, hayajonli kayfiyat paydo qiladi.

O‘zbek mumtoz ashulachiligining shartli xususiyatlaridan biri uning kuy rivoji va shakli, mavzu va uslubiy ko‘rinishlari xilma-xilligidir. har bir musiqiy janr o‘zining shakl tarkibi, xususiyatlari va ijrochilik an‘analariga ega. Shular orasida ashula juda keng tushunchaga ega bo‘lgan shakldir. Mumtoz ashulalar musiqiy matnining rivojlanishi hamda kuy tuzilmalarining nisbatan davomliroqligi va kengroq diapazonligi, baland avji mavjudligi bilan xalq ashulalaridan sezilarli darajada farqlanadi. Shu tufayli ashula shaklidagi asar mumtoz va bastakorlik ijodiyotlarida keng o‘rin olgan, uning lokal variantlari mavjud, jumladan, Buxoroda xalq ashula, Xorazmda suvora, naqsh deb yuritiladi. Bunday ashulalar shaklan va mazmunan yanada murakkabroq va mukammalroq bo‘lib, mumtoz musiqamizning salmoqli qismini tashkil etadi. Bu ashulalar yakka ijroda, cholg‘u ansambli jo‘rligida aytilib kelingan. Ularning rivojlanish jarayoni daromaddan boshlanib tobora avjlangan holda rivojlanadi. “Adolat tanovari”, “Munojot”, “Girya”, “Ko‘chabog‘i”, “Adashganman”, “Qomating”, “Kurd” kabi mumtoz ashulalar xonandalar repertuaridan mustahkam o‘rin olgan.

“Tanovar” xalq va mumtoz ashula yo‘llari xalqimiz orasida keng tarqalgan. Uning xalq yo‘lidagi “Sumbula”, “Qora soch”, “Endi sendek” variantlari dutor jo‘rnavezligida talqin etilgan bo‘lib, “Farg‘onacha tanovar”, “Toshkent tanovari”, “Qo‘qoncha tanovari”, “Yovvoyi tanovar” kabi mumtoz ashula yo‘llari ham ijod etilib, xalqimiz orasida ommalashib ketgan. “Tanovar” yo‘llariga ko‘pgina o‘zbek bastakorlari va xonandalari yondashgan holda uning noyob va o‘zgacha ijod va ijro talqinlarini yaratilishiga muvaffaq bo‘lishgan. Bu asar mazmunan, shaklan va o‘zining kuychangligi, hayajonligi bilan ajralib turadi. Kuyning keng rivoji, ohanglar bezaklar bilan ko‘proq boyitilishi, uning sadolanishi asarning ehtirosli, shirador va ta’sirchanligi chiqishi tinglovchiga zavq va huzur baxsh etadi.

“Tanovar”ning boshlang‘ich ohanglari, mustasnosiz, o‘rta pardalarda joylashgan bo‘lib, ijro jarayonida asta-sekin rivojlanib (kuy diapazoni kengayib) boradi va avj qismida o‘zining ta’sirchanlik holatiga olib keladi. Unda tinglovchini ham, ijrochi ham hayajonli bir tuyg‘u his etishiga va ikkiyoqlama xususiyat kasb etiladi. Umuman olganda ashulaning har bir obrazi va har bir shakl tuzilmasi tarkibida o‘z aksini topadi.

O'zbek mumtoz musiqasini tashkil etgan, badiiy barkamol, shaklan murakkab, usluban mukammal sifatlari bilan ta'riflanuvchi mumtoz ashulalar qatorida yana bir namunalari mavjud. Alohida musiqa asari sifatida ma'lum maqom sho'basida yuzaga kelgan, yetuk hofizlar talqinida ma'lum va mashhur bo'lgan «maqom ashula yo'llari» ham mumtoz ashulachilik ijodiyotining mahsuli bo'lib, bular – “Samarqand Ushshog'i” yoki Hoji Abdulaziz Ushshog'I, “Sodirxon hofiz Ushshog'i”, “Qadimiy ushshoq”, “Toshkent Ushshog'i” yoki “Mulla To'ychi Ushshog'i”, “Qo'qon ushshog'i”, “Toshkent irog'i” va b.

Suvora janri o'zbek mumtoz musiqasi Xorazm vohasiga xos bo'lib (Farg'ona vodiysida ham suvoralar tarqalgan), o'ziga xos ashula yo'llari singari mumtoz she'riyati bilan bog'liq holda rivoj topib kelgan. Suvora shaklan va usluban ko'proq maqom ashula yo'llariga o'xshash, kuylarining nozikligi va kuychangligi, ohang rivojlanishi, davomli va baland avjlari, o'ziga xos barqaror doyra usuli, ovozga mos keluvchi tor cholg'usi jo'rnavozligi, muazzam umummusiqiy uslubiy tabiati, turkumli shaklning qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Suvoralar o'zining ohangdorligi va maqom ashula yo'llariga xos bo'lgan rivojlanish xususiyatlari bilan Xorazm mumtoz ashula bo'limidan o'rin olgan. Suvoralar yakka yoki aytishuv (diyrilashma) ijro uslublarida keng tarqalgan. Aytishuvlarda bir kuy mazmunida va talqinida turli she'r matnlari ijro etiladi.

Musiqa amaliyotida ashula (Tanovar 1-5, Dilxiroj-Sinaxiroj), Suvora (Ona toj (katta) suvora, Chapandozi suvora, Kajang suvora, Yakparda suvora, Xushparda suvora va Savti suvoralar) va yalla (Katta yalla, Kichik yalla) janrlaridan tashkil topgan turkumlar ham keng tarqalgan. Ashula va yalla janrlaridan iborat turkum (“Yor istab” va “Mustahzod”)lar ham mavjud.

O'zbek mumtoz musiqa janridagi katta ashula

O'zbek xalqining ko'p janrli mumtoz musiqa ijodiyotida **katta ashula** janri salmoqli o'rinni egallaydi. U yirik ashula janri bo'lib, asosan, Farg'ona vodiysiga xos, ikki-to'rt ijrochi (hofiz) tomonidan cholg'u jo'rligisiz ijro etilgan. Katta ashula deb nomlanishiga sabab – bu ashulalar ochiq havoda, katta auditoriya orasida baland va kuchli ovoz bilan, keng diapazonda ijro etilishi va o'ziga xos katta mavzu va ijro uslubiga egaligidadir. Uni xalq orasida «patnis ashula» yoki «patnusaki ashula» deb ikkinchi nom bilan ham atashgan. Ashulani hofizlar qo'llariga patnis yoki likobcha (tarelka) ushlab, ijro jarayonida ovoz yo'nalishini o'zgartirishga hamda o'z va hamnafasi ovozini tinglashga, uni silkitish orqali ovozni to'ldirib, qochirimlar qilishga yordam bergan. Bu ashulalar baland pardalarda ijro etiladi. Bundan tashqari, katta yig'inlarda, to'y-tomoshalarda, mehmondorchiliklarda aytilishi tufayli ham ularga «katta ashula» nomi berilgan bo'lishi mumkin. Katta ashula ijrochidan zo'r qobiliyat va mahorat, shuningdek, so'z bo'g'inlariga e'tibor qilishni, she'rning ma'nosini va so'zlarini dona-dona talaffuz qilib, tinglovchilarga yetkazishni talab qiladi.

Katta ashula janrining asosiy xususiyatlari:

1. Bir vohada shakllanib, rivoj olishi (Farg'ona vodiysida).
2. O'ziga xos ijro uslubi – ikki (yoki uch-besh) xonanda tomonidan cholg'u jo'rligisiz, galma-gal aytilishi.
3. Badihago'ylik (har bir xonanda ijrosida).
4. So'z va kuy mutanosibligi.
5. Professionallik mahorat va qobiliyat mavjudligi (ijrochi professionallik talablariga javob berishi lozim).
6. So'z matnida noshe'riy bo'g'in (a.o) va iboralardan (yor, voyey, jon, adomaney) keng foydalanish (ayniqsa, avj qismida).
7. Ta'sirchanlik.
8. Hamnafaslik (ovoz diapazoni, kuchi, balandligi, tembri, uslubi xonandalarda bir-biriga mos tushishi zarur).

9. Erkin talqin etish.

10. Ijro an'analariga bo'ysunish va rioya qilish.

Katta ashula o'rta asrlarda marosim va mehnat qo'shiq-aytimlari negizida, mumtoz she'riyat va xonandalik ijro madaniyatining rivojlanishi, mumtoz g'azallarni an'anaviy o'qish asosida yuzaga kelib rivojlandi. Uning o'tmishdagi namunalarida ishqiy-lirik g'azallar bilan bir qatorda, didaktik (nasihat), tasavvuf ruhidagi she'rlar ham kuylangan. Keyinchalik esa Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Amiriy, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqa shoirlar she'rlari bilan aytila boshlagan. XX asrda zamonaviy o'zbek shoir (Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, O'tkir Rashid, Erkin Vohidov va b.)lar she'rlari ham qo'llanilgan.

G'azallar xalqimizga mantiqan yetib borishida, ular bilan aytiladigan ashulalarning, ayniqsa, katta ashulaning xizmati juda katta bo'lgan (chunki katta ashulada so'z kuy bilan bir uslubda «nafas» oladi). Ularda she'r va kuy bir-biriga shu qadar uyg'unlashib, bir-biriga singib ketganki, kuyning o'zini alohida eshitganda she'rni ham tinglayotgandek bo'lamiz.

Katta ashula mazmun jihatidan quyidagicha bo'linadi:

1. Falsafiy 2. Ishqiy-lirik. 3. Didaktik. 4. Diniy. 5. Zamonaviy.

Hofizlar, odatda, she'r baytidan boshlang'ich birinchi-uchinchi misralarning har birini navbatma-navbat ijro etadilar. Boshlovchi birinchi misra bilan reja tashlasa, ikkinchi hofiz (agar ikki ijrochidan iborat bo'lsa), shu misrani takrorlaydi. Lekin kuy harakatiga u ayrim o'zgarishlar (variantlar) kiritadi. Keyingi misra bir parda balandroq, ikkala ijrochi tomonidan yana navbatma-navbat aytiladi. Avj qismi ham shunday uslubda yuqori pardalarda ijro etiladi. Har band (bayt)ning oxirgi misrasini tushirganda, goh misra boshidan, yoki misraning yarmidan ashula nihoyasiga yetkazilganda ikkala hofiz birga (unison tarzida) kuylab, ashula daromadini boshlovchi tashlab bergan reja darajasiga tushiriladi. Har bir kuplet shu asosda aytiladi. Navbatma-navbat ijro etish usuli hofizlarga ashulaning har qismi, ayniqsa, avj oldidan nafasni rostlab olishga, baland pardalarga qiynalmay chiqa olishga hamda yuqori avjga tayyorlanishga yordam beradi. Mohir hofiz avjini yuqori pardalarda, baland ovoz bilan ijro etishda hamnafasining ovoz imkoniyatlarini hisobga olinishi kerak. Mahorat bilan ijro etilgan avj o'zining ta'sirchanligi bilan ajralib turadi.

Katta ashulaning kompozitsion tuzilishi to‘rt tarkibiy qismdan iborat: daromad (boshlang‘ich kuy tuzilmasi), o‘rta avj (o‘rta kuy tuzilmasi), avj (baland parda kuy tuzilmasi) va furovard (daromadga qaytish) yoki daromad-avj-furovard. Ba’zi katta ashulalar o‘rta avj yoki katta (baland) avjdan ham boshlanishi mumkin. Bu holda ashula kuyi yuqori registrdan pastki registrga qarab tushib boradi.

Katta ashula kuylari rechitativ-kuychang tarzda bo‘lib, uning kuy harakati bosqichma-bosqich, to‘lqinsimon holda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Sakramalar, peshrav yurishlar kuy tuzilmasida ham qo‘llanadi. Erkin ritmik uslubda ijro etilgan katta ashulalarda kuy tuzilmasi bir nafasda, misra shaklida aytiladi. Shu tufayli katta ashula nota misollarida o‘lchov ishlatilmaydi.

Katta ashula ma’lum bir ohang yoki kuy bilan boshlanadi (bu asosiy kuy mavzusi) va bu kuy ashula davomida bir necha variantlarda ijro etiladi. Katta ashulaning shakllanishida «xang» (xonish, hirgoyi)lar juda katta ahamiyatga ega. Ular katta ashula kuyini kuychang holatga olib keladi.

Katta ashulaning xususiyatlaridan yana biri – bu janr ijrochiligida badihago‘ylikdan keng foydalanishdir. Bu esa undagi rechitativ va ohangdorlikning bog‘lanishini ta’minlaydi, ashulani rang-barang musiqa bezaklari va ichki qonuniyatlari bilan boyitadi. Cholg‘usiz aytish katta ashulalarda ijro vaqtida badihago‘ylik qilishga katta yordam beradi, shuning uchun ham ikki kishi aytgan katta ashula kuy tuzilishi va xarakteri, ritm va naqsh bezaklari (nola, qochirim) bilan ajralib turadi.

Katta ashula janrining taraqqiyoti yo‘lida uning janrlar tarkibi ham kengayib bordi. Katta ashulaning an’anaviy turidan tashqari (ikki hofiz tomonidan aytish) keyingi asrlarda uning turli xillari yuzaga kela boshladi. Xususan, katta ashula “Yovvoyi maqom” - ayrim maqom sho‘balarini (Ushshoq, Chorgoh, Bayot, Segoh va h.k.) katta ashula yo‘llarida jo‘rsiz aytish; katta ashula “yakkaxonlik” - ashula-cholg‘u yo‘li (hofiz va cholg‘u ansambli jo‘rligida); katta ashulaning cholg‘u yo‘llari (nay, surnay, g‘ijjak, tanbur va dutor uchun). Bu turlari XIX asrdan boshlab Farg‘ona vodiysida keng tarqaldi.

“Yovvoyi maqom yo‘llari” ikki uslubda aytilgan. Birinchi uslubda maqom sho‘basi ohangida tuzilgan kuy daromad va furovard qismlarida hofizlar tomonidan unison tarzidagi ritm-usulda ijro etiladi, avj qismi erkin ritmik holatda navbatma-navbat aytilgan. Ikkinchi uslubda maqom sho‘balarida katta ashulaning an’anaviy yo‘lida (navbatma-navbat

aytish) ijro etiladi. “Yovvoyi ushshoq”, “Yovvoyi chorgoh” yoki “Patnisaki chorgoh”, “Patnisaki segoh”, “Yovvoyi bayot”, “Yovvoyi munojot”, “Yovvoyi tanovar” kabi katta ashulalar ushbu turga mansubdir.

Katta ashulaning “yakkaxonlik” yoki ashula-cholgʻu yoʻli XX asrda Joʻraxon Sultonov tomonidan ijod etilgan. Bu katta ashula yoʻlida cholgʻu ansambli ikkinchi hofiz, hamnafas vazifasini bajaradi. Cholgʻu ansambli boshlovchi kuy orqali reja tashlaydi, keyinchalik hofiz aytganda asosiy pardani ushlab (rez uslubida) turadi, hofizning ijrosi erkin uslubda, baland pardalarda namoyon boʻladi, masalan, «Ohkim», «Guluzorim qani», «Jononim mening», «Hanuz», «Bir kelib ketsun». Ushbu yoʻldagi katta ashulalar turkum sifatida ham ijro etilgan – katta ashuladan keyin (ovozni rostlab olish uchun) yalla yoki ufar yoʻlidagi asarlar aytilgan, jumladan, “Yor istab va Mustahzod”, “Topmadim”, “Soʻrmaysan”, “Namangan” va “Ey sanam” va b.

“Namangan” (Gavhar soʻzi) katta ashula yoʻli uch hofiz tomonidan navbatma-navbatma dilkash va nozik kuyida ijro etilib, erkin uslubda baland pardalarda namoyon boʻlsa; “Ey sanam” (Mashrab sheʼri) hamda hofizlar tomonidan birga aytilib, ufor usuliga mos jozibali ohangda talqin etiladi.

Katta ashulaning yakka cholgʻuga moʻljallangan cholgʻu yoʻllari, yaʼni “patnis cholgʻu yoʻllari” - mavjud boʻlgan ashulalarning cholgʻular uchun yaratilgan variantlaridir. Patnis cholgʻu yoʻllarining mavjudligi, katta ashula ohangining mustaqilligi, kuy mazmunining oʻziga xosligi, taʼsirchanligi, kuylarining keng diapazonligi, boy badiiy vositalarga ega ekanligidan dalolat beradi. Usulsiz chalinadigan nay, Gʻijjak va tanbur yoʻllari (“Yovvoyi chorgoh”) shakl, kuy rivoji va diapazon jihatidan ancha katta va keng boʻlsa, surnay yoʻllari (“Navo”, “Yakkaxonlik”, “Begi sulton”) kichik, diapazoni ham torroqdir, dutor yoʻllari (“Yovvoyi tanovar”) cholgʻuning mavqeyi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan.

Katta ashula janri XX asrda oʻzgacha ohang, mavzu, yangicha uslub kasb etdi. Uning anʼanaviy va yangi zamonaviy turlari yuzaga keldi, ijrochilik uslubi ham oʻzgardi. Xalq orasida “Bir kelsun”, “Koʻp erdi”, “Quling”, “Adashganman”, “Ohkim”, “Ey dilbari jononim”, “Kanal”, “Yovvoyi chorgoh”, “Boʻston”, “Aziz dehqonlar”, “Oʻzbekiston”, “Mehnat ahli”, “Qoyilman” kabi katta ashulalar hofizlar repertuaridan oʻrin olgan.

Katta ashulaning rivojlanish jarayonida uning yirik ijrochilik maktablari shakllandi. Har biri o‘z an‘analari, ijro uslublari va repertuari bilan ajralib turadi: Qo‘qon (Rahmonqul tiki, Xolqori, Hamroqul qori, Erka qori Karimov, Sherqo‘zi Boyqo‘ziyev, Abbos qori Boboyev, Meliqo‘zi Yusupov, O‘tamboy Sarimsoqov, Haydarali Hikmatov, Turdiali Ergashev, Rasul qori Mamadaliyev), Marg‘ilon (Mamatbuva Sattorov, Boltaboy Rajabov, Saidmuzaffar Azizov, Jo‘raxon Sultonov, Ma‘murjon Uzoqov, Solijon Hoshimov, Ibrohimjon Ishoqov, Musajon Orifjonov), Andijon (Odiljon Yusupov, Nabijon Saidnazarov, Jo‘rajon va Ergashvoy Yusupovlar, Fattohxon Mamadaliyev), Toshkent (Akbar qori Haydarov, Eshmat Haydarov, Ochilxon Otaxonov, Orif Alimahsumov, Orifxon hotamov), Namangan ijrochilik maktablari va boshqalarning faoliyati katta ashulaning keng tarqalishiga muhim hissa qo‘shib, hozirgi kunlarda ularni saqlab, rivoj olishiga, yosh ijrochilarni tarbiyalashda, zamonaviy bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotlarida o‘rin egallashga imkon yaratmoqda.

Hamroqul qori To‘raqulov (1873-1943) – mashhur va mohir katta ashulachi, keng diapazonli tik ovoz sohibi, Qo‘qon ijrochilik maktabining yirik namoyandasi. Ko‘p yillar davomida o‘z ustozlari va hamnafasi, taniqli hofiz Xolqori bilan katta ashulalarni aytib kelgan. Shoirnafas, xotirasi o‘tkir, badihago‘ylik uslubining ustasi. Alisher Navoiy, Muqimiy, Furqat, Miskin, Xislat she‘rlari bilan aytiladigan katta ashula (Bir kelib ketsun, Kelibman dargohingga, Muncha ham, Ey, dilbari jononim, Topmadim va b.)lar repertuaridan o‘rin olgan. Shoir haziniy bilan juda yaqin ijodiy va do‘stlik aloqada bo‘lgan va uning she‘rlarini kuyga solib, katta ashula yo‘lida mohirlik bilan ijro etib kelgan. hamroqul qori ijro etgan katta ashulalar 1907-yili Riganing “Grammofon” va “Pihuhiy amur” firmalari tomonidan grammofon plastinkalarda yozib olingan. Qo‘qon va Toshkent katta ashula ijro maktablarini rivoj olishiga katta hissa ko‘shgan.

Erka qori Karimov (1880-1954) - taniqli va sevimli hofiz-katta ashulachi va askiyachi. O‘zbekiston xalq hofizi (1937), Qo‘qon ijrochilik maktabining yirik namoyandasi. Kuchli va baland ovoz sohibi, ziyrak va o‘tkir xotiraga, mohir badihago‘y ustasi bo‘lgan. Ko‘prok qo‘qonlik shoir (Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Xaziniy, Pisandiy)lar she‘rlari bilan aytiladigan katta ashula (Yolg‘iz, Poshsho pirim, Ey, chehrasi tobonim, Yovvoyiy Chorgoh, Kanal va b.)lar repertuaridan o‘rin olgan. 1937 yili Moskvada bo‘lib

o'tgan o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasi katta ashulalar ijro etib, tinglovchilarni hayratga qoldirgan. Ko'pgina yosh xonandalarga ustozlik qilgan. V.A.Uspenskiy tomonidan Erka qori Karimovdan qator katta ashula yo'llari yozib olingan.

Mamadbuva Sattorov (1885-1969) - mashhur va mohir katta ashula ustasi, O'zbekiston xalq hofizi (1939). Marg'ilon ijrochilik maktabining yirik namoyandasi. Jarangdor va baland ovoz sohibi, o'tkir xotira va badihago'ylikka ega bo'lgan. Katta ashulaning "yovvoyiy maqom" uslubi mohir ijrochisi. Repertuarida an'anaviy va zamonaviy katta ashula yo'llari, ashula va yallalar o'rin olgan (Ko'p erdi, Aylading, Surmaysan, Judo qilma, Ulkun jonon, Quling, Adashganman, Yovvoyiy Chorgoh, Patnusaki Segoh, Yovvoyiy Bayot, Chapandozi gulyor, Ey, dilbari jononim va b.). Ustozi va hamnafasi bo'lmish, Boltaboy hofiz Rajabov bilan ko'p yillar davomida katta ashula yo'llari aytib kelgan. Ular ijrosidagi katta ashulalar San'atshunoslik instituti fonotekasida saqlanib kelmoqda, gramplastinkalarda chop etilgan. Mamadbuva Sattorov o'z shogirdlari, Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqovlar bilan ham katta ashula, ashula va yallalarni ijro etib kelgan.

Jo'raxon Sultonov (1903-1965) – taniqli hofiz, sozanda (tanbur) va bastakor, O'zbekiston xalq hofizi (1939). Marg'ilon ijrochilik maktabining yirik namoyandasi. O'ziga xos kuchli va shirali ovoz sohibi, mohir sozanda, bilimdon ustoz, o'tkir askiyachi va ijodkor-bastakordir. San'atkorlar orasida "katta ashula piri" nomiga sazovor bo'lgan. An'anaviy va zamonaviy katta ashula yo'llari repertuaridan o'rin olgan (Yovvoyiy Chorgoh, Ohkim, Bir kelsun, Ey, dilbari jononim, Bog'aro, Xanuz, Bo'lmish va b.). Ashula-cholg'u yo'lidagi yakkaxonlik katta ashulalarni ijod etgan (Guluzorim qani, Ohkim, Xanuz, O'zbekistonda va b.). J.Sultonovning o'ttiz yillik ijodiy- ijrochilik faoliyati hamnafasi Ma'murjon Uzoqov bilan bog'langan holda o'tdi va ular katta dovrug' qonishdi. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, xorazm suvorolari, ashula va yallalar ham hofiz tomonidan ijro etilib kelingan. Bastakorlik ijodiyoti ham sermahsul bo'lib, sermazmun qo'shiq va ashulalar ijod etilgan. J.Sultonov ijro etgan "Naylayin", "O'lmasun", "Xanuz", "Feruz", "Besh parda suvora", "Bormukin" va b. xaligacha tinglovchilarga zavq-shavq baxshida etmoqda.

Ma'murjon Uzoqov (1904-1963) - taniqli hofiz va sozanda (dutor), O'zbekiston xalq hofizi (1939). Marg'ilon ijrochilik maktabining yirik namoyandasi. Keng diapazonli shirali, maftunkor va dovudiy ovoz sohibi. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, katta ashula, ashula va yallalarning mohir ijrochisi. O'zbek ashulachilik san'atida o'ziga xos ijro uslubini yaratdi, o'z qo'shiq va yallalari bilan ijrochilik olamida yangi sahifa ochdi va chinakam dovr qozondi. J.Sultonov bilan ijodiy hamnafaslikda bo'lgan. M.Uzoqov ijro etib kelgan katta ashula (Xanuz, Ohkim, Bog'aro, Yovoiy Chorgoh, Yog'iz, Yo istab va b.), ashula (Otga mindim, Mubtaloman, Naylayin, Ey sabo, Nasihat va b.), maqom ashula yo'llari (Bayot 2-3, Chorgoh, Dugoh-husayniy 4, Feruz va b.) va, ayniqsa, yalla ("Surating", "Ko'zlaring", "Mustahzod", "Ayrulmasun", "Fig'onkim", "Sho'xi parivashga", "Yakka bu Farg'onada", "Aylasam", "Qalam qoshliging", "Sarvi qomat" va b.)lar musiqiy xazinamizdan mustahkam o'rin olgan. hofiz ijro etgan har bir ashula yoki yalla shinavandalarda zo'r shodiyonlik, hozir ham hamon qalblarni larzaga solib kelmoqda.

Katta ashula yo'llari xalqimiz orasida mumtoz musiqa merosimizning noyob boyligi sifatida yashayveradi va yangidan-yangi musiqa asarlarini yaratishda hayotbaxsh manbalardan biri bo'lib qoladi.

16-17 laboratoriya mashg'ulotlari.

Mavzu: "Feruz tukumlaridan " Feruz 2- Ogahiy g'azali.

Maqsad: "Feruz 2- " Ogahiy g'azali. Asarning avj va furovard qismlarini kuylash malakalarini shakllantirish, badiiy va ijrochilik tomonlarini puxta o'zlashtirish.

R E J A:

1.Asarning avj qismidagi matni ma'nosi va aruz vaznidagi g'azal ohangi ijrosi ustida ishlash.

2.Asarning furovard qismidagi badiiy musiqiy ijrosi ustida ishlash. murakkab nolali joylarni kuylab ko'rsatib berish.

3.Yakka ijroda har bir ijrochi bilan kuylatishga erishish.

Tayanch tushunchalar: G'azaldagi murakkab ma'noli so'zlar.

Mashgʻulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: Ovoz sozlash mashqlarini kuylatish, oʻtilgan asarlardan takroriy ijrolarni bajarish.

II. Berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, oʻrganilgan material yuzasidan talabalardan soʻrash. Asarlarni takrorlash.

III. Yangi mavzuni bayon qilish: Kirish, Asarni namunaviy ijroda avj va furovard qismini kuylab koʻrsatib berish. : Asarning murakkab nola va bezaklari ijrosi ustida ishlash.

Asarning DVD, SD variantlardagi ijrolaridan foydalanish. Nola va bezaklar ustida ishlash. Nafas olish, diksiya, talaffuz ustida ishlash.

IV. Oʻrganilgan materialni mustahkamlash uchun savollar:

1. Kuylash jarayonida talabalar oldiga qanday maqsad va vazifalar qoʻyilgan?
2. Kuylash jarayoni qanday faoliyatlardan iborat?
3. Kuylashda nola va bezaklarning ahamiyati qanday?

V. Yakuniy qism:

a) Mashgʻulot davomida talabalar olib borgan faoliyatni tahlil qilish va baholash.

b) Uyga topshiriqlar, vazifalar berish:

Mashgʻulotdan kutilayotgan natijalar

Mashgʻulot yakunida talabalar quyidagilarni bilishlari zarur:

1. Asarning birinchi qismini kuylash malakalarini shakllantirish.
2. Nola va bezaklarning oʻrni haqida gapirib berish.
3. Ashulaning dinamik ijrosini shakllantirish.
4. Ashula aytishda mashqlarning ahamiyati haqida aytib beradi;





16-17- mavzularni mustahkamlash uchun savollar.



- 1.Yalla janri haqida gapirib bering.
- 2.Ashula janri qanday janr?
- 3.Tanovar turkumlari haqida ma'lumot bering.
- 4.Suvora janri qanday janr?
- 5.Katta ashula janri haqida ma'lumot bering.
6. Katta ashula janrining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Katta ashulaning kompozitsion tuzilishi necha qismdan iborat?
8. Hamroqul qori To'raqulov (1873-1943), Erka qori Karimov (1880-1954), Mamadbuva Sattorov (1885-1969) , Jo'raxon Sultonov (1903-1965), Ma'murjon Uzoqov (1904-1963) lar ijodiy yo'li haqida gapirib bering.
9. "FeruZ tukumlari " ashulasining mualliflar haqida gapirib bering.
10. Asarni yoddan kuylab bering.

Feruz II


Ogahiy g'azali

M.M. ♩=69






oq siy - na - yu, no - - - zik be - ling,
rashk o' - ti - din xo - - - li la - bing,



Sol - di
Ko'ng - lum -



qa - ro kun bo - shi - ma
ga yet - kur - - - di tu - man



ik - ki qa - ro qo - - -
dar - du ba - lo qo - - -



shu ko' - zing, (yor - yo -
shu ko' - zing, (yor - yo -



ray)
ray)



Ham yuz

o'lik - ni tir - gu - zur

la' - ling a - ro shi - -

-rin so' - zing, (yor - yo -





ray),

Ham ming

ti - rik - ni o'l - du - rur

ay - lab ja - fo qo -

shu ko' - zing, (yor - yo -



Vah, ne balodur bilmadim, ey dilrabo, qoshu ko‘zing,
Kim bir nazarda soldi o‘t jonim aro qoshu ko‘zing.

Oldi qaroru toqatim oq siyna-yu, nozik beling,
Soldi qaro kun boshima ikki qaro qoshu ko‘zing.

Joning‘a qo‘ydi dog‘lar rashk o‘tidin xoli labing,
Ko‘nglumga yetkurdi tuman dardu balo qoshu ko‘zing.

Ham yuz o‘likni tirguzur la‘ling aro shirin so‘zing,
Ham ming tirikni o‘ldurur aylab jafo qoshu ko‘zing.

Qoshu ko‘zing bedodidin dod aylasam ermas ajab
Kim, ne jafolar qilmadi oxir manga qoshu ko‘zing.

Husn ahli shohisen bori oshiqclaring o‘ldurgali,
Go‘yoki jallodu qilich bo‘lmish sanga qoshu ko‘zing.

Man zori hayroning nechuk devona bo‘lmay, ey pari
Kim, aqlu hushim ayladi mendin judo qoshu ko‘zing.

Yo‘qdir manga ishqing aro yurmoq tirik imkonikim,
Jonimni yo qaddi yuzing olg‘usi, yo qoshu ko‘zing.

Shirin labingdin Ogahiy jismig‘a jon berkim oni,
O‘lturdi bir iymo qilib boqqach qiyo qoshu ko‘zing.

QO'SHIMCHA KUYLASH UCHUN

ASHULALAR

Farg'ona tong otguncha

Andante ♩=60

Xaziniy she'ri
M.Murtazoyev musiqasi

The musical score is written in 2/4 time with a key signature of one flat (B-flat). It consists of five staves. The first four staves contain instrumental notation. The fifth staff includes lyrics in Uzbek. The tempo is marked 'Andante' with a metronome marking of ♩=60. The score includes various musical notations such as eighth notes, quarter notes, half notes, and triplets.

1. Qizlar
2. Yigitlar

Hij - ron o' - ti - g'a bag' - ri - ma

so - zo - na tong ot -

- gun - cha O'r - tab

yu - ra - gim jis - mi - ma

yo ray

gir - yo - na tong ot - - - ot - - - cha

pf Men Vo -

mi - qu sen Uz - - - ro

vas - ling - ga ye - tol - - - mas - ma - no

Har ke - cha qa - ror -

- - go - hi - ma o

yo - ray os - to - na

tong ot - - gun - - cha

mf

1. Qizlar
2. Yigitlar

Oq - shom - da ja - mo -

ling - - ni

sham i - la mu - nav - - var qil

Sen bir -

la bo' - lay an - da - yo

O... yo - ray

ham - xo - na tong ot - - gun - - cha

Nay - lay -

ki i - lo - - jim yo'q

har go' - sha - da yig' - lar ma - no

o...

nay - lay - ki i - lo -

- jim yo'q Har go' -

sha - da yig' - - lar ma - no

Tor o'l - di Ha - zi - - -

- niy - ga yo o

yo - ray Far - g'o - na tong ot -



Hijron o'tig'a bag'rim so'zona tong otguncha,
 O'rtab yuragim jismim giryona tong otguncha.
 Men Vomiqu sen Uzro vaslingga yetolmasman,
 Har kecha qarorgohim ostona tong otguncha.

Oqshomda jamolingni sham ila munavvar qil,
 Sen birla bo'lay anda hamxona tong otguncha.
 Naylayki ilojim yo'q har go'shada yig'larman,
 Tor o'ldi Haziyniyga Farg'ona tong otguncha.

CHOR ZARB

Amiriy g'azali



7



Qo - shing - ga - te

13



kuz - ma - g'il qa - lam - ni bu xat bi - la buz - ma - g'il ra - qam

18



ni o. But - xo - na - lar ich - ra

25



hech - tar so, bir ko'r - ma - di sen ka - bi sa - nam - ni, bir ko'r - ma - di

31



sen ka - bi sa - nam - ni bir ko'r - ma - di sen ka - bi sa - nam - ni

37



oh yo - rey o, bir ko'r - ma - di sen ka - bi

43



sa - nam - ni Yo' - ling - da g'u - bori - roh

49



bo'l - dum, yo'l - ling - da g'u - bori - roh bo'l - dim sayd et - ma ka

55



bu - ta - ri ha - kam - ni Yo' - ling - da g'u

61 bori -roh bo'l- dum, sayd- et- ma ka- bu - ta- ri Ha-ram- ni, sayd -et- ma ka

67 bu - ta - ri Ha-ram- ni sayd - et - ma ka - bu - ta - ri Ha - ram- ni sayd- et -ma ka

73 bu - ta - ri ha - ram - ni oh yo - rey o,

79 sayd- et- ma ka- bu - ta- ri ha - ram - ni, ni

Qoshingga teguzmagil qalamni,

Bu xat bila buzmagil raqamni,

Butxonalar ichra xech tarso,

Bir ko'rmadi sen kabi sanamni.

Yo'lingda g'ubori roh bo'ldim,


Sayd etma kabutari haramni,



BIR ISHVA BILAN

Xamza g'azali
M.Murtazoyev musiqasi

Bir ish va b(i)-lan jo non(a), (do
da) de-vo - na qi-lib ket - di,
13 Aq-lim - ni so- chib har yon-(a),
19 (do dey) mas-to - na qi lib
25 ket - di. Av-val - da o - lib
31 ko'ng - lim, chin ah - du va-fo
37 bir - lan, Av-val - da o-lib
43 ko'ng lim(o), (do - dey) chin ah -
49 du va-fo bir - lan, o - xir -





Bir ishva bilan jonon devona qilib ketdi,
Aqlimni sochib har yon mastona qilib ketdi.

Avvalda olib ko'nglim chin ahdu vafo birlan,
Oxirda jafolarga hamxona qilib ketdi.



AYRILMASUN

Muqimiy she'ri



Do‘stlar hech kim meningdek yoridin ayrilmasin,
Mexribon munis o‘shal dildoridin ayrilmasin.

Xonimon darbod o‘lib vasliga yetmay birgina,
Maxrumi mayusi yo‘qi boridin ayrilmasin.



Sayyora

Xalq kuyi
Furqat she'ri

5 Say-ding qo'-ya ber say - yod,

9 say - yo - ra e - kan men-dek,

13 Ol - do mi - ni bo'y - ni - din,
O'z yo - ri - ni top - mas - dan

17 be - cho - ra e - kan men - dek,
o - vo - ra e - kan men - dek,

21 Iq - bo li ni - gun bax - ti
Hij - ron o' - qi - din jis - mim

25 ham-qo - ra e-kan men - dek,
ko'p-yo - ra e-kan men - dek,

29 kuy-gan ji-ga - ri bag' - ri

33 sad - po - ra e - kan men - dek.

37 Be - cho - ra - ga zulm ay - lab

41 qo'l-bo'y - ni - ni bog' - lab sen,

45 Har - so - ri che-kib sud - rab
Ko'k - si - ni ja - fo bir - lan

45
o'l - dur - g'a - li chor - lab - sen,
49 lo - la ka - bi dog' lab - sen,
53 Sot - men - ga a - gar, qas ding
Hij - ron o' - qi - din jis - mim
57 ol - g'uv chi so' - roq - lab - sen,
ko'p yo - ra e - kan men - dek,
61 Kuy - gan ji - ga - ri bag' - ri
sad - po - ra e - kan - men dek
64
pp

Sayding qo'yaber sayyod, sayyora ekan mendek,
Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek,
O'z yorini topmasdan ovora ekan mendek,
Iqboli nigun baxti ham qora ekan mendek,
Hijron o'qidin jismim ko'p yora ekan mendek.
Kuygan jigari bag'ri sadpora ekan mendek.

Bechoraga zulm aylab qo'l-bo'ynini bog'labsen,
Har sori chekib sudrab o'ldirgali chog'labsen,
Ko'ksini jafo birlan lola kabi dog'labsen,
Sot menga agar qasding olg'uvchi so'roqlabsen,
Hijron o'qidin jismim ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari bag'ri sadpora ekan mendek.

BAYOT I

Fuzuliy g'azali



8



15



23



30



37




44





II



101

mi g'o - fil, ka - vo - kib

108

say - ri - ni shab to - sa-xar be - dor o'-lan - dan so' - rey.

115

o - Jo - ney.

122


xa - bar - siz o'l - ma fat - ton ko'z - la - ring jab

129

rin che - kan - lar - da - no Jo - ney.

136

Xa - bar siz mast - lar be - do - di - ni xush









Shifoi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,
Zuloli zavq-shavqin tashnai diydor o'landan so'r.

Labing sirrin kelib guftora bandan o'zgadan so'rma,
Bu pinhon nuqtani bir voqifi asror o'landan so'r.

Ko'zi yoshlularing holin na bilsin mardumi g'ofil,
Kavokib sayrini shab to sahar bedor o'landan so'r.

Xabarsiz o'lma fatton ko'zlaring jabrin chekanlardan,
Xabarsiz mastlar bedodini xushyor o'landan so'r.

G'amingdan sham'tak yondim, sabodan so'rma ahvolim,
Bu ahvoli shabi hijron banimla yor o'landan so'r.



Xarobi jomi ishqam, nargisi masting bilur holim,
Xarobod ahlining ahvolini hummor o'landan so'r.

Muhabbat lazzatidan bexabardur zohidi g'ofil,
Fuzuliy, ishq zavqin zavqi ishq'i vor o'landan so'r.

BAYOT II

A.Navoiy g'azali







52



57



62



66



71



75



80



O - shiq - bo'-lur -

85



da bil ma - dim

men no - ta - vo -

89



ni xas - ta - kim,

xajr o'l - sa, g'am

93



kuy - dur - gu - si, ey

vasl o'l - sa yor

97



o'l - tur - g'u - si ey.

Ko'r - go - ni kel

101



dim so - g'i nib____

106



111



115



121




126



130





Bir kun meni ul qotili Majnun shior o'lturg'usi,
Usruk chiqib, javlon qilibdevonavor o'lturg'usi.

Gar za'f ila ojizlig'in ko'ngliga rahme solsa ham,
Boshimg'a yetgach sekretib beixtiyor o'lturg'usi.

Vasli aro gar o'ltirur, jonimg'a yuz ming shukr erur,
Chun qolsam andin bir zamon, hijroni zor o'lturg'usi.

Oshiq bo'lurda bilmadim, men notavoni xastakim,
Xajr o'lsa g'am kuydirgusi, vasl o'lsa yor o'lturg'usi.

Derlar Navoiy qatlig'a gul-gul ochibdur orazin,
Ko'rguncha oni voykim, bu xor-xor o'lturg'usi.



BAYOT III

A.Navoiy g'azali

Do'st-lar, men tel - ba

ah - vo - li - g'a yig'- lang zor zor

kim, so-lib-dur goh - goh o't ko'ng - lum - ga

tush gan xor - xor.

Is - ta - mas bo'l sa sa -bo bir - bir

ko'n- gul jam' ay - la - mak,

ne - ga zul - fing - ning pa - ri - shon -li - g'i -



38 3

Eg ning - ga xush - xush ki, sol - mish cho'g'

40

da an - bar bor bor. o

43

Hal - qa - hal - qabo'y - ni - ma sol mish ta - no

46

bi zul - fi - ni o

49

Jur - mi - ish - qim - g'a ma - gar hukm ay -

51

la-di dil - dor - dor. o

54

Ey, Na-vo - uy, bo'l - di ul but ko - fi - ri



Do'stlar, men telba ahvolig'a yig'lang zor-zor,
Kim solibdur goh-goh ot ko'ngling'a tushkan xor-xor.

Istamas bo'lsa sabo bir-bir, ko'ngil ja'm aylamak,
Nega zulfingning parishonlig'idan aylar tor-tor.

Sen quyosh birla munosibsan o'yinda, Xoblar,
Ikki-ikki, chunki kirgaylar toshib yor-yor.


Qo'rqaramkim, bo'lmagay ozurda, nozik qomating,
Egningga xush-xushki, solmish cho'g'da anbar bor-bor.

Halqa-halqa bo'ynima solmish tanobi zulfini,
Jurmi ishqimg'a magar hukm ayladi dil dor-dor.


Ey, Navoiy, bo'ldi ul but kofiri otashparast,
Ne ajab voh-voh, gar ursa jonimg'a zinnor nor.

BAYOT V

A.Navoiy g'azali



5



9



13



17



20



23






To muhabbat dashti bepoyonida ovoraman,
Har baliyat kelsa ishq oshubida bechoraman.

El netib topgay menikim, men o'zimni topmasam,
Bo'ylakim ishq junun sahrosida ovoraman.


Qaysi zaxming'a qilursan chora chun men ey rafiq,
Tiyri boroni baliyatdan sarosar yoraman.

Ey Navoiy, bordi deb, ahvoli ta'jil etma ko'p,
It kabi men ergashib ul korvonni boraman.



SAMARQAND USHSHOG'I

Zebuniso she'ri











Biyoki zulfi kaju chashmi so‘rmaso injost,
Nigoxi garmu adoxoyi dilrabo injost.

Karashmati g‘umicha xanjari nigox olmas,
Shahodatar talabi dashti karbalo injost.

Agar bexisht dixandat firebi kasma xuri,
Qadamzi maynada berun manexki jo injost.

Kitob xonai olam, varaq-qaraq justam,
Xati tudi damu guftamki “Muddao injost”.

Zakoti xusni agar medixi baroyi rizo,
Biyoki Zebuniso, xam chu man gado injost.



SAVTI SUVORA

Munis g'azali

1
Ko'ng - li - ma

6
bir gul - g'a - mi - din so - chi-lib - dur xor lar. Ox kim, har xor - din

11
jo - nim o - lur do - zor - lar. Ay - la - mish ko'ng - lim ni Maj - nun

15
jil va yi Lay li va ish, Kim - a - siri g'am za - si dur lar (ai) pa - ri

20
rux sor lar. Kim - a - si ri - g'am - za - si dur - lar (ai) pa - ri

24
rux - sor lar. Tur - fa - ay - yo - ri ki - din

29
nan - zan (ay) o - lur da - tur - ra - si, O'r - ga nur - lar - on - din - o'g' - ri

33
lik (ay) i - shin tar - ror - lar. O'r - ga - nur - lar - on - dan - o'g' - ri - lik (ay) i - shin

38
tar - ror lar. (o)

44
Gar - di - shi chash - mi - da - dur kay - fi - ya - ti dav - ri - qa - dah

50
men bi - lib dur - man - ki - bil - mas - lar (ay) a - ni xush - yor - lar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev.Sh.M. “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2017-yil 17-noyabr.
2. Mannopov S. O‘zbek xalq musiqa madaniyati.. Toshkent. 2004-yil. 41-bet.
3. Uspenskiy V.A. Shashmaqom. Moskva. 1924.
4. Yusupov M. Xorazm maqomlari. 2 tom.1 qism. Navo.Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.1982-yil.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.2004-yil. 2,9 tomlar.214,513 betlar.
6. Xo‘jamqulov P.B., Mamedyarov T.X. Xorazm maqom san’atiga bir nazar. Angren 2008-yil.
7. Bo‘riyeva K. An’anaviy xonandalik (ayollar ovozlari uchun) Akademik litsey va kollej o‘quvchilari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent. 2008-yil.
8. Ma’lumot: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent 2004-yil.
9. Matyoqubov O.Xorazm dutor maqomlari va olti yarim maqomi.
Toshkent 2018-yil
10. Xudoynazarov M. Hojixon Boltayev. Toshkent 2014
11. Hayitmetov A. Asher Navoiy (1441-1501). <http://e-adabiyot.uz /uzbek/mumoz/1119-maqola.html>
12. Jalilov Marim. Qo‘shiqlar xrestomatiyasi. 2-kitob. Toshkent, 2003. 103 bet.
13. Sharipova G.M. Musiqa va uni o‘qitish metodikasi. T. “Turon-iqbol”. 2011. 167 bet.
14. Qodirov D. Pedagogik ta’lim. Talabalarning kuylash malakalarini shakllantirishda hijo va bezaklar ustida ishlash. 6-son. 2017 yil.
15. Matyoqubov O. “Maqomot”. “Musiqa” nashriyoti, Toshkent 2004 y. 309 bet.
16. Hamidov H., Hakimjonov A. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda o‘g‘lining “Xorazm musiqiy tarixchasi” risolasi haqida. 8 bet.
17. Obidov D.N. “O‘zbek mumtoz musiqasining rivojlanish jarayonlari” mavzusidagi dissertatsiyasi. Urganch-2018 yil. 41 bet.
18. Shamsiyev Sh. O‘zbek xalq ashulachilik tarixiga bir nazar.
19. Safarov O. Shashmaqom vatani ohanglari. 2008 yil. Badii asar-Pedagogika.

20. Ryui Gonzales de Klavixo. Jizn i deyaniya velikogo Temirlana: dnevnik puteshestviya po dvoru Temura v Samarkande.1403-1406.str.136.
21. Isroilova – Qosimova H. An'anaviy hofizlik san'ati (Yakkaxon qo'shiqchilik) San'at, madaniyat kollejlari va akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma. "Voriz-Nashriyot" Toshkent- 2007 yil.

Internet saytlari

- 1.<http://naurok.mpedagog.ru/musiqamadanijati-darslarida-o'qvchilarga-maqomlar-haqida-tushunchalar-berib-borish-mavzusida-metodik-tavsiyalar-shar.html>
2. [.uz.denimetr.com/docs/769/index-31848-1.htmlpage=](http://uz.denimetr.com/docs/769/index-31848-1.htmlpage=)
- 3.ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/.../332-mumtoz-ashula-yalla
- 4.ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/elements
- 5.<http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/244000000>
- 6.<http://dilnoma.uz/?p=538>
- 7.Manba : <http://www.maqom.uz/maqom-yunalishlari/>
8. <https://ziyouz.uz/jahon-she'riyati/ozarbayjon-she'riyati/fuzuliy/>
- 9.Muhammad Fuzuliy (1498-1556)
- 10.<https://arboblar.uz/uzkr/people/lutfi>
- 11.<http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-2/328-mumtoz-ashula-cycles>
12. <http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-2/330-suvora>

Mundarija

1.So‘zboshi.....	5
I-bob. Nazariy qism.	9
1.Mumtoz ashula.....	15
2.Katta ashula.....	17
3.Xorazm maqomlari.....	19
4.Suvora yo‘llari.....	22
5.Dutor maqomlari	34
6.Qoraqalpoq va Xorazm dostonchilik maktabi.....	52
II-bob.Xorazm ashulachilik maktabi namoyandalari.....	56
III-bob. Nazariy va laboratoriya mashg‘ulotlarining mavzulari.....	82
1-Laboratoriya D.Zokirov musiqasi “Ko‘rmadim”.....	86
Kuylash malakalarini shakllantirish. Kuylash texnikasi.....	95
2-Laboratoriya mashg‘uloti mavzusi “Ko‘rmadim”.....	101
“Binnigi” uslubi.....	104
3-Laboratoriya mashg‘uloti.....	108
Fuzuliy g‘azali K.Jabborov musiqasi.“Etmasmidim”.....	109
4-5-laboratoriya mashg‘uloti.Kjabborov musiqasi,Fuzuliy g‘azali.....	116
O‘zbek bastakorlik san’ati tarixi	124
O‘zbek bastakorlik san’atida xududiy uslublar.....	128
6-7-Laboratoriya mashg‘ulotlari.“Buko‘ngil.....	130
8-9- Laboratoriya mashg‘ulotlari.....	134
Buxoro-Samarqand bastakorlik maktabi namoyandalari:.....	136
Toshkent-Farg‘ona bastakorlik maktabi namoyandalari:	141
8-9-Laboratoriya.Neajab O. Nuriddinov musiqasi, Navoiy g‘azali.....	148
10-11-mashg‘ulotlari.....	152
Xorazm bastakorlik maktabi namoyandalari:	154
Matniyoz usupov xayoti va ijodi	159
Abdusharif Otajonov xayoti va ijodi.....	167
Rahmon Allaberganov xayoti va ijodi	172
Ulug‘bek Musaev xayoti va ijodi	173

O'ttizinchi-qirqinchi yillar bastakorlik san'ati namoyandalari:.....	178
10-11-Laboratoriya "Koshki" Yu.Rajabiy musiqasi.....	183
12-13- mashg'ulot 50-60-yillar bastakorlik san'ati namoyandalari:	185
70-80-yillar bastakorlik san'ati namoyandalari:	190
12-13-laboratoriya "Yormehri" Yu.Rajabiy musiqasi, A.Navoiy g'azali.....	195
14-15-mashg'ulotlar.O'zbek mumtoz musiqa janrlari.....	197
O'zbek mumtoz cholg'u musiqasi.....	203
14-15 Laboratoriya mashg'ulotlari. "Figonkim" Furqat g'azali.....	208
O'zbek mumtoz yalla va ashula janrlari.....	210
O'zbek mumtoz musiqa janridagi katta ashula.....	214
16-17-laboratoriya.Feruz tukumlaridan	220
Farg'ona tong otguncha.....	228
chor zarb.....	233
Bir ishva bilan.....	235
Ayrimlasin.....	237
Sayyora.....	239
Bayot I.....	240
Bayot II.....	247
Bayot III	253
Bayot V.....	257
Samarqand ushshog'i.....	260
Savti suvora.....	265
Foydalangan adabiyotlar ro'yhati.....	267
Mundarija.....	269

Samandar Xudayberganov

“An’anaviy xonandalik” fanidan

Darslik

Texnik muharrir:

Farog’at Solieva.

Notalar muharriri

Doniyor Obidov

bosishga 03.03.2020. yilda ruxsat etildi. bichimi 60x84 1/32. tayms garnitura. Ofset bosma. 33,5 shartli bosma toboq. Nashr bosma tobog’i 33,5 б/т. Jami 100 nusxa.

Buyurtma №.....

Bahosi shartnoma asosida.

“Urganch Master servis” MCH

Bosmaxonasida chop etildi.

(to’plovchi va notaga oluvchi (S,Xudayberganov). Oliy va o’rta maxsus ta’limi o’quv yurtlari, hamda ixtisoslashgan bolalar musiqa va san’at maktablari uchun “An’anaviy xonandalik” fanidan darslik. 274 bet.

КБК. 85.314(5ŷ)